


**TOSHKENT KIMYO-TEKNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI**



OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI

**TOSHKENT
KIMYO-TEKNOLOGIYA
INSTITUTI**

**“OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI
STANDARTLASHTIRISH ASOSLARI”**

moduli bo'yicha

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
OLIV TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI
TASHKIL ETISH BOSH ILMIV-METODIK MARKAZI

TOSHKENT KIMYO-TEKNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI STANDARTLASHTIRISH ASOSLARI

moduli bo'yicha

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Toshkent – 2022

Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchilar: **Q.A.Axundjanov**- Toshkent kimyo-texnologiya instituti “mahsulot sifati menejmenti” kafedra dotsenti, k.f.d.

Z.A.Akbarxo'jayev - Toshkent kimyo-texnologiya instituti “Mahsulot sifati menejmenti” kafedra dotsenti, k.f.d.

Taqrizchi: **Xorijiy ekspert: t.f.n., dos. Z.Ye.Yegorova** – BGTU (Belorussiya), “Fizik-kimyoviy usullar sertifikatlash” kafedra dotsenti

O'quv - uslubiy majmua Toshkent kimyo-texnologiya instituti Kengashining 2020 yil 30 dekabrda 4-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	5
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	133
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	221
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....	86
V. KEYSLAR BANKI.....	223
VI. GLOSSARIY	226
VII. FOYDALANILGAN ADABIYOT RO'YXATI.....	265

I. ISHCHI DASTUR

1. Kirish

Dastur oziq-ovqat sanoatida standartlashtirish, xom ashyo to'g'risidagi ma'lumot, texnik-kimyoviy nazorat va mahsulot sifatiga qo'yilgan talab, mahsulotning so'nggi bosqichda qadoqlash-o'rash va saqlashdagi eng zamonaviy yutuqlarni o'rganishga qaratilgan.

Dasturning asosiy maqsadi va vazifalari

Oliy ta'lim muasasalari pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarning o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada ta'minlashlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam yangilash, malaka talablari, o'quv reja va dasturlari asosida ularning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratini doimiy rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Oziq-ovqat texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishini «Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi» mutaxassisligi o'quv rejasida maxsus fanlar blokiga kiritilgan «Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalar» fani o'quv dasturining **maqsadi** – mutaxassislik fanlaridan dars beruvchi professor-o'qituvchilarni oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning progressiv innovatsion texnologiyalari, O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish zamonaviy korxonalari, zamonaviy istiqbolli import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarish texnologiyalari, uskunalari to'g'risida nazariy va kasbiy tayyorgarlikni ta'minlash va yangilash, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish asosida malaka oshirish jarayonlarini samarali tashkil etish va boshqarish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirishga qaratilgan.

«Oziq-ovqat mahsulotlarini standartlashtirish» fanining **vazifasi**:

- oziq-ovqat mahsulotlari standartlarini ishlab chiqarish va tahlil qilishi;
- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlashni bilishi;
- xom ashyolarni yetishtirishda o'simliklar himoyasi uchun qo'llaniladigan

kimyoviy moddalarning turlari, ularning xom ashyo va tayyor mahsulot sifatiga ta'sirini bilishi;

- korxonalariga xalqaro standartlarni joriy qilish;
- oziq-ovqat mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlarini aniqlash usullarini;
- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning texnik-kimyoviy nazorati;
- tayyor mahsulotlarni sifat ko'rsatkichlarini nazorat qilish tizimlarini;
- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning me'yoriy ta'minotini amalga oshira olishi kerak.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar:

«Oziq-ovqat mahsulotlarini standartlashtirish» fani bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi **bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga** ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda standartlardan foydalanish;
- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalariga xalqaro sifat tizimini joriy etish;
- Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarda qatnashuvchi xalqaro tashkilotlar va ularning vazifalari;
- Oziq-ovqat mahsulotlarini tekshirishning standart usullari
- Oziq-ovqat korxonalarida ishlatiladigan normativ texnik hujjatlarni **bilishi** kerak.
- sifatli oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning xalqaro standart talablarini o'rganish;
- oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini nazorat qilishda fizik-kimyoviy usullar, me'yoriy hujjatlar va qo'llaniladigan zamonaviy asbob-uskunalar bilan ishlash;
- Standartlashtirish milliy tizimi;
- ISO 9001 xalqaro standarti talablari;
- ISO 9001 sifat menejment tizimi tamoyillari;

- Integrallangan SMT va xavfsizlik menejment tizimlari;
- Standartlar loyihasini ishlab chiqish;
- Standart loyihasini tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.

- Sifat va xavfsizlik menejmenti tizimlarini birlashtirish masalalari
- Standart loyihasini tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish;
- O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish tizimlarining qonuniy asoslarini;

- texnik me'yoriy huquqiy hujjatlar (texnik reglamentlar, davlat standartlari, tashkilot standartlari)ning turlari va ularga qo'yilgan talablar; savdodagi texnik to'siqlar (STT) va sanitar hamda fitosanitar tadbirlar bo'yicha BST Kelishuvining asosiy qoidalarini;

- O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish tizimlarining elementlarini; standartlashtirishning asosiy usullari va ulardan mahsulotni yaratishdagi barcha bosqichlaridan foydalanishni;

- o'zaro almashinuvchanlikni ta'minlash tamoyillari va ularning turlari;
- Akkreditasiya tushunchasi, akkreditlash davlat tizimi;
- Akkreditlash tartibi va jarayonlari;
- Sertifikatlashtirish idoralarini OzDSt/ISO 16.10 asosida akkreditlash;
- Sinov laboratoriyalarini OzDSt/ISO 17025 asosida akkreditasiyadan o'tkazish *malakalariga* ega bo'lishi zarur.

- tashkilot va tarmoqlarda standartlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish bo'yicha ishlarning zamonaviy holatini tavsiflash va tahlil qilish;

- standartlashtirish usullarini amaliyotga qo'llash; texnikaviy me'yoriy hujjatlardan, mahsulotlarga majburiy talablarni o'rnatishda xorijiy mamlakatlarning yetakchi tashkilotlari standartlari, hududiy va xalqaro standartlardan samarali foydalanish;

- standartlashtirish usullari, qoidalari va normativ hujjatlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish, ekspertiza qilish; va ulardan foydalanish

- ma'lumotlar bazasini yaratish, asosiylarini tanlash va ularni nazorat qilish *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

MODULNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH BO'YICHA TAVSIYALAR

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan bog'liqligi va uzviyligi

«Oziq-ovqat mahsulotlarini standartlashtirish» fani qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishini «Oziq-ovqat xavfsizligi» mutaxassisligi bo'yicha kiritilgan «Oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligi», «Oziq-ovqat mahsulotlari identifikatsiyasi va soxtaligini aniqlash» fanlari bilan uzluksiz bog'liq bo'lib, ushbu fanlarni o'zlashtirishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. «Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalar» fanini to'liq o'zlashtirishda va amaliy vazifalarni bajarishda «Ta'limda multimedia tizimlari va masofaviy o'qitish metodlari», «Elektron pedagogika asoslari va pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini loyihalash» hamda «Amaliy xorijiy tilni o'rganishning intensiv usullari» fanlari yordam beradi.

Fanning oliy ta'limdagi o'rni

«Oziq-ovqat mahsulotlarini standartlashtirish» fani qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishini «Oziq-ovqat xavfsizligi» mutaxassisligi bo'yicha maxsus fanlardan dars beruvchi professor-o'qituvchilar uchun muhim o'rinni egallaydi. Ushbu fan oliy ta'lim muassasalarida tinglovchi va pedagoglar tomonidan o'quv-ilmij ishlarini olib borish uchun asosiy nazariy va amaliy bilimlarni beradi.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

№	Modul vazifasi	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat				
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi			
			Jami	jumladan,		
				nazariy	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot
1.	Standartlashtirish, standartlashtirish milliy tizimi	2	2	2		
2.	O'zbekiston Respublikasida standartlarning turlari va toifalari	2	2		2	
3.	Oziq-ovqat maxsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarda qatnashuvchi xalqaro tashkilotlar va ularning vazifalari	2	2	2		
4.	O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish milliy tizimi	2	2		2	
5.	Oziq-ovqat mahsulotlarini sifatini nazorat qilish	2	2	2		
6.	Oziq ovqat mahsulotlarini sertifikatlashtirish	2	2		2	
7.	Texnik jihatdan tartibga solishning qonuniy asoslari	2	2	2		
8.	Sifat menejmenti tizimini qo'llash	2	2		2	
9.	Standart loyihalarini tasdiqlash va Davlat ro'yxatidan o'tkazish	2	2		2	
10.	Texnik me'yoriy huquqiy hujjatlarni turlari va ularga qo'yilgan talablar	2	2		2	
11.	O'zbekiston Respublikasi akkreditlash davlat tizimi	2	2		2	
12.	Standartlashtirishning metodologik (uslubiy) asoslari	2	2			2
13.	Dunyodagi yetakchi davlatlarning standartlashtirish asoslaridan amaliyotda foydalanish	2	2			2
Jami:		26	26	8	14	4

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Standartlashtirish, standartlashtirish milliy tizimi.

Standartlashtirish. O'zbekistonda standartlashtirishning tarixiy jarayonlari, standartlashtirishning rivojlanish sabab va omillar. Standartlashtirish milliy tizimi. Standartlashtirish bo'yicha xizmatlar yo'naltirilgan jarayonlar, Standartlar va standartlashtirish tushunchasi.

2-mavzu. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarda qatnashuvchi xalqaro tashkilotlar va ularning vazifalari

ISO va uning faoliyatlari, Xalqaro elektrotexnika komissiyasi – ISO/IEC. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarda qatnashuvchi xalqaro tashkilotlar va ularning vazifalari. Sifat bo'yicha Yevropa tashkiloti (YeOK), Sinov laboratoriyalarining akkreditlash bo'yicha Xalqaro konferensiyasi (ILAK), Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha davlatlararo kengashi, Standartlashtirish bo'yicha Yevropa komiteti (CEN).

3-mavzu. Oziq-ovqat mahsulotlarini sifatini nazorat qilish

Oziq-ovqat mahsulotlariga qo'yiladigan standart talablar. Oziq-ovqat mahsulotlarini sifatini nazorat qilishda fizik kimyoviy usullar. Standartlarning sinflarga bulinishi. Oziq-ovqat korxonalarida ishlatiladigan normativ texnik hujjatlar.

4-mavzu. Texnik jihatdan tartibga solishning qonuniy asoslari

Texnik jihatdan tartibga solish tizimlarining qonuniy asoslari, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimining tuzilmasi Texnik reglamentlarda belgilanadigan xavfsizlik talablari. Texnik reglamenglarning mazmuni. Texnik reglamentlarni ishlab chiqish bo'yicha umumiy qoidalar.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg'ulot. O'zbekiston Respublikasida standartlarning turlari va toifalari

Standartlashtirishning asosiy tushuncha, maqsad va vazifalari, O'zbekiston Respublikasida standartlarning toifalari, Standartlarning turlari va toifalari,

2-amaliy mashg'ulot. O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish milliy tizimi.

Standartlashtirish milliy tizimi, Davlat standartlashtirish tizimi. Standartlashtirish bo'yicha davlat boshqaruvlari, Standartlashtirish bo'yicha bazaviy tashkilotlar. Korxonalarda va tashkilotlarda standartlashtirish xizmatlari

3- amaliy mashg'ulot. Oziq ovqat mahsulotlarini sertifikatlashtirish

Mahsulotni sertifikatlashtirish qoidalari. Umumiy qoidalar. Sertifikatlashtirishni o'tkazish tartibi. Sertifikatlashtirish sxemalari.

4- amaliy mashg'ulot. Sifat menejmenti tizimini qo'llash

ISO 9001 xalqaro standarti talablari, Xalqaro sifat tizimlarini joriy etish. ISO 9001 sifat menejment tizimi tamoyillari. Integrallangan SMT va ISO 22000 xavfsizlik menejment tizimlari. Sifat va xavfsizlik menejmenti tizimlarini birlashtirish masalalari.

5- amaliy mashg'ulot. Standart loyihalarini tasdiqlash va Davlat ro'yxatidan o'tkazish

O'z DSt 1.1-92 "O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi. Standartlar loyahasini ishlab chiqish va muhokama uchun tarqatish. O'zbekiston Respublikasining standartini ishlab chiqish, kelishib olish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi. Me'yoriy hujjatlarni tuzish, bayon qilish, mundarija va rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar

6- amaliy mashg'ulot Texnik me'yoriy huquqiy hujjatlarni turlari va ularga qo'yilgan talablar

Asosiy qoidalar. Standartlashtirish va me'yoriy hujjatlar. Davlatlararo standartlashtirish. Davlat standartlashtirish tizimida asos soluvchi me'yoriy hujjatlarning klassifikatsiyasi.

7 - amaliy mashg'ulot. O'zbekiston Respublikasi akkreditlash davlat tizimi

Akkreditatsiya tushunchasi. Akkreditatsiya tartibi va jarayonlari, sertifikatlashtirish idoralari O'zDSt/ISO 16.10 asosida akkreditlash, sinov laboratoriyalarini tashkilot va tarmoqlarda O'zDSt/ISO/ISO 17025 asosida akkreditlashdan o'tkazish.

Ko'chma mashg'ulot

8- amaliy mashg'ulot. Standartlashtirishning metodologik (uslubiy) asoslari.

Standartlashtirish usullari: simplifikatsiya, standartlashtirish obyektlarini tartiblashtirish, parametrik standartlashtirish, unifikatsiya, agregatlashtirish va tiplashtirish. Kompleks standartlashtirish. Ilgarilanma standartlashtirish.

9- amaliy mashg'ulot. Dunyodagi yetakchi davlatlarning standartlashtirish asoslaridan amaliyotda foydalanish

Me'yoriy hujjatlarni tuzish, bayon qilish, mundarija va rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar. Me'yoriy hujjatlarning (strukturasi) tuzilishiga talablar. Bayon qilishga talablar. Mazmuniga talablar. Dunyodagi yetakchi davlatlarning standartlashtirish asoslaridan amaliyotda foydalanish.

O'qitish metodlari

O'qitishni quyidagi usullarini rejada tutilgan:

- mini-ma’ruzalar va suhbatlar (tadqiqotni mujassamlashtirish, o’rganishga qiziqishni kuchaytirish);
- didaktik va rolli o’yinlar, baxs munozaralar (qoidalarga rioya qilishni o’rganish, hamkorlikni ta’minlash, logik xulosa qilishni shakllantirish);
- diskussiya va disputlar (fragment va dalillarni aniqlash, quloq solish va solishtirishni shakllantirish);
- trening elementlari (pozitiv munosabatni shakllantirish).

II. MODULNI O’QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

«FSMU» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o’zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg’ulotlarida, mustahkamlashda, o’tilgan mavzuni so’rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg’ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

-qatnashchilarga mavzuga oid bo’lgan yakuniy xulosa yoki g’oya taklif etiladi;

-har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog’ozlarni tarqatiladi:

F	• fikringizni bayon eting
S	• fikringizni bayoniga sabab ko`rsating
M	• ko`rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring
U	• fikringizni umumlashtiring

-ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o`zlashtirilishiga asos bo`ladi.

Namuna: “Sabzavot va meva marinadi” matnini yoritib bering?” savolini yo`naltiruvchi uslubiy tavsiyalar yordamida jadvalda javob berish

Yo`naltiruvchi uslubiy tavsiyalar:

Savol	Sabzavot va meva marinadi
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko`rsating	
(M) Ko`rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

“Sabzavot va meva marinadlari” mavzusiga “FSMU” texnologiyasini qo`llanilishi

F	-	(fikringizni bayon eting) Marinadli konservalar o`zga konservalardan farq qiladi.
---	---	--

S	- (fikringiz bayoniga sabab ko'rsating) Marinadli konservalar tayyolash texnologiyasi, sifati va saqlash muddati bilan ajralib turadi.
M	- (ko'rsatgan bayoningizni asoslovchi dalil ko'rsating) Marinadli eritma qo'shilib, pasterizasiyalangan so'ng saqlanish muddati ham o'zgaradi.
U	- (fikringizni umumlashtiring) Sabzavot va meva marinadlari tayyorlashda, boshqa konservalar tayyolashdagi texnologiyalaridan farqli o'laroq blanshirlanib, marinadli eritma yordamida pasterizasiyalangan holda tayyorlanadi.

“Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «study» – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: kim (Who), qachon (When), qayerda (Where), nima uchun (Why), qanday / qanaqa (How), nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	yakka tartibdagi audio-vizual ish; keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); axborotni umumlashtirish;

		axborot tahlili; muammolarni aniqlash
2-bosqich: aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	Keysni	individual va guruhda ishlash; muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	Keysdagi	individual va guruhda ishlash; muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: shakllantirish va asoslash, taqdimot.	Keys	yakka va guruhda ishlash; muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar

- keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda)
- Mobil ilovani ishga tushirish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juffliklardagi ish)

<p style="text-align: center;">TEST</p> <p>1. Organoleptik baholash usulining mohiyati</p> <p>A) degustatsion komissiya tomonidan berilgan baho</p> <p>B) DSt idorasi tomonidan berilgan baho</p> <p>V) Markaziy laboratoriya tomonidan berilgan baho</p> <p>G) Iste'molchilardan tashkil topgan komissiya tomonidan berilgan baho</p>	<p style="text-align: center;">MUAMMOLI VAZIYAT</p> <p>Mahsulotlarni sifatini aniqlashda tahlil uslublari:</p>
<p style="text-align: center;">SIMPTOM</p> <p style="text-align: center;">Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati</p> <p>– mahsulotning ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi.</p>	<p style="text-align: center;">AMALIY KO'NIKMA</p> <p>Oziq-ovqat mahsulotlari sifatini aniqlashga doir.</p>

“Insert” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod o'quvchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o'zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod o'quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya

etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“- ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo’lgan ma’lumotlar o’qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to’liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg’ulot yakunlanadi.

Venn diagrammasi metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o’qitishni tashkil etish shakli bo’lib, u ikkita o’zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko’rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko’rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o’ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralari ichiga yozib chiqish taklif etiladi;

- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to’rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o’z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;

- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

“Tushunchalar tahlili” metodining jadvali

Tushunchalar	Tushunchalar mazmuni
ISO 9001 Sifat menejmenti tizimi	
ISO 22001 Oziq ovqat xavfsizligi menejmenti tizimi	
ISO 14001 Ekologik menejmenti tizimi	
OHSAS 18001 Kasbiy xavfsizlik va mehnat muhofazasi sohasidagi menejmenti tizimi	
Integrirlangan menejment tizimlari	

“Tushunchalar tahlili” metodining dars jarayonida bajarilishi

Tushunchalar	Tushunchalar mazmuni
ISO 9001 Sifat menejmenti tizimi	Mahsulot yoki xizmatlarni sifatining baqarorligini ta'minlash va iste'molchi talablariga javob berish darajasini oshirish qaratilgan boshqaruv tizimi
ISO 22001 Oziq-ovqat xavfsizligi menejmenti tizimi	Oziq-ovqat mahsulotlarini xavfsizligini ta'minlash va iste'molchi xavfsizligini kafolatlovchi boshqaruv tizimi
ISO 14001 Ekologik	Mahsulotning birinchi bosqichidan iste'molchiga

menejmenti tizimi	qadar har bir qadamda atrof muhit ta'sirini xisobga olgan xolda ishlab chiqarishning barcha turlarida ishlab chiqarishni ta'minlaydigan boshqaruv tizimi
OHSAS 18001 Kasbiy xavfsizlik va mehnat muhofazasi sohasidagi menejmenti tizimi	Sog'liqni saqlash, mehnat xavfsizligini ta'minlash va atrof-muhit muhofazasi bo'yicha qoidalar va boshqa me'yoriy hujjatlar talablariga asoslangan holda amalga oshiriladigan boshqaruv tizimi
Integrirlangan menejment tizimlari	Barcha boshqaruv tizimlarni o'zaro birlashgan qonun qoidalari va talablari asosida yaratilgan umumlash menejment tizimi.

Klaster (g'uncha, bog'lam) usuli pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u talaba (o'quvchi)larga ixtiyoriy muammo (mavzular) xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur usul turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. "Klaster" usuli aniq obyektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu usul muayyan mavzuning talaba (o'quvchi)lar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Stil va stil g'oyasiga muvofiq ishlab chiqilgan "Klaster" usuli puxta o'ylangan strategiya bo'lib, undan talaba (o'quvchi)lar, bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Usul guruh asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlarda talaba (o'quvchi)lar tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmui tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni borish imkoniyatini yaratadi.

"Klaster" usulidan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya etish talab etiladi:

- Nimaniki o'ylagan bo'lsangiz shuni qog'ozga yozing, fikringizning sifati to'g'risida o'ylab o'tirmay, ularni shunchaki yozib boring;

- Yezuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e'tibor bermang;

- Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmaguncha, yozishdan to'xtamang. Agar ma'lum muddat biror bir g'oyani o'ylay olmasangiz, u holda qog'ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g'oya tug'ilgunga qadar davom ettiring;

- Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko'proq yangi g'oyalarni ilgari surish hamda mazkur g'oyalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik(bog'liqlikni)ni ko'rsatishga harakat qiling. G'oyalar yig'indisini sifati va ular o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatishni cheklamang.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-Mavzu: STANDARTLASHTIRISH, STANDARTLASHTIRISH MILLIY TIZIMI

Reja

- 1.1. Standartlar va standartlashtirish tushunchasi
- 1.2. O'zbekistonda standartlashtirishning tarixiy jarayonlari.
- 1.3. Standartlashtirishning rivojlanish sabab va omillar
- 1.4. Standartlashtirish milliy tizimi
- 1.5. Standartlashtirish bo'yicha xizmatlar yo'naltirilgan jarayonlar

1.1. Standartlar va standartlashtirish tushunchasi

Standartlashtirish bilan qadimdan insonlar shug'ullanib kelishgan. Buni eramizdan 6 ming yil oldin Misr va Shumerda yozish va sanoq paydo bo'lishi va bundagi belgilar, piktogrammalar va boshqa turli xil shakllarda va xatlarda ko'rishimiz mumkin. Bu esa o'sha davrlardagi standartlashtirishning yaqqol bir ko'rinishidir. Sonlarni vavilonliklar eramizdan oldingi 4000 yillarda kashf etishgan va foydalanishgan. O'nlik sanoq tizimi ham aynan shu Vavilon (Bobil) davlatida

yaratilgan. Nota yozuvlari ham qadimiy me'yorlashtirilgan til sifatida Gresiyada eramizdan oldin 200 yillarda paydo bo'lishi aytishimiz mumkin.

Xitoyda eramizdan oldingi 206-220 yillarda xaritalardagi shahar va qishloqlarning shartli belgilari bilan belgilanishi ham haqiqatdir.

Eramizdan oldingi 1700-1600 yillarda Feste saroyidagi disklar quymasini aynan bir xilligi ham standartning bir ko'rinishidir.

Xitoy imperatori Sin Shixuandi (taxminan 2200 yil oldin) soliqlarni yig'ishda og'irlik toshlari, o'lchovlar va tangalarning bir xillashtirgan. U iyerogliflarni birxillashtirib, kamon o'qlari va ularning bir xil uzunligini ta'minlagan.

Qadimiy Misrda taxminan bundan 7 ming yil oldin o'lchash san'ati mavjud bo'lgan., piramidalar qurilishida uzunligi uzunlik birlik qabul qilingan. Eramizdan oldingi XVIII asrda qirol Xammurapi standartlashtirilgan og'irlik va o'lchovlar to'g'risida qonun qabul qilgan.

Bunda og'irlik o'lchov toshi va o'lchovlarni keng qo'llash bilan birgalikda ularni qalbakilashtirishni ham oldini olish uchun hamma tomonlama qonuniy jazolar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'lchash hajmi amali me'yoriy-qonunlar bilan muvofiqlashtirilgan. Uzoq o'tmish tariximizdan ma'lumki, O'zbekistonda hozirgi kundagi tarixiy yodgorliklar ya'ni bino va inshootlarning qurilishida standartlashtirish faoliyati ham muhim o'rin tutib, o'sha paytdagi qurilish ashyolarini birxillashtirish ya'ni peshtoqladagi xandasaviy naqshlar, panjaralar va to'sinlar hamda poydevor va devorlardagi g'ishtlarning tarkibiy tuzilishi va o'lchamlarida standart andozalar qo'llanilganligi standartlashtirishdan foydalanganligining yorqin misolidir.

To'la qurol zavodida bir xil kalibr belgilangan. Rossiya Imperiyasining Pyotr I hukmronligi davrida XVII-XVIII asrlarda yaratilgan juda ko'p qurol aslaha elementlari aniq bir xil na'munalardan qilinishi belgilanib, hozirgi zamon standartlashtirilishining prototipi tarzida namoyon bo'lgan.

1785- yili Fransuz muhandisi Leblan 50 dona qurol – aslaha qulflarini yaratdi, ularning har biri boshqa qurol – aslahalar uchun qoʻshimcha ishlovsiz tushar edi, yaʼni oʻzaro almashinuvchan boʻlgan.

1846-yilda esa Germaniyada temir yoʻllar eni (koleyasi)ni va vagon ulash ilashmasining unifikatsiyasi (birxillashtirilishi) amalga oshirildi. 1869-yilda esa temir yoʻl relsi profili oʻlchamlari boʻyicha standart naʼmunalar toʻplami chiqdi.

1870 - yilda Yevropa ning bir qator mamlakatlarida “Standart” gʻishtlar ishlab chiqarila boshladi.

1891- yilda Angliyada, keyinchalik esa boshqa Yevropa mamlakatlarida standart, parametrlari maʼlum tartibga solingan burama (rezba)lar ishlab chiqarila boshlandi.

XIX asrning oxirlariga kelib Yevropa mamlakatlari, ayniqsa koʻp va mayda mamlakatlar asosida shakllangan Germaniyada standartlashgan deb atalishi mumkin boʻlgan mahsulotlar soni juda koʻpayib ketgan. Chunki katta bir mamlakat ichida kichik-kichik respublikalar mavjud boʻlib, hali umumlashgan talablar shakllanmagan, oʻlchovlar tasodifiy tanlangan edi. Masalan uzunlik, Genrix-II tirsakka teng oʻlcham «lokot» nomi bilan, buyuk Karl oyogʻi oʻlchamiga teng birlik «fut» nomi bilan yuritilgandi¹.

1790-yilda Fransiyada ilk bor uzunlik birligi sifatida «metr» yaratilib, u yer meridiani chorak uzunligining oʻn milliondan birini tashkil etdi. Oradan 85 yil oʻtgach, Parij konvensiyasida xalqaro oʻlchov va tarozilar mahkamasi uzunlik birligi sifatida «metr»ni qabul qildi. Bu voqeya ilmiy-texnik taraqqiyotning muhim hodisalaridan biri boʻldi².

¹ Henk J. de Vries Standardization: A Business Approach to the Role of National Standardization Organizations. Springer Science+Business Media, LLC, New York All Rights Reserved © 1999 Springer, 330 p.

² Dr. Peter Hatto Standards and Standardization. Handbook. EUROPEAN COMMISSION, Directorate-General for Research Industrial Technologies Pictures © Shutterstock, 2010, 24 p.

1.2. O'zbekistonda standartlashtirishning tarixiy jarayonlari

Markaziy Osiyo mamlakatlarining, xususan O'zbekistonda standartlashtirishning boshlanishi haqida aniq bir raqamli vaqt va makonni keltirish avvalgi bo'limning ba'zi bir holatlariga takror bo'lishi tabiiy. Alloma donishmandlarimizning tarixiy asarlariga nazar solsangiz bunga hech shubha qolmaydi. Qadimdan Eron va Turon zaminida ishlab chiqarish munosabatlari, jarayonlari savdo, iqtisodiy, ilmiy-texnik ishlari o'zaro yaqin va chambarchas holatda olib borilgan. Shu munosabat bilan Eron mutaffakiri Kaykovusning XI asrda yozilgan «Qobusnoma» asaridan bir parcha eslash kifoya: «Hozirgi men yashayotgan zamonda inson qo'l urgan har qanday ish bo'lmasin ularni tartibsiz qoldirib bo'lmas, har narsada tartibni anglash zarur». Har qanday sohada merosni (anana, odat, tarbiya) tartibli (standart) holatda qoldirilishini aniq tasdiqlagan Kaykovus vaqti kelganda ko'p ishga ulgurishni nazarda tutgan edi. Asarda sanat, haykaltaroshlik, musiqa va boshqa sohalarda inson faoliyati xulq atvoriga qo'yilgan talablar shu kunlarda ham o'z ifoda va mazmuniga ega. Qadimgi allomalarimiz asarlaridagi va ota-bobolarimizning «...yetti o'lchab, bir kes, ...o'ylamasdan so'zlama» kabi hikmatli o'gitlari standartlashtirish jarayonlarining elementlaridir.

Standartlashtirish elementlari Turon zaminidagi mamlakatlar, xususan O'zbekiston mintaqasida bunyod etilgan noyob arxitektura boyliklarida, standart g'ishtlarni rango-rang bezaklar bilan uyg'unlashgan o'lchovlarda qo'llanilishi insonni mahliyo qiladigan: Go'ri amir, Bibixonim, Paxlavon Mahmud, Xiva tashqi va ichki qalalari, Ulug'bek madrasasi, Kalon minorasi, Ko'kaldosh madrasasi va boshqalarda mujassamlashgan.

Markaziy Osiyo mamlakatlari va O'zbekistonda qadimdan: qadoq (400 g atrofida), chaksa (6 kg), pud (16 kg), botmon (160 kg) kabi massa birliklari; enlik (panja eni, 2 sm atrofida) so'yam (bosh barmoq va ko'rsatkich barmoq o'lchovi – 18 sm atrofida), qarich (bosh barmoq bilan chinchaloq barmoq o'lchovi-23 sm), qadam (ikki oyoqni yurishdagi o'rtacha oralig'i-0,75 m atrofida), quloch (ikki

qo'lning elka sathida cho'zilishdagi uzunlik-1,5 m atrofida), bir tosh (taxminan 0,75 km), bir chaqirim (taxminan 3 tosh) kabi uzunlik birliklari; tanob (100 m kv atrofida) sirt birliklari standart birliklar sifatida keng qo'llanilib kelingan. Kirpich so'zining-qirbich, kolbasaning – qo'lbos, utyug (dazmol)ning – o't yuk kabi protiplarining turkiy tilda mavjudligi, algebraning al-jabr, medisining – madadi sino kabi tushunchalar bilan uyg'unligi ham Markaziy Osiyo mamlakatlarida standartlashtirish obyekt va jarayonlari tarixining yetarlicha chuqur va mazmunlilikidan dalolat beradi. Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekistonda standartlashtirishning rasmiy bosqichi 1923 yil Toshkent shahrida «O'lchov va tarozilar mahkamasi Turkiston markazi tashkil» etilishdan boshlandi. Bu markazning Qo'qon, Samarkand, Ashxobod, Olma-Ota shaharlarida shahobchalari tuzildi.

1926-yilda O'zbekiston ishchi-dehqon inspeksiyasi xalq komissariati huzurida standartlashtirish mahkamasi bunyod etildi. U davrlarda standart uch xil turda tasdiqlanar edi: sinaladigan, tavsiya etiladigan, majburiy qo'llanadigan.

O'zbekistonda standartlashtirish ishlari Markazqo'm tasdiqlagan, sohalar tahliliga ko'ra tuzilgan yillik rejalar asosida olib borilar edi.

1932- yil mart oyida “O'zbekiston mintaqalarini 2 xil vaqt kamariga o'tkazish to'g'risida” Sovnarkom qarori qabul qilindi: 4-vaqt kamari (Moskva vaqtiga + 2 soat) va 5-vaqt kamari (Moskva vaqtiga +3 soat).

O'zbekistonda standartlashtirishning zamonaviy bosqichi 1973 yili O'zbekiston Respublikasi davlat Standart boshqarmasi (O'zdavstandart) tashkil etilgan

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, ya'ni 1992 yil mart oyidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston respublikasida standartlashtirish ishlarini tashkil qilish to'g'risida” gi 93-qarori qabul qilingandan buyon, standartlashtirishning yangi davri boshlandi.

1993-1998 va 2000-2003 yillarda O'zbekistonda standartlashtirishni jadallashtirish borasida bir qator o'ta muhim hukumat qarorlari chiqdi, muayyan chora-tadbirlar belgilandi. 2002 yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 342-qaroriga binoan “O’zdavstandart” – “O’zstandart” agentligi nomi bilan yangicha bosqichda faoliyat olib bormoqda. Standartlashtirishni rivojlantirishning xalqaro standartlashtirish jarayoni bilan uyg’unlashgan asosiy yo’nalishlari belgilanib, sohalar standartlari, me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va joriy etish bo’yicha vakolatli davlat muassasalari, nazorat qilish va kuzatib borish bo’yicha idora va tashkilotlar belgilandi.

1.3. Standartlashtirishning rivojlanish sabab va omillari

XX asrdagi umumtexnikaviy rivojlanish, shu jumladan qurollanish poygalari standartlashtirishni rivojlanishiga katta turtki bo’lgan.

Xususan, birinchi jahon urushi vaqtida va uning tugallanishidan keyin bir qator mamlakatlar: Gollandiya, Germaniya, Fransiya, Shvesiya Avstriya, Vengriya, Belgiya, Italiya, Yaponiya va boshqalarda standartlashtirish bo’yicha milliy tashkilotlar tuzilgan edi. Ikkinchi jahon urushidan keyin esa ya’ni, 1946 yilda Xalqaro standartlashtirish tashkiloti tuzilishiga asos solindi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida texnika taraqqiyotida jiddiy yutuqlarga erishildi, sanoat va ishlab chiqarishni yiriklashuvi vujudga keldi. Bu esa bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarda standartlashtirishga e’tiborni kuchaytirdi. Bu mamlakatlarning ba’zilarida milliy standartlashtirish tashkilotlari paydo bo’ldi.

Standartlashtirish qo’mitasi barpo bo’lgan mamlakatlar orasida Angliya birinchi bo’ldi. Qo’mitaning asosiy vazifasi Buyuk Britaniya imperiyasi iqtisodiy salohiyatini, ashyo-mahsulot, harbiy texnika va boshqa buyumlarga standartlar ishlab chiqish va uni joriy etish hisobiga amalga oshirishni ko’zlashdan iborat edi.

O’tgan asrning oxirlariga kelib standartlashtirish bo’yicha AQSh, Yaponiya va Yevropa mamlakatlari yetakchilikka erishdilar. Bu mamlakatlarda iqtisod jadal rivojlanib bordi va ular jahon bozorida mustahkam o’rnishib oldilar.

Shu tariqa jahon bozorida XXII asrning boshlariga kelib AQSh, Yaponiya va Yevropa mamlakatlari mahsulotlari erkin savdoda hukmronlik qila boshladi. Hozirgi kunda bularga buyuk Xitoy, Janubiy Koreya, Malayziya va Turkiya kabi bir qator rivojlanayotgan mamlakatlar ham qo’shib bormoqdalar.

Standartlashtirishning mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishi ularning xalqaro bozorda gegemonligini kuchaytirishga olib keldi. Hatto shu darajaga keldiki, sifatli mahsulot yaratgan ammo standartlashtirish bo'yicha yetakchi bo'lmagan mamlakatlar jahon bozoriga erkin yo'l topa olmay qoldilar.

1.4. Standartlashtirish milliy tizimi


Bu tadqiqot unda standartlarga muhtoj bo'lgan tashkilotlar va standartlashtirish xizmatlarini taklif qiladigan tashkilotlar bosh akterlar (harakat qatnashchilari) bo'lib hisoblanadigan jarayonga taalluqli bo'ladi. Keyingilariga rasmiy milliy standartlashtirish tashkilotlari tomonidan chegaralashlar qo'yiladi (hatto, xuddi NSOs ning qisqartirib yuborilganligi kabi). Bu tadqiqotning maqsadlari quyidagicha ifodalanishi mumkin:

1. Umuman standartlashtirish hodisasining tabiatini ko'proq ochib berish;
2. Milliy standartlashtirish tashkilotlarining rolini ko'proq ochib berish;
3. Standartlashtirishga muhtoj bo'lgan harakat qatnashchilariga amaliy yordam ko'rsatish uchun asoslarni shakllantirish;
4. Milliy standartlashtirish tashkilotlariga amaliy yordam ko'rsatish uchun asoslarni shakllantirish.

NSOs to'g'risida xulosalar qilish holatiga ega bo'lish uchun standartlarni rivojlantiradigan boshqa tashkilotlarni (SDOs) o'rganib chiqish zarur bo'ladi.

1.1 rasmda tasvirlangan sxema standartlashtirish bo'yicha xizmatlar ularga yo'naltirilgan jarayonlarni eng sodda ko'rinishda tasvirlaydi. Uning sodda bo'lishi uchun teskari bog'lanish tushirib qoldirilgan³.

³ Henk J. de Vries Standardization: A Business Approach to the Role of National Standardization Organizations. Springer Science+Business Media, LLC, New York All Rights Reserved © 2000 Springer, 330 p.



1- rasm. Standartlashtirish bo'yicha xizmatlar yo'naltirilgan jarayonlar.

Standartga muhtoj bo'lgan harakat qatnashchilari (aktyorlar) ko'pincha standartlashtirishni osonlashtiradigan SDO yoki NSO kabi uchinchi shaxsning xizmatlaridan foydalanadilar. Bu tadqiqotda javob beriladigan asosiy savollar quyidagilardir:

Milliy standartlashtirish tashkilotlari standartlashtirishni yengillashtirish uchun harakat qatnashchilariga qanday xizmatlarni taklif qilishi lozim?

Bu savolga bugungi kundagi amaldagi amaliyotni, harakat qatnashchilarini, ularning ehtiyojlari va istaklarini hisobga olgan holda javob berish lozim bo'ladi. Shu sababli unga quyidagi savollar qo'shimcha qilinishi mumkin:

Bu savollarga bitta ham javob bo'lmasligini ham kutish mumkin. Mamlakatda bozorning standartlashtirish xizmatlariga bo'lgan ehtiyoji, masalan, quyidagilarga bog'liq holda farq qilishi mumkin:

- mamlakatning o'lchami va iqtisodiy potentsiali;
- bosh savdo-sotiq tarmoqlari;
- biznes-madaniyat;
- siyosiy madaniyat;

- mamlakat rivojining umumiy darajasi.

Shu farqlar tufayli, garchi umumiy elementlarni kutish mumkin bo'lsada, umumiy javoblarni berib bo'lmaydi.

Mamlakatda amaldagi SDOs o'zlarining taklif qiladigan xizmatlari va o'zaro munosabatlari bilan NSOs dan, masalan, quyidagilar bo'yicha farq qiladi:

- o'lcham: 1 - 800 xodimlar;
- yuridik struktura: xususiy tashkilot yoki hukumat byurosi;
- mahsulot yoki xizmatlar portfeli: standartlarni ishlab chiqishning nisbiy ulushi, standartlarni sotishning nisbiy ulushi, informatsion xizmatlar va boshqa harakatlarning (agar mavjud bo'lsa) nisbiy ulushi.

Shu sababli 4 va 5 savollarga bir qiymatli javob berib bo'lmaydi, biroq umumiy elementlar qidirib ko'riladi.

1.5. Standartlar va standartlashtirish tushunchasi

Milliy standartlashtirish tashkilotlarining hammasi standartlashtirishning Standartlashtirish Gidi tomonidan o'rnatilgan rasmiy ta'riflanishiga ISO/IEC 2 (ISO/IEC, 1991) rozi bo'ladi.

Standartlashtirish amaldagi yoki potensial muammolarni, umum foydalanishi yoki takroriy foydalanish shart-sharoitlarini aniqlash faoliyatidir, uning maqsadi ushbu kontekstda buyurtmalarning optimal darajasiga erishishdan iborat bo'ladi⁴.

Eslatmalar:

1. Xususan bu faoliyat standartlarni ifodalash, nashr qilish va amalga oshirishdan iborat bo'ladi.

2. Mahsulotlar, jarayonlar va xizmatlarning mo'ljallangan maqsadlarga yaroqliligini yaxshilash, savdo-sotiqdagi to'siqlarning oldini olish va texnologik hamkorlikka ko'maklashish standartlashtirishning muhim foydasi bo'lib hisoblanadi.

⁴ Henk J. de Vries Standardization: A Business Approach to the Role of National Standardization Organizations. Springer Science+Business Media, LLC, New York All Rights Reserved © 2000 Springer, 330 p.

Biroq, bu ta'rif faqatgina rasmiy standartlashtirish tashkilotlari tomonidan (FSOs) standartlashtirishga tallashtirilgan bo'ladimi yoki tomonlarning umum foydalanishi yoki takroran foydalanishi shart-sharoitlari uchun ishlaydigan muassasalarga ham taalluqli bo'ladimi, shunisi tushunarsiz. Bundan tashqari, ta'rif yig'ilish uchun dizayn, standart dasturiy ta'minotni yoki qonunchilikni yaratish kabi odatda standartlashtirish tomonidan tan olinmaydigan voqe'liklarga ham taalluqli bo'ladi.

ISO/IEC ni ta'riflash uchun asosiy farqlar:

- standartlashtirishning iqtisodiy jihati: afzalliklarni yaratish va qatnashuvchi tomonlarning ehtiyojlarini muvozanatlash;

- muammolarning ular uchun yechimlar tanlangan turlarining xarakteristikalarini;

- yechimlarning xarakteristikasi: korxonalarining o'ziga xos xususiyatlarining cheklangan jamlanmasi.

Standartlashtirish va NSO xizmatlarini muhokama qilishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- standartlashtirish xarajatlari va uning foydasini e'tiborga olish bilan ehtiyojlarni muvozanatlash usuli,

- yechimlarni aniqlaydigan va yozadigan jarayonlar;

- muammolarga mos kelishning xarakteri;

- manfaatdor korxonalar;

- vaqt aspekti: ma'lum bir davr davomida foydalanish uchun bir martalik yechim, shundan keyin yangi standart amalga oshirilishi mumkin.

- standartlashtirishda qatnashadigan tomonlar;

- standartlashtirish natijasidan foydalanadigan tomonlar;

- bu natijalardan haqiqatan ham foydalanilishini kutish foydasiga argumentlar (asoslar).

Standartlar

Gid ISO/IEC 2 standartni quyidagicha ta'riflaydi:

Standart - umumiy kelishuv bo'yicha o'rnatilgan, umum tomonidan ma'qullangan va tan olingan, ushbu kontekstda buyurtmalarning optimal darajasiga erishish uchun qaratilgan harakatlar yoki natijalar uchun umum foydalanish yoki takroriy foydalanish uchun qoidalar, tavsiyalar yoki o'ziga xos xususiyatlarni ta'minlaydigan hujjatdir.

Bundan tashqari, standartlarga bo'lgan ehtiyoj hujjat formasiga (qog'ozda yoki elektron) shart emas. Standartlashtirishning yuqorida aytilgan ta'rifidan foydalanish bilan standartni quyidagicha ifodalash mumkin:

Standart – amaldagi yoki potensial muvofiqlik muammosining ularning ehtiyojlarini muvozanatlash bilan qatnashuvchi tomon yoki qatnashuvchi tomonlarning foydasiga ishlab chiqilgan, ma'lum bir davr davomida yechimlar ular uchun mo'ljallangan tomonlarning ko'p soni tomonidan ko'p marotaba va uzluksiz foydalanishi uchun mo'ljallangan va shundan umid qilish bilan, cheklangan yechimlar jamlanmasining ma'qullangan spesifikatsiyasidir.

Standartlashtirish arenasi

Standartlarga bo'lgan marshrutlar

1. Zaruriy standart aniqlangandan keyin birinchi savol bunday standart kompaniyadan tashqarida yoki kompaniyaning o'zida mavjudmi degan savoldan iborat bo'ladi. Bu savolga javob berish osonday bo'lib tuyuladi, biroq aslida bunday emas. Aksariyat kompaniyalarning siyosati hech qanday tashqi standart bo'lmaganda yoki tashqi standartlar mavjud bo'lgani holda – kompaniyaning ehtiyojlarini qanoatlantira olmagan taqdirda o'zlariing standartlarini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi. Tashqi standartlardan foydalanish quyidagi afzalliklarga ega:

- Bu g'ildirakni qayta qurish va shu bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning oldini oladi.
- Bu boshqa kompaniyalar bilan hamkorlik qilishda foydali bo'ladi, masalan, yetkazib beruvchilar u bilan allaqachon tanish bo'lishi mumkin.

- Kompaniya standartlarni boshqarish va ularga xizmat ko'rsatish to'g'risida qayg'urmasligi lozim: SDO boshqarish to'g'risida qayg'uradi va, umuman olganda, vaqti-vaqti bilan ularga xizmat ko'rsatish to'g'risida ham qayg'uradi.

2. Agar hech qanday qoniqarli standart bo'lmasa va yangisi ishlab chiqilishi zarur bo'lsa, boshqa tomonlar bilan hamkorlik qilish kerak yoki kerak emasligi masalasini hal qilish zarur bo'ladi. Standart boshqa manfaatlarga ega bo'lgan boshqa tomonlarga tegib o'tadigan bo'lsa, kompaniya bu manfaatlarni hisobga olishi lozim. U boshqalarni o'zi ko'rsatgan standartdan foydalanishga majbur qilishi mumkin bo'lgan vaziyat birdan-bir istisno bo'lishi mumkin. 60-yillarda IBM da ro'y bergan hodisa bunga misol bo'la oladi: periferiya asbob-uskunalarini ishlab chiqaruvchilar yoki "IBM korporatsiyasi" tomonidan o'rnatilgan texnik talablarga moslashishi yoki hech narsa sotmaslikni tanlashi lozim bo'lgan. Standart boshqa tomonlarga tegib o'tmaganda, biroq kompaniyaning muvofiqlik muammolari o'sha tomonlarnikiga o'xshash bo'lganda, hamkorlikni rivojlantirish hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi.

3. Kompaniya bo'yicha kompaniya standartlarining soni odatda tashqi standartlarning soniga qaraganda ko'p bo'ladi. Biroq ularni ko'pincha standartlar deb emas, masalan, jarayonlar, yo'riqnomalar yoki texnik shartlar deb atashadi.

4. Kompaniya standartni ishlab chiqish uchun hamkorlik qilishi kerak bo'lganda tug'iladigan birinchi savol kim bilan hamkorlik qilish kerak degan savol bo'ladi.

“Ulushlar” manfaatdor tomonlar o'rtasida aniqlab olinishi va baholanishi lozim. Mos keluvchi tomonlar va ularning mos keluvchi manfaatlari ma'lum bo'lganda, yoki hiech bo'lmaganda qisman ma'lum bo'lganda, turli tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni tekshirish boshqa harakat qatnashchilarining standartlashtirish masalasi bo'yicha holatini aniqlashdan boshlanadi. Boshqacha qilib aytganda, “standartlashtirish arenasi” SDOs ni identifikatsiyalashni va ularning xizmatlarini (agar bor bo'lsa) o'z ichiga olish bilan “kartaga kiritilishi” lozim.

Yuqorida aytilganlar asosida quyidagilarni baholashga urinib ko'rish mumkin:

- standartni yaratish uchun zarur bo'ladigan harakatlar;
- standartni haqiqatan ham yaratish mumkinligi imkoniyatlari;
- bu kompaniyaning ehtiyojlarini qay darajada qanoatlantira olishining kutiladigan darajasi (standart ko'pincha turli xil manfaatlarni aks ettiradigan kelishuv bo'ladi) va bu bilan bog'liq bo'lgan afzalliklar;
- agar mos keluvchi muammo hal qilinmasa, kutiladigan yo'qotishlar.

5. Standart ishlab chiqishga qaror qilingandan keyin keyingi masala kimni – barcha manfaatdor tomonlarnimi yoki faqatgina ulardan ba'zi birlarini jalb qilish kerakligi masalasi bo'ladi.

6. Har ikkala holatda ham SDO taklif qiladigan platformadan foydalanish yoki faqatgina tanlab olingan tomonlar bilan ish ko'rishni tanlash imkoniyati mavjud bo'ladi. Keyingi variantni tanlashni berilgan holat uchun amaldagi standartlashtirish, ya'ni SDO ning qo'llab-quvvatlashisiz standartlashtirish deb atash mumkin.

7. Hamma manfaatdor tomonlar rozi bo'lgan taqdirda FSOs yoki SDOs ni tanlash mumkin. FSOs NSOs ni o'z ichiga oladi. Xalqaro darajada yoki Yevropa darajasida FSOs da ishtirok etish umuman olganda faqatgina NSOs orqali mumkin bo'ladi. Boshqa SDOs lar tashkilotning bo'limlarini, sektorli SDOs ni, professional assotsiatsiyalar va sanoat konsorsiumlarini o'z ichiga oladi. Biroq ular ko'pincha manfaatdor tomonlarning barcha kategoriyalariga ishtirok etish imkonini bermaydi. Shu sababli harakat qatnashchisini tanlash, kimni taklif qilish SDO ni tanlashga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu tanlash shuningdek quyidagilarga ham bog'liq bo'ladi:

- standartlashtirish bo'yicha taklif qilingan xizmatlar portfeli;
- bu xizmatlarning o'ziga xos xususiyatlari;
- bu xizmatlarning unumdorligining bahosi/darajasi;
- SDO ning obro'si;
- standartlarning kutiladigan sifati.

Amaliyotda tanlash bu yerda taklif qilinganiga qaraganda anchagina murakkab, chunki harakatlarga to'siq bo'ladigan ko'pgina tashkilotlar mavjud, siyosiy qarashlar ham tanlovga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Kuchli ta'sirga ega bo'lish uchun ko'pincha xuddi o'sha mavzuni muhokama qilayotgan bir nechta komitetlarga qo'shilish zarur bo'ladi.

8. Qanday platforma tanlanishidan qat'iy nazar, standartlashtirish har doim quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mos keluvchi muammo uchun yechimlarni loyihalash;
- bu yechimlar asosida qaror qabul qilish;
- yechimlarni yozish;
- manfaatdor tomonlarga ma'lum qilinadigan standartlarni yaratish;
- standartlarni tarqatish.

Nazorat savollari:

1. Eramizdan oldingi standartlashtirish
2. Standartlashtirish ilk bosqichlari
3. O'zbekistonda standartlashtirishning tarixiy jarayonlari
4. Standartlashtirishning rivojlanishi
5. Standartlashtirish bo'yicha xizmatlar yo'naltirilgan jarayonlar
6. Standartlashtirish tushunchasi

Nazorat topshiriqlari

1	“Metr” uzunlik o'lchovi qachon nima asosida qabul qilingan	1790-yilda Fransiyada ilk bor uzunlik birligi sifatida «metr» yaratilib, u yer meridiani chorak uzunligining o'n milliondan birini tashkil etdi. Oradan 85 yil o'tgach, Parij konvensiyasida xalqaro o'lchov va tarozilar mahkamasi uzunlik birligi sifatida «metr»ni qabul qildi.
2	Qo'qon, Samarqand,	«O'lchov va tarozilar mahkamasi Turkiston

	Ashxobod, Olma-Ota shaharlarida o'lchov va tarozilar bo'yicha tashkilot qachon tashkil etilgan	markazi tashkil» etilishdan boshlandi.
3	O'zbekistonda standartlashtirishning yangi davri qaysi qaror bilan va qachon boshlandi	O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, ya'ni 1992 yil mart oyidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish ishlarini tashkil qilish to'g'risida" gi 93-qarori qabul qilingandan buyon, standartlashtirishning yangi davri boshlandi
4	Gid ISO/IEC 2 standartni quyidagicha ta'riflaydi:	Standart - umumiy kelishuv bo'yicha o'rnatilgan, umum tomonidan ma'qullangan va tan olingan, ushbu kontekstda buyurtmalarning optimal darajasiga erishish uchun qaratilgan harakatlar yoki natijalar uchun umum foydalanish yoki takroriy foydalanish uchun qoidalar, tavsiyalar yoki o'ziga xos xususiyatlarni ta'minlaydigan hujjatdir.

Adabiyotlar:

1. Henk J. de Vries Standardization: A Business Approach to the Role of National Standardization Organizations. Springer Science+Business Media, LLC, New York All Rights Reserved © 2000 Springer, 330 p.

2. Dr. Peter Hatto Standards and Standardization. Handbook. EUROPEAN COMMISSION, Directorate-General for Research Industrial Technologies Pictures © Shutterstock, 2010, 24 p.

3. Role of standards. A guide for small and medium-sized enterprises. Working paper. United nations industrial development organization, Vienna, 2006, 56 p.

4. Abduvaliyev A.A., Latipov V.B., Umarov A.S., Alimov M.N., Boyko S.R., Xakimov O.Sh., Xvan V.I. Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifat. O'quv qo'llanma. Toshkent, SMSITI, 2008. – 267 b.

5. Ismatullayev P.R., Matyakubova P.M., Turayev Sh.A. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. Darslik. «Lisson-Press». Toshkent, 2015. - 423 b.

Axborot manbalari:

6. www.ima.uz

7. vtww.academy.uz

8. www.standart.uz

9. www.smsiti.uz

10. www.uza.uz.

2-Mavzu: Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarda qatnashuvchi xalqaro tashkilotlar va ularning vazifalari

Reja:

2.1. Xalqaro standartlashtirish tashkiloti - ISO va uning faoliyatlari.

2.2. Xalqaro elektrotexnika komissiyasi – ISO/IEC.

2.3. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarda qatnashuvchi xalqaro tashkilotlar va ularning vazifalari.

2.4. Standartlashtirish bo'yicha Yevropa komiteti (CEN).

2.1. Xalqaro standartlashtirish tashkiloti - ISO va uning faoliyatlari

Birinchi standartlashtirish milliy tashkiloti - Britaniya Assotsiatsiyasi (British Engineering Standards Association) 1901 yilda tashkil etilgan bo'lib, biroz keyinroq, birinchi jahon urushi davrida Daniya byurosi, Germaniya qo'mitasi (1918 y.), Amerika qo'mitasi (1918 y.) va boshqalar tashkil topdi.

Standartlashtirish sohasidagi ishlar xalqaro markaz kerakligini taqazo qildi. Shu maqsadda 1926 yili standartlashtirish bo'yicha milliy tashkilotlarning Xalqaro Assosiasiyasi (ISA) paydo bo'ldi. ISA ning tarkibiga 20 mamlakat vakillari kirdi.

1938 yili Berlin shahrida standartlashtirish bo'yicha Xalqaro syezd ochildi. Uning tarkibi turli texnika sohalari bo'yicha 32 ta qo'mita va kichik qo'mitalardan tashkil topdi. 1939 yili boshlangan ikkinchi jahon urushi ISA ning faoliyatini to'xtatib qo'ydi⁵.

Hozirgi Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (International Standards Organization) 1946-1947 yillari tashkil topdi, uni qisqacha ISO deb yuritiladi. Bu nufuzli tashkilot Birlashgan Millatlar Bosh Assambleyasi tarkibida faoliyat ko'rsatib, rivoj topmoqda.

ISO ning tuzilishidan ko'zda tutilgan asosiy maqsad - xalqaro miqyosdagi mol almashinuvida va o'zaro yordamni yengillashtirish uchun dunyo ko'lamida standartlashtirishni rivojlantirishga ko'maklashish hamda aqliy, ilmiy, texnikaviy va iqtisodiy faoliyatlar sohasida hamdo'stlikni rivojlantirishdir.

Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun:

- dunyo ko'lamida standartlarni va ular bilan bog'liq bo'lgan sohalarda uyg'unlashtirishni yengillashtirish uchun choralar ko'rish;
- xalqaro standartlarni ishlab chiqish va chop etish (agar har bir standart uchun uning faol tashkiliy va kichik qo'mitalarining ikkidan uch qismi ma'qullab

⁵ Henk J. de Vries Standardization: A Business Approach to the Role of National Standardization Organizations. Springer Science+Business Media, LLC, New York All Rights Reserved © 2000 Springer, 330 p.

ovoz bersa va umumiy ovoz beruvchilarning to'rtidan uch qismi yoqlab chiqsa, standart ma'qullanishi mumkin);

- o'z qo'mita a'zolarining va texnikaviy qo'mitalarning ishlari haqida axborotlar almashinuvini tashkil qilish;

- sohaviy masalalar bo'yicha manfaatdor bo'lgan boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish ko'zda tutiladi.

ISO rahbar va ishchi qo'mita idoralaridan tashkil topgan. Rahbar idoralari tarkibiga Kengashning yuqori idorasi - Bosh Assambleya, Kengash, ijroiya byurosi, texnikaviy byuro, kengashning texnikaviy qo'mitalari va markaziy sekretariati kiradi.

ISO da prezident, vise-prezident, g'aznachi va bosh sekretar lavozimlari mavjud. Bosh Assambleya - ISO ning Oliy Rahbari bo'lib, ISO ning yig'ilishi uch yilda bir marta bo'ladi. Uning sessiyasida prezident uch yil muddat bilan saylanadi.

Bosh Assambleya o'tkazish vaqtida sanoat sohasida yetakchi mutaxassislar ishtirokida xalqaro standartlashtirishning muhim muammolari va yo'nalishlari muhokama qilinadi.

ISO kengashi yiliga bir marta o'tkazilib, unda tashkilotning faoliyati, xususan, texnikaviy idoralarning tuzilishi xalqaro standartlarning chop etilishi, kengash idoralarining a'zolarini hamda texnikaviy qo'mitalarning raislarini tayinlaydi va boshqa masalalar ko'riladi.

ISO tarkibi ikkita tashkilot tashkil etadi, ya'ni ISA va 1944 yilda asos solingan, BMT qoshidagi standartlarni muvofiqlashtirish qo'mitasi – UNSCC, uning shtab-kvartirasi Londonda joylashgan. ISO ni yaratishdan maqsad – "... xalqaro miqyosda sanoat standartlarini unifikatsiyalashtirish va muvofiqlashtirishni yengillashtirish...". Hozirgi kunda 150 ta mamlakat ISO tashkilotining a'zosi hisoblanadi.

ISO xalqaro nohukumat tashkilotidir. ISO rasmiy tili rus, ingliz va fransuz tillari deb tan olingan. Tashkilotning byudjeti yillik a'zolik to'lovlaridan va ISO nashrlaridan olingan foydalardan tarkib topgan.

ISO ning qonunchilik idorasi Bosh assambleyasi bo'lib, har uch yilda bir marotaba yig'iladi.

Bosh assambleyaning sessiyalar orasida ISO rahbariyati prezident boshchiligida Kengash o'tkazadi. ISO Kengashini ISO ning bosh direktori boshchiligida Ijro qo'mitasi va Markaziy kotibiat orqali faoliyatni amalga oshiradi⁶.

ISO ning asosiy qo'mitalari bo'lib, standartlashtirish bo'yicha ilmiy-texnik axborotlar tamoyilini o'rganish bo'yicha doimiy qo'mita – INFCO, Mahsulotlarni attestasiyalash bo'yicha qo'mita – SERTICO, rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam ko'rsatish bo'yicha qo'mita – DEVCO hisoblanadi.

ISO ning eng muhim idorasi bo'lib standartlashtirish tamoyillarini ilmiy o'rganish bo'yicha doimiy qo'mita (The Standing Committee for Study of Scientific Principles of Standardization) hisoblanadi. Uni qisqartigan holda ISO/STAKO yoki oddiygina STAKO (STACO) deb nomlanadi.

ISO ning asosiy vazifasi maxsus tashkil etilgan texnik qo'mitalar (ISO/TK) va qo'mita osti qo'mitalari (ISO/TK/PK) xalqaro standartlarni ishlab chiqishni bajaradi.

1994 yilga kelib, ISO tarkibiga 100 ta milliy tashkilotlar, jumladan, ular qatoriga MDH mamlakatlari ham a'zo bo'ldi.

ISO ning eng muhim yo'nalishlari bo'lib sifat, axborot texnologiyalari, xalqaro standartlar bilan ishlovchi boshqa kooperasiyalar, atrof-muhit, ta'lim yo'nalishlari hisoblanadi.

ISO quyidagi hujjatlarni nashr etadi:

- harfli indeksi va sonli raqami mavjud bo'lgan xalqaro standartlarini (masalan, ISO 1000);
- guruhli mavzulari va qo'llanish sohasi bo'yicha joylashtirilgan xalqaro standartlarning yillik katalogini (ISO Catalogue);

⁶ Role of standards. A guide for small and medium-sized enterprises. Working paper. United nations industrial development organization, Vienna, 2006, 56 p.

- ISO tuzilmasi va uning har bir texnikaviy qo'mitasining faoliyat sohasi haqidagi axborotlardan tarib topgan yillik ma'lumot (spravochnik) larni (ISO Memento).

ISO a'zolari yoki muxbir-a'zolari mamlakatda standartlashtirishning rivojlantirish darajasiga aloqadorligidan kelib chiqib, standartlashtirish bo'yicha milliy standartlashtirish tashkiloti bo'lishi mumkin. ISO tarkibiga kirish to'g'risidagi takliflar ISO markaziy kotibiatiga jo'natiladi (Shveysariya, Jeneva shahri).

1972 yilgacha standartlashtirish bo'yicha ISO hujjatlariga tavsiya sifatida qaralgan. Hozirgi vaqtda bunday hujjatlar ISOga a'zo-mamlakatlarning barchasi uchun xalqaro standartlar mavqeyiga ega.

Hozirgi paytda ISO turistik, mehmonxona, moliyaviy, sug'urtalash xizmatlarni, xo'jalik texnikalarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar va kadrlarni tayyorlash va ta'lim bo'yicha xizmatlarni standartlashtirish bo'yicha keng miqyosdagi ishlarni rivojlantirmoqda.

ISO 1995 yilda Internetda o'zining Welcome to ISO Online <http://www.iso.ch> nomli sahifasini ochdi.

ISO tashkilotining tashkiliy tuzilmasi 2.1-rasmda keltirilgan. Bosh boshqaruvi organi General assambleya bo'lib hisoblanadi. General assambleya sessilari o'rtasidagi vaqtda tashkiliy ishlarni standartlashtirish bo'yicha milliy tashkilotlari vakillari kiruvchi ISO Kengashi boshqaradi.


ISO Kengashiga yettita STACO, PLACO, CASCO, DEVCO, COPOLCO va REMCO qo'mitalari bo'yiso'nadi.

STACO ISO Kengashiga xalqaro standartlarni ishlab chiqish usuli va prinsiplari bo'yicha uslubiy va axborot yordam ko'rsatadi.

U asos soluvchi standartlashtirish prinsiplarini o'rganish va ushbu sohadagi optimal natijalarga erishish bo'yicha tavsiyalarni tayyorlaydi. STACO savdoni rivojlantirish uchun xalqaro standartlarni qo'llash bo'yicha terminologik va seminarlarni tashkillashtirish bilan ham shug'ullanadi. PLACO tomonlarning

ishlarini tashkillashtirish va texnikaviy muvofiqlashtirish, ISOning ishlarini rejalashtirish bo'yicha tavsiyalarni tayyorlaydi.

CASCO mahsulotlar, xizmatlar, jarayonlar va sifat tizimi standartlari talablariga muvofiqlikni tasdiqlash, sinov laboratoriyalarini layoqatliligi va sertifikatlashtirish idorlariga tegishli masallar bilan shug'ullanadi. CASCONing eng muhim ishi – milliy va hududiy sertifikatlashtirishlarni qabul qilish va o'zaro tan olish, hamda muvofiqlikni tasdiqlash va sinash sohalarida xalqaro standartlardan foydalanishga ko'makashadi.



2.1-rasm. ISO tashkilotining tashkiliy tuzilmasi

DEVCO standartlashtirish sohasida rivojlanayotgan mamlakatlar takliflari o'rganadi va ushbu sohada bu mamlakatlarga ko'maklashish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqadi.

COPOLCO iste'molchilar qiziqishlarini va standartlashtirish orqali ko'maklashish imkoniyatlarni ta'minlash masalalarini o'rganadi hamda xalqaro standartlar to'g'risidagi zaruriy ma'lumotlarni ularga yetkazish bilan shug'ullanadi. Bunda uni nashr etayotgan: "Iste'mol mahsulotlarini solishtirish sinovlari", "Iste'molchilar uchun mahsulotlar to'g'risida axborotlar", "Iste'mol mahsulotlarini ekspluatatsiya qilish tavsiflarini o'lchash usullari standartlarini ishlab chiqish" va boshqa qo'llanmalarini eng katta o'rin tutadi.

REMCO standart namunalar (etalonlar)ga taalluqli masalalarbo'yicha qo'llanmalarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari REMCO xalqaro metrologiya tashkilotlari, xususan, MOZM – xalqaro qonunlashtiruvchi metrologiya tashkiloti bilan standart namunalar bo'yicha ISO ning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi bo'lib hisoblanadi.

Xalqaro standartlarning loyihalarini texnikaviy qo'mitalar ishlab chiqishadi. Texnikaviy qo'mitalar (TQ) muayyan texnika sohasida ishlovchi umumtexnik va qo'mitalarga bo'linadi. TQ doirasida qo'mita osti qo'mitalari (QQ) va ishchi ruhlar (IG) ishlashadi.

ISO ning: xalqaro o'lchash birliklarini ishlab chiqishi; rezbalarining metrik tizimini qabul qilishi; barcha turdagi transportlarda yuklani tashish uchun konteynerlarning standart o'lchamlari va konstruksiyasi tizimini qabul qilishi muhim ahamiyatga ega bo'lgan yutuqlarga erishgan. Hozirgi paytda juda muhim bo'lgan, ISO 9000 seriyali standartlarni ishlab chiqish TQ 176 "Sifatni ta'minlash tizimlari" qo'mitasining ishi ekanligi bilan dolzarb hisoblanadi.

ISO xalqaro standartlari majburiy bo'lib hisoblanmaydi, biroq, har bir davlat ularni to'liq qabul qilmasligi yoki umuman qabul qilmaslik huquqiga ega. Ammo, o'zining mahsulotlarini xalqaro bozorda raqobatbardoshligini ta'minlash uchun bu standartlarni qabul qilishga o'z-o'zidan majburdir. Shuning uchun bir qacha

davlatlar standartlashtirish obyektlariga o'zining milliy standartlarini yaratmasdan mavjud bo'lgan mos standartlarni qo'llashga intilishadi.

2.2. Xalqaro elektrotexnika komissiyasi – ISO/IEC

Elektrotexnika sohasida xalqaro hamkorlik bo'yicha ishlar 1881 – yilda boshlangan. Bunda Elektr bo'yicha birinchi xalqaro kongress tuzildi. 1904 – yilda Sent-Luisda (AQSh) hukumat vakillarining Elektr bo'yicha xalqaro kongressi majlisida elektr mashinalar atamalarini va parametrlarini standartlashtirish masalalari bilan shug'ullanuvchi maxsus idora tuzish zarurligi to'g'risida qaror qabul qilindi.

Bunday idora – Xalqaro elektrotexnik komissiya (IEC) rasmiy ravishda 1906 – yilda Londonda 13 mamlakat vakillarining konferensiyasida tuzildi.

1946 – yilda ISO tuzildi va unga IEC o'zining moliyaviy va tashkiliy masalalarda mustaqilligini saqlagan holda alohida huquqlar bilan qo'shildi.

Bu tashkilotlarning sekretariatlari hududiy jihatdan bir binoda Jenevada joylashgan.

ISO va IEC ning faoliyat sohalari aniq chegaralangan – IEC elektrotexnika, elektronika, radioaloqa, priborsozlik sohasida, ISO esa qolgan barcha sohalarda standartlashtirish bilan shug'ullanadi.

Mamlakatlar o'zlarining milliy qo'mitalari bilan IEC da qatnashadi. Milliy qo'mitalar sanoatning barcha sohalari manfaatlarini ifodalaydi. Ko'pchilik mamlakatlarda bunday milliy tashkilotlar qatnashadi. Bu bilan bir qatorda ba'zi mamlakatlarning IEC da qatnashuvchi milliy qo'mitalar standartlashtirish bo'yicha milliy tashkilotlardan mustaqil ravishda faoliyat yuritadi (masalan, bunday mamlakatlarga Fransiya, GFR, Italiya, Belgiya va b. kiradi).

Xozirgi vaqtda 41 milliy qo'mita IEC a'zosidir. Bu mamlakatlarda jahonda ishlab chiqariladigan elektr energiyaning 95 % ni iste'mol qiluvchi yer sharining 80 % aholisi yashaydi. Bular asosan sanoati rivojlangan mamlakatlar. Shuningdek

sanoat tarmoqlariga ega bo'lgan rivojlanib kelayotgan qator mamlakatlardan iborat. IEC ning rasmiy tili – inglizcha, fransuzcha va ruscha.


IEC ning asosiy vazifasi yuqorida nomi keltirilgan sohalarda Xalqaro standartlarni yaratishdan iborat.

IEC ning oliy rahbar idorasi Kengash bo'lib, bunda mamlakatlarning barcha milliy qo'mitalari qatnashadi. Saylanuvchi lavozimli shaxslarga prezident uch yillik muhlatga saylanadi, viseprezident, g'aznachi va bosh sekretar kiradi.

IEC texnik idoralarining tuzilmasi ISO dagi kabi: texnik qo'mitalar (TQ), kichik qo'mitalar (KQ) va ishchi guruhlar (IG) dan iborat. Umuman, IEC da 80 dan ortiq TQ bor bo'lib, bularning bir qismi xalqaro umumtexnik va tarmoqlararo xarakterdagi standartlarni (masalan, atamalar bo'yicha, grafik tasvirlar, standart kuchlanishlar va chastotalar, iqlim sinovlari va b.), boshqa qismi esa, mahsulotning muayyan turlari uchun (tarnsformatorlar, elektron texnika buyumlari, maishiy radioelektron apparatlari va b.) standartlarni ishlab chiqadi.

IEC standartlarini yaratish protsedurasi uning Ustavi, jarayon qoidalari va texnik ishlar bo'yicha Umumiy direktivalar tomonidan belgilanadi. Har 1-1,5 yilda TQ (KQ) majlislarda o'z ishlarining dasturlarini tuzadi (yoki to'g'rilaydi). Har yili IEC dasturiga 500 gacha va bundan ham ortiq yangi, xalqaro standartlarni yaratishni ko'zda tutuvchi mavzular kiritiladi. IEC/ISO ishlab chiqqan va 1990 yil 1 fevraldan amalga kiritilgan Direktivalarga muvofiq amaldagi standartni qayta ko'rib chiqish yangi mavzuni ishlab chiqish kabi qaraladi.

ISO kabi, 1972 yilda IEC o'z tavsiyanomalarini xalqaro standartlar deb nomladi.



2.2-rasm. IEC xalqaro tashkilotining tashkiliy tuzilmasi

Xozirgi vaqtda 2 mingdan ortiq xalqaro IEC standartlari yaratilgan, bunda IEC standartlari o'zlarida mahsulotga va mahsulotni sinash metodlariga texnik talablarning mavjudligi nuqtai nazardan ISO standartlariga nisbatan ancha to'liq tuzilgan bo'ladi. Buni, bir tomondan, IEC ning faoliyat sohasiga kirgan mahsulotga talablarda xavfsizlikka oid talablar asosiy hisoblanishi bilan tushuntirish mumkin, boshqa tomondan esa, ko'p o'n yilliklar davomida to'plangan ish tajribasi standartlashtirish masalalarini ancha to'liq hal qilishga imkon beradi.

2.3. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarda qatnashuvchi xalqaro tashkilotlar va ularning vazifalari.

Xalqaro miqyosda metrologiya sohasida qonunlashtiruvchi xalqaro tashkilot ham mavjuddir. Uni qisqartirilgan holda MOZM (Международная организация законодательной метрологии) deb ataladi. Bu tashkilotning asosiy maqsadi -

davlat metrologik xizmatlarni va boshqa milliy muassasalarning faoliyatlarini xalqaro miqyosda muvofiqlashtirishdir.

MOZM faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

-MOZMga a'zo bo'lgan mamlakatlar uchun o'lchash vositalarining uslubiy me'yoriy metrologik tavsiflarining birligini belgilash;

-qiyoslash uskunalari, solishtirish usullarini, etalonlarni tekshirish va attestatlashini, namunaviy va ishchi o'lchash asboblarini uyg'unlashtirish;

-xalqaro ko'lamda birxillashtirilgan o'lchash birliklarini mamlakatlarda qo'llanishini ta'minlash;

-metrologik xizmatlarning eng qulay shakllarini ishlab chiqish va ularni joriy etish bo'yicha davlat ko'rsatmalarining birliligini ta'minlash;

-rivojlanayotgan mamlakatlarda metrologik ishlarni ta'min etish va ularni zarur texnik vositalari bilan ta'minlashda ilmiy-texnikaviy yordamlashish;

-metrologiya sohasida turli darajalarda kadrlar tayyorlashning yagona qonun-qoidalarini belgilash.

MOZMning Oliy rahbar idorasi metrologiyadan qonun chiqaruvchi Xalqaro konferensiyasi hisoblanib, u har to'rt yilda bir marta chaqiriladi. Konferensiya tashkilotning maqsad va vazifalarini belgilaydi, ishchi idoralarining ma'ruzalarini tasdiqlaydi, byudjet masalalarini muhokama qiladi.

MOZMning rasmiy tili - fransuz tilidir.

2.4. Sifat bo'yicha Yevropa tashkiloti (YeOK)

Sifatni nazorat qilish Yevropa tashkiloti YeOKK (Европейская организация по контролю качества), uning birinchi konferensiyasi 1957 yilda chaqirilgan va uning nizomi ham tasdiqlandi.

Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha davlatlararo kengashi

Milliy idoralarning faoliyatini muvofiqlashtirish, savdoda texnik to'siqlarni bartaraf etish uchun 1992 – yilda MDH mamlakatlarining (Boltiq bo'yi mamlakatlaridan tashqari) standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha Davlatlararo kengashi (DAK) tuzildi.

MDH mamlakatlari hukumatlarining boshliqlari 13 mart 1992 –yilda standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasida kelishilgan siyosatni olib borish to'g'risida Bitimga imzo chekdi.

Bu pamkorlik davlatlarining standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idoralarning imkoniyatlarini va boyliklarini birlashtirishga, ilgari to'plangan tajribalar va me'yoriy hujjatlardan birgalikda foydalanish va ularni takomillashtirishga, shuningdek faoliyatning bu sohalarida

yagona texnik siyosatni amalga oshirishga imkon berdi. DAK ning standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi idora sifatida ishlari MDH da quyidagilarni ta'minlashga qaratilgan:

- yagona me'yoriy baza – davlatlararo standartlar, tasniflagichlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni qo'llanish va rivojlantirish;
- yagona etalon baza va o'lchashlar birliligini ta'minlash tizimlarini shu jumladan, vaqt va chastotalar, moddalar va materiallarning tarkibi va xossalari o'g'oid standart ma'lumotnoma ma'lumotlari davlatlararo xizmatlarini shakllantirish;
- mahsulot va xizmatlarni sinash va sertifikatlashtirish natijalarini o'zaro tan olish.

DAK ning texnik siyosati a'zo-davlatlarning standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idoralari, ilmiy-texnikaviy komissiyalari (ishchi guruhlari) va standartlashtirish bo'yicha davlatlararo TQ tomonidan shakllantiriladi.

DAK faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-texnikaviy komissiyalar yoki ishchi guruhlar, vaqt va chastotaning bir xil o'lchanishini ta'minlash bo'yicha hamkorlik to'g'risida hukumatlararo Bitimni bajarish bo'yicha vakolatli vakillarining Kengashi, shuningdek standartlashtirish bo'yicha 230 dan ortiq davlatlararo TQ doimiy ishlamoqda. Xozirgi vaqtda Kengashning ishchi idorasi Minskda joylashgan standartlashtirish bo'yicha Byurodan iborat. Kengashni rotasiya asosida DAK a'zo-mamlakatlarning standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idoralarning rahbarlari boshqaradi.

Kengash davlatlararo standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasida qator hukumatlararo bitimlarni tayyorladi va bular MDH mamlakatlari hukumat boshliqlarining majlislarida qabul qilingan. Bunday bitimlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasida kelishilgan siyosatni o'tkazish to'g'risida Bitim (13.06.1992, Moskva);
- Vaqt va chastotani o'lchash bixilligini ta'minlash bo'yicha hamkorlik to'g'risida Bitim (09.10.1992, Bishkek);
- Qiyoslash va metrologik attestatlash maqsadida chegaradan olib o'tiladigan me'yoriy hujjatlar, etalonlar, o'lchash vositalari va standart namunalarni olib o'tishga bojxona to'lovlari, soliqlardan va maxsus ruxsatnomalarni berishdan ozod qilish to'g'risida Bitim (10.02.1995, Almati);
- O'zaro yetkazib beriladigan mahsulotga mehnat muhofazasi bo'yicha kelishilgan me'yorlar va talablarni ishlab chiqish va rioya qilish tartibi to'g'risida Bitim (12.04.1996, Moskva);
- Erkin savdo hududida texnik to'siqlar bo'yicha Bitim (20.06.2000, Moskva);

- MDH davlatlarida sayohat sohasida davlatlararo standartlarni va sertifikatlashtirish tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha Konsepsiya.

MDH mamlakatlarida amaldagi texnik qonunlarni uyg'unlashtirish maqsadida DAK da model qonunlar ishlab chiqilgan:

- “Standartlashtirish to'g'risida” (Parlamentlararo assambleyaning (PAA) 10-yalpi majlisida qabul qilingan);

- “O'lchashlar birliligini ta'minlash to'g'risida” (MDH PAA ning 11 –yalpi majlisida qabul qilgan).

DAK doirasida quyidagi bitimlar tuzilgan va bajarilmoqda:

- Sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarni o'tkazish va o'zaro tan olish prinsiplari to'g'risida (04.06.1992, Krasnodar);

- Davlat sinovlari va xilini tasdiqlash, metrologik attestatlash, o'lchash vositalarini qiyoslash va kalibrlash natijalarini, shuningdek sinovlarni, o'lchash vositalarini qiyoslash va kalibrlash laboratoriyalarini akkreditlash natijalarini o'zaro tan olish to'g'risida (06.10.1992, Toshkent);

- Moddalar va materiallar tarkibi va xossalarning standart namunalarini yaratish va qo'llanish bo'yicha hamkorlik to'g'risida (06.10.1992, Toshkent);

- Moddalar va materiallarning fizik konstantalari va xossalari to'g'risida ma'lumotlarni yaratish va ulardan foydalanish bo'yicha hamkorlik to'g'risida (06.10.1992, Dushanbe);

- DAK standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilotlar (ISO, IEC) va Yevropa Ittifoqi (CEN) standartlashtirish bo'yicha tashkiloti, standartlashtirish bo'yicha hududiy tashkilot tomonidan tan olingan va unga ISO va IEC da qabul qilingan qoidalarga muvofiq “Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha Yevro-Osiyo tashkiloti (EASC) nomi berilgan. Yuqoridagi nomi keltirilgan tashkilotlar bilan hamkorlik, axborot va me'yoriy hujjatlar bilan almashinish va o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etish to'g'risida uzoq muddatli kelishuvlar imzolangan.

EASC imzolangan kelishuv (bitimlar) ga asosan xalqaro va Yevropa standartlarini davlatlararo standartlar orqali, EASC ning alohida a'zo-mamlakatlari esa, milliy standartlar orqali qo'llanish huquqiga ega. Bu davlatlararo va milliy standartlarni ham xalqaro, ham Yevropa standartlari bilan yuqori darajada uyg'unlashtirishga yordam beradi. Bunday huquqdan EASC ning a'zo-davlatlari, bu tashkilotlarda a'zolik statusidan qat'iy nazar, foydalanadi.

Xozirgi vaqtda MDH davlatlararo standartlarining jamg'armasida 19000 dan ortiq me'yoriy hujjatlar bor. 1992 – yildan boshlab 3800 dan ortiq davlatlararo me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan va qabul qilingan. Jamg'arma DAK ning standartlashtirish bo'yicha Byurosi tomonidan, DAK a'zo-davlatlarning milliy idoralari bilan hamkorlikda olib boriladi.

Davlatlararo me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda ularning talablari xalqaro, hududiy va ilg'or milliy standartlar bilan uyg'unlashtiriladi. Bu MDH mamlakatlarining savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlikda texnik

to'siqlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan yagona me'yoriy-texnik ta'minotni saqlash uchun sharoit yaratadi, shuningdek DAK a'zo-davlatlarda ishlab chiqariladigan mahsulotni xalqaro va Yevropa bozoriga chiqarishga ko'maklashadi.

Standartlashtirish bo'yicha Yevropa komiteti (CEN)

YeIU doirasida birlashgan bozorni yaratish bo'yicha vazifalarni amalga oshirish munosabati bilan "texnik to'siqlarni" bartaraf etish bo'yicha dastur ishlab chiqildi. Bunday texnik to'siqlar buyumlarga standartlardagi farq, ulardan foydalanish qoidalarining zidligi, xavfsizlik texnikasi bo'yicha farqlanuvchi me'yorlar, sog'liqni saqlash va tabiatni asrash me'yorlaridagi farqlar hisobiga paydo bo'ladi.

Bu muammoni hal qilishda Yevropa standartlashtirishiga birinchi navbatda ahamiyat beriladi.


YeIU va Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (YeESA) vakillarining 23 mart 1961 yilda Parijda bo'lib o'tgan majlisida CEN ning tashkil etilganligi e'lon qilindi (CEN 1970 – yilgacha Standartlarni muvofiqlashtirish bo'yicha Yevropa qo'mitasi, deb atalgan). CEN a'zolari YeIU va YeESA ning 18 mamlakati: Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Gresiya, Daniya, Irlandiya, Ispaniya, Islandiya, Italiya, Lyuksemburg, Norvegiya, Niderlandiya, Portugaliya, Finlyandiya, GFR, Fransiya, Shvesiya va Shvesariya standartlashtirish bo'yicha milliy tashkilotlaridan iborat. Bu – yopiq tashkilot bo'lib, G'arbiy Yevropa mamlakatlarining yuqorida keltirilgan iqtisodiy guruh a'zolarini birlashtiradi⁷.

CEN ning birinchi majlisidayoq Ustav va jarayon qoidalari tasdiqlandi. 1970 – yilda CEN Ustavi qayta ko'rib chiqiladi. Bunda Ustavga ma'lum o'zgartirishlar bilan birga Yevropa standartlari (EN) ni majburiy yaratish ham kiritilgan.

Standartlarni yaratish bo'yicha barcha ishlar texnik qo'mitalar tomonidan olib boriladi. Bunday texnik qo'mitalarda texnik sekretariatlar iqtisodiy guruh mamlakatlaridan biri tomonidan boshqariladi.

CEN doirasida 140 dan ortiq TQ tuzilgan. TQ bilan bir qatorda, alohida masalalarni hal etish uchun maslahat guruhlari tashkil etilgan.

⁷ Dr. Peter Hatto Standards and Standardization. Handbook. EUROPEAN COMMISSION, Directorate-General for Research Industrial Technologies Pictures © Shutterstock, 2010, 24 p.



2.1-rasm CEN ning tashkiliy tuzilmasi

CEN vazifasi quyidagilar vositasida xizmatlar savdosini va almashinishni rivojlantirishga ko'maklashishdan iborat:

- CEN a'zo-mamlakatlarida yaratilgan standartlarni uyg'unlashtirish va Yevropa standartlarini ishlab chiqish;
- o'zlarining direktivalarida va boshqa rasmiy hujjatlarida havola qila olishlari uchun Yevropa standartlarini YeIU, YeESA ga, shuningdek boshqa hukumatlararo tashkilotlarga taqdim etish;
- elektrotexnikada standartlashtirish bo'yicha Yevropa qo'mitasi va standartlashtirish masalalari bo'yicha boshqa ilmiy-texnik va iqtisodiy hududiy hukumat tashkilotlari bilan hamkorlik;
- ISO va IEC orqali xalqaro standartlashtirishga va Yevropa da ISO standartlarini va boshqa xalqaro standartlar va tavsiyanomalarni bir xilda qo'llanishga ko'maklashish;
- Yevropa standartlari asosida sertifikatlashtirish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlarni berish.

CEN da standartlashtirish bo'yicha ishlar ko'p jihatdan ISO da erishilgan natijalarga asoslanadi yoki ularni to'ldiradi.


CEN quyidagi sohalarda standartlar yaratadi: aviatsiya jihozlari, suv isitish gaz priborlari, gaz ballonlari, ko'tarish mexanizmlarining detallari, oshxona gaz

plitalari, liftlar va yuk ko'targichlar, payvandlash va qirqish, quvurlar va truboprovodlar, nasos stansiyalari (foydalanish va xizmat ko'rsatish), stekloplastikadan tayyorlangan sisternalar va boshqalar.

CENELEK 1972 – yilda ikkita tashkilot – YeESA (SENEL) a'zolari-mamlakatlarning elektrotexnik standartlarni muvofiqlashtirish bo'yicha Yevropa qo'mitasi va YeIU mamlakatlarning elektrotexnik standartlarini muvofiqlashtirish bo'yicha Yevropa qo'mitasi (SENELQOM) ning bir-biriga qo'shilishi natijasida tuzildi⁸.

CENELEK a'zolari 17 Yevropa davlatlari: Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Gresiya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Norvegiya, Portugaliya, Finlyandiya, Fransiya, GFR, Shvesariya, Shvesiyaning milliy elektrotexnik qo'mitalaridan iborat. Bu davlatlar (Lyuksemburgdan boshqalari) bir vaqtda IEC a'zosi hisoblanadi.

CENELEK ning rasmiy tili inglizcha, fransuzcha va nemischa.



2.2-rasm. CENELEK ning tashkiliy tuzilmasi

⁸ Dr. Peter Hatto Standards and Standardization. Handbook. EUROPEAN COMMISSION, Directorate-General for Research Industrial Technologies Pictures © Shutterstock, 2010, 24 p.

CENELEK ning asosiy maqsadlari YeIU bilan yaqin hamkorlikda elektrotexnik standartlar to'plamini yaratish, shuningdek Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi Sekretariatining yordamida bu hudud mamlakatlarida mollar va xizmatlarning yagona bozorini ta'minlashdan iborat. CENELEK a'zo – milliy qo'mitalarning to'liq o'zaro kelishuvi bilan yaratilgan standartlarga bu vazifani ta'minlash uchun muhim vosita sifatida qaraladi. CENELEK ning asosiy faoliyati a'zo-mamlakatlar milliy standartlari o'rtasidagi va buyumlarning standartlarga muvofiqligini sertifikatlashtirish jarayonlari o'rtasidagi barcha texnik farqlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan. Bunday faoliyat savdoda texnik to'siqlarga yo'l qo'ymaslik uchun zarur. Bu ish mollarning G'arbiy Yevropa darajasida erkin yurishi uchun zarur ka Milliy idoralarning faoliyatini muvofiqlashtirish, savdoda texnik to'siqlarni bartaraf etish uchun 1992 – yilda MDH mamlakatlarining (Boltiq bo'yi mamlakatlaridan tashqari) standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha Davlatlararo kengashi (DAK) tuzildi.

MDH mamlakatlari hukumatlarining boshliqlari 13 mart 1992 –yilda standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasida kelishilgan siyosatni olib borish to'g'risida Bitimga imzo chekdi.

Bu Hamkorlik davlatlarining standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idoralarning imkoniyatlarini va boyliklarini birlashtirishga, ilgari to'plangan tajribalar va me'yoriy hujjatlardan birgalikda foydalanish va ularni takomillashtirishga, shuningdek faoliyatning bu sohalarida yagona texnik siyosatni amalga oshirishga imkon berdi. DAK ning standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi idora sifatida ishlari MDH da quyidagilarni ta'minlashga qaratilgan:

- yagona me'yoriy baza – davlatlararo standartlar, tasniflagichlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni qo'llanish va rivojlantirish;
- yagona etalon baza va o'lchashlar birliligini ta'minlash tizimlarini shu jumladan, vaqt va chastotalar, moddalar va materiallarning tarkibi va xossalari ga oid standart ma'lumotnoma ma'lumotlari davlatlararo xizmatlarini shakllantirish;
- mahsulot va xizmatlarni sinash va sertifikatlashtirish natijalarini o'zaro tan olish.

DAK ning texnik siyosati a'zo-davlatlarning standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idoralari, ilmiy-texnikaviy komissiyalari (ishchi guruhleri) va standartlashtirish bo'yicha davlatlararo TQ tomonidan shakllantiriladi.

DAK faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-texnikaviy komissiyalar yoki ishchi guruhlar, vaqt va chastotaning bir xil o'lchanishini ta'minlash bo'yicha hamkorlik to'g'risida hukumatlararo Bitimni bajarish bo'yicha vakolatli vakillarining Kengashi, shuningdek standartlashtirish bo'yicha 230 dan

ortiq davlatlararo TQ doimiy ishlamoqda. Hozirgi vaqtda Kengashning ishchi idorasi Minskda joylashgan standartlashtirish bo'yicha Byurodan iborat. Kengashni rotatsiya asosida DAK a'zo-mamlakatlarining standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idoralarning rahbarlari boshqaradi.

Kengash davlatlararo standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasida qator hukumatlararo bitimlarni tayyorladi va bular MDH mamlakatlari hukumat boshliqlarining majlislarida qabul qilingan. Bunday bitimlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasida kelishilgan siyosatni o'tkazish to'g'risida Bitim (13.06.1992, Moskva);
- Vaqt va chastotani o'lchash birxilligini ta'minlash bo'yicha hamkorlik to'g'risida Bitim (09.10.1992, Bishkek);
- Qiyoslash va metrologik attestatlash maqsadida chegaradan olib o'tiladigan me'yoriy hujjatlar, etalonlar, o'lchash vositalari va standart namunalarni olib o'tishga bojxona to'lovlari, soliqlardan va maxsus ruxsatnomalarni berishdan ozod qilish to'g'risida Bitim (10.02.1995, Almati);
- O'zaro yetkazib beriladigan mahsulotga mehnat muhofazasi bo'yicha kelishilgan me'yorlar va talablarni ishlab chiqish va rioya qilish tartibi to'g'risida Bitim (12.04.1996, Moskva);
- Erkin savdo hududida texnik to'siqlar bo'yicha Bitim (20.06.2000, Moskva);
- MDH davlatlarida sayohat sohasida davlatlararo standartlarni va sertifikatlashtirish tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha Konsepsiya.

MDH mamlakatlarida amaldagi texnik qonunlarni uyg'unlashtirish maqsadida DAK da model qonunlar ishlab chiqilgan:

- "Standartlashtirish to'g'risida" (Parlamentlararo assambleyaning (PAA) 10-yalpi majlisida qabul qilingan);
- "O'lchashlar birliligini ta'minlash to'g'risida" (MDH PAA ning 11 –yalpi majlisida qabul qilingan).

DAK doirasida quyidagi bitimlar tuzilgan va bajarilmoqda:

- Sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarni o'tkazish va o'zaro tan olish prinsiplari to'g'risida (04.06.1992, Krasnodar);
- Davlat sinovlari va xilini tasdiqlash, metrologik attestatlash, o'lchash vositalarini qiyoslash va kalibrlash natijalarini, shuningdek sinovlarni, o'lchash vositalarini qiyoslash va kalibrlash laboratoriyalarini akkreditlash natijalarini o'zaro tan olish to'g'risida (06.10.1992, Toshkent);
- Moddalar va materiallar tarkibi va xossalarning standart namunalarni yaratish va qo'llanish bo'yicha hamkorlik to'g'risida (06.10.1992, Toshkent);
- Moddalar va materiallarning fizik konstantalari va xossalari to'g'risida ma'lumotlarni yaratish va ulardan foydalanish bo'yicha hamkorlik to'g'risida (06.10.1992, Dushanbe);

• DAK standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilotlar (ISO, IEC) va Yevropa Ittifoqi (CEN) standartlashtirish bo'yicha tashkiloti, standartlashtirish bo'yicha hududiy tashkilot tomonidan tan olingan va unga ISO va IEC da qabul qilingan qoidalarga muvofiq "Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha Yevro-Osiyo tashkiloti (EASC) nomi berilgan. Yuqoridagi nomi keltirilgan tashkilotlar bilan hamkorlik, axborot va me'yoriy hujjatlar bilan almashinish va o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etish to'g'risida uzoq muddatli kelishuvlar imzolangan.

EASC imzolangan kelishuv (bitimlar) ga asosan xalqaro va Yevropa standartlarini davlatlararo standartlar orqali, EASC ning alohida a'zo-mamlakatlari esa, milliy standartlar orqali qo'llanish huquqiga ega. Bu davlatlararo va milliy standartlarni ham xalqaro, ham Yevropa standartlari bilan yuqori darajada uyg'unlashtirishga yordam beradi. Bunday huquqdan EASC ning a'zo-davlatlari, bu tashkilotlarda a'zolik statusidan qat'iy nazar, foydalanadi.

Xozirgi vaqtda MDH davlatlararo standartlarining jamg'armasida 19000 dan ortiq me'yoriy hujjatlar bor. 1992 – yildan boshlab 3800 dan ortiq davlatlararo me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan va qabul qilingan. Jamg'arma DAK ning standartlashtirish bo'yicha Byurosi tomonidan, DAK a'zo-davlatlarning milliy idoralari bilan hamkorlikda olib boriladi.

Davlatlararo me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda ularning talablari xalqaro, hududiy va ilg'or milliy standartlar bilan uyg'unlashtiriladi. Bu MDH mamlakatlarining savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlikda texnik to'siqlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan yagona me'yoriy-texnik ta'minotni saqlash uchun sharoit yaratadi, shuningdek DAK a'zo-davlatlarda ishlab chiqariladigan mahsulotni xalqaro va Yevropa bozoriga chiqarishga ko'maklashadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Xalqaro standartlashtirish tashkiloti va uning faoliyatlari.
2. Xalqaro elektrotexnika komissiyasi .
3. Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilotlar.
4. Sifat bo'yicha Yevropa tashkiloti
5. Sinov laboratoriyalarining akkreditlash bo'yicha Xalqaro konferensiyasi
6. Standartlashtirish bo'yicha Yevropa komiteti
7. Elektrotexnikada standartlashtirish bo'yicha Yevropa komiteti.
8. www.ima.uz
9. www.academy.uz
10. www.standart.uz
11. www.smsiti.uz
12. www.uza.uz

Adabiyotlar:

1. Henk J. de Vries Standardization: A Business Approach to the Role of National Standardization Organizations. Springer Science+Business Media, LLC, New York All Rights Reserved © 2000 Springer, 330 p.

2. Dr. Peter Hatto Standards and Standardization. Handbook. EUROPEAN COMMISSION, Directorate-General for Research Industrial Technologies Pictures © Shutterstock, 2010, 24 p.

3. Role of standards. A guide for small and medium-sized enterprises. Working paper. United nations industrial development organization, Vienna, 2006, 56 p.

4. Abduvaliyev A.A., Latipov V.B., Umarov A.S., Alimov M.N., Boyko S.R., Xakimov O.Sh., Xvan V.I. Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifat. O'quv qo'llanma. Toshkent, SMSITI, 2008. – 267 b.

5. Ismatullayev P.R., Matyakubova P.M., Turayev Sh.A. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. Darslik. «Lisson-Press». Toshkent, 2015. - 423 b.

1	Birinchi standartlashtirish milliy tashkiloti	Britaniya Assosiasiyasi /British Engineezing Standards Accociation/ 1901 yilda tashkil etilgan bo'lib, biroz keyinroq, birinchi jahon urushi davrida Daniya byurosi, Germaniya qo'mitasi (1918 y.), Amerika qo'mitasi (1918 y.) va boshqalar tashkil topdi.
2	ISO ning tuzilishidan ko'zda tutilgan asosiy maqsad	xalqaro miqyosdagi mol almashinuvida va o'zaro yordamni yengillashtirish uchun dunyo ko'lamida standartlashtirishni rivojlantirishga ko'maklashish hamda aqliy, ilmiy, texnikaviy va iqtisodiy faoliyatlar sohasida hamdo'stlikni rivojlantirishdir.
3	IEC ning faoliyat sohalari	elektrotexnika, elektronika, radioaloqa, priborsozlik sohasida
4	MOZM faoliyatining asosiy yo'nalishlari	o'lchash vositalarining uslubiy me'yoriy metrologik tavsiflarining birliligini belgilash; qiyoslash uskunalarini, solishtirish usullarini, etalonlarni tekshirish va attestatlashini, namunaviy va ishchi o'lchash asboblarni uyjunoshtirish; xalqaro ko'lamda birxillashtirilgan o'lchash birliklarini mamlakatlarda qo'llanishini ta'minlash;

Mavzu:3. OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI SIFATINI NAZORAT QILISH.

Reja.

3.1. Oziq-ovqat mahsulotlariga qo'yiladigan standart talablar

3.2. Oziq-ovqat mahsulotlarini sifatini nazorat qilishda fizik kimyoviy usullar.

3.3. Oziq-ovqat mahsulotlarini nazorat qilish

3.4. Standartlarning sinflarga bo'linishi.

3.5. Oziq-ovqat korxonalarida ishlatiladigan normativ texnik hujjatlar.

3.1.Oziq-ovqat mahsulotlariga qo'yiladigan standart talablar

O'zBX 51-010-96 me'yoriy hujjati mahsulotga qo'yiladigan talablarning shakllanishini belgilaydi. Mahsulot ishlab chiqarishda talab qilinadigan tadbirlar quyidagilardan iborat:

1. Barcha ekstremal imkoniyatlarni, xavflarni ochib berish.
2. Yetarli darajadagi himoya vositalari mavjudligini mo'ljallash.
3. Mahsulotning o'zidan bog'liq bo'lmagan barcha himoya vositalarini hisobga olish.
4. Iste'molchini ogohlantirish choralarini hisobga olish.

Muqarrar talablarga quyidagilar kiradi:

1. Kishilar anjomlari, hayoti va sog'ligi uchun kerak bo'lgan mahsulotlarning xavfsizligini ta'minlash;
- 2.Tashqi muhitning muhofazasini ta'minlash;
- 3.Tejamkorlik resurslarini ta'minlash;
- 4.O'rin olish va o'zaro to'ldirishning xususiyatlarini tashkil qilish;
- 5.Nazorat usullari birligini ta'minlash;
- 6.Tamg'alash.

Un va yorma mahsulotlarini qadoqlash, tamg'alash, tashish va saqlash ishlarini standartlashtirish

Un, yorma, suli pag'asi va talqonini idishlarga solib koplash uchun standartlar quyidagi me'yorlarni belgilaydi:

Un uchun 1,000; 2,000; 3,000 kg; yorma uchun 0,025 ga karrali bo'lgan holda 0,400 dan 1,000 kg gacha vaznda; suli pagasi uchun-0,050 ga karrali bo'lgan holda 0,250 va 0,300 kg vaznlarda qadoqlanadi.

Alohida birlik mahsulotlar massasining yo'l qo'yiladigan chetlanish miqdorlari quyidagi qiymatlardan oshmasligi kerak:

1%-un va yorma uchun; 1%-suli pagasining vazni 0,550 kg gacha bo'lganda.

Un va yormani polietilen plyonkasidan tayyorlangan paketlarga ham qadoqlash mumkin. Un, yorma, suli pagasi va talqoni solingan paket va xaltalarning umumiy vazni 15 kg dan ortiq bo'lmagan karton yoki fanera qutilarga qadoqlash mumkin.

Paket va xaltachalarga qoplangan un, yorma, suli pagasi va talqonini avtomobil transportida tashish uchun ular uskuna – idishlarga joylashtiriladi. Bundan tashqari un va yormani yangi va ishlatilgan matoli qoplarga (50,70 kg) qoplash mumkin.

Idish va qoplarning ustiga tipografik usulda yoki shtamp yordamida markalash tamg'asi bosiladi. Qoplash paytida har qaysi un yoki yorma solingan xaltaning ustiga o'lchami 6 x 9 sm li mustahkam elastik kartondan, xaltabop qog'oz yoki A rusumli qog'ozdan qirqib tayyorlangan markalash yorlig'i tiqilgan yoki yopishtirilgan bo'lishi kerak. Yorliqda mahsulotni tavsiflovchi quyidagi ma'lumotlar yozilgan bo'lishi kerak: ishlab chiqaruvchi o'rni va qaysi o'ringa qarashliligi; mahsulotning nomi (turi, navi, oliy va birinchi nav uni vitaminlashtirilgan bo'lsa, yirik shrift bilan ajratilib ko'rsatiladi); vazni (kg); ishlab chiqarish sanasi (yil, oy, sana, smena nomeri); mahsulotga qo'yilgan standart belgisi.

Standartga muvofiq har qaysi tur mahsulot idishning ustiga oziq-ovqat va energiyaviy qiymmati: 100 gr mahsulotdagi oqsil, yog' va uglevod miqdorlari ko'rsatiladi.

Mavjud standartlarga muvofiq un, yorma, suli pag'asi va talqoni yopik transport vositalarida shu transport turlarida mahsulot tashish qoidalariga muvofiq ravishda, shuningdek universal konteyner va paketlarda tashiladi. Un, yorma, suli pagasi va talqonini temir yo'l transportida tashish uchun yopik vagonlardan foydalaniladi.

Mahsulot havo transportida tashilishi uchun ular albatta konteyner yoki yamliklarga joylashtirilgan bo'lishi shart.

Un, yorma, suli pag'asi me'yoriy texnik hujjatlarda ko'rsatilgan qoidalarga muvofiq quruq, toza, yaxshi shamollatish imkoniyati bo'lgan, don zaxiralari zararkunandalari bo'lmagan omborlarda saqlanadi.

3.2. Oziq ovqat mahsulotlarini sifatini nazorat qilishda fizik-kimyoviy usullar

1. Tekshirishning fizikaviy usuliga quyidagilar kiradi: o'lchash (massani, og'irlikni, uzunlikni va sh.u.), isitish, qizdirish, sovutish, filtrlash, haydash.

Mahsulot og'irligi tarozilar yordamida aniqlanadi. Tajriba darolarida asosan texnik kimyoviy tarozilar ishlatiladi. Tajriba darolarini isitish usulidan foydalanganda isitish anjomlari ishlatiladi. Bularga: suv hammomi, elektr o'chog'i, gaz o'chog'i, spirt lampasi, quritish shkaflari, termostatlar, mufel o'chog'i kiradi.

Mahsulot namligini aniqlash mahsulotni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Namlikni o'lchashning bir necha usullari mavjud. Bularga: quritish issiqlik ta'sirida suvning bug'lanishi usuli.

Mahsulotni oxirgi og'irligigacha quritish usuli quyidagidan iborat: olingan namuna quritish shkafida 4-5 soat diametri 5-6 sm balandligi 4-5 sm bo'lgan temir byuksalarda solib quritiladi. Bu usulning yaxshi tomoni shundan iboratki, aniq natija olinadi. Lekin boshqa usullarga qaraganda ko'p vaqt sarflanadi.

Tez usulda quritish: quritish shkafida 130⁰Sda 40 minut olib boriladi. Bu usulda namlik tez aniqlanadi lekin aniqligi kamroq, chunki yuqori temperaturada asosiy mahsulotda oksidlanish bo'ladi. Bu yerda uchuvchi kislotalar spirtlar paydo bo'ladi bular namlik bilan birga yo'qoladi.

Infraqizil nurlar bilan quritish usuli. Bu shunga asoslanganki yuqori namlikni materiallar infraqizil nurlarni yutish qobiliyati kuchli bo'ladi. Bu nurlar mahsulotning ichkarisiga kirib suv bug'larini yutadi bunda bular qiziydi va bug'lanadi. Bunda Chijov apparati ishlatiladi.

Elektrotermik usul pivo ishlab chiqarishda donni zavodlarga qabul qilib olishda ishlatiladi.

Tekshirishning kimyoviy usullari. Shakar miqdori standart bo'yicha GOST 8756. 13 95 permanganat usuli bilan aniqlanadi (Bertren usuli). Bu usulda feling I (mis sulfatining eritmasi CuSO) va feling II (uzum kislotasi kaliy va natriyli tuzining to'yingan natriy miqdoridagi eritmasi) qo'shiladi. Natijada 2 valentli mis uzum kislotasidagi "natriy va kaliy" o'rnini oladi. Bu eritma invert shakar bilan reaksiyaga kirib, u yerdagi aldegid yoki keton guruhlari ikki valentli misni qaytarib bir valentli misga aylantiriladi, oxirgi mahsulot perganometrik usulda aniqlanadi.

Kaliy permanganat eritmasining ketganiga qarab jadvaldan shakarning miqdori aniqlanadi.

Konservalarda yog'ning miqdori quyidagi usullarda aniqlanadi: Sokslet apparatida yog' miqdorini ekstraksiya yo'li bilan aniqlash standart ekstraksiya, tarozi usuli orqali yog' miqdorini aniqlash, refraktometr orqali yarim tayyor mahsulotlarda va konservalarda yog' miqdorini aniqlash.

Konservalarni qadoqlashda shisha idishlarning har xil turlari: oq zanglamaydigan temirdan qilingan idishlar, alyuminiy va plastmassadan tayyorlangan idishlar ishlatiladi. Idishlar yuqori sifatli materialdan tayyorlangan bo'lsa, uning ichidagi mahsulot yaxshi saqlanadi. Analiz natijalariga qarab temirning standart sinfini tartib raqamini aniqlaydilar. Tayyor idishlarni qabul qilishda standart talabiga javob beradimi, yo'qmi tekshiradilar. Texnik sinaganda listlarning qalinligi o'lchanadi va yaxshilab ko'rib chiqiladi. Listlarning qalinligi mikrometr bilan 0,01 mm aniqlikda o'lchanadi. Temirning mohiyatiga va idishlarning o'lchamlariga qarab standart temirning tartibi tanlanadi. Qalinligi standart bo'lmagan temirni ishlatganda bankalar deformatsiyaga uchraydi, bu mahsulotning buzilishiga olib keladi. Listlarning o'lchamlari standart talabiga

javob berishi kerak. Idishlar uchun temir yoki qopqoq uchun lak qilish mumkin. Bir tomon yoki ikki tomondan standartlarning maxsus talabiga ko'ra, temirni mexanik sinash, uning elastikligi, mustahkamligini aniqlashga olib keladi. Bu esa o'z navbatida germetik idishni ochishiga olib keladi. Uskunada temir mexanik sinaladi. Temirni texnik va mexanik tekshirgandan keyin, konserva idish tayyorlash uchun kimyoviy analiz qilinadi. Temir yuzasidagi rux miqdori aniqlanadi. Rux miqdori yadometrik usul bilan aniqlanadi. Ruxning miqdori 200 sm yuzada (yoki 100m listda) 1 sinfli temirda – 0,39 – 0,45, 2 – 0,28 – 0,38, 3 – 0,23 – 0,27 g bo'lishi kerak.

Temirni standart talabiga javob berishini qo'rg'oshinning miqdoriga qarab, ya'ni 0,04 % dan oshmasligi kerak. Buning uchun qo'rg'oshin boshqa metallardan ajratiladi. Qo'rg'oshin miqdori kalorimetrik usul bilan aniqlanadi. Konservalarni uzoq saqlash idishlarning kafolatli berkitilganligiga bog'liq. Bo'sh va to'liq idishlarni kafolatli berkitilganligini tajribada sinash uchun Bombago apparati ishlatiladi. Metallardan va shishadan tayyorlangan idishlarning kafolatli berkitilganligini aniqlash GOST 8756.18-95 da yozilgan.

Idish qopqoqlarini baholash.

Texnik shartlariga ko'ra qopqoqlar oq temirdan, qalinligi 0,20-0,26 mm SKO – 58 idishlari uchun, 0,20-0,30 mm SKO – 83 idishlari uchun bo'lishi kerak. Qopqoqning ichkari qismi oziq-ovqat laki yoki emal bilan, tashqarisi oziq-ovqat bilan qoplanadi. Lakning sifati tajribada tekshiriladi. Qopqoqning o'lchamlari, qalinligi o'lchov asboblari o'lchanadi. Qopqoqlarda zang, qatlanmagan, chetlari uzilmagan bo'lishi kerak. Lakli qoplamalar (ichkarisi va tashqarisi) qora temirdan tayyorlangan qopqoqlar 3 % li tuzli eritmada 120 ° C da isitilgan kungaboqar yog'ida va 12-15 % konsentratsiyali tomat pyureda 2 soat qaynatilganda o'zgarmasligi kerak. Lakli qoplamalar (ichkarisi va tashqarisi) oq temirdan tayyorlangan qopqoqlar 3 % li sirka kislotasida va 2 % li kaliyning nordon uzum kislotasida 2 soat qaynatilganda o'zgarmasligi kerak.

Konserva ishlab chiqarishda ishlatiladigan shisha idishlar, kimyoviy va termik mustahkam, deffektleri bo'lmasligi, GOST 5717-95 talablariga javob

berishi kerak. Bu standartda ko'rinishi, o'lchamlari, og'irligi, texnik shartlari va qabul qilish qoidalari ko'rsatilgan. O'lchamlari, formasi, idishning diametri, balandligi, og'zi maxsus o'lchov jihozlari orqali o'lchanadi.

Shishali idishlarning termik mustahkamligini aniqlash uchun 40, 100, 60⁰ C suvga 5 minut solinadi. GOST 17733-98 da aniq usul yozilgan bo'lib, bunga ko'ra sinalayotgan shisha idishlar 30 minut 18⁰ C da quritish shkafiga joylashtiriladi. Texnik talablarga ko'ra sinalgan idishlar quritish shkafida 30 minut saqlanadi: keyin idishlar 20⁰ C suvli rezervuarga solinadi va u yerda kamida 1 minut saqlanadi. Idishlar sinalgandan keyin suvdan olib tekshiriladi. Sinashni ushlagan idishlar yorilmaydi, ularning soni quyidagicha aniqlanadi:

$$X = \frac{A \cdot 100}{A}$$

Bunda:

A – sinashni saqlagan idishlar;

A – sinashga qo'yilgan idishlar soni.

Ma'lum ko'rinishdagi idishlarga GOST lar o'rnatiladi. Shisha idishlarning kimyoviy mustahkamligini aniqlash uchun 24 soat 10 % li sirka kislotasida 40⁰ C temperaturada joylashtiriladi. Shisha idishlarning ichkari bosimga qarshiligi gidravlik yoki richagli press orqali tekshiriladi. Devor qalinligi maxsus elektromagnit yoki indikatorli jihozlar orqali o'lchanadi. Yuvish sifatini tekshiruvchi tekshiradi. U shisha siniqlari yuvilgan idishdagi xlorning miqdorini suvda, suvdagi temperatura va bosimni tekshirib turadi. Shishalar berkitgichlari tashqaridan tekshiriladi, ya'ni germetik va kritik bosim orqali tekshiriladi.

3.3. Oziq-ovqat korxonalarida ishlatiladigan normativ texnik hujjatlar.

Uchuvchi kislotalarni aniqlash usuli sharob, yarim tayyor sharob mahsulotlar va konyak spirtlari uchun GOST 13193-98 orqali olib boriladi.

Suvli par haydash usuli orqali uchuvchi kislotalar konsentratsiyasini aniqlash. Usulning mohiyati quyidagidan iborat: bu usul asosan sharob va konyak spirtlari

tarkibidagi uchuvchi kislotalarni maxsus jihozda suvli par yordamida haydashdan iborat. Distilyat fenolftalein ishtirokida ishqor bilan titrlanadi. Bu usulni olib borishda ishlatiladigan apparatlar, materiallar va reaktivlar:

Tarozi – GOST 24104-80

Termometrlar – 1-A2 yoki 2-A2 yoki 1-B2 GOST 215-73

Sekundomer GOST 5072-79

Kolbalar Kn 250; Kn 750 yoki Kn 1000 GOST 25336-82

Muzlatgich jihozi – GOST 25356-82

Suv bosimli nasos – GOST 25336-82

Tubusli kolba – 1-250 yoki 2-250 yoki 1-500 yoki 2-500 GOST 25336-82

Tomizgich GOST 25336-82

Byuretka – 1-2-25-01 GOST 20292-74

Sharob, yarim tayyor sharob mahsulotlari va konyak spirtlaridagi aldegidni aniqlash usuli GOST 12280-95 orqali olib boriladi. Bu usul xeres turiga mansub sharob, meva rezavorli sharob, shampan sharobi, konyak va konyak spirtlarida aldegidlar miqdorini aniqlashda qo'llaniladi. Aldegidlar yodometrik usulda aniqlanadi. Standart OS SEV 4259-93 talabiga to'liq javob beradi. Namuna olish usuli GOST 14137-94 orqali olib boriladi.

Namuna olish GOST 14137-94 standarti orqali olib boriladi.

Sharob, yarim tayyor sharob mahsulotlari, konyaklar va konyak spirtlari tarkibidagi etil spirti miqdori GOST 13191-98 standarti orqali olib boriladi. Bu standart uzum, meva-rezavorli sharob hamda yarim tayyor sharob mahsulotlari ishlab chiqarishda tadbiiq qilinadi.

Etil spirti miqdori areometr yordamida aniqlash usuli. Ishlatiladigan apparatlar materiallar va reaktivlar:

Areometrlar –ASP-1 GOST 18481-96

Termostat yoki suv hammomi

Tarozilar – GOST 24104-95

Kolbalar – 1-250-2 yoki 2-250-2 GOST 1770-94

Kolbalar – K-750 yoki P-750 yoki K-1000 yoki P-1000 GOST25336-97

Silindrlar – 1 39/350 GOST 18481-86

Mo'zlatgichlar – GOST 15336-97

Tubusli kolbalar – 1-1000 yoki 2-1000 GOST 25336-97

Suv bosimli nasosi – GOST 25336-97

NaOH – GOST4328-97

KOH – GOST 24369-85

Distillgan suv GOST 6709-97

Indikator qog'ozi

Go'shtli yarim tayyor mahsulotlar GOST 49208-94 standarti orqali tekshiriladi. Go'shtning sifati organoleptik ko'rsatkichlar orqali aniqlanganda quyidagi standart bilan tekshiriladi GOST 7269-94 "Go'sht. Namuna olish usullari va tozaligini tekshirish usullari".

Yarim tayyor mahsulotlar organoleptik tekshirilganda biron bir ko'rsatkichi talabga javob bermasa kimyoviy, gistologik, mikrobiologik tajribalar GOST 7269-99, GOST 23392-98, GOST 19496-94, GOST 21237-95 standartlar orqali olib boriladi.

Tekshirish uchun katta bo'lakli go'shtdan kamida 200 g kesib olinadi, pergament qog'ozi bilan qadoqlanadi va tajriba xonalariga yuboriladi. Kimyoviy analizda GOST 23392-98 uchuvchi yog'li kislotalar, oqsillar birinchi marotaba parchalanishi miqdori aniqlanadi. Nistologik analizda GOST 19496-94, muskul to'qimalari endomeziya holatlari aniqlanadi.

Bakterioskopiyada to'qimalardagi mikroblar miqdori aniqlandi.

Go'shtni suyakdan ajratib, tajriba tarozilarda o'lchanadi. GOST 24104-95 bu orqali go'shtning miqdori aniqlanadi. Yarim tayyor mahsulotlarning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari GOST 49121-94 va TU 28-19-94 bo'yicha qiymali yarim tayyor mahsulotlar uchun quyidagicha bo'lishi kerak:

Yarim tayyor mahsulotlarning namligi GOST 4288-96 standarti bo'yicha Chijov apparatida olib boriladi. Yarim tayyor mahsulotlar tarkibidagi non miqdori kraxmal miqdoriga qarab GOST 4288-96 standarti orqali olib boriladi.

3. Sut va sutni qayta ishlab tayyorlangan qatiq mahsulotlar faqat ovqatboplik ahamiyatiga ega bo'lmasdan balki parhez va davolash xususiyatlariga ham egadir. Bularga ayniqsa fsidofil mahsulotlari – qimiz, qatiq, kefir, tvorog misol bo'la oladi. Qatiq sutni sut achituvchi bakteriyalar bilan achitib tayyorlanadi.

Tayyorlanish texnologiyasiga qarab qatiq qaymog'i olinmagan sutdan tayyorlangan yog'li, qaymog'i olingan sutdan tayyorlangan yog'siz turlariga bo'linadi. Qatiqning sifati organoleptik baholashda uning tashqi ko'rinishi, konsistensiyasi rangi, ta'mi va hidi aniqlanadi. Qatiqning tashqi ko'rinishi va konsistensiyasi – qatiq olingan idishning holati uning tashqi ko'rinishi, yaxshi berkitilgan yoki berkitilmaganligi aniqlanadi. Qatiqning hidi va ta'mi bu ko'rsatkichlarni aniqlash uchun, idish qopqog'i olingandan keyin qatiq yuzasidan yog' qatlami olinib tashlanadi, idish chayqatiladi va mahsulot stakanga quyiladi. Qatiqning organoleptik ko'rsatkichi OST 49-29-96 talabiga muvofiq bo'lishi kerak.

3.4. Standartlarning sinflarga bo'linishi.

Hozirgi kunda Respublika xalq xo'jaligining barcha sohalarida sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotining umumdavlat tasnifi joriy etilgan.

Tarmoqlar standarti standartlarni bo'limlarga ajratib tasniflash asosida hisoblanadi. Unga tasniflovchi indeks beriladi, u alifboning bosh harfi bilan belgilanadi. Masalan, qishloq va o'rmon xo'jaligiga "S" indeksi oziq-ovqat va ta'm bilish bo'yicha «N» indeksi beriladi.

Bo'limlar 98 sinfga, har bir sinf – 10 kichik sinf, har bir kichik sinf – 10 guruhga, har bir guruh – 10 kichik guruhga, har bir kichik guruh – 10 turga ajratilgan bo'ladi.

Umumdavlat tasnifiga ko'ra oziq-ovqat sanoatining mahsuloti 91 sinfga , baliq, sut, yog', pishloq , un-yorma 92 sinfga , dehqonchilik mahsulotlari 97 sinfga, chorvachilik mahsulotlari 98 sinfga kiritilgan. Harfli indeks standartning tarmoqqa tegishlilikini ko'rsatadi.

Mahsulotning tabiiy sifat belgilariga ko'ra guruhlarga yo'naltirilgan tur va kichik turlarga ajratib tasniflash uning botanik va biologik belgilari, texnologik xususiyatlari bilan iste'mol qiymati bog'liqligini yaxshirok ifoda etadi. Ba'zi standartlarda sifatning turli ko'rsatgichlari klasslarga birlashtirilgan bo'ladi.

Birinchi klassga kiruvchi barcha ko'rsatgichlar bo'yicha eng yaxshi sifat me'yorlarga ega mahsulotlar kiritiladi. Standartlarda mahsulotlarga ham tegishli o'rin berilgan bo'lib, ular o'ta past ko'rsatgichlarga ega ekanligi ta'riflanadi.

Standartning yo'nalishiga ko'ra, unda sifatning asosiy (bazis) va so'nggi (cheklovchi) me'yorlari ko'rsatilgan bo'lishi mumkin.

Standartlar muayyan mahsulotni baholashda qo'llaniladigan sifat sinovlari uslublari to'g'risidagi, shuningdek, uni saqlash va tashish shartlari to'g'risidagi kichik bo'limlar (havolalar) ko'rinishida yakunlaniladi.

Standartlashda sifatni baholash uslublari standarti alohida o'rinni egallaydi. Tovarlar sifatini me'yorlash bu sifatni belgilashning standart uslublarini ham talab qiladi.

Chunki xom-ashyo va tayyor mahsulotni baholash ularni iste'molchi tomon harakatining turli bosqichlarida amalga oshiriladi, tovarni u yoki bu sifat guruhiga kirishida xatoga yo'l qo'ymaslik borasida hamda tegishli hisob-kitoblarni amalga oshirishda standartlashning sifatni baholash uslublari ko'zda tutiladi.

Standart hujjatlarining betida klassifikatsiya sistemasi bo'yicha gruppaning belgisi ko'rsatiladi.

Davlat standartlari GOST-indeksi, registratsion raqami va tasdiqlangan yilini ifodalovchi raqamdan iborat.

Qayta ko'rib chiqilgan hamma kategoriyadagi standart hujjatlarining 1-betida ularning belgisi va ulardan oldin bo'lgan standart belgilari ham ko'rsatiladi. Ba'zida standart raqami oldida yulduzcha qo'yiladi. Bu standartga o'zgarish kiritilganligini bildiradi.

Eksport qilinadigan mahsulotlarga qo'yiladigan hujjatlar:

1. Faqat eksport qilinadigan mahsulotlarga qo'yiladigan talablarni belgilaydigan standartlar.

2. Xalq xo'jaligi ehtiyojlarini ta'minlaydigan, ham eksportni ta'minlaydigan ma'lum mahsulotga qo'yiladigan yagona umumiy talablarni belgilaydigan standartlar.

3. Ichki bozor uchun yetishtirilgan, tashqi bozor uchun raqobatini ta'minlaydigan sifat ko'rsatgichli mahsulotlarga qo'yiladigan standartlarga qo'shimchalar.

Eksportga yuboriladigan mahsulotlar standartining nomini uning eksport uchunligi ko'rsatiladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotining standartlari ilmiy asoslangan sifat me'yoriga ega bo'lishi lozim. Standart sifat me'yorlari pasaytirilgan holatda mahsulot sifatini oshirishni rag'batlantirmaydi. Sinovlarning ishonarli va operativ usullarining yo'qligi mahsulotning xaqiqiy sifatini baholash imkonini bermaydi, shuning uchun standartlarni ishlab chiqishda o'simlik mahsulotiga xos bo'lgan barcha xususiyatlar hisobga olinishi darkor.

Standartlashning biologik obyektlarida tegishli qishloq xo'jaliklari mahsulotlari uchun o'zaro bog'langan ikki xususiyat – irsiyat va o'zgaruvchanlik xosdir. Bu xususiyatlar dehqonchilik mahsuloti sifatiga yagona talabni belgilashni qiyinlashtiradi. Mahsulot sifati undan foydalanish yo'nalishlariga ko'ra ham tabaqalanishi darkor. Ayni bir mahsulotning sifat ko'rsatgichlari undan bir maqsadda foydalanilganda yuqori deb, boshqa maqsadda foydalanilganda esa past deb topilishi mumkin. Masalan, paxta chigiti tarkibidagi yog'ning ko'p bo'lishi uni yem-xashak, mahsulot tarzidagi qimmatini va sifatini oshiradi.

Moyli va efir moyli ekinlar

Mevalari yoki urug'i moyga boy bo'lgan o'simliklar moyli ekinlarga kiradi. Moyli ekinlar urug'ining sifati barcha umumiy majburiy ko'rsatgichlar; rangi, hidi, ta'mi, ifloslanishi don zaxiralari zararkunandalar bilan zararlangani tavsiflanadi. Ayrim ekin va turkumlarda don qobig'i aniqlanadi.

Moyli ekinlar uruglari sifatining belgilarini baholash va tavsiflashda ayrim o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Masalan, urug'larni qabul qilish va yetkazib berishda boshokli, dukkakli donli ekinlar donga nisbatan namlikning bir muncha past mezonlari belgilangan. Bu shu bilan izoxlanadiki, ularda mavjud bo'lgan moy namni yutish va tutib turishga qodir emas. Shu sababli suv ajratilmaydi va faqat gidrofil moddalar, asosan, oksillar bilan tutib turiladi. Binobarin, moyli ekinlar urug'idagi bog'lanmagan namlik boshokli va dukkakli ekinlar doniga nisbatan namlikning bir muncha past miqdorlarida paydo bo'ladi, ya'ni ularning kritik namligi ancha past. Ana shunday xususiyatlarga ko'ra moyli ekinlar urug'i uchun standartlarga binoan boshokli va dukkakli ekinlar doniga nisbatan namlikning boshqa me'yorlari belgilangan.

Moyli ekinlar urugi turkumlaridagi mavjud aralashmalar bilan ifloslanishini aniqlashda, ular ikki guruhga – iflos va moyli guruxlarga belgilaniladi. Boshqa moyli ekinlar urug'i moyli guruxga kiritiladi. Aralashmalar urug'ining saqlanishiga salbiy ta'sir qiladi, moy miqdorini va sifatini pasaytiradi. Moy sifatiga ayniqsa buzilgan urug'lar kabi aralashmalar ko'p ta'sir qiladi. Boshqa moyli ekinlar urug'i ham mahsulot miqdori va sifatiga ta'sir qilishi mumkin, chunki ularda moy ancha kam bo'lishi mumkin.

Sanoat xom-ashyosi sifatida ishlatiladigan efir moyli ekinlar mevalarda namunalarni ajratishda quyidagilar ajratiladi; butun normal mevalar, begona aralashmalar, shu o'simlikning efir moyli aralashmasi, boshqa o'simlikning efir moyli aralashmasi bo'lgan mevalar. Ko'pgina moyli ekinlar urug'iga umumiy texnik shartlarning davlat standartlari amal qiladi, ular sanoatda qayta ishlash uchun tayyorlanadigan va yetkazib beriladigan urug'larning sifatiga talablarni, qabul qilish qoidalarini, ular sifatini belgilash uslubiyetini, tashish va saqlash qoidalarini belgilaydi.

Moyli ekinlar urug'i rangi (gorchitsa, moyliko'knor, kunjut), biologik xususiyatlari - lalmi yoki kuzgi (raps), urug'larning yirikligi (kanakunjut) yoki yetishtiriladigan zona (nasha o'simligi) ga qarab turlarga bo'linadi.

Ekinga qarab bazisli namlik 9-14 % gacha , zararli aralashma tarkibi- 1-3 % va moylisi – 2-6 % o'zgarib turadi.

Standartlar barcha moyli ekinlar urug'ida kanakunjut bo'lishiga yo'l qo'ymaydi, chunki uning tarkibida zaharli moddalar (albuminrisin va risinin) bo'lib , ular moy ajratib olingandan so'ng kunjarada koladi.

Paxta chigiti ham moylilar guruxiga kiradi, u paxtaning sanoat navlarini qayta ishlashda olinadigan navlariga qarab 4 navga bo'linadi;1- birinchi navniki; 2- ikkinchi navniki; 3- uchinchi navniki; 4- to'rtinchi navniki .

Paxta chigiti navini aniqlashda, shuningdek , uning namligi, iflosligi to'liq to'qlanganligi ham hisobga olinadi. To'qlanganlik deganda chigitning qayta ishlanganligidan so'ng unda qolgan tola va to'qlarning foizlardagi tarkibi tushuniladi. To'qlanganlik bo'yicha me'yorlar chigitli paxtaning navlari va biologik turlari (o'rtacha tolali, ingichka tolali bo'yicha tabaqalashtirilgan tarzda belgilaniladi va har bir tur muayyan tipdagi navlar guruhlariga bo'linadi, shuningdek, paxtaning o'rtacha tolali navlarining necha marta linterlanishiga ham bog'liq bo'ladi).

Nazorat uchun savollar:

1. Oziq-ovqat mahsulotlariga qanday talablar qo'yiladi?
2. Oziq – ovqat standartlari qanday sinflarga bo'linadi?
3. Eksport qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlariga qo'yiladigan talablar.
4. Qanday maqsadda qishloq xo'jalik mahsulotlari standartlashtiriladi.
5. Oziq –ovqat mahsulotlari qanday usullarda tekshiriladi.
6. Oziq –ovqat korxonalarida qanday normativ hujjatlar ishlatiladi.

Adabiyotlar:

1. Henk J. de Vries Standardization: A Business Approach to the Role of National Standardization Organizations. Springer Science+Business Media, LLC, New York All Rights Reserved © 2000 Springer, 330 p.

2. Dr. Peter Hatto Standards and Standardization. Handbook. EUROPEAN COMMISSION, Directorate-General for Research Industrial Technologies Pictures © Shutterstock, 2010, 24 p.

3. Role of standards. A guide for small and medium-sized enterprises. Working paper. United nations industrial development organization, Vienna, 2006, 56 p.

4. Abduvaliyev A.A., Latipov V.B., Umarov A.S., Alimov M.N., Boyko S.R., Xakimov O.Sh., Xvan V.I. Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifat. O'quv qo'llanma. Toshkent, SMSITI, 2008. – 267 b.

5. Ismatullayev P.R., Matyakubova P.M., Turayev Sh.A. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. Darslik. «Lisson-Press». Toshkent, 2015. - 423 b.

6. P. R. Ismatullayev, A. N. Maqsudov, A. X. Abdullayev, B. M. Axmedov, A. A. A'zamov. Metrologiya standartlashtirish va sertifikatlashtirish. “O'zbekiston” Toshkent 2001y.

7. O'zRST 5.0-92. O'zbekiston Respublikasi milliy sertifikatlash tizimi. Asosiy qoidalar.

8. ISO 9000-1-94. Стандарты по общему руководству качеством и обеспечению качества.

9. www.ima.uz

10. www.academy.uz

11. www.standart.uz

12. www.smsiti.uz

13. www.uza.uz

1	Standartlashtirish darajasi	Geografik, siyosiy yoki iqtisodiy alomatlarni hisobga olib standartlashtirish bo'yicha faoliyatlarda ishtirok etish shakli
2	Hududiy standartlashtirish	Qaydaydir ma'muriy-hududiy birlik darajasidagi standartlashtirishdir. Mamlakat ichida yoki ma'muriy-hududiy birlikdagi (masalan, vazirlik darajasida), mahalliy darajada, assotsiatsiya va firmalar darajasida va sanoatning alohida fabrikalari, zavodlari yoki muassasalari darajasida, standartlashtirish iqtisodiyotning sektori yoki tarmoq darajasida bo'lishi mumkin
3	Mahsulotni himoyalash	Foydalanish, transport yoki saqlash davomida iqlim yoki boshqa salbiy sharoitlari ta'siridan himoya mahsulotlari
4	Me'yoriy hujjat	Hujjat faoliyati yoki ularning natijalari uchun qoidalari, ko'rsatmalarni yoki xususiyatlarini belgilash Izoh 1: muddatli "hujjat" standartlari, hujjatlar, texnik, amaliyot va qoidalariga kodlari kabi narsalarni o'z ichiga olgan umumiy atamadir. Izoh 2: muddatli "hujjat" har qanday o'rta unda yoki axborot yuzasida qayd yetgan anglatadi. Izoh 3: me'yoriy hujjatlar turli ma'nolarini bildiradigan atamalar deb hujjat asosida kelajakda belgilangan va uning mazmuni bir shaxs sifatida qabul qilinadi.

4-Mavzu. TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISHNING QONUNY ASOSLARI

Reja

- 4.1 Texnik jihatdan tartibga solish tizimlarining qonuniy asoslari.
- 4.2 O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimining tuzilmasi
- 4.3. Texnik reglamentlarda belgilanadigan xavfsizlik talablari.
- 4.4 Texnik reglamenglarning mazmuni
- 4.5. Texnik reglamentlarni ishlab chiqish bo'yicha umumiy qoidalar.

4.1 Texnik jihatdan tartibga solish tizimlarining qonuniy asoslari.

Qonun loyahasini ishlab chiqish davomida boshqa MDH davlatlari: Rossiya Federatsiyasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi, Belorussiya

Respublikasining “Standartlashtirish va texnik normalashtirish sohasida texnik me’yoriy huquqiy aktlar talablariga muvofiq baholash to’g’risida” va Qozog’iston Respublikasining “Texnik jihatdan tartibga solish to’g’risida”gi amaldagi qonunlari o’rganilgan.

Kelgusida standartlarni xalqaro standartlarga uyg’unlashuvi, texnik-iqtisodiy ma’lumotlarni kodlashtirish va yagona tasniflash tizimini yaratish bo’yicha ishlar, xalqaro reyestrlarda ro’yxatga olinmagan ekspertlar va xalqaro darajada tan olingan mutaxassislarni mavjud emasligi texnik reglamentlarni ishlab chiqish davomiyligi keyingi yillarda o’tishi hisobga olingan. Ko’rsatib o’tilgan davlatlar tajribalarini hisobga olib, O’zbekiston Respublikasining “Texnik jihatdan tartibga solish to’g’risida” qonuni qabul qilinganidan so’ng, o’tish davrida qonunlar parallel amal qilinishi uchun O’zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to’g’risida”gi qonuniga ham o’zgartirishlar kiritilishi mumkin. O’zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to’g’risida”gi qonuni almashtirishi o’tish vaqti tugashi bo’yicha standart va texnik reglamentlarni tayyorlash, qabul qilish va qo’llash bilan aloqador masalalarni hal etilishi “O’zstandart” Agentligi ishlab chiqqan “Texnik jihatdan tartibga solish to’g’risidagi” qonun loyihasida nazarda tutilgan. Belgilangan o’tish davomida amaldagi qonuniy aktlarga almashtiriluvchi texnik reglamentlarni ishlab chiqish rejalashtirilgan. Texnik reglamentlar O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan yillik dastur bo’yicha ishlab chiqiladi.

O’zbekiston Respublikasining “Texnik jihatdan tartibga solish to’g’risida”gi Qonunida “texnik normalashtirish” davlat vazifasi O’zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi va O’zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq boshqa davlat boshqaruvi idorlari, shuningdek, MDH boshqa davlatlari birlashtirilmoqda.

O’zbekiston Respublikasining “Texnik jihatdan tartibga solish to’g’risida”gi Qonuni loyihasi bilan bir qatorda hozirgi vaqtda “O’zstandart” agentligi amaldagi O’zbekiston Respublikasining “Mahsulotlari va xizmatlarni sertifikatlashtirish to’g’risida”gi Qonunini o’z navbatida almashinuvchi va muvofiqlikni baholash hamda tasdiqlashning asosiy jarayonlarini aniqlovchi “Texnik jihatdan tartibga

solish sohasida muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqmoqda⁹.

“Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida”gi Qonunda quyidagi atamalar va ta'riflar keltirilgan:

texnik jihatdan tartibga solish — mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilash, qo'llash va bajarish;

mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligi — mahsulotning, uni ishlab chiqarish, ishlatish (undan foydalanish), saqlash, tashish, realizasiya qilish va utilizasiya qilish jarayonlarining, bajariladigan ishlar, ko'rsatiladigan xizmatlarning holati bo'lib, bunda insonning hayotiga, sog'lig'iga, atrof muhitga, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulkiga zarar yetkazilishi ehtimoli bilan bog'liq yo'l qo'yilmaydigan xavf mavjud bo'lmaydi;

texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar — texnik reglamentlar, standartlashtirishga doir normativ hujjatlar, sanitariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya qoidalari va normalari, shaharsozlik normalari hamda qoidalari, ekologik normalar va qoidalar hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa hujjatlar;

texnik reglament — texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat;

umumiy texnik reglament — texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, bir turdagi mahsulotlar, ishlar va xizmatlar guruhi xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat;

maxsus texnik reglament — texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, umumiy texnik reglamentda nazarda tutilmagan mahsulotlar, ishlar va xizmatlar ayrim turining xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat;

⁹ Исматуллаев П.Р., Матякубова П.М., Тураев Ш.А. Метрология, стандартлаштириш ва сертификатлаштириш. Дарслик. «Lisson-Press». Тошкент, 2015. -423 б.

savdodagi texnik to'siqlar — mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda mavjud bo'lgan tafovutlari yoki o'zgarishlari oqibatida savdoda yuzaga keladigan to'siqlar.

4.2. O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimining tuzilmasi

Texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimiga kiruvchi organlar faoliyatining asosiy yo'nalishlarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi. Ushbu tizimni shakllantirish, takomillashtirish va Qonun bilan belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari tayinlangan (4.2.1-rasm):


– O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining umumiy va maxsus texnik reglamentlarni ishlab chiqishga doir faoliyatini o'z vakolati doirasida muvofiqlashtiradi hamda tashkil etadi;

– O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning xavfsizligiga doir, ularda inson hayoti va sog'ligi uchun zararli moddalar, kasallik tug'diruvchi organizmlarning mavjudligi, kasallik tashuvchilarning kirib kelishi yoki tarqalishining oldini olish, tibbiyot buyumlari, tibbiy texnika va dori vositalarini ishlab chiqarish hamda qo'llash bo'yicha majburiy talablarga taalluqli ishlarning bajarilishini tashkil etadi va ta'minlaydi;

– O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi shaharsozlik faoliyatida mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarga taalluqli ishlarning bajarilishini tashkil etadi va ta'minlaydi;

– O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tabiiy resurslardan foydalanish hamda atrof-muhitni ifloslanish va boshqa zararli ta'sirlardan muhofaza qilishda mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarga taalluqli ishlarning bajarilishini tashkil etadi va ta'minlaydi;

– Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari o'z vakolatlari doirasida “Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida”gi Qonunda belgilangan vazifalarni amalga oshiradi.



4.2.1-rasm. Texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimi

Qonunda texnik reglamentlarni ishlab chiqish jarayoni ushbu soha ekspert kengashlariga yuklatilgan. Ishlab chiqilgan texnik reglament loyihalarini ekspertizadan o'tkazishni esa vakolatli davlat organlari huzurida tashkil etiladigan ekspert komissiyalari bajaradi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasida me'yoriy xujjatlarni to'plash va ular to'g'risida ma'lumotlarni yetkazish masalalarni tizimli ravishda hal etish maqsadida davlat fondi tashkil qilindi¹⁰.

Joriy etilayotgan tizimni shakllantirish uchun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 10 maydagi 86-sonli "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirishni davom ettirish chora-tadbirlari haqida"gi qarori bilan quyidagilar tasdiqlandi:

1. "Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyalari to'g'risidagi Nizom";
2. "Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning davlat fondini shakllantirish va yuritish tartibi to'g'risidagi nizom";
3. "2010-2013 yillar uchun texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturi".

¹⁰ Исматуллаев П.Р., Матякубова П.М., Тураев Ш.А. Метрология, стандартизация и сертификация. Дарслик. «Lisson-Press». Тошкент, 2015. -423 б.

4.3. Texnik jihatdan tartibga solish tizimining asosiy prinsiplari

O'zbekiston Respublikasining «Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida»gi Qonuniga binoan texnik jihatdan tartibga solishning asosiy prinsiplari belgilangan, bular:

- texnik reglamentlarni qo'llashning majburiyligi, chunki texnik reglament bir turdagi mahsulot, ish va xizmatlar xavfsizligiga majburiy talablarni o'rnatuvchi normativ hujjat hisoblanadi;

- texnik reglamentlarni qo'llashning bir xilligi, ya'ni texnik reglament O'zbekiston Respublikasining butun hududida barcha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qo'llaniladi;

- texnik reglamentlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi milliy va xalqaro normativ hujjatlarga muvofiqligi.

Ta'rif bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- texnik reglamentlar;
- standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlar;
- sanitariya, veterinar-sanitariya, fitosanitariya qoidalari va normalari;
- shaharsozlik, ekologiya normalari va qoidalari;
- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa hujjatlar;
- texnik reglamentlarning, ularni ishlab chiqish, qabul qilish va e'lon qilish tartibi to'g'risidagi axborotning ochiqligi.

«O'zstandart» agentligiga, yuridik va jismoniy shaxslarning so'rovlariga ko'ra:

- amaldagi, ishlab chiqilayotgan va qabul qilingan texnik reglamentlar to'g'risidagi ma'lumotlarni;

- mahsulot, ish va xizmatlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini baholash tartib-taomili to'g'risidagi ma'lumotlarni;

– O'zbekiston Respublikasining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi xalqaro tashkilotlarga a'zoligi va xalqaro shartnomalardagi ishtiroki to'g'risidagi ma'lumotlarni;

– qabul qilingan va ishlab chiqilayotgan texnik reglamentlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa normativ hujjatlarni e'lon qilishning rasmiy manbalari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish yuklatilgan.

Texnik reglament turlari va texnik reglamentlarda belgilanadigan xavfsizlik talablari

Texnik reglament quyidagi yo'nalishlar bo'yicha qabul qilinishi mumkin:

- biologik xavfsizlik;
- mexanik xavfsizlik;
- kimyoviy xavfsizlik;
- yadroviy va radiatsiyaviy xavfsizlik;
- yong'in xavfsizligi;
- elektr xavfsizligi;
- mashina va uskunalarni ishlatish (ulardan foydalanish) hamda utilizasiya qilish xavfsizligi;
- binolar, inshootlardan va ularga tutash hududdan foydalanish xavfsizligi;
- ekologik xavfsizlik;
- veterinariya xavfsizligi;
- sanoat va ishlab chiqarish xavfsizligi;
- portlash xavfsizligi;
- axborot xavfsizligi;

– o'lchovlar va sinovlar usullarining bir xilligini ta'minlash, shuningdek mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga qo'yiladigan boshqa talablar ham belgilab qo'yilishi mumkin.



O'z TJTSDT ning abbreviatura ko'rinishidagi davlat tilida qisqartirilgan nomlanishi O'z TJTSDT (O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimi) deb belgilanadi.

O'z TJTSDT ga tarmoqlararo standartlashtirish tizimining 18 sinfi berilgan.

Texnik reglamenglarning mazmuni

“O'zstandart” agentligi texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlarini O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va boshqa davlat xo'jalik boshqaruvi organlar

asoslangan takliflari bo'yicha shakllantiradi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi¹¹.

Ekspert kengashlar texnik reglamentlar loyihasini ishlab chiquvchilar bo'ladi. Ekspert kengashlar texnik reglamentlar loyihasini ishlab chiqishda O`z DSt 1.1, O`z DSt 1.6, O`z DSt 1.24, O`z DSt 18.0, O`z DSt ISO/IEC 51, O`z DSt 1052, O`z RH 51-010, hamda mahsulot, ishlar va xizmatlarni xavfsizlikga milliy va xalqaro talablarga doir xavfsizlik talablarini belgilanadigan texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ va normativ-huquqiy hujjatlarni amal qiladi.

Texnik reglamentlar loyihasini ishlab chiqish uchun asos sifatida xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy va O'zbekiston davlat standartlardan, hamda boshqa davlatlarning ekvivalent (uyg'unlashtirilgan) texnik reglamentlardan to'liq yoki qisman foydalansa bo'ladi.

O`z DSt 1.7 va O`z DSt ISO/IEC 21 bo'yicha O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan (kiritilgan) shartda ishlab chiqaralayotgan standartlardan belgilangan darajada foydalanishga ruxsat beriladi. Bunda, belgilangan tartibda texnik reglamentlarda ko'rsatilgan standartlar matnlari to'liq yoki qisman keltiriladi.

Texnik reglamentlarni ishlab chiquvchi:

– manfaatdor foydalanuvchilar loyihasi bilan tanishishga imkon berish uchun aniq texnik reglamentni ishlab chiqish to'g'risida "O'zstandart" agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasini axborot nashrda bildirishnomani ishlab chiqish vaqtidan ikki haftadan kechikmay dastlabki boqichda chop etadi;


– qachon hali tuzatishlarni kiritish va mulohazalar inobatga olingan bo'lishi mumkin bo'lganda, ishlab chiqishining dastlabki boqichida bildirishnoma chop etadi;

¹¹ Исмагуллаев П.Р., Матякубова П.М., Тураев Ш.А. Метрология, стандартлаштириш ва сертификатлаштириш. Дарслик. «Lisson-Press». Тошкент, 2015. -423 б.

– rasmiy talab asosida to’liq tavsiflar yoki amaldagi xalqaro standartlar bilan jiddiy farqlanishlarni ko’rsatib, ishlab chiqilayotgan texnik reglament loyiha nusxasi manfaatdor foydalanuvchilarga taqdim etadi;

– manfaatdor taraflarga mulohazalarini tayyorlash, muhokama qilish va ishlab chiquvchi ushbu muhokamani inobatga olish uchun kamsitishsiz vaqtni ajratib beradi.

Ishlab chiquvchi texnik reglamentiga qo’yiladigan talablar ishlab chiqarish usuli yoki tovarlarni moslashtirishga ishlab chiqaruvchiga vaqt berish uchun texnik reglamentlarni chop etish va ular kuchga kirish orasida aniq vaqtni nazarda tutadi.



4.3.2-pacm. Texnik reglamentlarni tasdiqlash darajasi va me'yoriy hujjatlar davlat fondini shakllantirish

Texnik reglamentlarni ishlab chiqish tartibi.

Texnik reglament loyihasi oxirgi tahrirni ishlab chiqish tugatishni ekspert kengash bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnomaga ekspert kengashning hamma a'zolarining imzolari qo'yiladi.

Texnik reglament loyihasi ekspert kengashning bayonnomasi qaroriga muvofiq hamma manfaatdor tashkilotlar kelishilgan deb hisoblanadi, hollari bundan mustasno, agar:

- ekspert kengashning tarkibiga asosiy manfaatdor tashkilotlarning vakil (vakillari) kiritilmagan bo'lsa;

Kelishish 30 kun ichida yozma ravishda o'tkaziladi.

Umumiy texnik reglamentlarni tasdiqlash tartibi.

Ekspert kengashlar qoidada belgilangandek, komplektida ekspert kommissiyasi tomonidan ekspertizani o'tkazish uchun (o'z vakolat doirasida) "O'zstandart" agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga texnik reglamentlar loyihalarni kiritadi:

- ilova xat;
- loyiha risola holda ikkita nusxada davlat va rus tilida;
- loyhani ishlab chiqish to'g'risida bildirishnomani nusxasi;
- ishlab chiqish va texnik reglamentni joriy etish texnik-iqtisodiyot asoslanishi;

- ilova, texnik reglamentga qo'yiladigan talablarni rioya etishni ta'minlaydigan, mintaqaviy (Yevropa dagi), davlatlararo, xalqaro standartlar ro'yxatini yoki boshqa standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlarni o'z ichiga oladigan;

- taqrizlar ma'lumoti;
- tushuntirish xati;
- kelishmovchilik to'g'risida ma'lumot (kelishmovchilik mavjudligida);

– texnik reglamentni joriy etadigan va ishlab etadigan - davlat va xo'jalik boshkaruvi organlar tomonidan tasdiqlangan texnik reglamentni joriy etish bo'yicha texnik-tashkiliy chora-tadbirlarning rejasi.

Hamma sanab chiqilgan hujjatlar, hamda boshqa kerakli hujjatlar, ilova xatdan tashqari elektron shaklda ham taqdim etiladi.

Ekspert kommissiyasining ijobiy xulosasida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlashga kiritish uchun "O'zstandart" agentligiga Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi, ekspert kommissiyasining xulosasi bilan texnik reglamentlar loyihasi, tushuntirish xatni muqovalatilgan holda turta nusxada kiritiladi.

Mulohazalar mavjulichida, texnik reglamentlar loyihasi ekspert kommissiyasining xulosasi bilan oxirga yetkazish uchun ishlab chiquvchiga qaytariladi.

Texnik reglamentlar, ularga o'zgartish va qo'shimchalarni kiritish va bekor qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadi.

Tasdiqlangan texnik reglamentlar, ularga o'zgartish va/yoki qo'shimchalar, hamda ularni tasdiqlash bo'yicha tashkiliy – boshqara biladigan hujjatlar qoidada belgilangan tartibda davlat fondini komplektlash uchun yuboriladi.

Maxsus texnik reglamenglarning tasdiqlash tartibi.

Ekspert kengashlar qoidada belgilangandek, komplektida ekspert kommissiyasi tomonidan ekspertizani o'tkazish uchun (o'z vakolat doirasida) "O'zstandart" agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga texnik reglamentlar loyihalarni kiritadi.

Ekspert kommissiyasining ijobiy xulosasida "O'zstandart" agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni

muhofaza qilish davlat qo'mitasi o'z vakolat doirasida texnik reglamentlarni tasdiqlaydi yoki tegishli davlat boshqaruv organlariga tasdiqlash uchun yuboradi.

“O'zstandart” agentligi xo'jalik boshqaruvi organlar tomonidan ishlab chiqilgan texnik reglamentlarni tasdiqlaydi.

Texnik reglamentlar vakolatli va boshqa davlat organlari texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi qarorlar (buyruqlar)i bilan tasdiqlanadi.

Mulohazalar mavjulgida, texnik reglamentlar loyihasi ekspert kommissiyasining xulosasi bilan oxirgi yetkazish uchun ishlab chiquvchiga qaytariladi.

Tasdiqlangan texnik reglamentlar, ularga o'zgartish va/yoki qo'shimchalar, hamda ularni tasdiqlash bo'yicha tashkiliy – boshqara biladigan hujjatlar qoidada belgilangan tartibda davlat fondini komplektlash uchun yuboriladi.

. Texnik reglamentlarni muomalaga kiritish va belgilanishi

Texnik reglament loyihasi Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash, yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish va huquqiy ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risida uslubiy ko'rsatmalarni tasdiqlash haqidagi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2012 yil 9 aprelda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2352 normaiv hujjat talablariga ko'ra rasmiylashtiriladi.

Tashkilot va tarmoqlarda standartlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish bo'yicha ishlarning zamonaviy holatini tavsiflash va tahlil qilish; Loyihaning matni A4 formatdagi qog'oz varag'ining bir tomonida masshtab kichraytirilmagan holda joylashishi lozim.

Agar loyiha ikki yoki undan ortiq varaqda bayon etilgan bo'lsa, loyiha va uning ilovalarining har bir varag'i alohida raqamlanishi lozim. Betning tartib raqami varaqning yuqorisida o'rtada 2 raqamidan boshlab yoziladi. Birinchi betida 1 raqami qo'yilmaydi.

Loyihalar tayyorlanishida, qoida tariqasida, Misrosoft Word redaktoridan va quyidagi parametrlardan foydalaniladi:

- varaqning chap hoshiyasi 3 sm, o'ng hoshiyasi 1,5 sm, yuqori va past hoshiyasi 2 sm;

- «Times New Roman» shrifti va loyihaning hajmidan kelib chiqib 13, 13,5 va 14 o'lchamli shrift;

- birinchi qator xatboshisi 1,27 sm;

- qatorlararo interval (mnojitel) 1.2.

Loyihaning birinchi beti yuqori qismining o'ng tomonida «LOYIHA» so'zi qo'yiladi, uning hajmi matn shrifti bilan aynan bir xil bo'lishi lozim.

Loyiha turining matni katta harflar bilan, matnni markazga to'g'rilagan holda, «yarim qora» shriftida, qatorlararo birlik intervalda va xatboshisiz rasmiylashtiriladi.

Loyihaning nomi kichik harflarda, «yarim qora» shriftida, matn markazga to'g'rilangan holda, qavslarsiz, qatorlararo birlik intervalda va xatboshisiz yoziladi.

Loyiha matnining har bir qatorida so'zlar ko'chirilmasdan tugallangan bo'lishi lozim. Loyihaning har bir qatori oxirida, old ko'makchilar, bog'lovchilar, «№» belgisi, sonlar qismi, abbreviaturalar va boshqalarning qoldirilishi tavsiya etilmaydi.

Tayyorlanayotgan loyihaning matni grammatik, punktuasion, orfografik va stilistik xatolarsiz bayon etilishi lozim.

Ilova belgisi 12 o'lchamli shriftida sahifaning yuqori o'ng burchagida joylashtiriladi hamda unda, ilovaning raqami (agar bir nechta ilovalar mavjud bo'lsa), ilova qilinayotgan loyiha turi ko'rsatilgan holda hujjat raqami va sanasi ko'rsatiladigan bo'sh joy qoldiriladi.

Loyiha ilovasining nomi kichik harflarda, «yarim qora» shriftida, matn markazga to'g'rilangan holda, qavslarsiz, qatorlararo birlik intervalda va xatboshisiz yoziladi.

Umumiy va maxsus texnik reglamentlar rasmiy e'lon qilingan paytdan e'tiboran kamida olti oy o'tgach amalga kiritiladi. Texnik reglamentni kiritish sanasi ekspert kengashlar tomonidan o'rnatiladi.

Texnik reglamentlar vakolatli va boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari qaror (buyruq)lar va xo'jalik yurituvchi subyektlari buyruq (farmoyish)lar bilan joriy qilinadi.

Nazorat uchun savollar:

1. O'zbekiston davlat "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi qonuni.
2. O'zbekiston davlat texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimining tuzilishi
3. Texnik reglamentlarni ishlab chiqish bo'yicha umumiy qoidalar
4. Maxsus texnik reglamentlar
5. Texnik reglamentlarda belgilanadigan xavfsizlik talablari.
6. Texnik reglamenglarning mazmuni

Adabiyotlar:

1. Henk J. de Vries Standardization: A Business Approach to the Role of National Standardization Organizations. Springer Science+Business Media, LLC, New York All Rights Reserved © 2000 Springer, 330 p.
2. Dr. Peter Hatto Standards and Standardization. Handbook. EUROPEAN COMMISSION, Directorate-General for Research Industrial Technologies Pictures © Shutterstock, 2010, 24 p.
3. Role of standards. A guide for small and medium-sized enterprises. Working paper. United nations industrial development organization, Vienna, 2006, 56 p.
4. Abduvaliyev A.A., Latipov V.B., Umarov A.S., Alimov M.N., Boyko S.R., Xakimov O.Sh., Xvan V.I. Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifat. O'quv qo'llanma. Toshkent, SMSITI, 2008. – 267 b.
5. Ismatullayev P.R., Matyakubova P.M., Turayev Sh.A. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. Darslik. «Lisson-Press». Toshkent, 2015. - 423 b.
6. www.ima.uz

7. [vtww .academy.uz](http://vtww.academy.uz)
8. www.standart.uz
9. www.smsiti.uz
10. www.uza.uz

1	Texnik jihatdan tartibga solish	Mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilash, qo'llash va bajarish
2	Mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligi	Mahsulotning, uni ishlab chiqarish, ishlatish (undan foydalanish), saqlash, tashish, realizasiya qilish va utilizasiya qilish jarayonlarining, bajariladigan ishlar, ko'rsatiladigan xizmatlarning holati bo'lib, bunda insonning hayotiga, sog'lig'iga, atrof muhitga, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulkiga zarar yetkazilishi ehtimoli bilan bog'liq yo'l qo'yilmaydigan xavf mavjud bo'lmaydi;
3	Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar	Texnik reglamentlar, standartlashtirishga doir normativ hujjatlar, sanitariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya qoidalari va normalari, shaharsozlik normalari hamda qoidalari, ekologik normalar va qoidalar hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa hujjatlar;
4	Texnik reglament	Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat;
5	Umumiy texnik reglament	Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, bir turdagi mahsulotlar, ishlar va xizmatlar guruhi xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat;
6	Maxsus texnik reglament	Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, umumiy texnik reglamentda nazarda tutilmagan mahsulotlar, ishlar va xizmatlar ayrim turining xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat;
7	Savdodagi texnik to'siqlar	Mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda mavjud bo'lgan tafovutlari yoki o'zgarishlari oqibatida savdoda yuzaga keladigan to'siqlar
8	Ekspert komissiyalari	Texnik reglamentlarni ishlab chiqish jarayoni amalga oshiradi
9	Texnik jihatdan tartibga solish tamoyillaridan biri	Texnik reglamentlarni qo'llashning majburiyligi, chunki texnik reglament bir turdagi mahsulot, ish va xizmatlar xavfsizligiga majburiy talablarni o'rnatuvchi normativ hujjat hisoblanadi;

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-AMALIY MASHG'ULOT. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA STANDARTLARNING TURLARI VA TOIFALARI

1.1. Standartlashtirishning asosiy tushuncha, maqsad va vazifalari

Faraz qilaylik, endi dam olay deb, dam olish xonasiga kirib, chiroqni yoqqan edik, lip etib yondi-yu, o'chdi. Nima qilamiz? Darhol boshqa lampochkani olib, almashtiramiz. Xo'sh, buning nimasi g'ayri tabiiy? Siz bunda kuygan lampochkani o'rniga boshqasi aynan, ham kuchlanish bo'yicha, ham qo'vvati bo'yicha, ham o'lchamlari bo'yicha to'g'ri kelishini ostida qanchalar inson mehnati yotganligini hyech o'ylab ko'rganmisiz?

Odatda biz standart bo'yicha degan iborani ko'p ishlatamiz.

Xo'sh standart nima? **Standart** - bu ko'pchilik manfaatdor tomonlar kelishuvi asosida ishlab chiqilgan va ma'lum sohalarda eng maqbul darajali tartiblashtirishga yo'naltirilgan hamda faoliyatning har xil turlariga yoki natijalariga tegishli bo'lgan umumiy va takror qo'llaniladigan qoidalar, umumiy qonun-qoidalar, tavsiflar, talablar va usullar belgilangan va tan olingan idora tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjatdir.

Standartlar fan, texnika va tajribalarning umumlashtirilgan natijalariga asoslangan va jamiyat uchun yuqori darajadagi foydaga erishishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Standartlar darajasiga qarab, xalqaro, mintaqaviy davlatlararo, milliy va korxonada miqyosida faoliyat ko'rsatadi.

Davlat standartlari mahsulotni ishlab chiqish va uni ishlab chiqarishga qo'yish bosqichida yangi mahsulotlarning yuqori sifatli turlarini yaratish va o'zlashtirishni tezlashtirishga, ishlab chiqaruvchi, tayyorlovchi va iste'molchi oralaridagi munosabatlarni yaxshilashga yo'naltirilgan.

Standartlashtirish tizimi yangi buyumga o'z vaqtida yuqori sifatli loyiha-konstruktorlik hujjatlar berish, korxonaning yangi mahsulotini berilgan sifat ko'rsatkichlariga asosan tayyorlashni va kerak bo'lsa mahsulotning ishlab chiqarishdan olib tashlashni belgilaydi.

Standartlashtirish mahsulot muomalada bo'lganida va sotish bosqichlarida mahsulotni joylashtirish (upakovka)da yaxshi tartib va sharoitlar yaratishga, yuklashga va joylashtirishga, saqlashga, omborlarda mahsulot sifatini buzilmay saqlashga, transportda olib yurishda, buyumni tarqatish, sotish tashkilotlariga talablar belgilaydi.

Standartlashtirish tub mohiyati bilan ishlab chiqarishni tashkil etishning eng samarador formalari haqidagi fandır.

Standartlashtirish iqtisod, texnologiya va fundamental fanlar singari asosiy yo'nalishlarni bir-biriga bog'lovchi vosita hamdir.

Ko'pgina texnika jihatidan ilg'or mamlakatlarda standartlashtirish masalalariga o'suvchi qiziqish qayd qilinmoqda, uning asosi bo'lgan standartlashtirishning nazariyasiga ham katta e'tibor berilmoqda.

Standartlashtirishni texnika taraqqiyotida, ishlab chiqarishda eng rasional joriy qilish, mahsulot sifatini yaxshilash, mehnat harajatlarini va moddiy resurslarni ta'sirchan vositalaridan biri sifatida ko'rilmogda.

Ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik dastur va loyihalarni amalga oshirish standartlashtirishning asosiy maqsadlaridan hisoblanadi. Bu maqsadni amalga oshirilishi «Standartlashtirish to'g'risida»gi qonunda aniqlashtirilgan: «To'liq yoki qisman respublika byudjet mablag'larini moliyalashtiruvchi davlat dasturlarini ishlab chiqishda mahsulotning sifatini me'yoriy taminlanishi bo'yicha bo'limlar ko'zda tutilishi shart».

Tabiiy va texnogen falokatlar va boshqa favqulodda vaziyatlar vujudga kelishini hisobga olgan holda, iqtisodiyot obyektlarining xavfsizligini ta'minlash.

O'zRH 78-001 rahbariy hujjat bilan me'yoriy hujjatlarda yong'in xavfsizligi talablari to'liq ko'rsatilishini tekshirish metodikasi ustidan nazorat qilish tartibi tasdiqlangan.

Standart bu ko'pchilik manfaatdor tomonlar konsensusi (kelishuvi) asosida ishlab chiqilgan, ma'lum sohalarda optimal tartiblashtirishga yo'naltirilgan faoliyatning har xil turiga yoki natijalariga tegishli bo'lgan umumiy va takror qo'llaniladigan qonun-qoidalar, tavsiflar, talablar va usullar belgilangan va tan olingan idora tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjatdir.

Standartlashtirish bu barcha manfaatdor tomonlar ishtirokida umumfoydali, jumladan, iqtisodiyotga erishishda takrorlanadigan vazifa (jarayon)larning umum maqbul yechimini topish uchun foydalanish sharti, texnik xavfsizlik va ekologiya talablariga rioya qilingan holda, ma'lum bir sohada, faoliyatni optimal darajada tartiblashtirish maqsadida qoidalar o'rnatish va qo'llashdir.

"Standartlashtirish obyekti" tushunchasini keng ma'noda ifodalash uchun "mahsulot, jarayon, xizmat" iboralari qabul qilingan bo'lib, buni har qanday materialga, tarkibiy qismlarga, asbob-uskunalarga, tizimlarga, ularni mosligiga, qonun-qoidasiga, ish olib borish uslubiga, vazifasiga, usuliga yoki faoliyatiga teng darajada daxldor deb tushunmoq lozim (1.1-rasm).


Standartlashtirish har qanday obyektning muayyan jihatlari (xususiyatlari) bilan cheklanishi mumkin. Masalan, oyoq kiyimga nisbatan yondashiladigan bo'lsa, uning katta-kichikligi va pishiqligini alohida standartlashtirish mumkin.

Standartlashtirish obyekti sifatida xizmat – xalqqa xizmat qilishni (xizmat shartlarini qo'shib) va korxonalar hamda tashkilotlar uchun ishlab chiqarish xizmatini o'z ichiga oladi. Standartlashtirishning boshqa obyektlari faoliyatining birlashtirilgan sohalarida O'zbekiston Respublikasi Tabiiy muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi hamda Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

Demak, standartlashtirish obyekti – standartlashtiriladigan yoki unga yo'naltirilgan mahsulot, ishlar (jarayonlar) va xizmatlardir.

Standartlashtirish jihati – tanlangan standartlashtirish obyekti standartlashtirish yo'nalishi bo'lib, unga ko'rsatilgan talablar turini aniqlaydi.


O'z-o'zidan standartlashtirish jihati muayyan bir guruhdagi mahsulot yoki xizmatlar bo'lib, unda: atama va ta'riflar, sinflanishi, asosiy parametriga talablar, saqlash, tashish va vosita hamda usullariga talablar, nazorat usullari va vositalari, metodlariga talablar va boshqalar hisoblanadi.



Standartlashtirish sohasi o'zaro aloqador standartlashtirish obyektlari majmuasi deb ataladi. Standartlashtirish sohasi bo'lib, kimyo sanoati, mashinasozlik, transport, oziq-ovqat sanoati, tibbiyot, ekologiya va boshqalar hisoblanadi. Masalan, kimyo sanoati standartlashtirish sohasi bo'lsa, kimyo sanoatining standartlashtirish obyektlari bo'lib texnologik jarayonlar, mahsulotlar, qurilmalarning xavfsizligi va ekologikligi va boshqalar hisoblanadi.

Standartlashtirish turli darajalarda amalga oshiriladi. Standartlashtirish darajasi dunyoning siyosiy, geografik, iqtisodiy hududi qabul qilingan standart ishtirokchilarining aloqadorligi bilan farqlanadi. Jami bo'lib to'rtta asosiy darajaga: xalqaro, hududiy, milliy va korxonalar (tashkilot) darajasiga bo'ladi.

Standartlashtirish obyekti, jihati va darajasi standartlashtirish sferasini tashkil etadi. Uni uch o'lchamli to'g'ri burchakli kordinata tizimlarida grafik shaklda tasvirlash mumkin (1.2-rasm)¹².



1.2-rasm. Standartlashtirish sohalarini

Odatda xalqaro, mintaqaviy, milliy standartlashtirish idoralari mavjud.

Xalqaro standartlashtirish faoliyatida barcha mamlakatlarning tegishli idoralari erkin holda ishtirok etish mumkin.

Mintaqaviy standartlashtirish deganda dunyo miqyosida birgina jug'rofiy yoki iqtisodiy mintaqasiga qarashli mamlakatlarning tegishli idoralari uchun erkin holda ishtirok etishlari mumkin bo'lgan standartlashtirish tushuniladi.

Milliy standartlashtirish – bu muayyan bir mamlakat doirasida o'tkaziladigan standartlashtirish faoliyatidir.

¹² Role of standards. A guide for small and medium-sized enterprises. Working paper. United nations industrial development organization, Vienna, 2006, 56 p.

Standartlashtirish har xil faoliyat turlari va uning natijalariga daxldor qoidalar, umumiy qonun-qoidalar yoki tavsiflarni o'zida qamrab olgan me'yoriy hujjat hisoblanadi.

Me'yoriy hujjat – atamasi standartlar, texnikaviy shartlar, shuningdek umumiy ko'rsatmalar, yo'riqnomalar va qoidalar tushunchasini ham o'z ichiga qamrab oladi.

Standartlashtirish maqsadlari ko'p qirrali bo'lib, ular asosan quyidagilardan iborat: birxillashtirish (har xillikni boshqarish), qo'llanishlilik, moslashuvchanlik, o'zaro almashuvchanlik, sog'liqni saqlash, xavfsizlikni ta'minlash, tashqi muhitni asrash, mahsulotni himoyalash, o'zaro tushunishlikka erishish, savdodagi iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilash va boshqalar. Bir maqsadning amalga oshishida bir vaqtda boshqa maqsadlarning ham amalga oshishi mumkin.

Standartlashtirishning ahamiyati va mohiyati. Ixtiyoriy ixtisoslikdagi mutaxassis ish faoliyati jarayonida ko'plab takrorlanuvchi masalalarni hal etishga ya'ni namunaviy hujjatlarni tuzish, namunaviy hisob-kitoblarni amalga oshirish, takrorlanuvchi o'lchashlarni bajarish, turli qurilmalar, texnikaviy tizimlar yoki odamlar jamoalarini boshqarish bo'yicha bir xil amallardan foydalanishga to'g'ri keladi. Bu masalalarni hal etishning turli xil variantlari mavjud. Standartlashtirish masalarni optimal hal etish, yanada to'g'riroq va iqtisodiy variantlarini aniqlashga yo'naltirilgan.

Standartlashtirish – bu aniqlangan sohada tartiblashtirish darajasini optimalligiga erishishga yo'naltirilgan, fan, texnika va iqtisodiyot sohalarida takrorlanuvchi masalalarni hal etilishini topishga xulosalovchi faoliyatdir.


Standartlashtirish obyekti ta'rifidan kelib chiqib, mahsulot (xom-ashyo, materiallar, detallar, buyumlar, qurilmalar), jarayonlar (turli xil operasialarni bajarish usullari), atamalar, belgilashlar, xizmatlar va ishlar standartlashtirishning obyekti bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun standartlashtirish mohiyatini quyidagi shaklda bayon etish mumkin:

Standartlashtirish obyektini tanlash ya'ni aniqlangan soha faoliyatini tahlil qilish va ko'p marotaba takrorlanuvchi obyektlarni aniqlashni qamrab oladi.

Boshqa obyektlar (alamatlar, xossalari) mavjudligi to'g'risida ma'lumotlarni aniqlash jarayonida standartlashtirish obyektini modellashtirish.

Optimal modelni standartlashtirish, ya'ni me'yoriy hujjatni ishlab chiqish. Aynan me'yoriy hujjat bevosita standartlashtirish natijasi bo'lib hisoblanadi. Me'yoriy hujjat bir vaqtning o'zida standartlashtirish vositasi ham bog'liq hisoblanadi. Uni umumiy va ko'p marotaba qo'llash mavjud va kelgusidagi masalalarni hal etishda kutilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy yoki boshqa samarani berishi mumkin.

Masalan, elektrik va elektron qurilmalarning sxemalarini tuzishda yanada yaqqol va qulay belgilashni qo'llash uchun namunaviy elementlari belgilanishi keltirilib, ularni shartli belgilash variantlari ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlarda majburiy ravishda keltirilgan va tasdiqlangan (1.3-rasm).



1.3-rasm. Rezistorni shartli belgilash evolyotsiyasi

Standartlashtirishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning (keyingi o'rinlarida mahsulotlar deb yuritiladi) aholining hayoti, salomatligi va mol-mulki, atrof-muhit uchun xavfsizligi, resurslarni tejash masalalarida iste'molchilarning va davlatning manfaatlarini himoya qilish;
- mahsulotlarning o'zaro bir-birining o'rnini bosishini va bir-biriga monandligini ta'minlash;
- fan va texnika taraqqiyoti darajasiga, shuningdek, aholi va xalq xo'jaligining ehtiyojlariga muvofiq mahsulotlarning sifati hamda raqobatbardoshligini oshirish;
- resurslarning barcha turlarini tejashga, ishlab chiqarishning texnikaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilashga ko'maklashish;

– ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy dasturlar va loyihalarni amalga oshirish;

– tabiiy va texnogen falokatlar va boshqa favqulotda vaziyatlar yuzaga kelishi, havf-xatarni hisobga olgan holda xalq xo'jaligi obyektlarining xavfsizligini ta'minlash;

– iste'molchilarni ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar nomenklaturasi va sifati to'g'risidagi to'liq va ishonarli axborot bilan ta'minlash;

– mudofaa qobiliyatini va safarbarlik tayyorgarligini ta'minlash;

– o'lchashlarning yagonaligini ta'minlash;

– ishlab chiqaruvchi (sotuvchi, ijro etuvchi) ma'lum qilgan mahsulot sifati to'g'risidagi ko'rsatkichlarini tasdiqlash.

Standartlashtirishning asosiy vazifalari:

– iste'molchi va davlatning manfaati yo'lida mahsulotning sifati va nomlariga nisbatan eng maqbul talablarni qo'yish;

– Davlat, Respublika fuqarolari va chet el ehtiyoji uchun tayyorlangan mahsulotga kerakli talablarni belgilovchi me'yoriy hujjatlar tizimini va uni ishlab chiqish qoidalarini yaratish, ishlab chiqish va qo'llash, shuningdek hujjatlardan nazorat qilish;

– standart talablarining sanoati rivojlangan chet mamlakatlarning xalqaro, mintaqaviy va milliy standartlari talablari bilan uyg'unlashuvini ta'minlash;

– bir-biriga mosligining barcha (konstruktiv, elektrik, elektromagnitli, informasion, dasturli va boshqalar) turlarini, shuningdek mahsulotning o'zaro almashinuvchanligini ta'minlash;

– parametrik va turlar o'lchovi qatorlarini, tayanch konstruksiyalarni, buyumlarning konstruktiv jihatdan bir xil qilingan modullashgan bloki tarkibiy qismlarini aniqlash va qo'llash asosida birxillashtirish;

– mahsulot, uning tarkibiy qismlari, buyumlari, hom-ashyo va materiallar ko'rsatkichlari va tavsiflarining kelishib olinishi va bog'lanishi;

- material va energiya sig'imini kamaytirish, kam chiqindi chiqaruvchi texnologiyalarni qo'llash;

- mahsulotning ergonomik xossalari talablarning belgilanishi;

- metrologik me'yori, qoida, nizom va talablarning belgilanishi;

- standartlashtirish bo'yicha xalqaro tajribadan foydalanishni keng avj oldirish, mamlakatning xalqaro va mintaqaviy standartlashtirishda ishtirok etishini kuchaytirish;

- xorijiy mamlakatlarning talablari O'zbekiston Respublikasining xalq xo'jaligi ehtiyojlarini qondirgan hollarda ularning xalqaro, mintaqaviy va milliy standartlarini hamda mamlakat standartlari va texnikaviy shartlari tariqasida to'g'ridan-to'g'ri qo'llash tajribasini kengaytirish;

- texnologik jarayonlarga talablarni belgilash;

- mahsulotni standartlashtirish va uning natijalaridan foydalanish sohasida xalqaro hamkorlik qilish yuzasidan ishlarni tashkil qilish;

- texnik-iqtisodiy axborotni tasniflash va kodlash tizimini yaratish va joriy qilish;

- sinovlarni me'yoriy-texnika jihatidan ta'minlash, mahsulot sifatini sertifikatlashtirish, baholash va nazorat qilish;

1.2.O'zbekiston Respublikasida standartlarning toifalari

O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish to'g'risida” (mart 1992 y.) respublika Vazirlar Mahkamasining qarori bilan belgilangan standartlashtirishning tashkiliy asoslari “Standartlashtirish to'g'risida” O'zbekiston Respublikasining Qonuni bilan qonunlashtirilgan. Qonun 28 dekabr 1993 y. da qabul qilingan, 28 fevral 1994 y. umumiy axborot vositalarida chop etilgan va shu kundan boshlab kuchga kirgan¹³.

¹³ Henk J. de Vries Standardization: A Business Approach to the Role of National Standardization Organizations. Springer Science+Business Media, LLC, New York All Rights Reserved © 2000 Springer, 330 p.

Qonunda standartlashtirishning asosiy maqsadlari belgilangan:

– iste'molchilar va davlatning mahsulot (xizmatlar) ning aholi hayoti, sog'ligi va mulki, atrof muhit uchun xavfsizligi masalalari bo'yicha manfaatlarini himoya qilish;

– mahsulotning o'zaro almashinuvchanligi va mos keluvchanligini ta'minlash;

– mahsulotning sifati va raqobatbardoshligini oshirish;

– barcha turdagi boyliklarning tejalishiga ko'maklashish;

– ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy dasturlar va loyihalarni amalga oshirish;

– tabiiy va texnogen halokatlar va boshqa favqulodda vaziyatlarning sodir bo'lishi ehtimolini hisobga olgan holda xalq xo'jaligi obyektlarining xavfsizligini ta'minlash;

– o'lchashlarning birliligini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasining "Standartlashtirish to'g'risida" qonunida belgilanganki, respublikada standartlashtirish bo'yicha ishlarni o'tkazish umumiy tashkiliy-texnik qoidalarini belgilovchi O'z SDT faoliyat ko'rsatadi. Bu qoidalarning o'zi O'zdavstandart tomonidan o'rnatiladi. Davlatarxitekturaqurilish (qurilish, qurilish industriyasi, shu jumladan loyihalash va konstruksiyalash sohasida), Davlatabiatqo'mitasi (tabiiy boyliklardan foydalanish va atrof muhitni ifloslanish va boshqa zararli ta'sirlardan saqlash sohasida, Sog'liqni saqlash vazirligi (tibbiyotga mo'ljallangan mahsulotlar, tibbiyot texnikasi buyumlari, dori-darmonlar sohasida, shuningdek respublikada chiqariladigan va import bo'yicha keltiriladigai mahsulotda inson uchun xavfli aralashmalar borligini aniqlash masalalari bo'yicha) o'zining vakolat doirasida standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish, muvofiqlashtirish va ta'minlash ishlarini olib boradi. Respublikada ko'llaniladigan me'yoriy hujjatlar ro'yxati keltirilgan:

- xalqaro (davlatlararo, hududiy) standartlar;
- O'zbekiston davlat standartlari;
- tarmoqlar standartlari;

- texnik shartlar;
- ma'muriy-hududiy standartlar;
- korxonalarining standartlari;
- xorijiy mamlakatlarning milliy standartlari.

Standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlarga shuningdek, standartlashtirish bo'yicha qoidalar, me'yorlar, texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlar tasniflagichlari (klassifikatorlari) ham kiradi.

Xalqaro (davlatlararo, hududiy), xorijiy me'yoriy hujjatlar O'zdavstandart tomonidan belgilangan tartibda qo'llaniladi. Yagona va uzluksiz ta'lim davlat tizimida ta'lim davlat standartlari ishlab chiqiladi, respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar mamlakatimiz va xorijiy fan va texnikasining zamonaviy yutuqlariga asoslanishi va xalqaro savdo uchun ortiqcha to'siqlar paydo qilmasligi lozim. Raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun o'zuvchi (oldindan tuzilgan) standartlar yaratilishi mumkin.

Mahsulotni me'yoriy xujjatlarsiz ishlab chiqarish va xaridga qo'yish man etiladi.

Mahsulotning aholi hayoti, sog'ligi, mulkiga xavfsizligini ta'minlaydigan me'yoriy hujjatlarning talablari, mahsulotning mos keluvchanligi va o'zaro almashinuvchanligini, ularni tekshirish usullarining bir xilligini va bir xil tamg'alanishini ta'minlash uchun rioya qilinishi shart.

Standartlar va o'lchashlar birliligini ta'minlash ustidan davlat nazorati idoralari, obyektlari va subyektlari, davlat nazoratini bajaruvchi davlat inspektorlarining huquqlari va mas'ulligi, shuningdek davlat nazorati subyektlarining va bularga rahbar shaxslarning standartlashtirish to'g'risida qonunlarni buzganligi uchun, shuningdek standartlardagi majburiy talablarni buzganligi uchun javobgarliklari belgilangan.

Davlat nazorati idoralariga quyidagi huquqlar berilgan:

- aniqlangan buzilishlarni bartaraf etish to'g'risida ko'rsatma berish;
- jarima solish;

- tadbirkor subyektlarning lavozimli shaxslarini ma'muriy javobgarlikka tortish;
- tekshirilgan mahsulotni ishlab chiqarishni taqiqlash yoki xaridga qo'yish (yetkazib berish, sotish)ni, foydalanish (ekspluatasiya qilish) ni to'xtatish;
- standartlarning majburiy talablariga mos kelmaydigan va davlat ruyxatidan o'tmagan import mahsulotning xaridga qo'yilishini taqiqlash;
- mahsulotni ishlab chiqarish yoki xaridga qo'yishni (yetkazib berish, sotishni) taqiqlash to'g'risidagi davlat inspektorining ko'rsatmasini buzganligi uchun jarima yozish.

Jarima sud tononidan belgilanadi, agar tadbirkor subyekt qoidani buzganlikdagi aybini o'z bo'yniga olsa va jarimani o'z ixtiyori bilan to'lashga rozi bo'lsa, bu to'g'rida qaror davnazorat idoralari tomonidan qabul qilinadi.

O'zbekiyyun Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10 noyabr 2006 y. № 235 qarori bilan Davlat nazorati to'g'risidagi Nizomga jarimaga tortish qismida o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilgan (Nizom 12 avgust 1994 y. № 410 hukumat qarori bilan tasdiqlangan).

a) 4 modda beshinchi abzas quyidagicha tahrirda bayon etiladi:

“xo'jalik faoliyatini yurituvchi subyektlarga nisbatan standartlarning majburiy talablarini buzganligi uchun, lavozimli shaxslarga ma'muriy jazo qo'llanilgandan keyin yil davomida takror buzilishga yul qo'yganligi uchun xaridga chiqarilgan mahsulot narxining 50 foizi miqdorida jarimalarni qo'llash tug'risida qaror qabul qilish”;

b) quyidagi mazmunda 9 modda qo'shimcha kiritilsin:

“9. Xo'jalik faoliyati subyektining oxirgi hisobot sanasida joriy aktivlarining summasidan 20 foizdan ortiq jarimalarni undirish qaror qabul qilingan kundan boshlab 6 oyga har oyda to'lash sharti bilan cho'zilishi mumkin”

Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan ishlar ro'yxati belgilangan:

– xalqaro, davlatlararo, hududiy me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish yoki qatnashish;

– standartlashtirishning muayyan obyektlari bo'yicha qonun hujjatlarining loyihalarini ishlab chiqish;

– asos bo'luvchi tashkiliy-metodik va umumtexnikaviy me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va uning ishlashini ta'minlash;

– texnik-iqtisodiy axborot tasniflagichlarini ishlab chiqish, bular to'g'risida rasmiy axborot tayyorlash va chop etish, shuningdek barcha foydalanuvchilarga tarqatish:

– umumdavlat ahamiyatidagi ilmiy-tadqiqot va boshqa ishlarni bajarish

– standartlarning majburiy talablariga rioya qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

– me'yoriy hujjatlar davlat jamg'armasini shakllantirish va olib borish. Standartlarni, mahsulot va xizmatlar katalogini belgilangan tartibda xaridga qo'yishdan olingan mablag'lar, shuningdek standartlashtirish to'g'risidagi qonunlarni buzganligi uchun jarimaga tortishdan olingan mablag'larning bir qismi ham moliyalash manbalari bo'lishi mumkin.

Davlat byudjeti mablag'laridan moliyalashtiriladigan davlat dasturlarini ishlab chiqishda mahsulot sifatini me'yoriy ta'minlash bo'limlari nazarda tutilishi lozim.

Muvofiqlik belgisi bilan tamg'alangan mahsulot chiqaruvchi korxonalarini, shuningdek ananaviy texnologiya imnoniyatlaridan o'zuvchi, istiqbolga mo'ljallangan talablar standarti bo'yicha mahsulot ishlab chiqargani uchun iqtisodiy yordam va rag'batlantirish davlat kafolati Qonunda ko'zda tutilgan¹⁴.

1.3. Standartlarning turlari va toifalari

O'zbekiston respublikasi xududida standartlashtirish obyektlariga quyilgan talablarni belgilovchi me'yoriy xujjatlarning quyidagi toifalari amalda qo'llaniladi:

¹⁴ Henk J. de Vries Standardization: A Business Approach to the Role of National Standardization Organizations. Springer Science+Business Media, LLC, New York All Rights Reserved © 2000 Springer, 330 p.

Mustaqil davlatlar hamdustligining davlatlararo standartlari (GOST);

O'zbekiston respublikasi standartlari (O'z RST);

Texnikaviy shartlar (O'z TSh);

Korxonalar, birlashmalar, firmalar, qonsernlar va boshqa ho'jalik subyektlarining standartlari (O'z KST);

Xalqaro, mintaqaviy va xorijiy mamlakatlarning milliy standartlari; (ISO, MEK va boshqalar).

Milliy standartlashtirish obyektlariga:

-yagona texnikaviy tilni qo'shib xisoblaganda umumtexnikaviy obyektlar, umumiy materiallar va moddalarning xususiyati xaqidagi ishonchli ma'lumotlar, texnikaviy iqtisodiy axborotni tasniflash va kodlash;

-aniq. maqsadga yunaltirilgan davlat ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy iqtisodiy dasturlari va loyixa obyektlarini;

-republikaga (yoki muayyan korxonalariga) mahsuloti yoki texnologiyasining raqobat qilish krbiliyatini oshirishni ta'minlash imqonini beradigan fan va texnika yutuqlarini;

-republikada ichki extiyojni krndirish uchun, shuningdek boshqa davlatlarga eksport sifatida yetkazib berish uchun ishlab chikdriladigan mahsulotlar kiritishadi.

Standartlarning talablari va texnikaviy shartlari xalqaro, mintaqaviy va sanoati rivojlangan xorijiy mamlakatlarning milliy standartlari talablari bilan uyg'unlashtirilishi kerak.

O'zdavstandart, O'zbekiston respublikasining kurilish davlat qo'mitasi va sog'liqni saqlash vazirligi standartlashtirish bo'yicha tarmoqlararo ishlarni tashkil qilish va muvofiqdashtirish uchun o'z xuko'kdari doirasida yuriknomalar, qoidalar, nizomlar, uslubiy ko'rsatmalar, raxbariy xujjatlarni (RX) va tavsiyalarni (T) ishlab chiqadilar va manfaatdor tomonlar bilan kelishilgan xolda tasdiqdaydilar.

Vazirliklar, boshqarmalar, uyushmalar, qonsernlar va boshqa ho'jalik tuzilmalari zarurat tugilganda O'zdavstandart, O'zbekiston respublikasining tabiatni muxrfaza qilish davlat qo'mitasi, kurilish davlat qo'mitasi va sog'liqni

saqlash vazirligi bilan kelishilgan xolda soxaviy raxbariy xujjatlar va tavsiyalarni ishlab chiqishlari mumkin.

Standartlar va texnikaviy shartlarni tasdiqlovchi tashkilotlar standartlar va texnikaviy shartlarni ishlab chiquvchi bilan baravar javobgardirlar.

O'zbekiston respublikasining standartlarini ishlab chiqarish, kelishish, tasdiqlash ro'yxatga olish tartibi O'zRST 1.1»O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi. Respublika standartlarini ishlab chiqish, kelishib olish, tasdiqlash va ruixatdan o'tkazish tartibi» bilan belgilanadi.

Texnikaviy shartlar GOST 2.114 va O'zRST 1.2 da belgilangan tartibda ishlab chiqiladi, kelishiladi, tasdiqlanadi va ro'yxatdan o'tkaziladi.

Maxsulot standartlari va texnikaviy shartlarni ishlab chiqish yangi mahsulotni yaratish bo'yicha ishlarning tarkibiy qismi xisoblanadi.

Standartlar va texnikaviy shartlar fan va texnikaning tegishli soxalarida chet ellarda va mamlakatimizda erishilgan eng yuqori yutuqlarni, chet mamlakatlarning xalq.aro mintaqaviy va milliy standartlari, talablarini xisobga olib, ilmiy-tadqiqot, tajriba qonstruktorklik, texnologik va loyixalash ishlarining natijalariga asoslangan xolda ishlab chikdlishi va respublikani iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish uchun eng makbo'l qarorlar qabul qilish nazarda tutilishi mumkin.Zarurat tugilganda ishlab chiqaruvchi buyurtmachi bilan kelishilgan xolda yoki buyurtmachining o'zi muayyan standartlar va texnikaviy shartlarni ishlab chiqish yuzasidan texnikaviy vazifalarni tasdiqlaydi.

Standartlar va texnikaviy shartlarda mahsulot sifatiga nisbatan majburiy va tavsiya etiladigan talablar (texnikaviy tavsiyalar) belgilanadi.

Mahsulot sifatiga ijtimoiy jixatdan o'zaro bog'liq bo'lgan uning axoli xayoti va sogligi uchun xavfsizligini atrof-muxitni muxofaza qilishni mahsulotni bir biriga mosligi va bir-birini o'rinini almashtirishni ta'minlaydigan shuningdek nazorat qilish belgisi va usullarini majburiy talablarga to'g'ri kelishi bajarilishi kerak bo'lgan talablar sirasiga kiradi.

Buyurtmachi (iste'molchi) zarurat tugilguday bo'lsa u o'z manfaatini ximoya qilishni ta'minlaydigan talablar majmuini kengaytirishi mumkin.

Mahsulotlarning va xizmatlarning iste'mol va boshqa tavsiflari, shuningdek, standartlarning majburiy talablaridan kelib chiqib ko'rsatgichlarning yuqoriroq darajasini belgilaydigan tavsiflarni, korxonalarining respublikada va xorijdagi iqtisodiy manfaatlarini ximoya qilish va mustaxkamlash maqsadida tavsiya qilinadigan talablari ishlab chiqilishi mumkin.

Tayyorlovchi va iste'molchi (buyurtmachi) shartnoma tuzilayotganda tavsiya etilayotgan talablarni qo'llash zarurligini aniqlaydilar. Ular shartnomaga kiritilgandan so'ng kelishuvchi tomonlar uchun majburiy bo'lib qoladi.

Tuzilayotgan shartnomalarda standartlar va texnikaviy shartlarning majburiy talablari salbiy tomonga og'ib ketishiga yul quyilmaydi.

Texnikaviy shartlar va standartlarda majburiy talablarga doyr bo'limda bayon etilgan masalan, sinov usullarini joylashtirish, transportda tashish, tamg'alash va boshqalarni belgilaydigan, boshqa standartlarga xavola kdlingan taqdirda, ilova qilinagan standartlarning talablari qo'llanish uchun majburiy bo'lib qoladi.

Agar mahsulotning majburiy talablariga muvofiqdigi amaldagi standartlarga mo'ljallangan tartibda tasdiqdanmasa yoki sertifi katlashtirish lozim bo'lgan mahsulot sertifikatlashtiruvchi sinovlardan o'tmagan bo'lsa, sotuvga chiqarishga ruxsat etilmaydi.

Chet eldan keltirilayotgan va chet elga chiqarilayotgan mahsulot O'zbekiston Respublikasida qo'llanilayotgan standartlar va texnikaviy shartlarning majburiy talablariga javob berishi, shuningdek, sertifikatlashtirish lozim bo'lgan mahsulot tegishli sertifikatlar bilanyoki O'zdavstandart O'zbekiston Respublikasi Tabiatni Muxofaza qilish Davlat Kumiitasi Durilish davlat qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi(ularning vakolati doirasida) xududiy idoralarning xo'losasi yoki tegishli sertifikat bilan tasdiqlanishi lozim.

Standartlar va texnikaviy shartlarning majburiy talablari idoraviy buyinishidan va mulkchilikning kaysi shaklda bo'lishidan qat'iy nazar barcha davlat, kooperativ, ijara uyushma, qo'shma korxonalar hamda tashkilotlar, shuningdek respublika xududida uddaburonlik faoliyati bilan shorullanayotgan fuqorolarga ham ta'luklidir.

Standartlarning majburiy talablari va texnikaviy shartlarning bo'zilishiga yul kuygan korxonalar va mansabdor shaxslar amaldagi qonunlarga binoao' javobgarlikka tortiladilar.

Ishlab chiqarilayotgan maxrulotga texnikaviy shartlar va korxonalar standartlashtirish talablari ushbu maxrulotga davlatlararo yoki milliy standartlarning majburiy talablariga qarama-qarshi bo'lmasligi va ushbu standartlarda ko'rsatilgan talablardan past bo'lmasligi kerak.

Standartlashtirish obyektining o'ziga xos xususiyatiga va unda belgilangan talablar mazmuniga bog'liq, ravishda O'zbekiston respublikasi standartlashtirish tizimi asosiy turdagi standartlarni nazarda to'tadi.

- asos bo'luvchi standartlar;
 - umumtexnikaviy standartlar;
 - texnikaviy shartlar (mahsulot, jarayon, xizmatlar uchun) standartlar;
- nazorat usullari (sinovlar, analizlar, o'lchovlar, ta'riflar) standartlari.

Lozim bo'lgan taqdirda mahsulotning asosiy texnikaviy-iqtisodiy ko'rsatgichlari, uning nomlarining (turlarining) oqilona tarkibi va boshqa talablarini aniq belgilaydigan bir turdagi mahsulot guruxiga standart ishlab chiqilishi mumkin.

Asos bo'luvchi standartlar - tashkiliy texnikaviy jarayonlarning bajarilishi, shu jumladan ishlab chiqish, ishlab chiqarish va mahsulotni qo'llash jarayonlari tartibini (qoidalarini) shuningdek faoliyatning muayyan soxasida ishlarning tashkil etishning asosiy qoidalarini belgilaydi.

Umumtexnikaviy standartlar - mahsulotning texnikaviy bir-biriga mos bo'lishini va o'zaro almashinuvini ta'minlash uchun zarur bo'lgan ishlab chiqish, ishlab chiqarish va mahsulotni qo'llashning umumtexnikaviy talablarini,

shuningdek mexnat xavfeizligi, atrof muxitni ximoya qilish, namunaviy texnologik jarayonlar, maxrulot sifatini nazorat qilish (sinash) usullari, xujjatlarni bir xillashtirish talablarini belgilaydi.

Mahsulotning aniqturiga, belgisi, andozasi va boshqalarga xar tomonlama talablarni texnikaviy shartlar standarti belgilaydi.

Texnikaviy shartlarning milliy standartlari - ommaviy yoki seriyali ishlab chiqarilayotgan mahsulot uchun ishlab chiqiladi.

Texnikaviy talablarning standartlari mahsulotning resurelaridan to'g'ri foydalanishni, buyumlarning pishiqligi (o'zoq, muddatga chidamliligi), texnikaviy o'zaro almashinuvchanligi, mashinalarning, asbob uskunalarning bir xilligini, mahsulotning raqobat qilish qobiliyati oshirilishini ta'minlaydigan asosiy ko'rsatkichlar me'yori va talablarini belgilaydi.

Nazorat usullari - (sinovlar, taxlil qilishlar, o'lchovlar, ta'riflar) standartlari mahsulotning bitta yoki bir nechta turdosh guruxlarga ishlab chiqiladi. Standart sinash uchun namunalarni tanlash tartibini, bu mahsulot sifat ko'rsatkichlarini baxolash birligini ta'minlash maqsadida uning iste'mol qilishi (foydalanishi), ta'riflarini nazorat qilish (sinash, taxlil qilish, ta'riflash, o'lchash) usullarini, shuningdek maxrulotni yaratish, nazorat qilish, sertifikatlashtirish va foydalanish chogida sinab ko'rish usullarini belgilaydi.

Standartlarning tuzulishi bayon etilishi rasmiylashtirilishi va mazmuniga ko'ra umumiy talablariga texnikaviy shartlar esa GOST,2.1142 konstruktorlik xujjatlarni umumiy tizimi». Texnikaviy shartlar. Tuzilishi, ifodalanishi va rasmiylashtirishi qoidalariga to'g'ri kelishi kerak.

Respublika standartlari, texnikaviy shartlar va ishlab chiqarilayotgan mahsulot va ko'rsatildayotgan xizmatlar uchun korxonalar standartlari ularga o'zgartirishlar O'z davstandart tashkilotlarida bepul davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim.

Standartlar, texnikaviy shartlar va ularga o'zgartirishlar davlat tilida va millatlararo munosabat tilida davlat ro'yxatiga taqdim etiladi. Davlat ro'yxatidan

o'tmagan standartlar texnikaviy shartlar va ularga o'zgartirishlar xaqiqiy emas deb xisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi standartidexnikaviy shartlari, korxonalar standarti O'zbekiston respublikasi standarti 1.1,1.2,1.3 bo'yicha belgilanadi.

Standartlar tizimini belgilash chogida standartlashtirish davlat tizimida qabul qilingan tartib raqami qo'llaniladi.

O'z davstandartga Respublika standartlarini nashr qilish va qayta nashr ish,shuningdek Mustaqil davlatlar hamdustligining davlat standartlarini O'z davstandart belgilangan tartibda,nusxalari tasdiqlangan xolda,davlat tili va rus tillarida nusxalarini ko'paytirish tanxo xuquqi zarurat tugilgan xolda me'yoriy xujjatlarning ko'paytirish xuquqi O'z davstandart tomonidan korxonalar va tashkilotlarga berilishi mumkin.

Ko'rsatilgan xuko'kni paymol qilgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi amal qilinayotgan qonunlarga binoan javobgarlikka tortiladi.

Korxonalarining standartlari va texnikaviy shartlarni nashr qilishni hamda ular bilan ta'minlashni bu xujjatlarni tasdiqlangan korxonalar mahsulot yetkazib berish yoki xizmat ko'rsatish uchun O'zRTS bo'yicha shartnomalarga binoan amalga oshiriladi.

O'z davstandart ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga respublika standartlari, korxonalar standartlari hamda texnikaviy shartlar, qoidalar, raxbarlik xujjatlari va standartlashtirish bo'yicha tavsiyanomalar tuggshsida xar yili axborot berib turadilar.

Nazorat uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasida standartlashtirishning qonuniy asoslari
2. Standartlashtirishning maqsad va vazifalari
3. Standartlashtirish haqida tushuncha
4. Standartlashtirish obyekti
5. Xalqaro standartlashtirish
6. Mintaqaviy standartlashtirish
7. Milliy standartlashtirish

Adabiyotlar

1. Henk J. de Vries Standardization: A Business Approach to the Role of National Standardization Organizations. Springer Science+Business Media, LLC, New York All Rights Reserved © 2000 Springer, 330 p.
2. Dr. Peter Hatto Standards and Standardization. Handbook. EUROPEAN COMMISSION, Directorate-General for Research Industrial Technologies Pictures © Shutterstock, 2010, 24 p.
3. Role of standards. A guide for small and medium-sized enterprises. Working paper. United nations industrial development organization, Vienna, 2006, 56 p.
4. Abduvaliyev A.A., Latipov V.B., Umarov A.S., Alimov M.N., Boyko S.R., Xakimov O.Sh., Xvan V.I. Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifat. O'quv qo'llanma. Toshkent, SMSITI, 2008. – 267 b.
5. Ismatullayev P.R., Matyakubova P.M., Turayev Sh.A. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. Darslik. «Lisson-Press». Toshkent, 2015. - 423 b.
6. www.ima.uz
7. vtww.academy.uz
8. www.standart.uz
9. www.smsiti.uz
- www.uza.uz

1	Standart	bu ko'pchilik manfaatdor tomonlar kelishuvi asosida ishlab chiqilgan va ma'lum sohalarda eng maqbul darajali tartiblashtirishga yo'naltirilgan hamda faoliyatning har xil turlariga yoki natijalariga tegishli bo'lgan umumiy va takror qo'llaniladigan qoidalar, umumiy qonun-qoidalar, tavsiflar, talablar va usullar belgilangan va tan olingan idora tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjatdir
2	Standartlashtirish	bu barcha manfaatdor tomonlar ishtirokida umumfoydali, jumladan, iqtisodiyotga erishishda takrorlanadigan vazifa (jarayon)larning umum maqbul yechimini topish uchun foydalanish sharti, texnik xavfsizlik va ekologiya talablariga rioya qilingan holda, ma'lum bir sohada, faoliyatni optimal darajada tartiblashtirish maqsadida qoidalar o'rnatish va qo'llashdir.
	<i>Standartlashtirish obyekti</i>	keng ma'noda ifodalash uchun "mahsulot, jarayon, xizmat" iboralari qabul qilingan bo'lib, buni har qanday materialga, tarkibiy qismlarga, asbob-uskunalarga, tizimlarga, ularni mosligiga, qonun-qoidasiga, ish olib borish uslubiga, vazifasiga, usuliga yoki faoliyatiga teng darajada daxldor
	<i>Xalqaro standartlashtirish</i>	faoliyatida barcha mamlakatlarning tegishli idoralari erkin holda ishtirok etish mumkin
	<i>Mintaqaviy standartlashtirish</i>	dunyo miqyosida birgina jug'rofiy yoki iqtisodiy mintaqasiga qarashli mamlakatlarning tegishli idoralari uchun erkin holda ishtirok etishlari mumkin bo'lgan standartlashtirish tushuniladi.
	<i>Milliy standartlashtirish</i>	muayyan bir mamlakat doirasida o'tkaziladigan standartlashtirish faoliyatidir
	<i>Me'yoriy hujjat</i>	atamasi standartlar, texnikaviy shartlar, shuningdek umumiy ko'rsatmalar, yo'riqnomalar va qoidalar tushunchasini ham o'z ichiga qamrab oladi.

2 – amaliy mashg'ulot. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI STANDARTLASHTIRISH MILLIY TIZIMI

2.1 Standartlashtirish milliy tizimi

O'zbekiston Respublikasi Davlat standartlashtirish tizimi – O'z DSt tashkil etish va uning faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi quyidagi qarorlaridan belgilab berilgan¹⁵:

- 1992 yil 2 martda “O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish ishlarini tashkil qilish” № 93-sonli qarori;
- 1994 yil 12 avgusda “O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ba'zi qarorlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida” № 410-sonli qarori;
- 1998 yil 5 yanvarda “Uzluksiz ta'lim uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va kiritish to'g'risida” № 5-sonil qarori;
- 2002 yil 3 oktyabrda “Mahsulot va xizmatlarni standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish tizimlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” № 342-sonli qarori;
- 2004 yil 5 martda “Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish O'zbekiston agentligining tuzilmasini rivojlantirish va faoliyatini tashkil etish to'g'risida” № 373-sonli qarorlari.

Respublikamizda standartlashtirish jarayoni 3 bosqichdan iborat:

- atamalarni standartlashtirish;
- o'lchovlarni, o'lchash va sinov uskunalari va ularni konstruksiyaga va mahsulot texnologiyasiga bog'lab standartlashtirish;
- mahsulotning o'zini standartlashtirish.

ISO/IEC (ISO/MEK) tomonidan yaratilgan konsultativ kengash texnika rivojining yo'nalishini quyidagicha tavsiya qiladi:

¹⁵ Абдувалиев А.А., Латипов В.Б., Умаров А.С., Алимов М.Н., Бойко С.Р., Хакимов О.Ш., Хван В.И. Стандартлаштириш, метрология, сертификатлаштириш ва сифат. Ўқув қўлланма. Тошкент, СМСИТИ, 2008. – 267 б.

- standartlarni yaratishda va ularni kelishishda yangi mexanizmlarni yaratish;
- harajatlarni ilk tadqiqotlarga va real istiqboli bo'lgan texnikaviy yutuqlarga to'plamoq;
- bor texnikaviy qo'mitalarning ilmiy tadqiqot, tajribaviy konstruktorlik ishlarini shu jumladan ekologiya sohasidagi ishlarni, e'tiborga olgan holda yangi rejali ishlarni yaratish;
- yetakchi mutaxassislar boshchiligidagi o'tkaziladigan seminarlar, ilmiy ma'ruzalar shaklidagi ikkilamchi mexanizmlardan foydalanish;
- sanoatning yuqori rahbarlari orasida yangi g'oyalarni targ'ibot qilishga e'tiborni qaratmoq.

Mana shuning uchun standartlashtirishda atamalarni bir yerga to'plamoq, ular asosida ta'riflar yaratmoq va nihoyat bu sohada standartlar yaratmoq hozirgi kunning talabi, xalos.

Shu maqsadda standartlashtirish sohasidagi atamalarni to'plashda xalqaro standartlashtirish tashkilotining hujjatlariga, sobiq Ittifoqdagi ma'lumotlarga, shuningdek O'zbekiston Respublikasida ilk yaratilgan hujjatlarga murojat etildi.

Bu sohadagi asosiy tushunchalar 61 atamadan iborat bo'lib, ularning mohiyati ketma-ketligi bo'yicha ma'lum tartibda joylashtirilib, hozirgi vaqtda chop etilgan O'z DSt 1.10-98 "O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy atamalar va ta'riflar" standarti yaratildi.

Standartlashtirish sohasidagi birqancha asos bo'luvchi hujjatlar «O'zstandart» agentligi huzuridagi SMSITI – standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy tadqiqot institutida yaratilmoqda. Bular qatoriga dastlabki standartlar O'z DSt 1.0-1998, O'z DSt 1.1-92, O'z DSt 1.2-92, O'z DSt 1.3-92, O'z DSt 1.4-98, O'z DSt 1.95-1998, O'z DSt 1.6-2003 va boshqalar kiradi.

O'z DSt 1.0-1998 "O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy qoidalar" bo'yicha standartlashtirishning mohiyati, maqsad va vazifalari, hamda ushbu qo'llaniladigan asosiy tushunchalar o'quv qo'llanmada keltirilgan.

Mazkur standart standartlashtirishning asosiy vazifa va maqsadini, standartlashtirish ishlarining tashkil etilishi va asosiy qonun-qoidalarini, me'yoriy hujjatlarning toifasini, standartlar turlarini, xalqaro hamkorlik bo'yicha asosiy qoidalarini, standartlar va texnikaviy shartlarning qo'llanishini, standartlarga va o'lchash vositalariga nisbatan davlat nazoratini belgilaydi.

Davlat standartlashtirish tizimi (DST) O'zbekiston respublikasi standartlashtirish tizimining umumiy tashkiliy-texnik qoidalarini o'rnatadi.

DST standartlari qoidalarini davlat boshqaruv idoralari, xo'jalik faoliyati subyektlari, ilmiy-texnik, muhandislik va boshqa jamiyat birlashmalari hamda standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita (TK)lar qabul qilishadi.

2.2. Davlat standartlashtirish tizimi

O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish ishlarini o'tkazishning umumiy tashkiliy-texnik qoidalarini tartibga solib turuvchi davlat standartlashtirish tizimi faoliyat ko'rsatadi.

Standartlashtirish ishlarini tashkil etish, muvofiqlashtirish va ta'minlashni:

– xalq xo'jaligi tarmoqlarida — O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi («O'zstandart» agentligi);

– qurilish, qurilish industriyasi sohasida, shu jumladan loyihalash va konstruksiyalashda — O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi;

– tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga solish hamda atrof muhitni ifloslanishdan va boshqa zararli ta'sirlardan muhofaza qilish sohasida — O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi;


– tibbiyot uchun mo'ljallangan mahsulotlar, tibbiy texnika buyumlari, dori vositalari sohasida, shuningdek mamlakat sanoati ishlab chiqarayotgan, shu jumladan import bo'yicha yetkazib berilayotgan mahsulotlardagi inson uchun zararli moddalar miqdorini aniqlash masalalarida — O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi;

– mudofaa qobiliyatini va safarbarlik tayyorgarligini ta'minlash, mudofaa ahamiyatiga molik mahsulotlar sohasida — O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi amalga oshiradi.

2.3. Standartlashtirish bo'yicha davlat boshqaruvlari

Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish” to'g'risidagi 1992 yil 2 martdagi 93-sonli qaroriga va Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 28 apreldagi “Sertifikatlashtirish tartibotlarini va sifat menejmenti tizimlarini joriy etishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 122-son qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish “O'zstandart” agentligi standartlashtirish bo'yicha Milliy idora hisoblanadi (2.1-rasm).

«O'zstandart» agentligi tarkibida standartlashtirish va mintaqaviy siyosat bo'yicha boshqarma mavjud. Boshqarma xalqaro, mintaqaviy, xorijiydan



2.1-rasm. «O'zstandart» agentligi markaziy apparatining tuzilmasi.

tortib barcha miqyoslarda ma'lumot bilan taminlash me'yoriy hujjatlar Davlat jamg'armasini tashkil etish bilan shug'ullanadi. Me'yoriy hujjatlarni tasdiqlashdan va ro'yhatga olishdan oldin ekspertizadan o'tkazadi, vazirlik, muassasa, tashkilot, korxonalar, birlashmalar bilan "O'zstandart" agentligi boshqarmalari, standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha davlatlararo kengash va Yevroosiyo ittifoqi bilan ish olib boradi.

2001 yildan Davlat unitar korxonasi O'zbekiston Respublikasi milliy etalon markazi faoliyat ko'rsata boshladi. «O'zstandart» agentligi huzurida shtrix kodlov markazi, respublika va mintaqaviy sifat mahkamalari va boshqalar ishlab turibdi¹⁶.

Respublikada standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish, muofiqlashtirish va ta'minlash Davlat organlari va iqtisodiy soha bo'yicha korxonalari birlashuvi tamonidan amalga oshiriladi.

Vazirlik, muassasa, birlashma va korxonalar sohalarda standartlashtirish bo'yicha ishlarni o'zlarining vakolati doirasida olib boradilar.

2.4. Standartlashtirish bo'yicha bazaviy tashkilotlar

Standartlashtirish bo'yicha bazaviy tashkilotlar "O'zstandart" agentligi tomonidan ro'yhatga olingan bo'lib Davlat standartlashtirish tizimi tomonidan belgilangan asosiy vazifalarga muvofiq boshqaruv organi tomonidan mahsulot turlari va sifati bo'yicha yetakchi-namunaviy tashkilotlardan biri tayinlanadi va iqtisodiyotda standartlashtirish bo'yicha barcha talablarni ta'minlash va nazorat qilish vakolati beriladi.

"O'zstandart" tarkibida bir necha bo'limlar, sektor, laboratoriya, guruhlar, har bir viloyat boshqarma va markazlari, ilmiy-tadqiqot instituti, Milliy Etalonlar Markazi mujassamlashgan.

"O'zstandart" agentligiga qarashli turli soha va tarmoqlarni o'z ichiga olgan, bir xil nomdagi bo'limlar ham bor. Bularga standartlar va mahsulotni

¹⁶ Исматуллаев П.Р., Матякубова П.М., Тураев Ш.А. Метрология, стандартлаштириш ва сертификатлаштириш. Дарслик. «Lisson-Press». Тошкент, 2015. -423 б.

sertifikatlashtirish bo'yicha davlat nazorati va o'lchash vositalarini davlat qiyoslovidan qo'nim va attestatlash sohaviy bo'limlari kiradi.

Standartlar va mahsulotni sertifikatlashtirish bo'yicha davlat nazorati sohaviy bo'limlar: og'ir sanoat, mashinasozlik, yengil sanoat, mahalliy sanoat hamda agrosanoat kompleksi doirasida o'z faoliyatini amalga oshiradi.

“O'zstandart” agentligining ilmiy-uslubiy markazi etib, O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifatini boshqarish sohalaridagi tadqiqot va mutaxassislar malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti - hozirda standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti tayinlangan.

Sertifikatlashtirish milliy idorasi quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha o'z faoliyatini amalga oshirmoqda:

–Respublikada sertifikatlashtirishni qo'llash va takomillashtirishning umumiy siyosatini ishlab chiqish, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tegishli davlat idoralari bilan aloqalarni o'rnatish;

–sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha boshqa mamlakat va xalqaro tashkilotlarning vakillari bilan, o'zaro kelishilgan asosda aloqalarni o'rnatish, kerak bo'lsa, bu tashkilotlar faoliyatida O'zbekiston Respublikasining qatnashishini ta'minlash;

–sertifikatlashtirishda yagona qoida va ish tartiblarini belgilash, bularga rioya qilishning nazorati, sertifikatlashtirish natijalari bo'yicha hujjatlarni axborotli ma'lumot bilan ta'minlash.

Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 342-qarorini bajarish yo'lida “O'zstandart” o'zining viloyat boshqarmalarini (SMS'HM) tuzib, ularning ishlariga har taraflama ko'mak ko'rsatmoqda. Respublikadagi sinov laboratoriyalarini akkreditlash ishlari jadal qadamlar bilan amalga oshirilmoqda. Farg'ona, Qo'qon, Qarshi, Buxoro, Samarqand shaharlaridagi sinov laboratoriyalari akkreditlanib, hozirda ular turli sinov amallarini o'tkazmoqdalar. Faqatgina Farg'onadagi sinov laboratoriyasida o'tkazilgan sinovlar natijasiga ko'ra “Azot” ishlab chiqarish birlashmasi, Quvasoy chinni zavodi, Rishton kulolchilik mahsulotlari zavodi, “Quvamebel” ishlab

chiqarish birlashmasi mahsulotlari muvofiqlik sertifikatini olishga sazovor bo'ldilar (2.2-rasm). Ularning tarkibi va tashkiliy strukturalari rivojlanish jarayonida takomillashib boradi.

«O'zstandart» agentligi tarkibidagi oziq-ovqat va qishloq xo'jalik mahsulotlarini tekshiruvchi sinov laboratoriyasi akkreditlangan laboratoriyalardan hisoblanib, shu kungacha ko'pgina muayyan turdagi mahsulotlarga muvofiqlik sertifikati berildi.

Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohalarida ilmiy tadqiqot ishlari ham o'z yo'nalishiga egadir.

«O'zstandart» agentligi qoshidagi «Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti» (SMSITI) standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohalarida asosiy ilmiy-uslubiy baza hisoblanadi. Ushbu institut yuqorida qayd etilgan sohalar bo'yicha fundamental tadqiqotlar olib borishi bilan bir qatorda respublikada ushbu sohalar bo'yicha malaka oshirish va qayta tayyorlash instituti hamdir. Shu sohalaridagi belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun u:

- standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifati sohalarida hozirgi xalqaro talablarga javob beradigan milliy ilmiy baza yaratadi;

- standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifati milliy tizimlarini yaratishda ularning ilmiy va uslubiy asoslarini ishlab chiqadi;

- mahsulotning raqobatdoshligini ta'minlaydigan, atrof-muhitni ishonchli darajada himoya qilishga, inson sog'lig'ini saqlashga, mehnat havfsizligini ta'minlashga, mudofaa qobiliyatini oshirishga qaratilgan xalqaro me'yoriy va tashkiliy-uslubiy hujjatlar bilan uyg'unlashadigan, asos bo'luvchi hujjatlar ishlab chiqadi va joriy etadi;

- standartlashtirish va metrologiya sohalaridagi mavjud yoki uchraydigan muammolarni tadqiqot qilish, davlat tilida me'yoriy hujjatlar, ma'lumotnomalar, lug'atlar yaratadi;

- yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlaydi;

– standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifatining ilmiy masalalari bo'yicha xalqaro, milliy va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshiradi;

– standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohalarida ishlayotgan mutaxassislarning malakasini oshirishni ta'minlaydi;

– sertifikatlashtirish sohasida ishlaydigan ekspert-auditorlarni tayyorlaydi va boshqalar.

Institut tashkil qilinganiga ko'p vaqt o'tmaganligiga qaramay shu kunga qadar respublika hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir qator hujjatlar yaratdi va yaratmoqda. Bu hujjatlarning ahamiyati beqiyos bo'lib, shu sohalardagi ishlarga qo'yilgan birinchi poydevorlardan hisoblanadi.

Standartlashtirish bo'yicha bazaviy tashkilotlarni moliyalashtirish tegishli mahsulot turi va xizmati iqtisodiy boshqaruv sohalari hisobidan amalga oshiriladi.

Standartlashtirish bo'yicha bazaviy tashkilotlarning asosiy faoliyati va vazifalari:

– birlashtirilgan tashkilot va korxonalarda standartlashtirish bo'yicha muvofiqlashtirish ishlari olib borish ham texnik yagonalikni ta'minlash;

– birlashtirilgan mahsulot, xizmat turi yoki jarayonlar guruhi bo'yicha o'zuvchi va kompleks standartlashtirishni ta'minlaydigan asosiy istiqbolni yo'nalishlari ishlab chiqish;

– birlashtirilgan mahsulot guruhlarini standartlashtirish, me'yoriy hujjatlarni o'z vaqtida tayyorlash, joriy etish va qayta ko'rish bo'yicha takliflar, me'yoriy hujjatlar loyihalarini ekspertlov va tasdiqqa tayyorlov ishlarini amalga oshirish;

– birlashtirilgan mahsulot guruhi uchun ko'rsatkichlarni standart yoki boshqa me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan normada, O'zbekiston Respublikasining faoliyatidagi qonunchilik me'yorlari, xavfsizlik va ekologiya masalalarini ta'minlaydigan darajada amalga oshirish;

– standartlashtirish bo'yicha bazaviy tashkilotlarga birlashtirilgan mahsulotning birinchi namunalari uchun loyihalarni optimallashtirish hamda standartlashtirishni nazariy va amaliy tomonlaridan ilmiy-metodik ishlar olib borish;


– ko'rsatkichlarni normada bo'lishini ta'minlash maqsadida doimiy va tizimli nazorat olib borish;

– korxonalar va tashkilotlarga standartlashtirish va sertifikatlashtirish bo'yicha uslubiy yordam ko'rsatish va sh.k

O'zbekiston Respublikasida texnik qo'mitalar (TQ) mutaxassislari – davlat va xo'jalik boshqaruvi manfaatdor idoralari va tadbirkorlik subyektlarining vakolatli vakillari, iste'molchilar, kasaba uyushmasi tashkilotlari, davlat nazorati idoralari va boshqalarning shakllanishi bo'lib hisoblanadi. TQ yuqori ilmiy-texnikaviy salohiyatga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlar bazasida ta'asis etuvchilar va «O'zstandart» agentligi (Davarxitektqurilish, Davtabiatqo'm, Sog'liqni Saqlash Vazirligi) qo'shma buyrug'i bilan tuziladi.

Texnik qo'mitaning asosiy vazifasi – xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy, davlat va tarmoq standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasidagi faoliyat - O'z DSt 1.0, RMG 01 bo'yicha, shartnomali ishlar.

O'z RH 51-013:1993 O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish bo'yicha ishlarning tashkil etilishini, muvofiqlashtirilishini va ishlarning maqbul darajada olib borilishini standartlashtirish bo'yicha Texnik qo'mitalar bevosita ishtirok etishadi. O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib brayotgan texnik qo'mitalar 2.1-jadvalda keltirilgan.



2.2-rasm. «O‘zstandart» agentligi tashkiliy tuzilmasi.

O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalari

№ t/r	Nomlanishi	Vazirlik va mahkamalarning nomlanishi
1.	«O'zbekneftegazmahsulot»	«O'zbekneftegaz» Milliy xolding kompaniyasi
2.	«Paxta» Assosiasiyasi	«O'zpaxtasanoat» Assosiasiyasi
3.	«Donmahsulotlari»	«O'zdonmaxsulot» Kompaniyasi
4.	«Yog'moytamakisanoat»	«Yog'moytamakisanoat» Assosiasiyasi
5.	«Ipakchilik mahsulotlari»	«O'zbek ipagi» Assosiasiyasi
6.	«Oziqovqatsanoat»	«Oziq-ovqatsanoat» Assosiasiyasi
7.	«O'zmevasabzavotuzum-sanoat»	«O'zmevasabzavotuzumsanoat-xolding» Kompaniyasi
8.	«Aloqa va informatika»	O'zbekiston aloqa va ma'lumotlashtirish agentligi
9.	«Navurug'nazorat»	Respublika qishloq xo'jaligi urug'chiligi va birinchi urug'shunoslik stansiyasi
10.	«O'zavtosanoat»	«O'zavtosanoat» Assosiasiyasi
11.	«Go'sht va sut»	«O'zgo'shtsutsanoat» Assosiasiyasi
12.	«Davarxitekqurilish»	Davlat arxitektura va qurilish bo'yicha qo'mitasi
13.	«O'zbektelekom»	«O'zbektelekom» Aksionerlik kompaniyasi
14.	«Kimyosanoat»	«O'zkiyosanoat» Davlat aksionerlik kompaniyasi
15.	«O'zbekengilsanoat»	«O'zbekengilsanoat» Aksionerlik kompaniyasi
16.	«O'zbekcharmpoyabzali»	«O'zbekcharmpoyabzali» Assosiasiyasi
17.	«Shoyi»	«O'zbek ipagi» Assosiasiyasi

2.5. Korxonalarda va tashkilotlarda standartlashtirish xizmatlari

Standartlashtirishning asosiy maqsadlaridan kelib chiqqan holda va amaldagi qonunlarning talablarining bajarilishini ta'minlash uchun tadbirkorlik subyektlari standartlashtirish bo'limlarini (xizmatlarini) tashkil etadi. Bu bo'limlar standartlashtirish bo'yicha ishlarga tashkiliy-metodik va ilmiy-texnik rahbarlik

qiladi, standartlashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik va boshqa ishlarni bajaradi, korxonaning boshqa bo'limlari olib borayotgan standartlashtirish bo'yicha ishlarni bajarishda qatnashadi.

Standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkillashtirishda siyosatning birliligini va bir xil yondoshishni ta'minlash maqsadlarida O'z RH 51-051-96 "Korxonalarda (tashkilotlarda) standartlashtirish xizmatlari to'g'risida namunaviy nizom" tasdiqlangan. Bu Nizomda mulkdorlik shaklidan qat'iy nazar korxonalar va tashkilotlar standartlashtirish xizmatlarining umumiy nizomlari, asosiy vazifalari va huquqlari o'rnatilgan.

Standartlashtirish xizmatlari tadbirkorlik subyektlari (bo'limlar, shu'balar, guruhlar) ning bo'limlaridan iborat bo'ladi. Kichik korxonalarda muhandis-texnik xodimlar sonining kamligi sababli mahsus bo'lim tuzishga imkon bo'lmaganda, standartlashtirish bo'yicha ishlarga mas'ullik muhandis-texnik xodimlarning biriga yuklatiladi.

Standartlashtirish xizmatlariga quyidagi vazifalar yuklatiladi;

– korxonaning me'yoriy hujjatlar tizimini tuzish bo'yicha ishlar majmuini bajarish;

– standartlashtirishning istiqbolli va yillik rejalari (dasturlari) ga oid takliflarni, zarur bo'lganda, boshqa bo'limlar bilan birgalikda ishlab chiqish;

– ilmiy-texnikaviy dasturlarga mahsulotning texnik darajasi va sifat ko'rsatkichlarini oshirish istiqbollari aniqlash qismida qatnashish va takliflar tayyorlash, shuningdek mahsulotga istiqbolli talablarni belgilovchi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda qatnashish;

– me'yoriy hujjatlarning loyihalari bo'yicha fikr-mulohazalarni tayyorlashni tashkillashtirish;

– korxonaning iqtisod xizmati bilan birgalikda standartlashtirishning texnik-iqtisodiy samarasini aniqlash;

– davlat nazorat idoralari tomonidan o'tkazilayotgan me'yoriy hujjatlarga rioya qilinayotganligini tekshirishlarda qatnashish;

– ilmiy-texnikaviy, tajriba-konstruktorlik ishlarida va mahsulotni ishlab chiqarishga qo'yish jarayonida xavfsizlik, boyliklarni tejash, atrof muhitni muhofazalash, o'zaro almashinuvchanlik va mos keluvchanlik talablarini hisobga olgan holda jahon bozorida raqobatbardosh mahsulot chiqarishni ta'minlovchi ko'rsatkichlarning o'rnatilishini ta'minlash;

– MH ni joriy etish va rioya qilishni tashkiliy-metodik jihatdan ta'minlash;

– xalqaro, davlatlararo, hududiy standartlashtirish, standartlashtirish sohasida ikki tomonlama hamkorlik, shuningdek xalqaro standartlarni va chet mamlakatlarning milliy (firmalarning) standartlarini qo'llanish bo'yicha ishlarni bajarish. Bundan tashqari, standartlashtirish xizmatlariga majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan, chiqarilayotgan mahsulotning sertifikatlashtirilishini ta'minlash bo'yicha vazifalar ham yuklatilishi mumkin.

Korxonalarda standartlashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar asosiy ishlar turiga kiradi.

Jahon amaliyoti korxonalarda mavjud bo'lgan o'qitilgan va tajribali mutaxassislar bilan jamlangan standartlashtirish xizmatlarining iqtisodiy maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.

Nazorat savollari

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat standartlashtirish tizimi
2. Davlat standartlashtirish tizimi
3. Standartlashtirish bo'yicha davlat boshqaruvlar
4. "O'zstandart" agentligi standartlashtirish bo'yicha Milliy idora
5. Standartlashtirish bo'yicha bazaviy tashkilotlar
6. «O'zstandart» agentligi tashkiliy tuzilmasi
7. Korxonalarda va tashkilotlarda standartlashtirish xizmatlari

Adabiyotlar

1. Henk J. de Vries Standardization: A Business Approach to the Role of National Standardization Organizations. Springer Science+Business Media, LLC, New York All Rights Reserved © 2000 Springer, 330 p.
2. Dr. Peter Hatto Standards and Standardization. Handbook. EUROPEAN COMMISSION, Directorate-General for Research Industrial Technologies Pictures © Shutterstock, 2010, 24 p.
3. Role of standards. A guide for small and medium-sized enterprises. Working paper. United nations industrial development organization, Vienna, 2006, 56 p.
4. Abduvaliyev A.A., Latipov V.B., Umarov A.S., Alimov M.N., Boyko S.R., Xakimov O.Sh., Xvan V.I. Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifat. O'quv qo'llanma. Toshkent, SMSITI, 2008. – 267 b.
5. Ismatullayev P.R., Matyakubova P.M., Turayev Sh.A. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. Darslik. «Lisson-Press». Toshkent, 2015. - 423 b.
6. www.ima.uz
7. vtww.academy.uz
8. www.standart.uz
9. www.smsiti.uz
www.uza.uz

Nazorat topshiriqlar

1.	Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish O'zbekiston agentligining tuzilmasini rivojlantirish va faoliyatini tashkil etish to'g'risida	2004 yil 5 martda VMN ^o 373-sonli qarorlari
2	xalq xo'jaligi tarmoqlarida bo'yicha standartlashtirish ishlariga ma'sul	«O'zstandart» agentligi
3	qurilish, qurilish industriyasi sohasida, shu jumladan loyihalash va konstruksiyalash bo'yicha standartlashtirish ishlariga ma'sul	O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi;
4	tibbiyot uchun mo'ljallangan mahsulotlar, tibbiy texnika buyumlari, dori vositalari sohasida, shuningdek mamlakat sanoati ishlab chiqarayotgan, shu jumladan import bo'yicha yetkazib berilayotgan mahsulotlardagi inson uchun zararli moddalar miqdorini aniqlash masalalarida standartlashtirish ishlarini bajarishda ma'sul	O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi;
5	mudofaa qobiliyatini va safarbarlik tayyorgarligini ta'minlash, mudofaa ahamiyatiga molik mahsulotlar sohasida standartlashtirish ishlariga ma'sul	O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi
6	tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga solish hamda atrof muhitni ifloslanishdan va boshqa zararli ta'sirlardan muhofaza qilish sohasida standartlashtirish ishlariga ma'sul	O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi;

3-amaliy mashg'ulot. Oziq ovqat maxsulotlarini sertifikatlashtirish

3.1. Maxsulotni sertifikatlashtirish qoidalari

Mazkur qoidalar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2004 yil 6 iyuldagi 318-sonli «Maxsulotlarni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirish bo'yicha kushimcha tadbirlar tugrisida»gi Karorining 6-bandiga muvofik (Uzbekiston Respublikasi konunlari tuplami, 2004 y., №27 315 m.) ishlab chikilgan va Uzbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish Milliy tizimida (keyinchalik Uz SMT) respublikada ishlab chikariladigan va xorijdan keltiriladigan maxsulotni sertifikatlashtirishga tayyorlash va utkazishga umumiy talablarni belgilaydi.

Majburiy sertifikatlashtiriladigan bir turdagi maxsulotni sertifikatlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari «Uzstandart» Agentligining aloxida me'yoriy-xukukiy xujjatlari bilan belgilanadi.

Umumiy qoidalar

Maxsulot, shu jumladan dasturiy va boshka ilmiy-texnikaviy maxsulotlar mazkur Koidalarga muvofik sertifikatlashtiriladi.

Bir turli maxsulotlarni sertifikatlashtirishni tashkil kilish va utkazish ishlari belgilangan tartibda akkreditlangan sertifikatlashtirish idoralari (keyinchalik SI) tomonidan bajariladi.

Sertifikatlashtirishning ma'lum sxemalari bir turdagi maxsulotni sertifikatlashtirish bo'yicha tegishli koidalarda va bir turdagi maxsulotga talablarni uz ichiga olgan me'yoriy xujjatlarda belgilanadi. Bunda tekshirishlar xajmiga karab sertifikatlashtirish sxemasining murakkabligi bu maxsulotning xavfsizlik darajasiga bog'lik buladi. Uzbekiston Respublikasi Sertifikatlashtirish milliy tizimi (SMT)da kullaniladigan, sertifikatlashtirishning tavsiya etiladigan sxemalari ushbu Koidalarga berilgan 1-ilovada keltirilgan.

Xar bir muayyan xolatda SI (sertifikatlashtirish idorasi) surovchining taklifini, yetkazib beriladigan maxsulot xajmi va muddatini, sinash metodlarini, ishlab chikarishning o'ziga xos xususiyatlarini va uning barkarorligining buzilishi

mumkinligini, shuningdek mazkur maxsulotning iste'molchilar uchun mumkin bulgan xavfini xisobga olgan xolda sertifikatlashtirish sxemasini tanlaydi.

Xalkaro tizimlar yoki bitimlar doirasida sertifikatlashtirish ushbu xujjatlarda keltirilgan sxemalar bo'yicha bajariladi.

Sertifikatlashtirishda, maxsulot muvofikligini tasdiklanishi lozim bulgan tafsilotlar (kursatkichlar) ruyxati, tekshirish va sinash metodlari keltirilgan, sertifikatlashtiriladigan maxsulotga me'yoriy xujjatlar (keyinchalik - MX)da belgilangan talablarga mos ekanligi tasdiklanadi.

MX da sertifikatlashtirish sinovlari tugrisida bulim keltirilmagan yoki davlatlararo standartlarni kullanishi kursatilmagan bo'lsa, u xolda SI me'yoriy xujjatda yoki xalkaro standartlarda kursatilgan tafsilotlar (xarakteristikalar) majmuidan birinchi navbatda xavfsizlik bo'yicha talablarni tavsiflovchi kursatkichlarni tanlaydi.

Sertifikatlashtirishda, muayyan maxsulot MXdan tashkari, maxsulotning majburiy talablarini belgilovchi me'yoriy-xukukiy xujjatlarga va boshka rasmiy nashr etilgan MX larga xam amal kilish lozim.

Maxsulot sinovlarini utkazishda, takrorlashga yul kuymaslik maksadida, akkreditasiyalangan sinov laboratoriyalari (keyinchalik - ASL) boshka ASL da o'tkazilgan sinov natijalarini o'zaro tan olishlari lozim.

Surovchi sertifikatlashtirish ishlariga mavjud konunlarda belgilangan tartibda xak tulaydi.

3.2.Sertifikatlashtirishni utkazish tartibi

Uzbekiston Respublikasi SMTda maxsulotni sertifikatlashtirishga kuyidagilar kiradi:

- a) SI ga sertifikatlashtirish tugrisida surovnoma berish va uni ko'rib chikish;
- b) Sertifikatlashtirishga takdim etilgan maxsulot MXni va curovnomaga ilova kilgan boshka xujjatlarni taxlil kilish;
- v) surovnoma bo'yicha karor kabul kilish;

g) sinovlar dasturi (programmasi)ni tayyorlash va tasdiklash (6 va 9-sxemalardan tashkari);

d) namunalarni identifikatsiya qilish (aynan o'xshashligini aniqlash), tanlab olish va laboratoriyaga olib kelish (6 va 9-sxemalardan boshka);

ye) namunalarni ASL da sinashni bajarish (6 va 9-sxemalardan boshka);

j) maxsulotni ishlab chikarish xolatini tekshirish (sertifikatlashtirishning 3, 4 va 5-sxemalari uchun);

z) sifat tizimini baxolash (5 va 6-sxemalari uchun);

i) maxsulotning muvofikligi to'g'risida deklaratsiya yozish (9-sxema);

k) olingan natijalarni taxlil qilish, muvofiklik sertifikatini berish yoki uni berishdan voz kechish;

l) muvofiklik sertifikatini UzR SMT Davlat reyestrda ruyxatdan utkazish.

Takdim etilgan maxsulot MXda gigiyenik, veterinariya, fitosanitariya yoki ekologik talablar mavjud bulganda SI gigiyenik va veterinariya ekspertizalarini, fitosanitariya tekshiruvini utkazish va ekologik sertifikatlashtirish zarurligini aniklaydi. Mazkur amallar sertifikatlashtirish sinovlari bilan bir vaktida utkazilishi mumkin va surovchiga muvofiklik sertifikatini berishdan avval, bu amallar tegishli xujjatlar berilishi bilan tugallanishi lozim.

SI tadbirkorlik subyektlarining yozma arizasiga muvofik, sertifikatlashtirishni utkazishda davlat sanitariya nazorati idoralaridan, davlat veterinariya nazorati idoralaridan va usimliklar karantini bo'yicha davlat idoralaridan, shuningdek tabiatni muxofaza qilish davlat idoralaridan barcha zarur xulosalarni olishga oid agentlik xizmatlarini kursatishga xaklidir. Bunda namunalarni tugri ajratib olish va ularni tegishli davlat idoralariga berish vazifasi, shuningdek mas'ullik SI ga yuklatiladi.

SI surovchilarning talablari bo'yicha ularga kuyidagi axborotlarni tayyorlashi va takdim etishi lozim:

- majburiy sertifikatlashtiriladigan maxsulot turlari ruyxati yoki bu ruyxatdan kuchirma;

- SI ning akkreditlangan soxasi bo'yicha bir turdagi maxsulotni sertifikatlashtirish koidalari;

- sertifikatlashtirish bo'yicha xizmatlariga xak tulash preyskuranti (tariflari);

- «Uzstandart» agentligi tomonidan berilgan akkreditlash tugrisidagi guvoxnoma.

Maxsulotni UzR SMTda sertifikatlashtirishni utkazish uchun surovchi mazkur Koidalarga 2-ilovada keltirilgan shaklda yozilgan surovnomani tegishli SI ga yuboradi.

Surovchi bir turdagi maxsulotni sertifikatlashtirish bo'yicha idora tugrisida ma'lumot va sertifikatlashtirish koidalari yo'k bo'lgan takdirda, bu to'grisidagi ma'lumotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha Milliy idora (keyinchalik-SMI) da yoki uning xududiy idoralarida olishi mumkin.

Chetdan keltiriladigan maxsulotni sertifikatlashtirishda kuyidagi xujjatlar takdim etilishi lozim:

- ishlab chikariladigan maxsulotga me'yoriy xujjat nusxasi (amalda bor bo'lgan takdirda);

- maxsulot yorligi namunasi yoki maxsulot to'grisida ma'lumot;

- tovarga ko'shib jo'natiladigan xujjat nusxasi. Bu nusxaga maxsulotning Uzbekiston Respublikasi bojxonasi xududiga kelganligi to'grisidagi belgi ko'yilgan bo'lishi shart (tovarga tovar-transport nakladnoyi, invoys, schet-faktura);

- amalda bor bo'lgan takdirda, davlat sanitariya nazorati idorasining laboratoriyasida o'tkazilgan sinovlarning natijalari yozilgan gigiyenik sertifikat va MX da belgilangan boshka talablar to'grisidagi ma'lumotlar nusxasi (veterinariya va fitosanitariya xulosalari, ekologik sertifikat).

Agar so'rovchi ayni vaktida gigiyenik sertifikatni va muvofiklik sertifikatini olishga ariza bergan bo'lsa, bunday xolda gigiyenik sertifikat nusxasi uni belgilangan tartibda rasmiylashtirgandan keyin beriladi.

Majburiy sertifikatlanishi shart bulgan, chetdan keltirilgan maxsulotga respublikada MX yo'k bo'lsa, sifat ko'rsatkichlari va xavfsizlik bo'yicha

sertifikatlashtirish sinovlari o'xshash turdagi maxsulotga bo'lgan talablarga muvofikligi bo'yicha bajariladi.

So'rovchi tomonidan chetdan keltirilgan maxsulotga zarur me'yoriy xujjat yoki xavfsizlik bo'yicha texnik tafsilotlar takdim etilmasa, mazkur maxsulotni sertifikatlashtirish o'xshash maxsulot xujjatlari bo'yicha yoki gigiyenik sertifikat asosida bajariladi. Bunda (ozik-ovkat maxsulotiga va ozik-ovkatga tegib turadigan maxsulotga) identifikatlash (aynan o'xshatish) ishlari xam bajariladi.

MXga ega bo'lmagan, shuningdek gigiyenik sertifikatlashtirilmaydigan maxsulotni sertifikatlashtirish identifikatlashtirish yo'li bilan o'tkaziladi.

Ishlab chikriladigan masulotni sertifikatlashtirishda so'rovchi quyidagi xujjatlarni takdim etishi lozim:

- ishlab chikariladigan maxsulotga me'yoriy xujjat nusxasi;
- maxsulot markirovkasining nusxasi (maxsulot to'grisida axborot);
- amalda bor bo'lgan takdirda, davlat sanitariya nazorati idorasining laboratoriyasida o'tkaziladigan sinovlarning natijalari yozilgan gigiyenik sertifikat va MX da belgilangan boshka talablar to'grisidagi ma'lumotlar nusxasi (veterinariya va fitosanitariya xulosalari, ekologik sertifikat);

Agar so'rovchi ayni vaktida gigiyenik sertifikatni va muvofiklik sertifikatni olishga ariza bergan bo'lsa, bunday xolda gigiyenik sertifikat nusxasi uni belgilangan tartibda rasmiylashtirgandan sung beriladi

3.4.Sertifikatlashtirish sxemalari

Sertifikatlashtirish bo'yicha ISO tarkibidagi qo'mita tomonidan tayyorlangan hujjatda uchinchi tomon tarafidan amalga oshiriladigan sertifikatlashtirishning sakkizta sxemasi berilgan:

Birinchi sxema. Bu sxema bilan faqat mahsulot namunalari turlarini standartlar talablariga muvofiqligini maxsus tasdiqlangan sinov tashkilotlarida sinovdan utkaziladi. Bu xildagi sertifikatlashtirishda sinovga takdim etilgan namunani belgilangan talablarga muvofiqligi tasdiklanadi, xolos. Sxema

umumlashgan (tipovoy) namunalarni sertifikatlashtirishda ko'llaniladi va maxsulotni majburiy ko'rsatkichlar, birinchi navbatda xavfsizlik bo'yicha ASL da sinashni nazarda tutadi. Mazkur sxema maxsulotga anik MX bo'lmaganda xam ko'llaniladi. Bu yo'l o'zining soddaligi va uncha ko'p harajat talab kilmasligi tufayli milliy va xalqaro savdo munosabatlarida muayyan darajada tarkalgan.

Ikkinchi sxema. Bu sxemada mahsulotning namuna turlarini maxsus tasdiqlangan sinov tashkilotlarida sinovdan o'tkazilib, so'ngra uning sifatini savdo shahobchalaridan vaqti - vaqti bilan olinadigan namunalar asosida nazorat qilib boriladi. Bu usul takdim etilgan numunalar sifatini ham baholash imkonini beradi. sxema umumlashgan namunalarni sertifikatlashtirishda ko'llaniladi va majburiy ko'rsatkichlarni tekshirish uchun maxsulotni ASL da sinashni nazarda tutadi. Mazkur sxema savdo soxasida (iste'molchidan) olingan namunalarni sinovlardan o'tkazish yo'li bilan maxsulotni inspeksion tekshiruvdan o'tkazishni nazarda tutadi.

Usulning afzalligi uning soddaligidadir. Uning kamchiligiga esa nazorat sinovlar natijasiga qarab, agar mahsulot standart talablariga nomuvofiqligi aniqlanilsa, baribir uni savdo shahobchalaridan chiqarib tashlash uchun birmuncha qiyinchiliklar tug'iladi.

Uchinchi sxema. Mahsulot namunalarining turlarini maxsus tasdiqlangan sinov tashkilotlarida o'tkazish, so'ngra sotuvchi yoki iste'molchiga yubormasdan turib vaqti – vaqti bilan namunalarning tekshiruvini nazorat qilishga asoslanadi. Ikkinchi sxemadan farqlanuvchi tomoni shuki mahsulot savdo shahobchalariga tushmasdan turib, sinov nazorati o'tkaziladi va standartga omuvofiqligi aniqlansa, mahsulotning iste'molchiga jo'natilishi to'xtatiladi. u sxema ishlab chikariladigan maxsulotni sertifikatlashtirishda ko'llaniladi va majburiy ko'rsatkichlarni tekshirish uchun maxsulotni ASL da sinashni va ishlab chikarishni tekshirishni nazarda tutadi. Mazkur sxemada tayyorlovchi-tashkilotdan olingan maxsulotni sinovlardan o'tkazib va muvofiklik belgisining ko'llanilishini tekshirish uchun korxonada inspeksion tekshiruvni o'tkazish mo'ljallanadi.

Turtinchi sxema. Mahsulot namunalarning turlarini xuddi 3 - sxemalaridan sinovdan o'tkazishga asoslangan bo'lib, so'ngra savdo shaxobchasidagi hamda ishlab chiqarishda olingan namunalarning tekshirish nazorati vaqti – vaqti bilan o'tkazish orqali mahsulotning sifati hisobga olinadi. Bu holda mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, uning chiqarilishiga ma'lum harajatlar bo'lgandan keyin standart talablariga nomuvofiqligi aniqlanadi. sxema ishlab chikariladigan maxsulotni sertifikatlashtirishda ko'llaniladi va majburiy ko'rsatkichlarni tekshirish uchun maxsulotni ASL da sinashni va ishlab chikarishni tekshirishni nazarda tutadi. Mazkur sxemada, xam savdo soxasida (iste'molchidan), xam ishlab chikarishdan olingan namunalarni sinovlardan o'tkazish yo'li bilan maxsulotni, shuningdek muvofiklik belgisining ko'llanilishini inspeksion teshiruvdan o'tkazish mo'ljallanadi.

Beshinchi sxema. Bu sxema mahsulot namuna turlarini tasdiqlangan sinov tashkilotlarida o'tkazishga va mahsulot ishlab chiqarishining sifatini baholashga asoslangan bo'lib, so'ngra savdo shaxobchasida va ishlab chiqarishda namunalar sifatini vaqti - vaqti bilan tekshirilib nazorat qilib boriladi. Bu sertifikatlashtirish usuli faqat mahsulotning sifatini kerakli darajada bo'lishini ham nazorat qiladi. Tabiiyki, korxonadagi mahsulot sifatini ta'minlashda, tizimning baholanishida uning mezonini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ushbu usul sanoati rivojlangan mamlakatlarda hamda xalqaro sertifikatlashtirish tizimlarida eng ko'p tarqalgan sxemadir. Birinchi, to'rtinchi sxemalarga qaraganda bu sxema eng murakkab va nisbatan qimmatrok turadigan sxema bo'lib, uning afzalligi iste'molchi mahsulot sifat darajasini yuqori ekanligiga ishonch hosil qiladi, bu esa asosiy mezon hisoblanadi.

Bu sxema ishlab chikariladigan maxsulotni sertifikatlashtirishda ko'llaniladi va majburiy ko'rsatkichlarni tekshirish uchun maxsulotni ASL da sinashni va ishlab chikarishni tekshirishni yoki sifat tizimini baxolashni nazarda tutadi. Mazkur sxemada maxsulotni sinovlardan o'tkazish va ishlab chikarishni tekshirish

(yoki sifat tizimini baxolash) yo'li bilan inspeksion tekshiruvni o'tkazish mo'ljallanadi.

Oltinchi sxema faqat korxonadagi mahsulotning sifatini ta'minlash bilan tizimning baholanishini o'tkazishga mo'ljallangan. Bu usul ayrim vaqtda korxonada – tayyorlovchini attestatlash deb ham yuritiladi. Bu xil sertifikatlashtirishda faqat korxonaning belgilangan sifat darajasidagi mahsulotni chiqarish qobiliyati baholanadi.

Bu sxema sifat tizimini sertifikatlashtirishda ko'llaniladi va uni baxolashni xamda keyinchalik inspeksion tekshiruvni o'tkazishni nazarda tutadi.

Yettinchi sxema. Mahsulotning har bir tayyorlanadigan tadsidan sinovlarga tanlab olishga asoslangan. Tanlab olish sinovlarining natijalariga qarab to'dani ortishi uchun qaror qabul qilinishi aniqlanadi. Bu xildagi sertifikatlashtirish uchun tanlanmaning hajmi aniqlanishi lozim, u esa tayyorlangan to'daning katta – kichikligiga makbul bo'ladigan sifat darajasiga bog'liq. Qabul qilingan qoidaga asosan tanlanmani to'plash vakolatlangan sinov tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Bu xil sertifikatlashtirish qo'llanilishi statistik usulni qo'llash bilan bog'liqdir.

Bu sxema mahsulot to'pining sertifikatlashtirishda ko'llaniladi va mahsulotni sinashni nazarda tutadi.

7a sxema bu mahsulotlarni ma'lum bir vaqt ichida bir necha marta shu mahsulotlardan qayta qayta olib kelinishi sababli birinchi marta kirganda sinov o'tkaziladi va keyingi kelgan partiyalar esa deklarasiya asosida o'tkazilishini ko'zda tutiladi

Sakkizinchi sxema. Har bir tayyorlangan, ayrim buyumning standartlar talabiga muvofiqligi sinovlar o'tkazib aniqlashga asoslangan. Bu sertifikatlashtirish usulida yuqorida 1-7 sxemalariga karaganda ta'minlovchining mas'uliyati ancha yuqori. Tabiiyki muvaffakiyatli sinovlardan o'tgan buyumlarga sertifikat yoki muvofiqlik belgisini oladi. 8 - sxema mahsulotga

nisbatan yuqori va qat'iyroq talablar qo'yilganda ishlatilishga asoslangan yoki mahsulotlarning ishlatilishi natijasida standart talablariga mos kelmasligi iste'molchiga katta iqtisodiy zarar yetkazganida qo'llaniladi. Bu xil sertifikatlashtirish qimmatbaxo metallardan va qotishmalardan tayyorlanadigan buyumlarda ko'proq qo'llaniladi. Bundan asosiy maqsad qimmatbaxo metallarning belgilangan miqdorini, tarkibini va buyumning tozaligini tekshirishdir.

Bu sxema xar bir dona buyumni sertifikatlashtirishda ko'llaniladi.

Buyuk Britaniya instituti tomonidan sertifikatlashtirishning yangi xili yaratilib, bu usul bilan faqat ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlarining tasdiqlanishi /attestatlanishi/ ga asoslangan.

To'qqizinchi sxema. Bu sxema maxsulotni sertifikatlashtirishda ko'llaniladi va maxsulotning xavfsizlik talablariga muvofikligini deklarasiya kilishni nazarda tutadi. Mazkur sxemada, ishlab chikaruvchining xoxishiga ko'ra, muvofiklik belgisi ko'llanilishi mumkin.

Majburiy tartibda sertifikatlashtiriladigan, shuningdek ularning muvofiqligi muvofiqlik deklaratsiyasi bilan tasdiqlanishi mumkin bo'lgan maxsulotlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi.

Hozirgi zamon adabiyotida har bir sertifikatlashtirish sxemasining afzalligi va kamchiliklari tahlil etilgan. Bularning ichida eng mukammal va murakkabi beshinchi sxemadir. Bu sxema to'liq bo'lganligi uchun uni asos qilib olib, hozirgi zamon xalqaro sertifikatlashtirish tizimi yaratilmoqda.

3; 4; 5; 7; 8; 9; sxemalar bo'yicha sertifikatlashtirilgan maxsulot muvofiklik belgisi bilan tamgalanishi (markirovka kilinishi) mumkin.

Sertifikatlashtirish tizimlarini boshqaruvchi idora muayyan turdagi mahsulot sifatining nazoratini tashkil etish, standartlarga rioya qilishni majburiy talab etishini, iste'molchi va savdo talablarini e'tiborga olib, mamlakatdagi amalda bo'lgan qonunlar va me'yoriy hujjatlar asosida o'z ishini tashkil etadi.

Sertifikatlashtirish idorasi sinovlarni o'tkazish, korxonadagi va savdo shahobchasidagi mahsulotning sifatini nazorat qilish hamda nazoratni tashkil qilish va ushanga o'xshashlarni bajarib uchinchi tomon vazifasini bajaradi. Buning uchun sertifikatlashtirish idorasida sinov bo'limlari, maxsus nazoratchilar shtati bo'lishi kerak. Ammo bu hamma vaqt ham iqtisodiy tomondan oqlay olmaydi. Shunday hollarda u o'z vazifasining bir qismini boshqa idoraga yoki tashkilotga topshiradi.

Sertifikatlashtirish omillari

Sertifikatlashtirish sohasidagi ishlarni amalga oshirishda quyidagi asosiy omillar hal qiluvchi o'rin tutadi:

- **Tashqi va ichki bozordagi iste'molchining manfaatlariga mos keladigan mahsulot uchun mezonni to'g'ri tanlash;**
- **Sertifikatlashtirish ishlarini o'tkazishda xolislik /haqqoniyat/ bo'lishi.**

Ta'minlovchining buyumi /mahsuloti/ har doim ham belgilangan standart talablariga mos keladi degan ko'rsatmasi hamma vaqt ham qabul kilinavermaydi. Chunki u mahsulot sifatini tekshirishda o'zining shaxsiy tekshirish tizimini tuzadi, bu deyarli bozorda ham, sanoatda ham keng yoyilgan yo'llardan biridir.

Lekin hozirgi zamon fan, texnika va texnologik jarayonlarning eng qulay va samarador tizimi shunday bo'lishi lozimki, buning natijasida mahsulot ishlab chiqaruvchiga nisbatan hanch qanday ta'sir etilmasligi lozim. Tashqi savdo va xalqaro iqtisodiy aloqalar nuqtai nazaridan sertifikatlashtirish faoliyati mustaqil bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday sertifikatlashtirishni boshqaruvchi idora sertifikatlashtirish idoralari hamda tijorat tashkilotlari yoki davlat muassasalari bo'lishi mumkin. Ular o'zlarining sinov o'tkazuvchi laboratoriyalariga ega bo'lib, mahsulotni tekshiradigan xodimni ishga layoqatliligini tekshiradi hamda korxonalaridagi sifat tizimini boshqarishdagi ishlarni amalga oshiradi, uslubiy ta'minlash va boshqa quyidagi ishlarni bajaradi:

- **Texnologik jarayonlarning turg'unligini ta'minlash;**

- Uchinchi tomon tarafidan bajariladigan sertifikatlashtirish tizimi o'z tarkibiga mahsulot sinovlarini oladi, bu esa o'z navbatida mahsulotning standart talablariga muvofiqligini /mosligini/ aniqlashda kerakli vosita hisoblanadi;
- Yakka olinadigan mahsulot uchun amaliy va iqtisodiy talablarga javob beruvchi sertifikatlashtirish tizimini aniqlash;
- Sertifikatlashtirish tartib, usullari va ishlashini boshqa sertifikatlashtirish tizimlari bilan taqqoslash;
- Buyum /mol/ yoki mahsulotlarni sertifikatlashtirish idorasi tomonidan haqiqiyliги ko'rib chiqilganligi yoki ma'kullanganligini, tegishli markazlarda yoki akkreditasiyalangan laboratoriyalarda tekshirilganligini isbotlovchi belgi /tamg'a/ bo'lishi, maxsus belgi, etiketkalar, ilova qilib yuboriladigan hujjat - sertifikatlar yoki sertifikatlashtirilgan buyumlar /mollar/ ro'yxatiga kiritilishi lozim yoki sertifikatlash huquqiga ega bo'lgan korxonada mahsulotni chiqarish uchun tasdiqnoma bo'lishi kerak.

Sertifikatlashtirish turli shakllarda bo'lib, uni tayyorlash va o'tkazish uchun ayrim vazifalarni bajarilishi tartibi o'z navbatida mahsulot turiga qonunlar majmuining milliy xususiyatlariga va boshqa qator omillarga bog'liq bo'ladi.

Sertifikatlashtirishni tayyorlash va uni o'tkazishda asosiy ishlar qatoriga:

- * Sertifikatlashtiriluvchi mahsulotni tanlash;
- * Mahsulotga sertifikatlashtirishda belgilanadigan talablarni, tavsiflarni tanlash;
- * Sertifikatlashtiriluvchi mahsulotni ishlab chiqarish sharoitlarni tekshirish;
- * Sinov laboratoriyalarini akkreditlash;
- * Sertifikatlashtirish sinovlarini o'tkazish;
- * Muvofiqlik sertifikatini berish va muvofiqlik belgisi bilan mahsulotni belgilash /tamgalash/ lar kiradi.

Tabiiyki, «Sertifikatlashtirish uchun nimalar kerak?» degan o'rinli savol tug'ilishi mumkin. Sertifikatlashtirish milliy tizimining me'yoriy hujjatlarida sertifikatlashtirishga tayyorgarlik kurish va uni o'tkazishi tartiblari aniqlagan bo'lib, ular quyidagi bosqichlardan iborat:

- Sertifikatlashtirish o'tkazishga talabnoma berish;
- Deklarasiya - talabnoma bo'yicha qaror qabul qilish;
- Namunalarni belgilash, ajratib olish va sinovlarni o'tkazish;
- Korxonalar yoki sifat tizimini sertifikatlashtirish (agar qabul qilingan sertifikatlashtirish tartibida ko'rsatilgan bo'lsa yoki so'rovchining hohishiga ko'ra);
- Olingan natijalarni taxlil qilish va muvofiqlik sertifikatini berish lozimligi haqida qaror qabul qilish;
- Muvofiqlik sertifikatini berish va sertifikatlashtirilgan mahsulotni Tizimlar Davlat Ro'yxatiga kiritish;
- Chet el yoki xalqaro idoralar tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikatini tan olish;
- Sertifikatlashtirilgan mahsulotning tavsiflarining turg'unligi uchun tekshiruv nazoratini amalga oshirish;
- Sertifikatlashtirish natijalari haqida ma'lumot;
- Shikoyatlarni ko'rish (agar da'volashuv masalalari chikadigan bo'lsa).

Xo'sh sertifikatlashtirish nima beradi?

Sertifikat sifatli mahsulot uchun aosiy garovdir. Sifatli mahsulot qadri qanchalik yuqori turishini ishbilarmonlar yaxshi bilishadi. Bitta misol keltirib sifatli, sertifikatlashtirilgan mahsulotning hosiyatini to'g'risida to'xtalib o'tsak.

Soat ishlab chiqaruvchi korxonalar bir necha yil mobaynida G'arbiy Yevropa firmalaridan biriga qo'l soat sotar edi, uning evaziga har bir soat uchun bir - ikki dollar olar edi xolos. Firma olinayotgan soatlarning sifatini o'z buyniga olib, ularning har birini 40 dollargacha bo'lgan narxda sotar edi; korxonaning ishlab chiqarish madaniyati yuqori bo'lganligi sababli nuqsonli soatlar kam chiqarilar edi.

Xalqaro miqyosdagi standartlarning dovrug'i sekin asta tarqalib korxonagacha yetib keldi. Korxonada 9000 seriyali ISO standartlari asosida sifat tizimini ishlab chiqara boshladi. Buni eshitgan amerikalik firma korxonaga uzoq muddatli bitim tuzishni taklif etdi. Boshqa firma bilan tuzilgan bitimga binoan o'sha yuqorida aytilgan soatning har biriga 100 va undan ortiq dollar to'landi. Natijada, korxonaga valyutadan tushayotgan foyda hisobiga uning iqtisodiy sharoiti butunlay o'zgarib ketdi. Mana sifatli mahsulot sharofati, mana o'tkazilgan sertifikatlashtirishning foydasi, buni har bir korxonada boshligi, mutaxassislari bilmog'i lozim.

Albatta, Respublikamizda amal qilayotgan Milliy Sertifikatlashtirish Tizimi eng avvalo axolining manfaatlarini, xavfsizligini ko'zlagan holda tuzilgandir. Sertifikatlashtirishdan oldinga qo'yilgan maqsad mahsulot narxini baland qilib qo'yish emas, balki sifatli mahsulot xususida oluvchilarning diqqatini o'ziga jalb qilish va savdo ko'lamini oshirish hisoblanadi.

Ayrim ishlab chiqaruvchilar, mutaxassislar bugungi kunni o'ylab, mahsulotlarimiz shundoq ham ketmoqda, sertifikatlashtirishning nima xojati bor deyishi mumkin. Ishbilarmonlar faqat bugungi kun bilan yashasa, xalqaro savdo sotiq ishlarini yo'lga qo'yishda ular katta xatoga yo'l qo'ygan bo'lishadi. Bu albatta kechirarli holat emas. Chunki, hozirgi jamiyatimiz a'zolari bir paytlardagi faqat arzoniga uchadigan odamlar emas, balki huquqiy ongi kun sayin shakllanib borayotgan, bozordagi rakobatdan unumli foydalanadigan, «iste'molchilarning huquqlarini ximoya qilish» va «Oziq – ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi» to'g'risidagi Qonunlar bilan ximoyalangan kishilardir.

Xizmatlarning sifat ko'rsatkichlari, umumiy holda, birinchi, ikkinchi, zarur bo'lganda esa, uchinchi ko'rsatkichlar darajasi bo'yicha taqsimlanadi (3.1- jadval).

Xizmatlar sifat ko'rsatkichlarining nomenklaturasi

Umumlashtirilgan ko'rsatkich	Kompleks ko'rsatkichlar	
	birinchi daraja	ikkinchi daraja
Xizmatlar sifati umumlashtirilgan ko'rsatkichlari	<p>Funksional</p> <p>Estetiklik</p> <p>Ijtimoiy ahamiyati</p>	<p>Vazifasi</p> <p>Puxtaligi, ishonchliligi</p> <p>Ergonomikligi</p> <p>Ekologikligi</p> <p>Xavfsizligi</p> <p>Shakllar va kompozitsiyalar</p> <p>Rang berish</p> <p>Sirtning tuzilmasi va bezagi</p> <p>Moda</p> <p>O'ziga xosligi</p> <p>Nufuzlilik</p>

Har bir birinchi darajadagi kompleks ko'rsatkichning bahosi xizmatlarning funktsionalligi, estetikligi va ma'noligidan qoniqqan buyurtmachilarning soniga qarab, quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$K_i = \frac{m_i}{M_i}, \quad (6.1)$$

bunda m_i –xizmatlarning funktsionalligi (estetikligi, ijtimoiy ma'noligi) bilan qoniqqan buyurtmachilar soni;

M_i – i - xizmat buyurtmachilarining umumiy soni.

Jumladan, ta'mirlangan televizorga nisbatan sifat ko'rsatkichlarining nomenklaturasi quyidagilardan iborat: birinchi daraja – funktsional, ikkinchi daraja – vazifalari (tasvirning ravshanligi va uning sozlanishi; aniq va kontrastli ko'rsatish va uni rostlash; tasvirning buzilmaganligi; rangning berilishi; tovushning balandligi va uni rostlash; tanlanuvchanlik; ovoz tembri va uni sozlash; ergonomik boshqarish qismlaridan foydalanganda buyurtmachi tomonidan sozlashlarda ta'sir

kuchi; ravon sozlanish), puxtalik (buzilmasdan ishlashlik), xavfsizlik (elektr va yong'in xavfsizligi) dan iborat.

Ta'mirlangan televizorning birinchi daraja ko'rsatkichiga estetikligi, ikkinchi daraja ko'rsatkichiga rangdorlik ko'rsatkichlari (materiallarning, dastaklarning, boshqarish qismlarining rangi) ham kiradi.

Axborot-ma'lumotnoma xizmati tomonidan berilgan ma'lumotnoma sifatiga oid: birinchi daraja – funksional ko'rsatkich, ikkinchi daraja – vazifasi (ma'lumotnomada keltirilgan axborotning ishonchliligi va to'liqligi), ergonomiklik (yozma yoki og'zaki ma'lumotnomadagi axborotning yaxshi o'qilishi, m'lumotnomaning qulay saqlanishi, matnning oson o'qilishi) kiradi.

Birinchi darajaning estetik ko'rsatkichi ikkinchi darajani – ma'lumotnomaning badiiy rasmiylashtirilganligi (blankaning shakli, qo'shimcha rasmlar, emblemalarning ma'lumotnoma blankida borligi, ma'lumotnoma shriftining shakli) ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

Xizmatlar sifatini ijtimoiy metod bilan baholash, ya'ni buyurtmachining o'ziga ko'rsatilgan xizmatlarning sifati to'g'risida umumiy fikrini olish va umumlashtirilgan ijtimoiy ko'rsatkichlarning son qiymatini aniqlash yo'li bilan baholash ruxsat etiladi.

Ijtimoiy metod yoppasiga tekshirishni ta'minlaydi, ushbu korxonaga ma'lum vaqt (oy, kvartal, yil) ichida murojaat qilgan barcha buyurtmachilarning fikrini hisobga olishga imkon beradi va quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Q_{ij} = \frac{N_{ij} - n_{ij}}{N_{ij}}, \quad (6.2)$$

bunda Q_{ij} – xizmatlar sifati umumlashtirilgan ko'rsatkichi;

N_{ij} – j -korxonada ma'lum vaqt ichida i - xizmat buyurtmachilarining soni;

n_{ij} – i -xizmat ko'rsatish sifati bo'yicha qoniqmaganligini ifodalagan buyurtmachilar soni.

Nazorat savollari

1. Xizmatlar sohasida standartlashtirish
2. Xizmatlarning xavfsizligini ta'minlash
3. Xizmat ko'rsatish sharoitlari
4. Xizmatlar sifatini baholash

Adabiyotlar

1. Henk J. de Vries Standardization: A Business Approach to the Role of National Standardization Organizations. Springer Science+Business Media, LLC, New York All Rights Reserved © 2000 Springer, 330 p.
2. Dr. Peter Hatto Standards and Standardization. Handbook. EUROPEAN COMMISSION, Directorate-General for Research Industrial Technologies Pictures © Shutterstock, 2010, 24 p.
3. Role of standards. A guide for small and medium-sized enterprises. Working paper. United nations industrial development organization, Vienna, 2006, 56 p.
4. Abduvaliyev A.A., Latipov V.B., Umarov A.S., Alimov M.N., Boyko S.R., Xakimov O.Sh., Xvan V.I. Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifat. O'quv qo'llanma. Toshkent, SMSITI, 2008. – 267 b.
5. Ismatullayev P.R., Matyakubova P.M., Turayev Sh.A. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. Darslik. «Lisson-Press». Toshkent, 2015. - 423 b.
6. www.ima.uz
7. vtww.academy.uz
8. www.standart.uz
9. www.smsiti.uz
www.uza.uz

1	<i>Xizmat</i>	yetkazib beruvchi va iste'molchining o'zaro bevosita ta'siri va yetkazib beruvchining iste'molchining ehtiyojlarini qondirish bo'yicha ichki faoliyatining natijasi
2	<i>Xizmat turi</i>	Umumiy texnologik belgilari bilan tavsiflanuvchi bir turli xizmatlar to'plami
3	<i>Moddiy xizmatlar</i>	xizmatlar iste'molchisining moddiy-maishiy ehtiyojlarini qondirish bo'yicha xizmatlar
4	<i>Ijtimoiy-madaniy Xizmatlar sifatini xizmat</i>	Ma'naviy, intellektual ehtiyojlarni qondirish bo'yicha va iste'molchining me'yoriy hayot faoliyatini saqlash bo'yicha xizmat.
5	<i>Xizmatga standart</i>	Xizmatning o'z vazifasiga muvofiqligini ta'minlash uchun xizmat qoniqtirish lozim bo'lgan talablarni o'rnatuvchi standart.
6	<i>Xizmatlarning xavfsizligi</i>	Yetkazilgan zarar yoki putur joiz darajada cheklangan holat.
7	<i>Xizmat ko'rsatish sharoitlari</i>	Buyurtmachiga xizmatlarni olayotgan jarayonda ta'sir etuvchi omillar to'plami.
8	<i>Xizmatlar sifatini baxolash</i>	buyurtmachining o'ziga ko'rsatilgan xizmatlarning sifati to'g'risida umumiy fikrini olish va umumlashtirilgan ijtimoiy ko'rsatkichlarning son qiymatini aniqlash

4-amaliy mashg'ulot. Sifat menejmenti tizimini qo'llash

4.1.ISO 9001 xalqaro standarti talablari

SMT sertifikatlashtirish jarayoniga talablar Umumiy qoidalar. Boshlang'ich audit va sertifikatlashtirish. Nazorat bo'yicha faoliyat. Qayta sertifikatlashtirish. Maxsus auditlar. Sertifikatlashtirishni faoliyat sohasini to'xtatib qo'yish, bekor qilish yoki qisqartirish. Apellyatsiyalar. Shikoyatlar. Talabgorlar va mijozlar bo'yicha yozuvlar

- Audit dasturi ikki bosqichdan iborat boshlang'ich audit, birinchi va ikkinchi yil davomidagi nazorat auditlari va qayta sertifikatlashtirish auditidan iborat bulishi kerak.
 - Sertifikatlashtirishni uch yillik sikli sertifikatlashtirish yoki qayta sertifikatlashtirish tug'risidagi qarordan boshlanadi. Audit dasturini va istalgan tug'rilashlarni aniqlashda buyurtmachi tashkilotini o'lchami, qullanish sohasi va uning menedjment tizimi, jarayonlari va mahsulotini murakkabligini, shuningdek oldingi auditlar natijalarini ko'rib chiqish kerak. SI talabgorida utkazilgan sertifikatlashtirish yoki boshqa auditlarni e'tiborga olgan taqdirda, SI audit dasturini istalgan ulchashlarini asoslash va yozib olish uchun yetarli, tekshiriladigan ma'lumotlarni yig'ishi kerak.

SI, auditorlik faoliyatini utkazish va muddatlarini aniqlash uchun har bir audit uchun audit plani tuzilishini ta'minlashi kerak. Audit rejasi O'zDSt ISO 19011 ga binoan ishlab chiqilgan, SI hujjatlashtirilgan talablariga asoslanishi kerak.

SI, audit bo'yicha guruh rahbarini qushgan holda, audit bo'yicha guruhni tanlash va tayinlash jarayoniga ega bulishi kerak. Bu jarayon O'z DSt ISO 19011 da belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgan, hujjatlashtirilgan talablarga asoslanishi kerak.

SI audit vaqtini aniqlash uchun hujjatlashtirilgan proseduralarga ega bulishi kerak, xar bir buyurtmachi uchun menedjment tizimini tuliq va samarali rejalashtirish va tugallash uchun zarur vaqtni aniqlashi kerak.

SI tomonidan aniqlangan audit vaqti va aniqlash uchun asos yozilishi kerak.

Audit muddatlarini aniqlashda SI quyidagi aspektlarni ko'rib chiqishi kerak:

- menedjment tizimiga tegishli standartni talablarini;
- o'lcham va murakkablilik;
- texnologik o'ziga xos xususiyatlar;
- menedjment tizimi bilan qamrab olingan istalgan faoliyat uchun hamijrochilarni (outsorsing) jalb qilish;
- oldingi audit natijalarini;
- ishlab chiqarish maydonchalarini soni va ularda auditni utkazish bilan bog'liq masalalarni.

Agar audit davomida turli joylarda joylashgan va o'xshash faoliyatni amalga oshiradigan ishlab chiqarish maydonchalari tanlama tekshirilsa, SI tanlashni amalga oshirish uchun dastur ishlab chiqishi kerak. Tanlashni asoslanishi yozib quyilishi kerak.

Audit bo'yicha guruhga belgilangan vazifalar aniqlanishi va buyurtmachi – tashkilot xabardor qilinishi, auditorlar guruhidan quyidagilarni talab qilishi kerak:

- buyurtmachi – tashkilotni menedjment tizimiga tegishli bulgan tashkiliy tuzilma, siyosat, jarayonlar, proseduralar va ular bilan bog'liq hujjatlarni inspeksiya qilish va verifikasiyalash;
- kuzda tutilgan sertifikatlashtirish sohasini barcha talablarini muvofiqligini aniqlash;
- barcha jarayon va proseduradar belgilanganligi, samarali bajarilayotganligi va ishchi holatda tutilishi, menedjment tizimiga ishonch uchun asosta'minlashiga ishonch hosil qilish;

SI buyurtmachi – tashkilotga auditorlar guruhi a'zolarini familiyalarini uz vaqtida xabardor qilishi kerak.

Audit rejasi va vaqti buyurtmachi – tashkilotga olddindan xabar qilinishi va kelishilishi kerak.

SI har bir audit bo'yicha yozma hisobot tayyorlashi kerak. Xisobot O'z DSt ISO 19011 bo'yicha tuzilishi kerak.

- Audit bo'yicha guruh yaxshilash imkoniyatlarini belgilashi kerak, ammo aniq qarorlarni tavsiya qilmasligi kerak.
- SI mijozdan sabablar tahlili va joriy qilingan yoki joriy qilinishi rejalashtirilayotgan maxsus tug'rilash va tug'rilovchi harakatlarni bayonini talab qilishi kerak.
- SI mijoz tomonidan amalga oshirilgan tug'rilash va tug'rilovchi harakatlarni ularni yaroqliligiga tahlil qilishi kerak.

Sertifikatlashtirishni boshlang'ich auditi ikki bosqichda utkaziladi: birinchi bosqich va ikkinchi bosqich.

4.2. Xalqaro sifat tizimlarini joriy etish

ISO 9001 xalqaro standarti talablariga muvofiq yaratilayotgan sifat menejmenti tizimi (SMT)ning samaradorligi va muvaffaqiyatligi ISO 9000 standartida bayon etilgan sifat menejmentining yettita tamoyilini tushunish va undan to'g'ri foydalanishga bog'liqdir. Ulardan eng muhimi beshinchi tamoyil – menejmentga tizimli yondashuv bo'lib hisoblanadi. Tizimli yondashuvda barcha qiziquvchi tomonlarning talablarini qanoatlantiruvchi integrirlangan sifat menejmenti tizimi zaruriyati yuzaga keladi. Shuning uchun ham oxirgi vaqtda turli xil tashkilotlarda SMT integrirlash bo'yicha ishlar faol rivojlanmoqda. ISO 9001, ISO 14001, ISO 22001 va OHSAS 18001 standartlari talablarini belgilash va qayta ko'rib chiqish, barchasini integrirlash murakkabiligini ko'rsatadi.

ISO 9001 standartining 4 bo'limiga binoan SMTning umumiy qoidalari quyidagicha: "Tashkilot SMTni ishlab chiqishi, hujjatlashtirish, amalga oshirish va qo'llab-quvvatlashi, talablarga muvofiq o'z faoliyatini doimiy ravishda yaxshilashi kerak ...".

Korxonada boshqaruv tizimini integrasiyalashgan holda ushbu talab quyidagi

tarzda taqqoslanishi mumkin: "Tashkilot ISO 9001 va ISO 22000 talablariga muvofiq o'z mahsulotini doimiy ravishda takomillashtirish, oziq-ovqat mahsulotlarining ISMTvaX ish jarayonini ishlab chiqish, hujjatlashtirish, joriy yetish va qo'llab-quvvatlashi kerak".

ISMT va Xavfsizlikning shakllanishi uning strukturasi (elementlarini) ushbu standartlarda belgilangan talablarning organik birikmasidan aniq tashkil yetishni nazarda tutadi.

4.3. ISO 9001 sifat menejment tizimi tamoyillari;

Sifat menedjmenti tizimi -bu tashkilot sifat bilan bog'liq vazifalarni xal qiladigan usuldir. Keng ma'noda u mahsulot sifati sohasida belgilan maqsadlarga erishish va iste'molchilar talablarini qanoatlantirish uchun qo'llaniladigan tashkilotni tashkiliy tuzilmasi, hujjatlari, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarni qamrab oladi.

Sifat menedjmenti tizimi – u yoki bu faoliyat qanday va nima uchun amalga oshirilishi, vazifalarni hal qilish usullari va erishilgan natijalarni qayd qilinishi bayoni masalalarini qamrab oladi.

1. Iste'molchiga yo'nalganlik.

Tashkilotlar o'zining iste'molchilariga tobe buladi va shuning uchun ularning joriy va kelgusidagi extiyojlarini tushunishi, ularning talablarini bajarishi va kutganidan xam ortik yaxshi natijaga erishishi lozim.

2 Yetakchilik .

Raxbarlar tashkilotning maqsadi va faoliyati yo'nalishini yagonaligini ta'minlaydi. Raxbarlar tashkilot oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishga xodimlarni jalb etish mumkin buladigan ichki muxitni yaratish va saklashi lozim.

3. Odamlarning imkoniyatidan foydalanish.

Barcha pogona xodimlari tashkilot asosini tashkil etadi va ularni ishga tulik jalb etilishi tashkilotga xodimlar kobilyatlaridan unumli foydalanish imkonini beradi

Har bir xodim sifatni ta'minlash ishida o'zining muhimligini tushunishi va sifatni yaxshilashda o'z vazifalariga ega. Xodimlarni to'liq jalb qilinishi ularni qobiliyatlarni tashkilot uchun maksimal foyda olishda qo'llash imkoniyatini beradi.

4. Jarayonli yondoshish.

Tashkilotning faoliyati va mavjud resurslar jarayon tarzida boshkarilganda kutilgan natija samarali buladi

SMT bazaviy modeli sharoitlarida tashkilot bu tamoyil asosida mahsulot va xizmatlarni loyihalash, ishlab chiqarish va yetkazish jarayonlarini aniq belgilaydi.

Tashkilot o'z maksadlariga erishishda o'zaro bog'lik jarayonlarni aniqlashi, tushunishi va boshkarishi korxonani samaradorligi va yukori tashkiliy – texnikaviy darajasiga xissa qo'shadi

SMT bazaviy modelini ishlab chiqishda bu tamoyil, tashkilot mahsulot yoki xizmatlarni yaratish jarayonlarini mahsulot yoki xizmatlarni buyurtmachi ehtiyojlariga muvofiqlikka tekshirish jarayonlari bilan birlashtirishga xarakat kilayotganligini ta'kidlaydi.

5. Yaxshilanish.

Tashkilotning faoliyatini doimiy yaxshilashga uzgarmas maksad deb karalishi lozim

Tashkilot SMT faoliyati orqali buyurtmachini kelajakdagi ehtiyojlarini samarali qanoatlantirish va joriy qilingan jarayonlarni eng yaxshi natijalarga erishishini o'z maqsadi deb qaraydi.

6. Ma'lumotlarga asoslangan qarorlarni qabul qilish.

Samarali qarorlar ma'lumotlarni va axborotlarni taxlil etishga asoslanadi


SMT faoliyatiga taalluqli qarorlarni qabul qilish uchun bu darajada faktlar va ma'lumotlar qo'llaniladi. Bunda ma'lumotlar manbalari bo'lib auditlar, to'g'rilovchi amallar, jarayonlar faoliyati, buyurtmachilarni shikoyatlarini tahlillari natijalari, shuningdek boshqa manbalar xisoblanadi. Tahlilda qanoatlanganlik darajasi va SMT samaradorligini oshirish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarga alohida e'tibor beriladi.

7. o'zaro munosabat menejmenti.

Tashkilotlar va ularning yetkazib beruvchilari o'zaro bog'lik buladi va o'zaro manfaatli munosabatlar ikkala tomonning moddiy boylik yaratish imkoniyatlarini oshiradi

4.4. Integrallangan SMT va xavfsizlik menejment tizimlari

ISMT va Xavfsizlik elementlarini ishlab chiqish uchun ularning integrasiya sohasini aniq belgilash kerakmi? standartlari. 4.1-rasmda ko'rsatilgan integrasiya hududlari aniqlandi.



4.1-rasm. ISO 9001 va ISO 22000 xalqaro standartlarini integrasiya sohalari

Natijada 9 ta integrasiya maydoni aniqlandi. 4.1-rasm, ISO 9001 standarti talablariga moslashtirish uchun birlashma tamoyilidan foydalangan holda ISO 22000 ning tegishli talablariga qo'shimcha ravishda qo'shiladi va ushbu standartlarga mos keladigan talablar to'liq elementlarga kiritiladi¹⁷.

Yuqorida keltirilgan natijalar va ushbu standartlarni taqqoslash natijasida ISMC& B tashkil yetish uchun 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar keltirilgan.

Jadvalning birinchi ustuni IMCMB elementlarining to'liq ro'yxatini taqdim etadi. Keyinchalik ustunlarda, ISMTvaX elementlariga mos keluvchi ushbu tizimlar standartlarining sonlari kiritiladi.

Shu tarzda shakllangan ISMT va Xavfsizlik elementlari oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligiga talablarni aks yettiradi. Shunday qilib, ISMTvaX elementlarini SMTelementlari bilan integrasiyalashgan holda, korxonada oziq-ovqat xavfsizligini boshqarishning universal tizimini oladi.

Oziq-ovqat xavfsizligi tizimining rivojlanishi tashkilotga qiymat qo'shadigan jarayon sifatida aniqlanishi mumkin. Ushbu tizimni ishlab chiqqan va joriy etadigan oziq-ovqat korxonasi rivojlanishi uchun yangi ufqlar ochib beradi: yangi bozorlarni yegallash, iste'molchilarga sodiqlik va sadoqatni ta'minlash.

Mazkur jarayonni amalga oshirish tashkilotning asosiy faoliyati yemas. Mahsulotlar uchun oziq-ovqat xavfsizligi tizimining rivojlanishi bir martalik jarayon, ya'ni jarayon tugallangandan so'ng tashkilot uni takrorlamaydi.

Shunga ko'ra, ushbu tizimni korxonada ishlab chiqish aniq boshlangan sana va oxirgisi bo'lgan bir loyiha.

Oziq-ovqat kompaniyasida xavfsizlikni boshqarish tizimini ishlab chiqishda, uni yangi tuzilmani yaratishdan ko'ra, mavjud tizimni "integrasiya qilish" yo'li bilan ishlab chiqarishni joriy yetish zarurligini inobatga olish kerak.

Oziq-ovqat xavfsizligi tizimining asosi xavflarni oldini olishga mo'ljallangan "xavfsizlikni rejalashtirish" tushunchasiga asoslangan bo'lishi mumkin. Asosiy qoidalari:

¹⁷ Акименко Е. Внедрение системы управления безопасностью пищевой продукции // Стандарты и качество.- 2008.- №2.- С. 90.

- uning tarkibini ishlab chiqishda oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanadi;
- rejalashtirilgan texnologik jarayonlar taslim qilingan mahsulotning xavfsizligini ta'minlashi kerak.

Va ushbu qoidalarning har ikkalasi ham bajarilishi kerak - bu eng xavfsiz vosita, uning ishlab chiqarish texnologiyasi xavfsiz bo'lmasa, yakuniy mahsulotning xavfsizligiga kafolat bermaydi.

"Xavfsizlikni rejalashtirish" ishlab chiqarish va tarqatish zanjiri davomida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydigan xavfsizlik tizimini shakllantirishning muhim elementidir.

Ushbu yondashuv xavfsiz mahsulotlarni barqaror ta'minlashni ta'minlaydigan bir qator qattiq tartiblar yordamida amalga oshiriladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- xavfsiz mahsulotlar va axborotni rivojlantirish uchun ishonchli vositalar (masalan, kerakli prognoz ma'lumotlarini olish va mikroorganizmlar va mahsulotning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash uchun turli mikrobiologik tadqiqotlar o'tkazish imkoniyati);


- to'g'ri ishlab chiqarish amaliyotlari (ishlab chiqarish xavfsizligini ta'minlaydigan yuvish va dezinfeksiya tizimlari);

- mahsulotni ishlab chiqarish va ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan barcha xodimlarni doimiy ravishda tayyorlash, bu yesa oziq-ovqat xavfsizligini yaxshi tashkil etadigan odatga aylantiradi;

- ishlab chiqarish jarayonlari xavfsizligini nazorat qilish uchun ishonchli sifatli tizim.

Shubhasiz, oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilar uchun oziq-ovqat xavfsizligi eng ustuvor yo'nalish bo'lishi kerak. Shu bois, bugungi kunda oziq-ovqat sanoatida oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagi me'yorlarga asoslangan boshqaruv tizimlari ko'pincha qo'llaniladi: ISO 9001:2015 (Sifatni boshqarish tizimlari - Talablar); HACCP (Xatarlarni tahlil qilish va keskin nazorat nuqtalari); GMP (Yaxshi ishlab chiqarish amaliyoti); ISO 22000:2007 (Oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish tizimlari - oziq-ovqat zanjiri bo'yicha har

qanday tashkilot uchun talablar).



4.2-rasm. Mahsulotlarning oziq-ovqat xavfsizligiga erishish jarayonining modeli

ISO 9001 standarti sifatni boshqarish tizimini yaratish uchun universal asos bo'lib xizmat qiladi, chunki u umumiy boshqaruvning asosiy tushunchalari va tamoyillarini o'z ichiga oladi.

ISO 9000 asosida ISO sifat menejmenti tizimi (SMT) uning negizida yaratilgan jarayon yondashuvi tufayli barcha korporativ boshqaruv tizimini tartibga solishni ta'minlaydi. SMT oziq-ovqat mahsulotlarining hayot aylanish jarayonining barcha bosqichlarini, ya'ni asosiy ishlab chiqarish jarayonlarini qamrab oladi¹⁸.

ISO 9000 standartlari oziq-ovqat, shu jumladan korxonada faoliyat ko'rsatadigan barcha o'zaro bog'liq jarayonlarni identifikatsiyalash va shu usullar va ularni boshqarish vositalarini ishlab chiqish uchun har qanday korxonaning SMT ishlab chiqishini talab qiladi, bu esa ushbu jarayonlarning samaradorligini

¹⁸ Александровская Л.Н., Розенталь О.М., Сурьяков В.Н. Эффективность HACCP // Методы оценки соответствия.- 2009.- №7.- С. 26.


muntazam oshirishga olib keladi.

Standartlarning ushbu talabi shuningdek boshqaruv jarayonlariga (strategik rejalashtirish, moliyaviy boshqaruv va hokazo) va qo'llab-quvvatlovchi jarayonlarga (jihozlarni ta'mirlash, xodimlarni tayyorlash va boshqalar) qaratiladi.

4.5. Sifat va xavfsizlik menejmenti tizimlarini birlashtirish masalalari

Tizim birlashtirish (integrasiyasi). Menejment tizimlarini integrirlash masalalarini ko'rib chiqishda to'liq haqqoniy ravishda Yevropa mamlakatlarida to'liq va chuqurroq integrirlanganli holatlari to'g'risida mulohaza yuritish mumkin. Asosan integrirlanishi holatlarini hamda ularni keng va to'liq SMT, OOXMT integrirlanishida ko'zga tashlanadi. Hammadan ham SMT va OOXMT tizimlarini birlashtirish nechog'lik, ISO 9001 va ISO 22000 standartlari talablari tuzilmalar aynan bir xilligini anglatadi.


Tizim birlashtirishning № 1 usuli. Deming siklidan uch bosqichli sxema: rejalashtirish, bajarish va tizim natijaviyligini tahlil qilish tartibida soddalashtirib va unda menejment tizimlarini integrirlash quyidagi sxema ko'rinishida shakllantirish mumkin:



4.3-rasm. Tizimlarni birlashtirishning 1 usuli.

Ikki yoki undan ortiq tizimlarni integrirlashni rejalashtirish va natijaviylikni tahlil qilish darajalarida ta'minlash mumkin. Boshqacha so'z bilan aytganda Deming siklini har bir boshlanishida va yakunida har bir boshqaruv davomida ixtiyoriy menejment tizimini integrirlash imkoniyati mavjud.

Tizim integrasiyasining № 2 usuli. Deming siklining to'rtta bosqichlaridan foydalanib MT integrirlanish sohasini ikkita tizim doirasidagi u yoki bu faoliyatlarni aynan ko'rsatib, quyidagi shaklda ko'rinishi mumkin (4.4-rasm):



4.4-rasm. Tizimlarni birlashtirishning 2 usuli.

Barcha menejment tizimlarini doimiy takomillashuvini ta'minlashga yordam beruvchi integrirlovchi mexanizm zarur. Barcha menejment tizimlari va IMT doimiy yaxshilash uchun ular qatorida korxonaning barcha jihatlari ko'rib chiqilgan, integrirlashning barcha holatlari bo'yicha ma'lumotlar yig'ilgan bo'lishi, doimiy takomillashtirish (yoki korxonadagi mavjud yaxshilash) jarayonini yaratish zarur.

IMT standartlashtirishni davom ettirib, integrirlangan menejment tizimlarining umumiy holatlarini topish mumkin. Bunday umumiy holatlar quyidagilar bo'lib hisoblanadi:

- Rejalashtirish, maqsadlarni o'rnatish,
- Menejment tizimlari auditi,
- Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish,
- Menejment tizimlarini tahlil qilish,
- To'g'rilovchi va oldini oluvchi amallar.

Ixtiyoriy boshqaruv tizimini hox u sifat menejmenti tizimi (SMT), oziq-ovqat xavfsizligi menejmenti tizimi (OOXMT), bo'lmasin ularni o'rganishda "menejment tizimi" va "boshqaruv tizimi" tushunchalari eng muhim bo'lib hisoblanib, ushbu holatda ikkalasi ham bir xil ma'noni anglatadi.

ISO 9001 va ISO 22001 standartlarining birinchi talablaridan biri bu sifatni boshqarish tizimi holatida ham, boshqasi atrof-muhitga ta'sirlarni boshqarish tizimida ham, uchinchi sanoat va mehnat muhofazasi xavfsizligi boshqaruvi tizimida ham “boshqaruv tizimini o'rnatish” talabi hisoblanadi¹⁹.

Eng asosiysi IMT integrirlash nimaligi va SMT, OOXMT menejment tizimlarining aniqlangan miqdorlarini to'g'risidagi masalalarni qo'rib chiqishda “boshqaruv tizimi” nima ekanligini tushunish muhim ahamiyat kasb etadi.

Integrirlangan menejment tizimi – bu xuddi “boshqaruv tizimi”, shuning uchun ISO 9001, ISO 14001 va OHSAS 18001 standartlari qayday qilib sharhlaydi va tushuncha nimalar bilan aloqadorligini tushunish lozim.

Bajariladigan ish bo'yicha quyidagi savollar

1. IMT model va xalqaro standart talablari haqida qisqacha ma'lumot.
2. IMT natijaviyligini baholash algoritmi foydalanilayotgan standartlarning ahamiyatliligi.
3. IMT natijaviyligini baholash algoritmi xalqaro standartlarga muvofiqligi asosida shakllangan menejment tizimi ishchi holati uslubiy asoslari sifatida “Doimiy yaxshilash” prinsipini amalga oshirish

Hozirgi paytda xalqaro standartlar asosida yaratilayotgan menejment tizimlarining natijaviyligini baholashning umum tan olingan usuli tanlanmagan. Faqat qiziquvchi tomonlarning qanoatlanganligi, umumiy xavflarni baholash, sifat sohasidagi mukofot modellaridan foydalanish asosida IMT natijaviyligini baholashga yondashuvlar mavjuddir.

Shubhasiz, IMT natijaviyligini baholashga yondashuv quyidagi prinsiplarga tayanishi lozim:

Natijaviylikni baholash usulini ishlab chiqishda IMT ishlab chiqilgan IMT modelidan foydalanish tavsiya etiladi (5-rasm). Ushbu korxonada menejmenti tizimi hajmiy modeli, menejmentga umum tan olingan klassik yondoshuviga asoslangan, uni ichidan qurishga ruxsat etiladi, ammo, sifat menejmenti tizimi va boshqa nalogik menejment tizimlari bilan prallel bo'lmasligi lozim.

¹⁹ Мейес Т. Эффективное внедрение ХАССП: Учимся на опыте других: учебник / Т. Мейес, С. Мортимор; пер. с англ. В. Широкова. — СПб: Профессия, 2005. — 288 с

Nazorat savollari

1. ISO 9001 xalqaro standarti talablari
2. Integrallangan SMT va xavfsizlik menejment tizimlari
3. ISO 9001 va ISO 22000 xalqaro standartlarini integrasiya sohalari
4. Deming siklidan
5. Tizimlarni birlashtirish usuli

Adabiyotlar

1. Henk J. de Vries Standardization: A Business Approach to the Role of National Standardization Organizations. Springer Science+Business Media, LLC, New York All Rights Reserved © 2000 Springer, 330 p.
2. Dr. Peter Hatto Standards and Standardization. Handbook. EUROPEAN COMMISSION, Directorate-General for Research Industrial Technologies Pictures © Shutterstock, 2010, 24 p.
3. Role of standards. A guide for small and medium-sized enterprises. Working paper. United nations industrial development organization, Vienna, 2006, 56 p.
4. Abduvaliyev A.A., Latipov V.B., Umarov A.S., Alimov M.N., Boyko S.R., Xakimov O.Sh., Xvan V.I. Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifat. O'quv qo'llanma. Toshkent, SMSITI, 2008. – 267 b.
5. Ismatullayev P.R., Matyakubova P.M., Turayev Sh.A. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. Darslik. «Lisson-Press». Toshkent, 2015. - 423 b.
6. www.ima.uz
7. vtww.academy.uz
8. www.standart.uz
9. www.smsiti.uz
www.uza.uz

Tushunchalar	Tushunchalar mazmuni
ISO 9001 Sifat menejmenti tizimi	Mahsulot yoki xizmatlarni sifatining baqarorligini ta'minlash va iste'molchi talablariga javob berish darajasini oshirish qaratilgan boshqaruv tizimi
ISO 22001 Oziq-ovqat xavfsizligi menejmenti tizimi	Oziq-ovqat mahsulotlarini xavfsizligini ta'minlash va iste'molchi xavfsizligini kafolatlovchi boshqaruv tizimi
ISO 14001 Ekologik menejmenti tizimi	Mahsulotning birinchi bosqichidan iste'molchiga qadar har bir qadamda atrof muhit ta'sirini xisobga olgan xolda ishlab chiqarishning barcha turlarida ishlab chiqarishni ta'minlaydigan boshqaruv tizimi
OHSAS 18001 Kasbiy xavfsizlik va mehnat muhofazasi sohasidagi menejmenti tizimi	Sog'liqni saqlash, mehnat xavfsizligini ta'minlash va atrof-muhit muhofazasi bo'yicha qoidalar va boshqa me'yoriy hujjatlar talablariga asoslangan xolda amalga oshiriladigan boshqaruv tizimi
Integrirlangan menejment tizimlari	Barcha boshqaruv tizimlarni o'zaro birlashgan qonun qoidalari va talablari asosida yaratilgan umumlash menejment tizimi.
Akkreditasiya	mahsulot va xizmatlar, xodimlar va sifat tizimlarini belgilangan talablarga muvofiqligini baholash va muvofiqligini tasdiqlash bo'yicha aniq vazifalarni bajarish uchun vakolatlarini rasmiy tasdiqlash.
Akkreditlash mezonlari	akkreditlashga talabgor javob berishi kerak bulgan talablar yig'indisi
Akkreditlash sohasi	–muvofiqlikni tasdiqlash bo'yicha ma'lum faoliyat sohasidagi, bajarishga murojaat qilingan va (yoki) akkreditasiya berilgan aniq ishlar

5- amaliy mashg'ulot. Standart loyixalarini tasdiqlash va Davlat ro'yxatidan o'tkazish

5.1.O'z DSt 1.1-92 "O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi.

O'z DSt 1.1-92 "O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi. O'zbekiston Respublikasining standartini ishlab chiqish, kelishib olish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi" standartiga binoan O'zbekiston Respublikasi standarti (bundan keyin - standart deb yuritiladi) standartlashtirish bo'yicha texnikaviy qo'mitalar, standartlashtirish bo'yicha tayanch tashkilotlari, vazirliklar, idoralar, uyushmalar, konsernlar, davlat, shirkat, pudratchi, aksioner, qo'shma korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan ishlab chiqiladi.

Standartni har xil tashkilotlar mutaxassislarining ishchi guruhlarini tomonidan ishlab chiqishga yo'l qo'yiladi.

Standartning bir nechta tashkilot tomonidan ishlab chiqilishida yetakchi ishlab chiquvchi tashkilotlar (ijrochilar ro'yxatida birinchi o'rinda turadi) hamkorlikda ish bajaruvchi har bir tashkilot bilan ish ko'lamini va muddatlarini aniqlaydi.

Standart Respublika hududida kimga qarashli ekanligi va mulk shaklidan qat'iy nazar, standart ishlab chiqilgan tashkilotlarni iste'mol qiladigan va mahsulot ishlab chiqaradigan hamma korxonalar va tashkilotlar uchun majburiydir.

Standartga kiritiladigan o'zgarish asosiy standart uchun belgilangan tartibda majburiy kelishib olinishi, tasdiqlanishi va ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

Standartlarning tuzilishi, mazmuni, bayon etilishi va rasmiylashtirilishi davlat standartlashtirish tizimi standarti va davlatlararo standarti (GOST 1.5-85)ga muvofiq bajariladi.

Standartni ishlab chiqishda tashkiliy - usuliy birlikka erishish maqsadida hamda standartni ishlab chiqish bosqichlari bajarilishini nazorat qilish uchun 4 bosqich joriy etiladi.

1-bosqich - zaruriyat tug'ilganda standartni ishlab chiqishda texnikaviy topshiriq ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi;

2-bosqich - standart loyahasini ishlab chiqish (birinchi tahriri) va uni fikr mulohazalar olish uchun yuborish;

3-bosqich - fikr-mulohazalar ustida ishlash, standart loyahasini (oxirgi tahririni) ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlashga taqdim etish;

4-bosqich - standartni tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish.

Standartlarni ishlab chiqish bosqichlarini bir-biri bilan qo'shib olib borishga yo'l qo'yiladi²⁰.

1-bosqich

Texnik topshiriq me'yoriy hujjatni ishlab chiqish ishlarini bajarish bosqichlarini o'rnatish maqsadida buyurtmachi-tashkilot bilan kelishilgan holda, ishlab chiquvchi tashkilot tomonidan tuziladi va odatda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- standartlatirish obyekti va qo'llanish sohasi;
- standartning bo'limlari va standartda o'rnatiladigan asosiy talablar ro'yxati;
- standartni ishlab chiqish bosqichlari;
- standart bilan birga taqdim etiladigan hujjatlar ro'yxati;
- standart loyihasini kelishish lozim bo'lgan boshqaruv idoralari va (yoki) korxonalar ro'yxati;
- buyurtmachining boshqa talablari.

5.2. Standartlar loyihasini ishlab chiqish va muhokama uchun tarqatish


2 – bosqich

Standart loyihasi manfaatdor tashkilotlarning takliflari asosida va (yoki) tayyorlovchi-korxonalarining tashabbusi bilan ishlab chiqiladi.

Standartning loyihasini ishlab chiqish bilan bir vaqtda standart loyihasiga tushuntirish yozuvi tuziladi va zarur bo'lganda, standartni joriy etish bo'yicha asosiy tashkiliy-texnikaviy tadbirlar rejasining loyihasi (keyinchalik – asosiy tadbirlar rejasining loyihasi) ishlab chiqiladi. Standart loyihasi tushuntirish yozuvi bilan birga va asosiy tadbirlar rejasining loyihasi bilan nus'hasi ko'paytiriladi va fikr olish uchun quyidagi ro'yxat bo'yicha manfaatdor tashkilotlarga tarqatiladi:

- buyurtmachi-tashkilot (asosiy iste'molchi)ga yoki standartning loyihasini kelishish bo'yicha tayanch tashkilot deb tayinlangan uning tashkilotlaridan biriga;
- standart loyihasida vakolatlariga qarashli talablar o'rnatilgan bo'lsa, davlat nazorati idoralariga, sog'liqni saqlash vazirligiga, atrof muhitni muhofazalash qo'mitasiga;

²⁰ Абдувалиев А.А., Латипов В.Б., Умаров А.С., Алимов М.Н., Бойко С.Р., Хакимов О.Ш., Хван В.И. Стандартлаштириш, метрология, сертификатлаштириш ва сифат. Ўқув қўлланма. Тошкент, СМСИТИ, 2008. – 267 б.



Standartga texnikaviy topshiriqni ishlab chiqish va tasdiqlash

– mahsulotning biriktirilgan turlari bo'yicha standartlashtirish tayanch tashkilotlariga;

– standartni joriy etuvchi va joriy etilishini ta'minlovchi tashkilotlar va korxonalariga.

Korxonalar va tashkilotlar taqdim etilgan standart loyihasini ko'rib chiqib, o'z fikr-mulohazalarini yozadi va standartni ishlab chiquvchiga, standart loyihasini olgan kundan boshlab 15 kundan kechiktirmay jo'natadi.

Kelgan fikr va mulohazalarni ko'rib chiqish

3-bosqich

Ishlab chiquvchi-yetakchi tashkilot olingan fikr-mulohazalar asosida fikr-mulohazalar to'g'risida ma'lumot tuzadi.

Ishlab chiquvchi-yetakchi tashkilot va hamkor bajaruvchi tashkilotlar fikr-mulohazalar asosida standart loyihasining oxirgi tahririni ishlab chiqadi va tushuntirish yozuviga va asosiy tadbirlar rejasining loyihasiga aniqlik kiritadi.

Ishlab chiquvchi-tashkilot va boshqa manfaatdor tashkilotlar o'rtasida standart loyihasi bo'yicha kelishmovchilik bor bo'lsa, ishlab chiquvchi tashkilot kelishmovchiliklarni ko'rib chiqish bo'yicha asosiy manfaatdor tashkilotlar vakillarining, shu jumladan standartning ko'rilayotgan loyihasi bo'yicha qaror qabul qilishga vakolatlangan buyurtmachilar (asosiy iste'molchilar)ning vakillari ishtirokida kelishuv majlisini o'tkazadi.

Standart loyihasining aniqlik kiritilgan tahririning alohida moddalarini bo'yicha kelishmovchiliklar bor bo'lsa, majlis bayonnomasida tashkilotlarning vakillari bu moddalar bo'yicha alohida fikrga ega, deb ko'rsatiladi.

Majlisda qabul qilingan qarorlar asosida standart loyihasining oxirgi tahriri tuziladi, tushuntirish yozuvi va asosiy tadbirlar rejasining loyihasiga aniqlik kiritiladi.

Standart loyihasining oxirgi tahririni tasdiqlashga taqdim etish oldidan ishlab chiquvchi-tashkilot buyurtmachi-tashkilotga (asosiy iste'molchiga) kelishishlik uchun jo'natadi.

Standart loyihasini kelishishlik standart loyihasi keltirilgan kundan boshlab ko'pi bilan 15 kun muddat ichida amalga oshiriladi.

Yangi (takomillashtiriladigan) mahsulot yaratish bo'yicha ishlar tarkibida olib boriladigan, standart loyihasini ishlab chiqishda standart loyihasini qabul komissiyasi, badiiy-texnik kengash (BTK), degustasiya (sifatini aniqlash) komissiyasi va boshqalar, manfaatdor tashkilotlarning mas'ul vakillari ishtirokida kelishib oladi.

Standart loyihasining kelishilganligini tasdiqlovchi hujjat tajriba nus'haning qabul dalolatnomasi (BTK bayonnomasi) dan iborat bo'ladi.

Standartga kiritiladigan o'zgartirishlar, agar ilgari kelishishgan tashkilotlarning manfaatlariga ta'sir etmasa, faqat buyurtmachi (asosiy iste'molchi) bilan kelishib olinadi.

Standart loyihasining oxirgi tahririni tasdiqlashga taqdim etishda oldin tayanch tashkilot yoki o'ziga biriktirilgan mahsulotga oid yoki faoliyat sohasida standartlashtirish bo'yicha TQ standartni ilmiy-texnikaviy va huquqiy ekspertizadan o'tkazadi. Standartning oxirgi loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlashga berish

Standartning oxirgi loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlashga berish 4-bosqich

Ishlab chiquvchi-tashkilot standart loyihasini tasdiqlashga quyidagi hujjatlar bilan birga taqdim etadi:

- ilova xati;
- standart loyihasining oxirgi tahririga tushuntirish yozuvi;
- asosiy tadbirlar rejasining loyihasi;
- standart loyihasi 4 nus'hada, bundan ikkitasi birinchi bo'lishi lozim;
- standart loyihasining kelishishganligini tasdiqlovchi asl hujjatlar;
- standart loyihasiga fikr-mulohazalar to'plami;
- kelishmovchiliklar to'g'risidagi ma'lumotnoma;
- elektron versiya;

5.3.O'zbekiston Respublikasining standartini ishlab chiqish, kelishib olish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi

Standartni tasdiqlagan idoraning qarori bilan standart teadiqlanadi va amalga kiritiladi.

O'zstandart Agentligi standartni davlat ro'yxatidan o'tkazadi.

Eksport uchun mo'ljallangan mahsulotga qo'shimcha talablar davlat ro'yxatidan o'tkazilmaydi.

Standart davlat ro'yxatiga 4 nus'hada taqdim etiladi: asli, ikkinchi nus'ha {dublikat) va ikkita nus'ha.

Standartning ikkinchi nus'hasi standart asliyatiga o'xshash bo'lishi va undan zarur sifatli nus'ha olishni ta'minlashi kerak.

Standart davlat ruyxatiga ikki tilda: davlat va rus tillarida taqdim etilishi lozim.

Standartga zarur bo'lganda kiritiladigan tuzatishlar qo'ldan qora tush, pasta, siyoh bilan aniq yozilishi, birinchi varaqning orqa betida izohlangan va rahbar (rahbar muovini) imzosi va ro'yxatdan o'tkazishga taqdim etgan idora (tashkilot) ning muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Standart davlat ro'yxatidan ko'pi bilan 5 kun muddatda o'tkaziladi.

Standartni belgilash, standartni tasdiqlagan tashkilotdan qat'iy nazar, O'zstandart Agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Standart belgisi quyidegilardan iborat bo'ladi:

- hujjat indeksi – O'z DSt
- ro'yxatga olingan tartib raqami;
- ikki nuqta bilan ayirilgan tasdiqlash yilining to'rtta raqami: masalan, O'z DSt 789:1997

Standart asliyati, ikkinchi nus'hasi va ikkita nus'hasining birinchi betlarida ro'yxatga oluvchi idora ro'yxatga olgan idora nomi, sana va davlat ro'yxatidan o'tgan nomeri ko'rsatilgan shtamp bosadi.

Standartning ikkinchi nus'hasi va bir nus'ha O'zstandart Agentligida qoladi.

Standart asliyati va nus'haning ikkinchisi ishlab chiquvchiga qaytariladi.

5.4. Me'yoriy hujjatlarni tuzish, bayon qilish, mundarija va rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar

Me'yoriy hujjatlarni tuzish, bayon qilish, mundarija va rasmiylashtirishga talablar O'z DSt 1.6:2003 “O'z SDT. Me'yoriy hujjatlar. Tuzish, bayon qilish, mundarija va rasmiylashtirishga talablar” davlat standarti tomonidan belgilangan. Standartda keltirilgan nizomlar tarmoq, ma'muriy-hududiy darajadagi me'yoriy hujjatlarning va korxonalar standartlarining tuzilishiga nisbatan majburiy emas, lekin MH ni rasmiylashtirishda birlilikka erishish uchun keltirilgan standartdagi nizomlarga amal qilish kerak²¹.

Me'yoriy hujjatlarning (strukturasi) tuzilishiga talablar

Me'yoriy hujjatlar tuzilishiga ko'ra quyidagi tarkibiy qismlarga ega bo'lishi mumkin:

- sarvaraq;
- so'z boshi;
- mundarija;
- kirish;
- nomi;
- qo'llanish doirasi;
- me'yoriy havolalar;
- atamalar va ta'riflar;

²¹ Абдувалиев А.А., Латипов В.Б., Умаров А.С., Алимов М.Н., Бойко С.Р., Хакимов О.Ш., Хван В.И. Стандартизация, метрология, сертификация и сифат. Ўқув қўлланма. Тошкент, СМСИТИ, 2008. – 267 б.

- belgilar va qisqartmalar;
- talablar;
- ilovalar;
- bibliografik ma'lumotlar.

MH ga qo'shish uchun "Sarvaraq" (titul varaq), "So'z boshi", "Mundarija", "Nomi", "Talablar" majburiydir.

Me'yoriy. hujjatning sarvarag'ida uning belgisi va nomi keltiriladi:

So'z boshida mazkur hujjat to'g'risida umumiy ma'lumotlar keltiriladi me'yoriy hujjatni ishlab chiqish va tasdiqlashga taqdim qilish; ushbu me'yoriy hujjatning qaysi me'yoriy hujjat o'rniga ishlab chiqilgani to'g'risida ma'lumot va b.

So'z boshi sarvaraقدan keyingi betda uning orqa tomonida joylashtiriladi va tegishli sarlavhadan boshlanadi. Sarlavha betning yuqori qismida, o'rtada, bosh harflar bilan yoziladi va quyuproq shrift bilan ajratiladi.

Mundarija me'yoriy hujjat hajmi o'n betdan oshgan hollarda yoziladi. Mundarijaga bo'limlarning tartib raqamlari va nomi (zarur bo'lganda kichik bo'limlar nomi), ilovalar belgisi va sarlavhasi bilan, zarur bo'lganda esa, grafik materiallar ham qaysi betda joylashganini ko'rsatib yoziladi.

Standart mundarijasi so'z boshidan keyin, odatda yangi betdan boshlanadi. "Mundarija" so'zi betning o'rta qismida bosh harflar bilan yoziladi.

Standartning nomi qisqa bo'lishi, standartlashtirish obyektini aniq tavsiflashi va standartni standartlar axborot ko'rsatkichiga kiritish uchun uning to'g'ri tasniflanishini ta'minlashi lozim. Standart nomida, odatda, qisqartmalar (mahsulotning shartli belgisidan tashqari), rim harflari, matematik belgilar, yunon harflari ruhsat etilmaydi.

Me'yoriy hujjatning nomi, odatda, sarlavha va kichik sarlavhadan iborat bo'lishi lozim.

Masalan - Idish yuvish mashinalari. Umumiy texnik shartlar

Agar me'yoriy hujjat asos bo'luvchi tashkiliy-metodik yoki umumtexnikaviy me'yoriy hujjatlar tizimidan iborat bo'lgan me'yoriy hujjatlar majmuiga kiradigan bo'lsa, bu holda me'yoriy hujjat sarlavhasidan oldinda barcha me'yoriy hujjatlar majmui uchun umumiy bo'lgan va ushbu tizimning nomi hisoblangan sarlavhalar guruhi keltiriladi.

Misol – O'zbekiston standartlashtirish davlat tizimi. Texnik reglament. Asosiy nizomlar.

Standartning "Qo'llanish doirasi" uning qaysi doirada qo'llanilishini va zarur bo'lganda standartlashtirish obyektini aniqlash uchun keltiriladi, standartning birinchi betida joylashtiriladi va I bo'lim ko'rinishida rasmiylashtiriladi. Standartlashtirish obyektini aniqlashda quyidagi ifoda qo'llaniladi: "Ushbu

standart... qo'llaniladi". Standartning mazmunini ravshanlashtirishda "Ushbu standart... belgilaydi" ifodasi qo'llaniladi. Standartning qo'llanish doirasini aniqlashda "Ushbu standart... qo'llaniladi" ifodasi qo'llaniladi.

"Me'yoriy havolalar", agar me'yoriy hujjatning matnida boshqa me'yoriy hujjatlarga me'yoriy havolalar va/yoki bir xil yoki yuqoriroq darajadagi texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborot tasniflagichlari 2 bo'lim ko'rinishida berilgan bo'lsa, keltiriladi. havolada havola qilingan me'yoriy hujjatlarning ro'yxati, ularning belgisi va nomi keltiriladi. Bular belgilarning ro'yxatga olingan raqamlarining oshib boruvchi tartibida joylashtiriladi. havolalar quyidagi tartibda bayon etiladi:

- davlatlararo standartlar;
- O'zbekiston davlat standartlari;
- tarmoq standartlari;
- ma'muriy-hududiy standartlar;
- texnik shartlar;
- korxonalar standartlari.

"Atamalar va ta'riflar" bo'limi standartda foydalaniladigan atamalarni aniqlash va belgilash uchun ta'rifni o'z ichiga oladi. Ta'riflar ro'yxati "Mazkur standartda quyidagi atamalar va ta'riflar qo'llaniladi" so'zlari bilan boshlanadi.

Standartlashtirish obyektlariga talablar, obyektlarning o'ziga xos xususiyatlariga qarab, standartlarning quyidagi turlarida: asos bo'luvchi standartlarda, mahsulot (xizmatlar)ga standartlarda, tekshirish metodlari standartlarida, jarayonlarga standartlarda belgilanadi.

Standart nizomlarini to'ldiruvchi materialni ilovada joylashtirish ruxsat etiladi.

Standartda bibliografik ma'lumotlar keltiriladi. Bular alohida varaqda, barcha ilovalardan keyin joylashtiriladi. Standartning bibliografik ma'lumotlarida:

- standartlar tasniflagichi bo'yicha guruh belgisi;
- muhim so'zlar bo'ladi.

Bayon qilishga talablar

Standartning o'ziga xos xususiyatlariga va mazmuniga qarab, talablar matn, jadvallar, grafiq material (rasmlar, sxemalar, diagrammalar) yoki bularning birikmasi ko'rinishida bayon qilinadi. Standart matni turlicha izohlanishiga yo'l qo'ymaydigan, qisqa, aniq, standartning qo'llanish doirasiga muvofiq uni qo'llanish uchun zarur va yetarli, mantiqiy izchil bo'lishi lozim. Standartga faqat obyektiv metodlar bilan tekshirish mumkin bo'lgan tafsilotlar va talablarni kiritish lozim. Standartda amaldagi standartlarda belgilangan atamalar, ta'riflar, belgilar va qisqartmalarni qo'llanish kerak. Kattaliklarning eng katta yoki eng kichik matlarini

keltirganda “ko’pi bilan (kamida)” iboralarini qo’llanish lozim. Standartda ko’rsatilgan me’yorlar, talablardan og’ishlarning joiz qiymatlarini keltirishda “dan ko’p (kam) bo’lmasligi kerak” iborasini qo’llash kerak²².

Standartda o’rnatiladigan kattaliklarning son qiymatlari chekka og’ishlari bilan yoki eng katta (yoki) eng kichik qiymatlar ko’rinishida ko’rsatilishi lozim. Son qiymatlarini foizlarda ko’rsatishda quyidagicha: “... 63% dan 67% gacha” yoki “(65±2%) emas, balki ” (65±2)% yozish kerak. Rim harflaridan faqat buyumning navini (toifasi, sinfi va b.) kimyoviy elementlarning valentligini, yilning kvartallarini, yarim yillikni belgilashda qo’llanish kerak. Qolgan hollarda arab raqamlari qo’llaniladi.

Hisob birliklari va fizik kattaliklar birliklarining belgilari jadvallarda, formulalarga kiradigan simvollar va sonli koeffitsiyentlarni tushuntirishda va matnda, faqat sonli qiymatlarda qo’llaniladi va nuqtasiz yoziladi. Standartda quyidagilarga yo’l qo’yilmaydi:

- so’zlashuv iboralarini, texnisizm va kasbiylikni qo’llanish;
- bir tushunchaning o’ziga ma’nosi jihatdan yaqin turli ilmiy-texnikaviy atamalar (sinonimlar) ni, shuningdek o’zbek va rus tillarida teng ma’noli so’zlar va atamalar mavjud bo’lgani holda chet so’zlar va atamalarni qo’llanish;
- ixtiyoriy yasama so’zlarni qo’llanish;
- rus orfografiyasida belgilanganlardan boshqa qisqartma so’zlarni qo’llanish.

Standart matnini bo’limlarga ajratish kerak. Bo’limlar moddalar (punktlar) ga yoki kichik bo’limlar va moddalarga ajratilishi mumkin. Moddalar, zarur bo’lganda, kichik moddalarda bo’linishi mumkin. Standart matnini moddalarga va kichik moddalarga bo’lishda har bir modda, kichik modda tugal axborotni o’z ichiga olishi zarur. Bo’limlar, kichik bo’limlar, moddalar va kichik moddalarni arab raqamlari bilan belgilash va abzasdan satr boshidan yozish kerak. Bo’limlar me’yoriy hujjatdagi asosiy qismning butun matni doirasida (ilovalar bundan mustasno) tartib raqamlari bilan belgilanadi.

Sarlavhalar bo’limlar, kichik bo’limlarning mazmunini aniq va kisha aks ettirishi lozim. Bo’limlar, kichik bo’limlar va moddalarning sarlavhalarini bosh harflar bilan oxiriga nuqta qo’ymasdan, abzasdan boshlab yozish kerak. Moddalar yoki kichik moddalar ichida sanab ko’rsatishlar bo’lishi mumkin. Sanab ko’rsatilgan har bir satr oldida defis yoki, zarur bo’lganda, standartning matnida sanab o’tilganlarning biriga havola qilishda kichik satr harflarini qo’yish kerak. Kichik harfdan keyin qavs qo’yiladi. Sanab o’tilganlarni keyinchalik

²² Абдувалиев А.А., Латипов В.Б., Умаров А.С., Алимов М.Н., Бойко С.Р., Хакимов О.Ш., Хван В.И. Стандартлаштириш, метрология, сертификатлаштириш ва сифат. Ўқув қўлланма. Тошкент, СМСИТИ, 2008. – 267 б.

ravshanlashtirish uchun arab raqamlaridan foydalanish zarur, bu raqamlardan keyin qavs qo'yiladi. Jadvallar ko'rsatkichlarning yaqqol ifodalanishi va taqqoslashning bo'lishi uchun qo'llaniladi. Jadval nomini jadval ustida joylashtirish lozim. Jadvalning bir qismini shu betning o'zida yoki boshqa betga ko'chirishda jadval nomi uning faqat birinchi qismi ustida joylashtiriladi.

Grafik material – rasmlar (sxemalar, diagrammalar va h.k.) standartga obyektning xossalari yoki tafsilotlarini yaxshi belgilash, shuningdek standart matnini yaxshi tushunish uchun joylashtiriladi. Standart matnida grafik materialga havola berilgan bo'lishi kerak. Grafik material o'zi to'g'risida birinchi marta eslatilgan matndan keyin bevosita yoki keyingi betda, zarur bo'lganda esa ilovada joylashtirilishi lozim. Matnda joylashtiriladigan rasmlar, sxemalar, diagrammalar va h.k. KHYaT standartlarining talablariga muvofiq bo'lishi lozim. Standartda grafik materialni to'ldiruvchi jadvallar mavjud bo'lsa, jadvallarni grafik materialdan keyin joylashtirish lozim. Grafik materialning biror mavzuga bag'ishlangan nomi bo'lishi mumkin, bu nomi grafik material tagida quyidagicha joylashtiriladi:

1-rasm – Asbobning detallari.

Ilovada joylashtirilgan formulalardan mustasno, matndagi formulalar sdirga arab raqamlari bilan belgilanishi lozim. Raqamlar formula sathida o'ng tomonda ikki tomonlama qavs ichida yoziladi. Bir formula quyidagicha belgilanadi – (1). Matnda formulaning tartib raqamiga havolalar qavslar ichida beriladi.

Standartda quyidagi havolalar beriladi:

- ushbu standartga;
- boshqa standartlarga.

Ushbu standartga havolalarda bo'limlar, kichik bo'limlar, moddalar, kichik moddalar, sanab ko'rsatilganlar, grafik material, formulalar, jadvallar, ilovalar (shu jumladan, uning bo'limlari, kichik bo'limlari, moddalari, kichik moddalari va jadvallari), shuningdek ushbu standartdagi jadvallarning grafalari va satrlari va rasmdagi buyum tarkibiy qismlarining pozitsiyalari ko'rsatiladi. Havolalarda quyidagilar yoziladi “ 2 - bo'limga muvofiq ...”, “3.1 ga muvofiq...”, 3.1.1 bo'yicha ...”, “4.2.2 ga muvofiq, sanab ko'rsatilgan b...”, A.2-rasmga muvofiq ...”, (5-rasm), “(3) formula bo'yicha ...”, “1-jadvalga muvofiq...”(4-jadval) “A ilovaga muvofiq...” (G ilova) va h.k.

Agar matn, jadvallar yoki grafik materialning mazmuniga tushuntiruvchi yoki ma'lumotnoma ma'lumotlari zarur bo'lsa, standartlarda izohlar keltiriladi.

Standartda keltirilgan alohida ma'lumotlarni tushuntirish zarur bo'lsa, bu ma'lumotlarni sahifa ostiga yozuv belgisi bilan belgilab qo'yish lozim. Sahifa ostiga yoziladigan izoh ushbu belgi qo'yilgan bet oxirida joylashtiriladi va matndan ingichka gorizonta chiziq bilan chap tomonda ajratiladi, jadvalda

joylashgan ma'lumotlarga izoh esa, jadval oxirida, jadvalning tugallanganligini ifodalovchi chiziq ustida yoziladi. Sahifa ostiga yozuv belgisi tushuntirish beriladigan so'z, son, simvol, jumladan keyin satr ustida va tushuntirish matnidan oldinda qo'yiladi.

Sahifa ostiga yozuv belgisi qavsli arab raqamlari bilan yoziladi va matn shriftining yuqori chetiga teng sathda joylashtiriladi.

Standartda quyidagi qisqartmalar ruxsat etiladi: raqamlar bilan b.-bet; y. - yil; yy. - yillar; min. - minimal; maks. - maksimal; abs. - absolyut; nis. - nisbiy qisqartmalari, shuningdek umumqabul qilingan qisqartmalar, ya'ni h.k. - hokazo; va b. - va boshqalar; q. – qarang, nomin, - nominal qisqartmalari.

Standartda kattaliklarning standartlashtirilgan birliklari, nomlari va belgilarini qo'llanish kerak.

Rasmiylashtirishga talablar

Bo'lim (kichik bo'lim) sarlavhalari va oldingi yoki keyingi matn orasidagi masofa, shuningdek bo'lim va kichik bo'lim sarlavhalari orasidagi masofa kamida to'rtta shrift balandligiga teng bo'lishi lozim.

Kichik bo'limlar va moddalar sarlavxalarining qatorlari orasi matn ichidagidek qabul qilinadi.

Satr boshi hujjat matnida bir xil chetlashtirilgan va beshta belgiga teng bo'lishi lozim.

Me'yoriy hujjatning loyihasini rasmiylashtirishda matnning chap tomoni (kengligi) dagi ochiq joy kengligi kamida 20 mm bo'lishi kerak.

Standart loyihasining matnini tayyorlashda yunon va boshqa alfavit harflari, formulalar, alohida shartli belgilarni qora pasta yoki tush bilan yozish ruxsat etiladi. Bunda kiritilgan matn zichligi qolgan matn zichligiga yaqinlashtirilgan bo'lishi lozim. Agar chizmalar, sxemalar, diagrammalar, rasmlar va/yoki boshqa grafik materialni mashina usulida tayyorlash iloji bo'lmasa, bu holda qora tush yoki pastadan foydalaniladi

Me'yoriy hujjat loyihasini tayyorlashda uning nus'hasini reprografiya usulida sifatli qilib tayyorlash imkoni ta'minlanishi lozim.

Standartlar rasmiy ravishda davlat va rus tillarida nashr qilinadi.

Mazmuniga talablar

Standartlashtirish obyektlarining o'ziga xos xususiyatlariga va mazmuniga qarab, quyidagi turdagi me'yoriy xujjatlar ishlab chiqiladi:

– asos bo'luvchi (tashkiliy-metodik va umumtexnikaviy);

– mahsulot(xizmatlar)ga.

Asos bo'luvchi tashkiliy-metodik standartlar:

– turli vazifalarga mo'ljallangan standartlashtirish obyektlarining maqsadlari, vazifalari, tasniflanish tuzilmasini, faoliyatning ma'lum doirasida ishlarni o'tkazish bo'iicha umumiy tashkiliy-texnik nizomlarni va b.;

– me'yoriy xujjatlarni, texnik (konstruktorlik, texnologik, loyihaviy, dasturiy) xujjatlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va joriy tartibi (qoidalari)ni o'rnatadi.

Asos bo'luvchi umumtexnik standartlar:

– fan, texnika, sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida, qurilishda, transportda, madaniyatda, sog'liqni saqlash va xalq xo'jaligining boshqa sohalarida ko'p qayta-qayta foydalaniladigan ilmiy-texnikaviy atamalarni va ularning ta'riflarini;

– turli standartlashtirish obyektlari uchun shartli belgilar (nomi, kodlari, belgilari, simvollari va h.k.), ularning raqamli, harf-raqamli belgilarini, shu jumladan fizik kattaliklar parametrlarining belgilari (rus, lotin, yunon harflari), ularning o'lchamliligi, yozuv o'rnida ishlatiladigan simvollarni va h.k.;

– turli (me'yoriy, konstruktorlik, loyihaviy, texnologik, dasturiy va b.) hujjatlarni tuzish, bayon etish, rasmiylashtirish va mazmuniga talablarni;

– ishlab chiqarish jarayonlarini texnikaviy, shu jumladan metrologik ta'minlash uchun zarur bo'lgan umumtexnik kattaliklar, talablar va me'yorlarni o'rnatadi.

Mahsulotga, xizmatlarga quyidagilar ishlab chiqiladi:

– bir turli mahsulot, xizmatlarning guruhlariga umumiy talablarni o'z ichiga olgan umumiy texnikaviy talablar, sinash usullari, umumtexnik shartlar standartlari;

– muayyan mahsulot, xizmatlar (muayyan mahsulot, xizmatlar guruhi) ga talablarni o'z ichiga olgan texnik shartlar standartlari.

Mahsulot, xizmatlar guruhiga alohida talablarni standartlashtirish maqsadga muvofiq bo'lganda tasnifini, asosiy parametrlari (yoki) o'lchamlari, xavfsizlik talablari, atrof muhitni muhofaza qilish talablari, xillari, navlari, rusumlari, qabul qilish, tamg'alash, joylash qoidalari, tashish qoidalari, saqlash qoidalari, foydalanish, ta'mirlash va qayta foydalanish qoidalari o'rnatuvchi standartlar ishlab chiqilishi mumkin.

Umumiy texnik shartlar standartlari umumiy holda quyidagi bo'limlardan iborat bo'ladi:

– tasniflash, asosiy parametrlar va (yoki) o'lchamlar;

– umumiy texnikaviy talablar;

– xavfsizlik talablari;

- atrof muhitni muhofazalash talablari;
- qabul qilish qoidalari;
- tekshirish usullari;
- tashish va saqlash;
- foydalanish (ta'mirlash, qayta foydalanish) bo'yicha ko'rsatmalar;
- tayyorlovchining kafolatlari.

Bo'limlar (kichik bo'limlar) ning nomenklaturasi, tarkibi, mazmuni, va nomi standartlashtiriladigan mahsulotning o'ziga xos xususiyatlariga va unga qo'yiladigan talablarning xarakteriga muvofiq aniqlanadi.

Ishlab chiqarilganda va foydalanilganda fuqarolarning sog'ligi va mulkiga, shuningdek atrof muhitga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan mahsulotga standartlar tarkibida majburiy ravishda “Xavfsizlik talablari” va “Atrof muhitni muhofazalash talablari” bo'limlari bo'lishi shart.

“Tasniflash, asosiy parametrlari va (yoki) o'lchamlari” bo'limida mahsulotning turini, navini, rusumini, modelini va h.k. ni tavsiflovchi parametrlar va (yoki) o'lchamlar o'rnatiladi va, zarur bo'lganda, mahsulotning asosiy parametrlari va (yoki) o'lchamlari bo'yicha tasniflangan nomenklaturasi (navi), kimyoviy tarkibi bo'yicha, ba'zi hollarda esa, shuningdek asosiy iste'mol (foydalanish) tafsilotlari bo'yicha ham tasniflangan materiallar (xom ashyo) rusumlarining nomenklaturasi o'rnatiladi. Bo'limda materiallarning qo'llanilishi bo'yicha tavsiyanomalarni, ularga ishlov berish rejimlari va h.k. larni keltirish ruxsat etiladi.

“Umumiy texnikaviy talablar” bo'limida quyidagi kichik bo'limlar bo'ladi:

- tafsilotlar (xossalari);
- xom ashyo, materiallar, sotib olinadigan buyumlarga talablar;
- butligi;
- belgilanishi;
- joylash.

“Tafsilotlar (xossalari)” kichik bo'limda quyidagi talablar keltiriladi:

- vazifasi;
- puxtaligi (ishonchliligi);
- radioelektron himoya;
- tashqi ta'sirlarga qarshi chidamliligi va yashovchanligi;
- ergonomika;
- xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya va mehnat resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish;
- texnologiyabopligi;
- konstruktiv talablar.

“Vazifa talablari” moddasida mahsulotning xossalarini tavsiflovchi talablar oʻrnatiladi. Bunday talablar mahsulot bajarishi lozim boʻlgan asosiy vazifalarni belgilaydi. Bu moddada, shuningdek tannarx va oʻzaro almashinuvchanlik talablari ham oʻrnatiladi.

“Puxtalik (ishonchlilik) talablari” moddasida mahsulotning oʻz vazifalarini belgilangan vaqt oraligʻida topshiriqdagi samaradorlik bilan bajarishiga va bu vazifalarning berilgan texnik xizmat koʻrsatish sharoitlarida, taʼmirlash, saqlash, tashishda saqlanib qolishiga talablar, shu jumladan mahsulotning puxtalik koʻrsatkichi va yoki mahsulotning buzilmasligi, umrboqiyliigi koʻpga chidamliligi, taʼmirlashga yaroqliligi va saqlanuvchanligi koʻrsatkichlarining qiymatlari koʻrinishidagi miqdoriy talablar oʻrnatiladi.

Maʼlum vaqt oʻtgandan keyin foydalanish odamlarning hayoti, sogʻligiga, atrof muhitga xavf solishi yoki fuqarolarning mulkiga zarar keltirishi mumkin boʻlgan mahsulotga xizmat muddati oʻrnatilishi lozim.

“Ergonomika talablari” moddasida mahsulot texnik tafsilotlarini odamning ergonomik tafsilotlari va xossalari bilan muvofiqlashtirishga qaratilgan talablar, (xizmat koʻrsatuvchi xodimning ish joylariga, buyumning va buyum elementlarining odam tanasining oʻlchamlariga muvofiqligi talablari va h.k.) oʻrnatiladi.

“Xom ashyo, materiallar, sotib olinadigan buyumlarga talablar” kichik boʻlimda quyidagilar oʻrnatiladi:

- sotib olinadigan buyumlar, suyuqliklar, moylar, boʻyoqlar va materiallar (mahsulotlar, moddalar) ni qoʻllanish;
- qoʻllanish va (yoki) qoʻllaniladigan materiallarni cheklash, ularni hisobga olish tartibi;
- ikkilamchi xom ashyo va sanoat ishlab chiqarishidagi chiqindilarni qoʻllanish.

“Butligi” kichik boʻlimda yetkazib beriladigan komplektga kirgan buyumning alohida (yetkazib berishda mexanikaviy birlashtirilmagan) tarkibiy qismlar, ularga ehtiyot qismlar, asboblari va moslamalar, materiallar va h.k., shuningdek buyumga qoʻshib yuboriladigan xujjatlar aniqlanadi.

“Tangʻalash” kichik boʻlimda mahsulotni tangʻalashga, shu jumladan transport tangʻasiga quyidagi talablar oʻrnatiladi:

- tangʻa bosish joyi (bevosita mahsulotga, yorliqlarda, etiketkalarda, idishda va h.k. da);
- tangʻani bosish usuli (oʻyima naqsh tushirish, xurushlash);
- tangʻaning mazmuni.

“Xavfsizlik talablari” boʻlimida quyidagilar oʻrnatiladi:

- elektr xavfsizligi talablari;

- yong'in xavfsizligi talablari;
- portlash xavfsizligi talablari;
- radiasion (nurlanish) xavfsizligi;
- kimyoviy va iflos qiluvchi moddalarning ta'siridan xavfsizlik talablari, shu jumladan modda va uning tarkibiy qismlarining eng ko'p ruxsat etilgan konsentrasiyasiga talablar;

- mashinalar va jihozlarga xizmat ko'rsatishda xavfsizlik talablari, shu jumladan xizmat ko'rsatuvchi xodim noto'g'ri harakat qilgandagi va o'zidan-o'zi noto'g'ri ishlab ketgandagi xavfsizlik talablari va boshqalar.

Xavfsizlik talablari joiz xavflikning barcha turlarini va me'yorlarini o'z ichiga olishi va mahsulotning xizmat (yaroqlilik) muddati davomida mahsulot (ishlar, mollar, xizmatlar) ning xavfsizligi ta'minlanadigan darajada o'rnatilishi lozim.

“Atrof muhitni muhofazalash talablari” bo'limida ekologik jihatdan xavfli mahsulotni ishlab chiqarish, saqlash, tashish va ishlatish (qo'llanish) va qayta foydalanishda atrof tabiiy muhitga, odamning sog'ligiga, genetik fondiga zararning oldini olish uchun ekologik talablar o'rnatiladi.

“Qabul qilish qoidalari” bo'limida mahsulotlarni ularning sifati va soni bo'yicha qabul qilishga talablar, tekshirish rejasi, shuningdek, sinovlarning turi va, zarur bo'lganda, dasturlari belgilanadi.

“Tekshirish metodlari” bo'limida mahsulotning standartda bayon etilgan talablarga muvofiqligini tekshirish (sinashlar, o'lchashlar, tahlil) yo'llari, usullari, tartibotlari o'rnatiladi.

“Tashish va saqlash” bo'limida mahsulotni tashish va saqlashda uning saqlanuvchanligini ta'minlash, shu jumladan xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha talablar o'rnatiladi. Bo'limda transport turlari (havo, temir yo'l, dengiz, avtomobil transportlari) va tashish vositalari (yopiq yoki ochiq vagonlar, refrijeratorli vagonlar, sisternalar, kemalarning tryumlari-yuk saqlanadigan ostki xonalari yoki palubalar va h.k.), mahsulotni bu vositalarda mahkamlab va ustini berkitib qo'yish usullari, shuningdek, mahsulotni hammabop, ixtisoslashtirilgan konteynerlarda, ixtisoslashtirilgan transport bilan va paketlarda tashishga oid talablar, konteynerda mahsulot joylari soni (massasi), paketlarning gabarit o'lchamlari, paketdagi joylar soni, paketlarni joylashtirish tartibi va h.k. ko'rsatiladi.

Saqlash qoidalari quyidagi tartibda bayon qilinadi:

- saqlash joyi;
- saqlash sharoitlari;
- tahlash sharoitlari;
- saqlashning maxsus qoidalari va muddatlari (zarur bo'lganda).

“Foydalanish bo’yicha ko’rsatmalar” (ta’mirlash, qayta foydalanishga oid ko’rsatmalar) bo’limida rioya qilinganda mahsulotning ma’lum sharoitlarda va tartibotlarda ish qobiliyatini va xavfsizligini ta’minlaydigan va iste’mol (foydalanish) tafsilotlarini kafolatlaydigan talablar o’rnatiladi. Bo’limda buyumni foydalanishga tayyorlash va kiritishga talablar, buyumni foydalanish joyida o’rnatish tartibi, shuningdek texnik tafsilotlariga muvofiq ish imkoniyatlarini va xavfsizligini saqlash uchun buyumlardan foydalanish asosiy me’yorlari va qoidalari, shu jumladan uzluksiz va siklik ishlash vaqti, texnik xizmat ko’rsatishlarning turlari (kalendar kunlar, bajarilgan ishlar hajmi, texnik holati bo’yicha va b.), davriyligi va hajmi ko’rsatiladi. Mahsulotdan foydalanish, unga texnik xizmat ko’rsatish va ta’mirlash bo’yicha talablar mahsulotni sertifikatlashtirish uchun yaroqli bo’lishi lozim.

“Tayyorlovchining kafolatlari” bo’limida mahsulotni tayyorlovchi (yetkazib beruvchi, xizmatlarni bajaruvchi) ning chiqariladigan shu jumladan ta’mirlangan mahsulot (xizmatlar) ning standart talablariga muvofiqligini kafolatlash majburiyatlari ko’rsatiladi, shuningdek, kafolat turi, davom etish muddati va kafolatning boshlanish paytini hisoblash ko’rsatiladi. Butlovchi buyumlarga va tarkibiy qismlarga foydalanishning kafolatlangan muddati asosiy buyumni kafolatlash muddatiga teng hisoblanadi, kafolatlash muddati yetkazib berishga tuzilgan shartnomalar bilan ham belgilanadi. Asosiy buyumga standartdarda butlovchi buyumlarga va tarkibiy qismlarga asosiy buyumlarnikidan ko’proq yoki kamroq kafolat muddatini o’rnatish ruxsat etiladi.

Mahsulotga standartlarda va (yoki) tekshirish metodlariga standartlarda o’rnatiladigan tekshirish (sinash, o’lchash, tahlil) metodlari mahsulotga standartlarda o’rnatilgan sifatga majburiy talablarning barchasini holis (obyektiv) tekshirilishini ta’minlashi lozim. Tekshirish (sinash, o’lchash, tahlil) metodlari obyektiv, aniq ifodalangan, ravshan bo’lishi, tartibini va natijalarning takrorlanuvchanligini ta’minlashi lozim, har bir metod uchun, tekshirishning o’ziga xos xususiyatlariga qarab, quyidagilar belgilanadi:

- tekshirish vositalari va yordamchi qurilmalar;
- tekshirishni o’tkazishga tayyorlanish tartibi;
- tekshirishni o’tkazish tartibi;
- tekshirish natijalariga ishlov berish qoidalari;
- tekshirish natijalarini rasmiylashtirish qoidalari;
- tekshirishdagi joiz (ruxsat etilgan) xatolik.

Tekshirishni o’tkazishga tayyorlanish tartibini bayon etishda mahsulotni tekshirishga tayyorlanishga tegishli ma’lumotlar, shuningdek namunalar (kichik namunalar) ni olish joyi va usuli, shakli, turi, o’lchamlari yoki massasi ko’rsatiladi, zarur bo’lganda, ularni saqlash va yoki tashish sharoitlari ham ko’rsatiladi. Zarur

bo'lganda, o'lchash uskunasi tuzilish va ishlash sxemasi, shuningdek priborlar yoki apparatlarni ulash sxemalari ham keltiriladi.

Tekshirishni o'tkazish metodikasiga talablarni bayon etishda tekshirish sharoitlarining tavsiflari ularning joiz qiymatlarini va qayta tiklashdagi xatoliklarni qo'shib ko'rsatiladi, shuningdek agar tekshirish ishlari o'tkazish tartibi tekshirish natijalariga ta'sir etadigan bo'lsa, bu tartib va o'tkaziladigan ishlar bayoni ham keltiriladi.

Tekshirish natijalariga ishlov berish qoidalarini bayon etishda hisoblash formulalari keltiriladi.

Tekshirish natijalarini rasmiylashtirishga talablarni bayon etishda tekshirish jurnallari (bayonnomalari) ga, bularga kiritiladigan ma'lumotlarning mazmuni va tartibiga talablar o'rnatiladi.

Tekshirish metodining aniqligiga talablarni bayon etishda metodning ruxsat etilgan xatoliklari, hisoblashlarning to'g'riligi va ma'lumotlarni (sonlarni) yiriklashtirish darajasi ko'rsatiladi, shuningdek ushbu metod bilan ta'minlanadigan natijalarning qayta tiklanuvchanligi va takrorlanuvchanligi to'g'risida ham ma'lumotlar keltiriladi.

Jarayonlarga standartlar mahsulot (xizmatlarni ishlab chiqish, tayyorlash, saqlash, tashish, foydalanish, ta'mirlash va qayta foydalanish texnologik jarayonlarida har xil ishlarni bajarish metodlari (usullari, yo'llari, tartibotlari, meyorlari) ga talablarni o'rnatadi. Bu talablar bajariladigan barcha ishlarning texnikaviy birliligini va maqbulligini ta'minlashi lozim.

Nazorat savollari

1. O'zbekiston Respublikasining standartini ishlab chiqish, kelishib olish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi
2. Standartlashtirish bosqichlari
3. Standartning loyihasini ishlab chiqish
4. Standartlarni tasdiqlash tartibi
5. Me'yoriy xujjatlarni tuzish
6. Standartlarni bayon qilish

Adabiyotlar

1. Henk J. de Vries Standardization: A Business Approach to the Role of National Standardization Organizations. Springer Science+Business Media, LLC, New York All Rights Reserved © 2000 Springer, 330 p.
2. Dr. Peter Hatto Standards and Standardization. Handbook. EUROPEAN COMMISSION, Directorate-General for Research Industrial Technologies Pictures © Shutterstock, 2010, 24 p.

3. Role of standards. A guide for small and medium-sized enterprises. Working paper. United nations industrial development organization, Vienna, 2006, 56 p.
4. Abduvaliyev A.A., Latipov V.B., Umarov A.S., Alimov M.N., Boyko S.R., Xakimov O.Sh., Xvan V.I. Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifat. O'quv qo'llanma. Toshkent, SMSITI, 2008. – 267 b.
5. Ismatullayev P.R., Matyakubova P.M., Turayev Sh.A. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. Darslik. «Lisson-Press». Toshkent, 2015. - 423 b.
6. www.ima.uz
7. vtww.academy.uz
8. www.standart.uz
9. www.smsiti.uz
www.uza.uz

1	Milliy standartlarni ishlab chiqish bosqichlari soni	to'rtta
2	Milliy standartlarning ishlab chiqishning 1 bosqichi	zaruriyat tug'ilganda standartni ishlab chiqishda texnikaviy topshiriq ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi
3	Milliy standartlarning ishlab chiqishning 2 bosqichi	standart loyihasini ishlab chiqish (birinchi tahriri) va uni fikr mulohazalar olish uchun yuborish
4	Milliy standartlarning ishlab chiqishning 3 bosqichi	fikr-mulohazalar ustida ishlash, standart loyihasini (oxirgi tahririni) ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlashga taqdim etish
5	Milliy standartlarning ishlab chiqishning 4 bosqichi	standartni tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish
6	Xalqaro standartlarni ishlab chiqish bosqichlari soni	oltita

6- amaliy mashg'ulot *Texnik me'yoriy xuquqiy hujjatlarni turlari va ularga qo'yilgan talablar*

6.1. Asosiy qoidalar

Asosiy qoidalar O'zbekistonda standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish va olib borishga umumiy talablarni o'rnatadi, O'z SDT ning me'yoriy hujjatlari majmuida asos bo'ladi va O'z DSt 1.0:1998 bilan reglamentlanadi²³.

Asosiy qoidalarda keltirilgan asosiy maqsadlar "Standartlashtirish to'g'risida" Qonunda o'rnatilganlarga o'xshaydi.

Standartlashtirish tarmoklararo tizimining davlat va rus tillarida qisqartirilgan nomlari belgilangan:

O'z StDT – O'zbekiston standartlashtirish davlat tizimi – (GSS Uz – gosudarstvennaya sistema standartizatsii Uzbekistana);

KNT – konstruktorlik hujjatlarining yagona tizimi – (YeSKD – yedinaya sistema konstruktorskoy dokumentatsii);

TNT – texnologik hujjatlarining yagona tizimi – (YeSTD – yedinaya sistema texnologicheskoy dokumentatsii);

MST – mahsulotni sinash tizimi – (sistema ispytaniy produkcii);

MSKT – mahsulot sifati ko'rsatkichlarining tizimi – (SPKP – sistema pokazateley kachestva produkcii);

O'zSMT – O'zbekiston sertifikatlashtirish milliy tizimi – (NSS Uz – natsionalnaya sistema sertifikatsii Uzbekistana);

NVT – hujjatlarning birxillashtirilgan tizimi – (USD – unifisirovannaya sistema dokumentov);

NKAST – nashriyot, kutubhona va axborot bo'yicha standartlar tizimi – (SIBID – sistema standartov po informatsii, biblioteknomu i izdatelskomu delu);

O'z O'DT – O'zbekiston o'lchashlar birliligini taminlash davlat tizimi – (GSI Uz – gosudarstvennaya sistema obespecheniya yedinstva, izmereniy Uzbekistana);

MBZEHT – materiallar va buyumlarni zanglash va eskirishdan himoyalash yagona tizimi – (YeSZKS – yedinaya sistema zashchity ot korrozii i stareniya materialov i izdeliy);

MNStT – mehnat havfsizligi standartlari tizimi – (SSBT – sistema standartov bezopasnosti truda);

²³ Исмагуллаев П.П., Матякубова П.М., Тураев Ш.А. Метрология, стандартизиция ва сертификатлаштириш. Дарслик. «Lisson-Press». Тошкент, 2015. -423 б.

ITTT – ishlab chiqarishni texnologik tayorlashning yagona tizimi – (YeSTPP – yedinaya sistema texnologicheskoy podgotovki proizvodstva);

DHT – dasturiy hujjatlarining yagona tizimi – (YeSPD – yedinaya sistema programmoj dokumentasii);

QLHT – qurilish uchun loyiha hujjatlari tizimi – (SPDS – sistema proyektnoj dokumentasii dlya stroitelstva);

TR – texnika puhtaligi – (NT – nadyojnost v texnike);

MYaT – mahsulot yaratish va ishlab chiqarishni tashkillashtirish tizimi – (SRGSh - sistema razrabotki i postanovki produkcii na proizvodstvo);

O'z AT – O'zbekiston akkreditatsiya tizimi – (SA – sistema akkreditatsii Uzbekistana);

ST – sifat tizimi – (SK – sistema kachestva);

TKT – texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotni tasniflash va kodlash yagona tizimi – (YeSKK TESI – yedinaya sistema klassifikatsii i kodirovaniya texniko-ekonomicheskoy i sosialnoj informatsii)

Asosiy qoidalarda standartlashtirishning asosiy vazifalari keltirilgan: iste'molchilar va davlat manfaatlarini ko'zlab, chiqariladigan mahsulotning sifati va nomenklaturasiga maqbul talablarni o'rnatish; parametrik va xil o'lchamlari qatorlarini, asos konstruksiyalarni, konstruktiv-birxillashtirilgan buyumlarning blok-modul tarkibiy qismlarini belgilash va qo'llanish asosida birxillashtirish; mahsulot, uning elementlari, butlovchi buyumlar, xom ashyo, materiallarning ko'rsatkichlari va tafsilotlarini kelishib olish va o'zaro muvofiqlashtirish; metrologik me'yorlar, qoidalar, nizomlar, talablarni o'rnatish va b.

Standartlashtirishning asosiy prinsiplari ifodalangan, jumladan: standartlashtirishning maqsadga muvofiqligi; standartlashtirishning kompleksligi; barcha darajadagi me'yoriy hujjatlarning o'zaro bir-biriga bog'likligi va kelishilganligi; o'xshash standartlashtirish obyektlariga boshqaruvning turli darajalarida me'yoriy hujjatlarni takror ishlab chiqishga yo'l qo'yimaslik va h.k.

Standartlashtirishning tashkiliy asoslari o'rnatilgan. Standartlashtirish bo'yicha milliy idora – O'zstandart Agentligining vazifalari belgilandi:

– standartlashtirish sohasida milliy siyosatni shakllantiradi va amalga oshiradi;

– davlat va xo'jalik boshqaruv idoralarining standartlashtirish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtiradi;

– standartlashtirish bo'yicha ishlarni o'tkazish umumiy tashkiliy-metodik qoidalarini o'rnatadi;

– me'yoriy hujjatlar, shu jumladan majburiy talablarni o'z ichiga olgan hujjatlar ustidan davlat tekshiruv va nazoratini amalga oshiradi;

– standartlashtirish sohasida kadrlarni kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlash ishlarini tashkillashtiradi va olib boradi.

Davraxitekturaqurilish, Davtabiatqo'mita, Sog'liqni saqlash vazirligi va boshqa davlat va xo'jalik boshqaruv idoralari o'z vakolatlari doirasida standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkillashtiradi va muvofiqlashtiradi.

Standartlashtirish va me'yoriy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish bo'yicha ishlarga metodik jihatdan rahbarlik qilish uchun xos boshqaruv idoralar O'zstandart Agentligi bilan hamkorlikda standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalar va tayanch tashkilotlar, xo'jalik yurituvchi subyektlarda esa - standartlashtirish xizmatlarini tashkil etadi.

Barcha darajalardagi standartlashtirish obyektlarining batafsil ro'yxati keltirilgan:

- Davlatlararo standartlashtirish obyektlari quyidagilardan iborat:
 - umumtexnikaviy me'yorlar va talablar, shu jumladan umum mashinasozlikda qo'llaniladigan buyumlarning (podshipniklar, reduktorlar, mahkamlash buyumlari va boshqalar) yagona texnik tili, xil o'lchamlari qatori va namunaviy konstruksiyalari, axborot texnologiyalarining mos keluvchi dasturiy va texnik vositalari, materiallar va moddalarning xossalari to'g'risida ma'lumotnoma ma'lumotlari, mahsulotni tasniflash va kodlash;
 - yirik sanoat va xo'jalik majmuilarining obyektlari (transport, energetika, aloqa va b.);
 - yirik davlatlararo ijtimoiy-iqdisodiy va ilmiy-texnikaviy dasturlarning obyektlari, jumladan aholini ichimlik suv bilan ta'minlash, odamlar yashaydigan muhitni tekshirish tizimini yaratish, radioelektron vositalarining elektromagnit mos keluvchanligi, aholi va xalq xo'jaligi obyektlarining xavfsizligini ehtimolni hisobga olgan holda ta'minlash;
 - qator davlatlarda chiqariladigan, o'zaro yetkazib beriladigan mahsulot.

6.2. Davlat standartlashtirish tizimida asos bo'luvchi me'yoriy hujatlarning klassifikatsiyasi

Asos bo'luvchi davlatlararo standartlar faoliyatning ma'lum sohasi uchun umumiy tashkiliy-metodik qoidalarni, shuningdek mahsulotni yaratish va foydalanishda turli fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining o'zaro tushunishini, texnikaviy birliligini va o'zaro aloqalarini, atrof muhitni muhofazalashni, mehnatni muhofazalashni va boshqa umumtexnikaviy talablarni ta'minlaydigan umumtexnikaviy talablarni (me'yorlar, qoidalarni) o'rnatadi.

- Davlat standartlashtirish obyektlari quyidagilardan iborat:
 - a) tashkiliy-metodik va umumtexnikaviy me'yorlar va talablar, jumladan:
 - standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish va o'tkazish;

- bilim va faoliyatning turli sohalarida terminologik tizimlar;
- texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarni tasniflash va kodlash;
- xavfsizlik texnikasi, atrof muhitni muhofazalash, mehnat gigiyenasi, ergonomika, texnikaviy estetika talablari;

b) mahsulotga majburiy talablar;

v) tarmoqlararo ehtiyojga mo'ljallangan mahsulot;

g) davlat ahamiyatidagi xo'jalik obyektlarining elementlari, shu jumladan bank tizimi, transport, aloqa, energetik tizim, mudofaa va h.k

d) davlat ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy dasturlarning obyektlari (elementlari);

- Tarmoq standartlashtirish obyektlariga tarmoqni tashkil etish va boshqarish, sifatni ta'minlash, tarmoqqa mo'ljallangan mahsulot me'yorlari va qoidalari kiradi.

- Ma'muriy-hududiy standartlashtirish obyektlariga hududni boshqarish, hudud uchun xos mahsulot sifatini ta'minlash bo'yicha me'yorlar va qoidalar kirishi mumkin.

- Korxonalarda standartlashtirish obyektlariga quyidagilar kiradi:

- chet iste'molchilarga xaridga chiqariladigan mahsulot;

- ishlab chiqarishni tashkillashtirish bo'yicha me'yorlar va qoidalar;

- sifatni boshqarish;

- faqat ushbu korxonada tayyorlanadigan va ishlatiladigan detallar va yig'ma birliklar;

- texnologik jixoz va asboblar, texnologik me'yorlar, talablar va ushbu korxonadagi namunaviy texnologik jarayonlar;

- ko'rsatiladigan xizmatlar.

O'zbekistonda qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar:

- davlatlararo standartlar;

- O'zbekiston davlat standartlari;

- tarmoqlar standartlari;

- texnik shartlar;

- ma'muriy-hududiy standartlar;

- korxonalarining standartlari.

Standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlarga shuningdek rahbariy hujjatlar, me'yorlar va qoidalar (qurilish, sanitariya, ekologik qoidalar va b.), tavsiyalar, texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborot tasniflagichlari ham kiradi.

Xalqaro va hududiy standartlar O'z DSt ISO/IEC 21:2001 bo'yicha O'zbekiston davlat standartlariga qayta rasmiylashtirilib qo'llaniladi.

Chet el standartlari – O'z DSt 1.7:1998 bo'yicha qayta rasmiylashtiriladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida O'zbekiston davlat standartlari Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Ixtiyoriy me'yoriy hujjatlarni qo'llanish (amal qilish) maqsadida respublikada texnik reglament mavjud bo'lganda qo'llanilishi majburiy bo'lmagan me'yoriy hujjatlar ishlab chiqiladi.

Me'yoriy hujjatlarni belgilash tartibi o'rnatilgan:

a) davlat ahamiyatidagi me'yoriy xujjatlar:

- O'zbekiston davlat standarti – O'z DSt;
- O'zbekiston umumdavlat tasniflagichi – O'z DT
- O'zbekiston rahbariy hujjati – O'z RH
- O'zbekiston tavsiyanomalari – O'z T.

b) tarmoq darajasidagi me'yoriy hujjatlar:

- tarmoq standarti – TSt;
- tarmoq tasniflagichi – TT;
- texnik shartlar – TSh;
- rahbariy hujjat – RH;
- tavsiyalar – T.

v) ma'muriy-hududiy ahamiyatdagi me'yoriy hujjatlar:

- ma'muriy-hududiy standart – MNSt ;
- tavsiyanomalar – T.

g) korxonah ahamiyatidagi me'yoriy hujjatlar:

- texnik shartlar – TSh;
- korxonah standarti – KSt.

Demak, barcha darajadagi me'yoriy hujjatlarning belgisi hujjat matnining qaysi tilda yozilganligidan qat'iy nazar, davlat tilida lotin yozuvidagi qisqartmalar (abbreviaturalar) bilan belgilanadi.

Abbreviaturalar quyidagilarni ifodalaydi:

O'z – O'zbekiston

D – Davlat

T – Tasniflagich, Tarmoq, Tavsiyanoma

R – Rahbariy

H – Hujjat, Hududiy

Sh – Shart

K – Korxonah

M – Mamuriy

St – Standart

Davlatlararo standart belgisi (GOST) rus tilida saqlanadi. Standartlar darajasi, ularning tasdiqlash darajalari va O'z SDT standartlarining turlari 6.1-rasmdagi sxemada keltirilgan.


Xalq iste'moli nooziq mollarini tayyorlash va haridga chiqarish uchun namunalar (etalonlar) ning texnik tavsiflarini ishlab chiqish ruhsat etiladi. Texnik

tavsiflar davlat ro'yxatidan o'tkazilmaydi, chunki ular ushbu guruxdagi bir turli mahsulotga umumiy talablarni o'rnatuvchi me'yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqiladi.

Haridga chiqariladigan mahsulotga barcha darajadagi me'yoriy hujjatlar O'zstandart Agentligining idoralarida davlat ro'yxatidan o'tkaziladi. Davlat ro'yxatidan o'tmagan me'yoriy hujjatlar haqiqiy bo'lmaydi. Maxsulotga me'yoriy hujjatlar, odatda, har besh yilda, agar boshqa muddat urnatilmagan bulsa, qaytadan ko'rib chiqiladi.

Import qilinadigan mahsulot O'zbekiston hududida amaldagi me'yoriy hujjatlarda o'rnatilgan majburiy talablarga muvofiq kelishi lozim. Bu sertifikat bilan tasdiqlanadi.

Me'yoriy hujjatlarsiz mahsulot ishlab chiqarish va xaridga chikarish ruxsat etilmaydi.



6.1-rasm. Standartlar darajalari, ularni tasdiqlash darajalari va O'z SDT standartlarining turlari

Me'yoriy xujjatlarni nus'halash tartibi Asosiy qoidalarda belgilangan. Me'yoriy hujjatlarni va ularga kiritilgan o'zgartirishlarni nashr va qayta chop etish bu hujjatlarni tasdiqlagan (qabul qilgan) tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

Standartlashtirish bo'yicha xalqaro, davlatlararo va hududiy tashkilotlarning me'yoriy hujjatlarini O'zbekiston hududida nashr va qayta chop etish huquqi O'zstandart Agentligiga berilgan.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda standartlar ustidan davlat tekshiruvi va nazorati qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Nazorat savollari

1. Standartlashtirishning asosiy prinsiplari
2. Standartlashtirishning tashkiliy asoslari
3. Davlat standartlashtirish tizimida asos bo'luvchi me'yoriy hujjatlarning klassifikatsiyasi
4. Me'yoriy hujjatlarni belgilash tartibi
5. Abbreviaturalar ifodalanishi

Adabiyotlar

1. Henk J. de Vries Standardization: A Business Approach to the Role of National Standardization Organizations. Springer Science+Business Media, LLC, New York All Rights Reserved © 2000 Springer, 330 p.
2. Dr. Peter Hatto Standards and Standardization. Handbook. EUROPEAN COMMISSION, Directorate-General for Research Industrial Technologies Pictures © Shutterstock, 2010, 24 p.

3. Role of standards. A guide for small and medium-sized enterprises. Working paper. United nations industrial development organization, Vienna, 2006, 56 p.
4. Abduvaliyev A.A., Latipov V.B., Umarov A.S., Alimov M.N., Boyko S.R., Xakimov O.Sh., Xvan V.I. Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifat. O'quv qo'llanma. Toshkent, SMSITI, 2008. – 267 b.
5. Ismatullayev P.R., Matyakubova P.M., Turayev Sh.A. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. Darslik. «Lisson-Press». Toshkent, 2015. - 423 b.
6. www.ima.uz
7. vtww.academy.uz
8. www.standart.uz
9. www.smsiti.uz
www.uza.uz

1	Davlatlararo standartlashtirish obyektlari	umumtexnikaviy me'yorlar va talablar, shu jumladan umum mashinasozlikda qo'llaniladigan buyumlarning yagona texnik tili, xil o'lchamlari qatori va namunaviy konstruksiyalari, axborot texnologiyalarining mos keluvchi dasturiy va texnik vositalari, materiallar va moddalarning xossalari to'g'risida ma'lumotnoma ma'lumotlari va b.
2	Asos bo'luvchi davlatlararo standartlar	faoliyatning ma'lum sohasi uchun umumiy tashkiliy-metodik qoidalarni, shuningdek mahsulotni yaratish va foydalanishda turli fan, texnika va ishlab chiqarish sohaslarining o'zaro tushunishini, texnikaviy birliligini va o'zaro aloqalarini, atrof muhitni muhofazalashni, mehnatni muhofazalashni va boshqa umumtexnikaviy talablarni ta'minlaydigan umumtexnikaviy talablarni o'rnatadi.
3	O'zbekiston davlat standartlariga qayta rasmiylashtirilib qo'llaniladi Xalqaro va hududiy standartlar	O'z DSt ISO/IEC 21:2001
4	Chet el standartlari qayta rasmiylashtirilishi uchun me'yoriy xujjat	O'z DSt 1.7:1998

7- amaliy mashg'ulot. O'zbekiston Respublikasi akkreditlash davlat tizimi;

7.1.Akkreditasiya tushunchasi

Akkreditlashni asosiy maqsadlari:

- mahalliy mahsulot, xizmatlar yoki jarayonlarni xavfsizligi, sifati va raqobatbardoshligini oshirish;
- xalqaro bitimlarda texnikaviy tusiqlarni bartaraf qilish;
- sinov laboratoriyalari, kalibrlash va qiyoslash laboratoriyalari, sertifikatlashtirish va nazorat idoralari, metrologik xizmatlar va standartlashtirish bo'yicha xizmatlarni texnikaviy layoqatligini oshirish va faoliyati natijalarini xalqaro tan olinishini ta'minlash

Akkreditlashni asosiy vazifasi bulib tashkilotlar va jismoniy shaxslar faoliyatini me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq qonuniy huquqqa egaligini tasdiqlash xisoblanadi.

Akkreditlash bo'yicha faoliyatni tizim doirasida quyidagi subyektlar amalga oshiradi:

- Akkreditlash bo'yicha Milliy idora, uning funksiyalarini «Uzstandart» agentligi bajaradi;
- me'yoriy ta'minot va akkreditlash proseduralari bo'yicha ilmiy – uslubiy markaz, uning fuksiyalarini SMSITI bajaradi;
- «Uzstandart» agentligini topshirig'iga muvofiq boshqa davlat idoralari.

Tizimda akkreditlash obyektlari:

- sinov laboratoriyalari;
- kalibrlash va boshqa laboratoriyalar;
- mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar;
- sifat tizimlarini sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar;
- nazorat idoralari;
- ekspert – auditorlar.

Akkreditlash – mahsulot va xizmatlar, xodimlar va sifat tizimlarini belgilangan talablarga muvofiqligini baholash va muvofiqligini tasdiqlash bo'yicha aniq vazifalarni bajarish uchun vakolatlarini rasmiy tasdiqlash.

Akkreditlovchi idora - mahsulot va xizmatlar, xodimlar va sifat tizimlarini belgilangan talablarga muvofiqligini baholash va muvofiqligini tasdiqlash bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun rasmiy vakolatlarni beruvchi davlat boshqaruv idorasi.

Akkreditlash mezonlari – akkreditlashga talabgor javob berishi kerak bulgan talablar yig'indisi.

Akkreditlash sohasi – muvofiqlikni tasdiqlash bo'yicha ma'lum faoliyat sohasidagi, bajarishga murojaat qilingan va (yoki) akkreditasiya berilgan aniq ishlar.

Akkreditlash idorasiga talablar. Uzbekiston Respublikasi akkreditlash idorasiga talablar. Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish idoralari, sinov (ulchov) laboratoriyalarini akkreditasiyadan utkazish tartibi. O'z DSt 16.10:2009, O'z DSt ISO/IEC 17021:2009, O'z DSt ISO/IEC 17025:2005 va boshqalar.

Akkreditlash bo'yicha idora:

- ma'lum yuridik maqomga ega bulishi kerak;
- moliyaviy turg'unlik va Tizim faoliyat olib borishi uchun vositalarga ega bulishi kerak;
- akkreditlash bo'yicha faoliyatda ishtirok etayotgan barcha tomonlar manfaatlarini ximoya qilish uchun huquq va javobgarlikka ega bulishi kerak;
- faoliyati uchun zarur bulgan xonalar, texnikaviy va boshqa vositalarga ega bulishi kerak;
- Tizimni muvafaqqiyatli boshqarishga imkon beruvchi tashkiliy tuzilma va sifat boshqarish tizimini boshqa elementlariga ega bulishi kerak;
- Tizimni takomillashtirish uchun akkreditlash bo'yicha boshqa idoralar bilan axborot almashinishga tayyor bulishi kerak.

Akkreditlash bo'yicha idora:

- u tomonidan boshqalarga vakolat berilgan xizmatlarni;
- sertifikatlashtirish bo'yicha proseduralarni ishlab chiqish va joriy qilish bo'yicha xizmatlarni taklif qilmasligi yoki kursatmasligi kerak
- rahbarga;
- shtatdagi xodimlarga;
- tashkiliy tuzilmaga;
- mustaqil ekspertlarni jalb qilish imkoniyatiga;
- ekspertlar layoqatligini baholash bo'yicha tegishli proseduraga;
- akkreditlash bo'yicha ekspertlar bo'yicha yozuvlarga ega bulishi kerak.

Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish idoralari, sinov (ulchov) laboratoriyalarini akkreditasiyadan utkazish tartibi

(UzR Adliya vazirligi tomonidan 17.07.2006 y. 1596 – son bilan ruyxatga olingan)

O'z DSt 16.0:2006 Uzbekiston Resublikasi Akkreditlash tizimi. Asosiy qoidalar

O'z DSt 16.10:2009 Uzbekiston Resublikasi Akkreditlash tizimi. Sertifikatlashtirish idorasiga quyiladigan umumiy talablar

O'z DSt ISO/IEC 17021:2009 Muvofiklikni baxolash. Menejment tizimlarining auditi va sertifikatlashtirishni amalga oshiradigan vdoralarga kuyiladigan talablar

O'z DSt ISO/IEC 17025:2007 Sinov va kalibrlash laboratoriyalari layoqatligiga umumiy talablar

O'z DSt 16.2:1999 (EN 45013-89) UzR Akkreditlash tizimi. Xodimlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoraga talablar

O'z DSt 16.3:2001 Yuridik shaxslarni standart namunalarni tayyorlash, shahodatlash va sotish huquqiga akkreditlash. Tashkillashtirish va utkazish tartibi

O'z DSt 16.5:2001 UzR Akkreditlash tizimi. Yuridik va jismoniy shaxslarni ulchashlarni bajarish uslublarini shahodatlash va hujjatlarni metrologik ekspertiza qilish huquqiga akkreditlash. Tashkillashtirish va utkazish tartibi

O'zDSt 16.6:2003 UzR Akkreditlash tizimi. Yuridik shaxslarni ulchashlarni bajarish uslublarini tashkillashtirish va nazorat qilish huquqiga akkreditlash

O'z DSt ISO/IEC 17020:2009 Turli xil nazorat qiluvchi idoralarning ishlash mezonlari

O'z DSt 16.8:2004 UzR Akkreditlash tizimi. Ishlab chiqarish laboratoriyalarini shahodatlash. Umumiy talablar va utkazish tartibi

O'z DSt 16.9:2006 UzR Akkreditlash tizimi. UzR ekoanalitik laboratoriyalarni shahodatlash. Laboratoriyani texnikaviy layoqatini baholashni utkazish tartibi.

7.2.Akkreditlash tartibi va jarayonlari

Akkreditlash bo'yicha idora:

- ma'lum yuridik maqomga ega bulishi kerak;
- moliyaviy turg'unlik va Tizim faoliyat olib borishi uchun vositalarga ega bulishi kerak;
- akkreditlash bo'yicha faoliyatda ishtirok etayotgan barcha tomonlar manfaatlarini ximoya qilish uchun huquq va javobgarlikka ega bulishi kerak;
- faoliyati uchun zarur bulgan xonalar, texnikaviy va boshqa vositalarga ega bulishi kerak;
- Tizimni muvafaqqiyatli boshqarishga imkon beruvchi tashkiliy tuzilma va sifat boshqarish tizimini boshqa elementlariga ega bulishi kerak;
- Tizimni takomillashtirish uchun akkreditlash bo'yicha boshqa idoralar bilan axborot almashinishga tayyor bulishi kerak.

Akkreditlash bo'yicha idora:

- u tomonidan boshqalarga vakolat berilgan xizmatlarni;
- sertifikatlashtirish bo'yicha proseduralarni ishlab chiqish va joriy qilish bo'yicha xizmatlarni taklif qilmasligi yoki kursatmasligi kerak

Akkreditlash bo'yicha idora:

- rahbarga;

- shtatdagi xodimlarga;
- tashkiliy tuzilmaga;
- mustaqil ekspertlarni jalb qilish imkoniyatiga;
- ekspertlar layoqatligini baholash bo'yicha tegishli proseduraga;
- akkreditlash bo'yicha ekspertlar bo'yicha yozuvlarga ega bulishi kerak.

Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish idoralari, sinov (ulchov) laboratoriyalarini akkreditasiyadan utkazish tartibi

(UzR Adliya vazirligi tomonidan 17.07.2006 y. 1596 – son bilan ruyxatga olingan)

O'z DSt 16.0:2006 Uzbekiston Resublikasi Akkreditlash tizimi. Asosiy qoidalar

O'z DSt 16.10:2009 Uzbekiston Resublikasi Akkreditlash tizimi.

Sertifikatlashtirish idorasiga quyiladigan umumiy talablar

O'z DSt ISO/IEC 17021:2009 Muvofiklikni baxolash. Menejment tizimlarining auditi va sertifikatlashtirishni amalga oshiradigan vdoralarga kuyiladigan talablar

O'z DSt ISO/IEC 17025:2007 Sinov va kalibrlash laboratoriyalari layoqatligiga umumiy talablar

O'z DSt 16.2:1999 (EN 45013-89) UzR Akkreditlash tizimi. Xodimlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoraga talablar

O'z DSt 16.3:2001 Yuridik shaxslarni standart namunalarni tayyorlash, shahodatlash va sotish huquqiga akkreditlash. Tashkillashtirish va utkazish tartibi

O'z DSt 16.5:2001 UzR Akkreditlash tizimi. Yuridik va jismoniy shaxslarni ulchashlarni bajarish uslublarini shahodatlash va hujjatlarni metrologik ekspertiza qilish huquqiga akkreditlash. Tashkillashtirish va utkazish tartibi

O'zDSt 16.6:2003 UzR Akkreditlash tizimi. Yuridik shaxslarni ulchashlarni bajarish uslublarini tashkillashtirish va nazorat qilish huquqiga akkreditlash

O'z DSt ISO/IEC 17020:2009 Turli xil nazorat qiluvchi idoralarning ishlash mezonlari

O'z DSt 16.8:2004 UzR Akkreditlash tizimi. Ishlab chiqarish laboratoriyalarini shahodatlash. Umumiy talablar va utkazish tartibi

O'z DSt 16.9:2006 UzR Akkreditlash tizimi. UzR ekoanalitik laboratoriyalarni shahodatlash. Laboratoriyaning texnikaviy layoqatini baholashni utkazish tartibi.

7.3 Sertifikatlashtirish idoralari O'zDSt/ISO 16.10 asosida akkreditlash

Ushbu standart ISO/IEC Rahbariy xujjati 65:1996 «Mahsulotni sertifikatlashtirish bo'yicha idoralarga umumiy talablar» matidan iborat.

Standart bulimlari matniga Uzbekiston huquqiy talablari va iqtisodiyotini aniq ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda milliy izohlar va qushimcha ma'lumotlar qushilgan.

Ushbu standart, mahsulotni sertifikatlashtirish tizimida faoliyat olib borayotgan uchunchi tomon, agarda u layoqatli va ishonchli deb tan olinishini istasa, javob berishi kerak bulgan talablarni belgilaydi.

Umumiy talablar

- SI siyosati va proseduralari diskriminasiyasiz va teng huquqlilik asosida amalga oshirilishi kerak.

- proseduralarni qullanilishi sertifikatlashtirishga talabgorlarga qiyinchilik tugdirmasligi yoki tusqinlik qilmasligi kerak.
- SI akkreditlash sohasiga kiritilgan xizmatlarni kursatishi va barcha talabgorlarga yul ochilishi kerak.
- talabgor mahsulotini baholash mezonlari standartlarda belgilangan mezonlarga muvofiq bulishi kerak.
- sertifikatlashtirishga nisbatan talablar, baholash va qarorlarni SI sertifikatlashtirishda kuruladigan aniq sohaga nisbatan masalalar bilan cheklashi kerak.

Tashkilotga talablar

SI tashkiliy tuzilmasiga uning faoliyatiga ishonchni ta'minlashi kerak.

SI:

a) xolis bulishi;

v) sertifikatni berish, amal qilishini tasdiqlash, tuxtatib quyish va bekor qilish bo'yicha uz qarorlariga javob berishi;

s) quyidagilar uchun rahbariyatni (bulinma, guruh yoki shaxs) tayinlashi:

- sinov, nazorat, baholash va sertifikatlashtirishni amalga oshirish;
- SI faoliyatini belgilovchi siyosatni shakllantirish;
- sertifikatlashtirish bo'yicha qaror qabul qilish;
- uz siyosatini yurgazilishi ustidan nazoratni olib borish;
- SI moliyaviy masalalari ustidan nazoratni olib borish;
- SI ma'lum bir faoliyat turlarini amalga oshirish uchun huquqlarni bulinmalar yoki alohida shaxslarga berish.

d) u yuridik shaxs ekanligini tasdiqlovchi xujjatlarga ega bulishi;

ye) xolislikni ta'minlaydigan xujjatlashtirilgan tashkiliy tuzilmaga ega bulishi;

f) sertifikatlashtirish bo'yicha har bir qarorni, baholashda ishtirok etmagan shaxs qabul qilishi;

g) akkreditlash sohasi bo'yicha faoliyati bilan bog'liq huquq va majburiyatlarga ega bulishi;

h) amalga oshirilayotgan operasiyalar va/yoki faoliyatidan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarilishini ta'minlovchi mexanizmlarga ega bulishi;

i) moliyaviy holati turg'un bulishi va sertifikatlashtirish uchun resurslarga ega bulishi;

j) tegishli layoqatlilikka ega xodimlarga ega bulishi yoki jalb qilishi;

k) sifat tizimiga ega bulishi;

l) sertifikatlashtirish va SI shug'ullanadigan boshqa faoliyatni cheklovchi siyosat va proseduralarga ega bulishi;

m) rahbariyat va xodimlarni istalga tijorat, moliyaviy va sertifikatlashtirish jarayoniga ta'sir kursatuvchi boshqa bosimlardan mustaqilligini ta'minlashi;

o) sertifikatlashtirishda konfidensiallik, obyektivlik va xolislikni ta'minlashi va:

1) sertifikatlashtirayotgan mahsulotini yetkazib bermasligi yoki loyihalashtirmasligi,

2) talabnoma topshirilgan sertifikatlashtirish uchun tusiq bulgan masalalar bo'yicha maslahatlar bermasligi yoki maslahat xizmatlari kursatmasligi,

3) konfidensiallikni buzuvchi, obyektivlikka yoki sertifikatlashtirishni amalga oshirish va qaror qabul qilish jarayoniga noxolis yondoshuvga shubha tug'diruvchi xizmatlarni kursatmasligi kerak,

r) e'tirozlar, apellyasiya va kelishmovchiliklarni ko'rib chiqish va qaror qabul qilish bo'yicha siyosat va proseduralarga ega bulishi kerak.

Jarayonga talablar

SI mahsulotni belgilangan standartlarga muvofiqligini baxolash uchun barcha choralarni kurishi kerak.

SI ma'lum mahsulotga nisbatan standartlar yoki ularni qismlarini va boshqa, masalan, namunalarni tanlash, sinovlarni utkazish bo'yicha talablarni belgilashi kerak.

Sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarni olib borishda SI sinovlar, nazorat qilish va sertifikatlashtirishga tegishli talablarga rioya qilishi kerak.

Subpudrat bo'yicha ishlar

Agar SI sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarga subpudrat shartnomasi tuzmoqchi bulsa, shartnoma konfidensiallikni ta'minlash va manfaatlar nizosi shartlarini uz ichiga olishi kerak.

SI:

- subpudrat ish uchun tuliq javobgarlikni uz zimmasiga olishi;
- subpudratchilar layoqatli ekanligini, O'z DSt 16.10 va boshqa tegishli hujjatlar talablariga javob berishini, bevosita yoki bilvosita mahsulot ishlab chiqarish yoki ishlab chiqish bilan shug'ullanmasliklarini kafolatlashi;
- talabgorni roziligini olishi kerak.

7.4. Sinov laboratoriyalarini O'zDSt/ISO 17025 asosida akkreditasiyadan o'tkazish

Qullash sohasi

■ O'z DSt ISO/IEC 17025:2007 standarti, namunalarni tanlash, standart, nostandart va laboratoriya tomonidan ishlab chiqilgan sinov usullari bo'yicha sinovlar va kalibrlash utkazishni uz ichiga olgan holda sinovlar va/yoki kalibrlash utkazishda laboratoriyalarni layoqatligiga umumiy talablarni belgilaydi

■ O'z DSt ISO/IEC 17025:2007 talablari biri nchi, ikkinchi yoki uchinchi tomon laboratoriyalari, shuningdek mahsulotni sertifikatlashtirish sinovlarini utkazuvchi laboratoriyalar tomonidavn qullanilishi mumkin.

Boshqarishga talablar

Tashkilot

■ Laboratoriya yoki u tarkibiga kiruvchi tashkilot yuridik javobgarlikka ega subyekt bulishi kerak.

■ Laboratoriya majburiyatlariga O'z DSt ISO/IEC 17025:2007 standarti talablari bajariladigan va iste'molchi, davlat idoralari yoki rasmiy tan olishni amalga oshiruvchi tashkilotlarni ehtiyojlari qanoatlantiriladigan holda sinovlar va kalibrlashni utkazish kiradi.

■ Menedjment tizimi laboratoriyani doimiy joyi, doimiy joyidan tashqaridagi ish urinlari yoki vaqtincha, mobil sharoitlarda bajariladigan ishlarni qamrab olishi kerak.

■ Agar laboratoriya sinovlardan uzgacha ishlarni amalga oshiruvchi tashkilotni tarkibiga kirsam, laboratoriyani sinovlarni utkazish bo'yicha faoliyatida ishtirok etuvchi yoki ta'sir kursatuvchi tashkilotni rahbar xodimlarini majburiyatlari, potensial manfaatlar nizolarini identifikasiyalash uchun aniq belgilanishi kerak.

Laboratoriya:

a) uz majburiyatlarini bajarish va menedjment tizimi yoki sinovlarni utkazish proseduralaridan og'ishlar holatlarini aniqlash, shuningdek bunday og'ishlarni oldini olish yoki qisqartirish bo'yicha xarakatlarni belgilash uchun resurslar va vakolatlarga ega rahbar va texnikaviy xodimlarga ega bulishi kerak;

b) rahbariyat va xodimlarni, ularni ishiga salbiy ta'sir kursatishi mumkin bulgan istalgan nourin ichki va tashqi tijorat, moliyaviy yoki boshqa bosim va ta'sirdan ozodligini ta'minlovchi choralar kurishi;

c) natijalarni elektron saqlash va uzatishni ximoyalar proseduralarini uz ichiga olgan holda, ma'lumotlar konfidensialligi va iste'molchilar mulkiy huquqlarini ximoyasini ta'minlovchi siyosat va proseduralarni aniqlashi;

d) uning layoqatligi, xolisligi, faoliyatini haqqoniyligiga ishonchni kamaytiruvchi faoliyatga jalb qilinishini oldini oluvchi siyosat va proseduralarni belgilashi;

e) laboratoriya tashkiliy va boshqaruv tuzilmasini, laboratoriyani yuqori turuvchi tashkilotdagi urni va sifat menedjmenti, texnikaviy faoliyat va yordamchi xizmatlar bilan o'zaro aloqasini aniqlashi;

f) sinovlar sifatiga ta'sir kursatuvchi ishlarni boshqarish, bajarish yoki tekshirishda band barcha xodimlarni javobgarligi, vakolatlari va o'zaro aloqasini belgilashi;

g) sinovlarni utkazuvchi, shu jumladan stajerlar, xodimlarni, har bir sinovni usullari va proseduralari, maqsadlari, shuningdek sinov natijalarini baholash bilan tanish shaxslar tomonidan nazoratini ta'minlash;

h) texnikaviy faoliyat va laboratoriya ishini talab qilinadigan sifatini ta'minlash uchun zarur resurslar bilan ta'minlash uchun umumiy javobgarlik yuklatilgan texnikaviy ma'muriyatga ega bulishi;

i) bir xodimni, boshqa funksiyalari va majburiyatlaridan qat'iy nazar, menedjment tizimini joriy qilish va faoliyat yuritishini ta'minlash uchun javobgarlik yuklatilgan va vakolatlar berilgan sifat bo'yicha menedjer etib tayinlashi; sifat bo'yicha menedjer siyosat yoki resurslar bo'yicha qaror qabul qiluvchi boshqarishni yuqori darajasiga tug'ri chiqishi kerak;

j) rahbarni urinbosarlarini tayinlashi;

k) xodimlar tomonidan menedjment tizimi vazifalarini bajarishda uz faoliyati va xissasini urni va muhimligini anglanishini ta'minlashi kerak.

Yuqori rahbariyat, laboratoriyada menedjment tizimi samaradorligiga taalluqli axborot almashinuvi va xabarlarni berishni qulay bulgan jarayonlarini urnatishi kerak.

Nazorat savollari

6. ISO 9001 xalqaro standarti talablari
7. Integrallangan SMT va xavfsizlik menejment tizimlari
8. ISO 9001 va ISO 22000 xalqaro standartlarini integrasiya sohalari
9. Deming siklidan
10. Tizimlarni birlashtirish usuli

8- amaliy mashg'ulot. Standartlashtirishning metodologik (uslubiy) asoslari

8.1 Standartlashtirish usullari

Standartlashtirishning keng tarqalgan usullari sifatida birxillashtirishni, agregatlashtirishni va turlashni olishimiz mumkin. Aynan shu usullar yordamida o'zaro almashuvchanlikni ta'minlash mumkin. Endi shu usullarni birma-bir ko'rib chiqaylik.

Standartlashtirish bo'yicha faoliyat murakkab va ko'p qirralidir. Yuqori sifatli standartlashtirishga erishish bir qator usullardan foydalanishga mo'ljallangan.

Metod (usul) (grekchadan «methodos») – aniqlangan masalani hal etishda nazariy yoki amaliy tadqiqotlarni qabul qilish, qo'llash, yo'lidir. Metod – bu ko'p marotabali takrorlanishlar uchun oldindan rejalashtirilgan va maqbul bo'lgan murakab faoliyatni bajarish yo'lidir.

Standartlashtirishda quyidagi kompleks metod (usul)lardan foydalaniladi:

- falsafiy;
- umum ilmiy;
- maxsus.

1. Falsafiy usullar

Bunga quyidagilar taalluqlidir:

- teng huquqlilik usuli – nazariy tadqiqotlarning ilmiy usuli bo'lib, o'zida obyekt to'g'risidagi abstrakdan, muayyan hamma tomonlama o'rganishga harakat qilingan fikrlarni ifoda etadi;

- tarixiy usul – vaqt bo'yicha o'zgaruvish va rivojlanishga faoliyat sifatida imkon berishga mansub usul;

- mantiqiy usul – turli nazariyalar ma'lumotlaridan kelib chiqib ishonchli bilimni kafolatlovchi, mantiqiy aloqadorlikni va munosabatni aniqlaydi.

2. Umum ilmiy usullar.

Bu usullar ilmiy bilishning empirik va nazariy darajasida turli maqsadlarni amalga oshirish uchun foydalaniladi. Bularga quyidagilar mansubdir:

- empirik (kuzatuv, solishtirish, eksperiment, o'lchash) usullar;

- nazariy (idellashtirish, shakllantirish, aksiomali usul, ekstrapolyasiya (narsa va hodisaning bir qismini kuzatish asosida olingan xulosalarni uning boshqa qismiga yoyish yoki tatbiq etish);

- empirik-nazariy usullar (mavhumlashtirish, tahlil, sintez, induksiya, deduksiya, modellashtrish, tizimlashtirish, sinflashtirish).

Optimallashtirish usullari:

- Matematik optimallashtirish usuli – optimallashtirilgan standartlashtirish obyektining ishchi holati va matematik modelini batafsil yaratishni tashkil asosidagi usul. Bu usul ilgari standartlarni ishlab chiqishda sifatni bashoratlashni ta'minlashi va yuqori aniqligi bilan farqlanadi. Biroq, undan faqat yaxshi o'rganilgan obyektlar, ularni yaratish shartlari va qo'llanilishini optimallashtirishda foydalanish mumkin.

- Ekstrapolyasiya (narsa va hodisaning bir qismini kuzatish asosida olingan xulosalarni uning boshqa qismiga yoyish yoki tatbiq etish) yordamida to'g'ridan-to'g'ri bashoratlash usuli. Bosh usuli o'tgan vaqt statistikasidan foydalanish bo'lib va vaqt bo'yicha o'zgarish imkoniyatlarini hisobga imkonini bermaydi. Shuning uchun ekstrapolyasiya usuli qisqa davr vaqtni bashoratlashda foylanish maqsadga muvofiq.

- Funksiya-qiymatli tahlil asosida optimallashtirish usuli, ya'ni iqtisodiy samaradorlik, vaqt bo'yicha xarajat va samarani solishtirish va bu asosida eng yaxshi variantlarni tanlash. Ammo, bu yerda standartlashtirish obyekti (qo'llanilishi) ekspluatasiyasidan samara variyasiya tahlili nazarda olinmaydi.

- Muhandislik hisoblari (mustahkamlik, aniqlik, chidamlilik, ishab chiqaruvchanlik va boshqa ko'rsatkichlari) asosidagi usul. Taniqli hisoblash usullariga: usulning aniqligi juda ham yetarli, ammo u turli obyektlarni solishtirib baholash uchun foydalanib bo'lmaydi, faqat bir turdagi obyektlarga qo'llash samara beradi.

Ekspertli usullar. Ekspertlarning tajribasi, ziyrakligi, bilimdonligiga asoslangan. Ekspertlarning xulosalari yuqori niqlikda, ishonchli, asoslangan, yangilishmagan, jamoa fikridan mustaqil, yangilangan, dadil va keng ko'lamli bo'lishi lozim. Ekspert usullari obyekt to'g'risida nazariy yo'li bilan yoki eksperimental usullar bilan ma'lumotlar olish umkoni bo'lmagan hollarda qo'llaniladi.

Quyidagi ekspert usullari mavjud: evristik (aqliy hujum, ssenariyali, anketali) va jamoali ekspertizalar. Yanada xolisona va istiqbolli usul bo'lib ekspertlar guruhi doirasida jamoali ekspertiza usuli hisoblanadi. Biroq, muayyan sharoitlarga bog'liq holatlarda bu usullardan kombinasiyalashgan holda qo'llaniladi.

3. Maxsus usullar.

Ko'proq ishlatiladigan standartlashtirishning maxsus usullari quyidagilar:

- unifikasiya (birxillashtirish);
- tiplashtirish (turlash);
- agregatlashtirish;
- modullashtirish.

Shuningdek, parametrik standartlashtirish, kompleks standartlashtirish va ilgari lanma standartlashtirish kabi maxsus usullar ham mavjud. Ko'proq va kengroq miqyosda ko'llaniladigan usullarga batafsil to'xtilib o'tamiz.

Amaliyotda ko'proq ko'llaniladigan umum-ilmiy standartlashtirish usullari

Standartlashtirish obyektlarini tizimlashtirish standartlashtirishning muayyan obyektlari majmuiyni ilmiy ketma-ketlik bilan tasniflash (sinflash) va mayyan tartiblashtirishdan iborat. Ixtiyoriy obyektни tizimlashtirish foydalanish uchun qulay, aniqlangan tizimni shakllantirish va ularni ketma-ketlikda joylashtirish maqsadida amalga oshiriladi²⁴.

Tizimlashtirishning eng oddiy tizimi turli lug'at va ma'lumotlardan foydalaniladigan alifbo bo'lib hisoblanadi. Standartlashtirish obyektlarini tarib raqamlashtirish yoki ularni voqyealar ketma-ketligiga asoslangan holda joylashtirishda qo'llaniladi. Maslan, GOST, O'z DSt standartlarini o'sib borish tartibi bo'yicha raqamlashtirish va undan so'ng qabul qilingan yili ko'rsatiladi.

Kompyuter texnologiyalari asrida yagona tamoyillarni ishlab chiqish va usullarni tizimlashtirishda axborot moslashuvchanligini ta'minlash maqsadida sinflashtirish, identifikasiyalash va kodlashtirish dolzarb ahamiyatga ega. Turli xillikni tizimlashtirishning asosi sinflashtirish (tasniflashtirish) bo'lib hisoblanadi.

Tasniflashtirish (sinflashtirish) – obyektlar to'plamin qabul qilingan usulga muvofiq aniqlangan alomatlar asosida farqlash yoki ularni kelib chiqishi bo'yicha sinfli guruhlash (taksonlar)ga ajratishdir.

Alomatlar – obyekt shaklini boshqalaridan farqlovchi obyektning o'ziga xos xossasidir. Obyektlarni sinflashtirishda ularni umumiy alomatlariga bog'liq bo'lgan sinf, sinf osti, turi, razrayadlar guruhi va boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha joylashtirish hamda bir-biriga bo'ysungan obyektlar tizimi yaratiladi.

Umumiy sinflash o'zida ixtiyoriy obyektlar ketma-ketligi usulini namoyon etib va uni qo'llash universaldir, shuning uchun bu usul aniqlashtirishni talab etadi. Faqat “sinflashtirish (sinflashgan)” tushunchasining 900 dan ortiq ta'rifi ma'lumdir. Ulardan eng ko'p tarqalgani va sinflash ma'nosi to'g'risida yetarlicha aniq tushunchani beruvchi quyidagilar hisoblanadi: obyektlar sinfi yoki bu tushunchalarning o'zaro bog'liqligini o'rnatish vositasi sifatida foydalaniladigan, inson faoliyati yoki bilimlar sohasida u yoki bu ketma-ket bog'langan tushunchalar (obyektlar sinfi) tizimi.

²⁴ Абдувалиев А.А., Латипов В.Б., Умаров А.С., Алимов М.Н., Бойко С.Р., Хакимов О.Ш., Хван В.И. Стандартлаштириш, метрология, сертификатлаштириш ва сифат. Ўқув қўлланма. Тошкент, СМСИТИ, 2008. – 267 б.


Sinflashtirish va kodlashtirish fikrlash jarayoni faolligi bilan bevosita bog'liqdir, ayniqsa uning asosiy qismi bo'lmish, bu ma'lumotni o'zlashtirishga javob beradi.

Shu jihati bilan ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish bo'yicha bajaruvchining ishlarini optimallashtirishga bog'liqdir. Zamonaviy ishlab chiqarish tizimlarida ma'lumotlarni hiddan ziyod hajmda bo'lishini hisobga olib, uni aniq ishlashi uchun amaldagi vaqt rejimida ulardagi ma'lumotlarni ko'lab-quvvatlash lozimdir. Bundan ma'lumotlarni sifatli sinflashtirishda kompyuter texnologiyalarini qo'llash bilan ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishning optimallashtirish hamda shu rejimda vaqtni qisqartirgan holda ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Tasniflashtirish (sinflashtirish) usullari to'plam va to'plam ostilariga bo'lish usuli bilan aloqadorligi darajasi muhim ahamiyatga ega. Obyektlarni sinflashtirishning ikkita asosiy: iyerarxik va fasetli usuli mavjud.

Iyerarxik usul bo'yicha sinflashtirish quyidagi ketma-ketlik bo'yicha amalga oshiriladi:

- obyektning birlamchi to'plamini aniqlash;
- sinflashtirish obyektining asosiy (mavjud) alomatlarini aniqlash;
- alomatlarining ketma-ketligi tartibini tanlash – ularni miqdori va bo'linish darajasi.



8.1-rasm. Iyerarxik usul bo'yicha sinflashtirish sxemasi

Sinflashtirish guruhlarining umumiy miqdori E_0 (klassifikatori) sinflagichi hajmida shakllanib, quyidagiga teng:

$$Ye_o = n_1 + n_1 n_2 + n_1 n_2 n_3 + \dots + n_1 n_2 n_3 \dots n_k = \sum_{j=1}^k \Pi \Sigma P \quad (5.1)$$

Sinflashtirishning fasetli usuli birlamchi obyekt to'plamini muayyan masalani hal etish uchun aniqlanilgan berilgan alomatlarini namoyon etuvchi mustaqil to'plam ostilariga bo'lish natijasida amalga oshiriladi.

Fasetli usul bo'yicha sinflashtirish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- obyektning birlamchi to'plamini aniqlash;

- sinflashtirish obyektini barcha tomonlama tavsiflovchi asosiy (mavjud) alomatlarini aniqlash;

- fasetlarda bir turdagi (mavjud) alomatlarni guruhlash va ularni kodlashtirish;

- to'plam ostini hosil qilish uchun fasetli formulani aniqlash.

Fasetli usul obyektning muayyan turli tavsiflari yig'indisi asosida "xusuiydan umumiyga" tamoyili bo'yicha to'plam ostini shakllanishi bilan o'ziga xosdir.

Kodlashtirish – obyektga yoki obyektlar guruhiga uning nomini bir qancha simvolar bilan almashtirish imkonini beruchi yagona belgi (kod)ni qo'yish va belgilashdir.

Kod – qabul qilinigan usulga muvofiq o'zlashtirilayotgan obyektning identifikatsiyalash maqsadidagi belgi yoki belgilar majmuasidir. Kodli belgilashlar alifboli, razrayadli, tuzilmali, uzunli va nazorat sonli kodlashlar bilan tavsiflanadi.

Alifbo – kodni belgilash uchun qabul qilingan belgilar (simvollar) tizimi.

Razryad kodi – kodda belgilar holati.

Tuzilmali kod – tarkibni shartli belgilash va nomlanish darajasi uzunligiga bu belgilarga muvofiq, kodda belgilar ketma-ket joylashishini grafik tasviri.

Kodda belgilar soni uning tuzulmasi va obyektlar miqdoriga, to'plam ostiga kiruvchi, har bir uzunlik darajasini shakllantiruvchlariga bog'liqligi bilan aniqlanadi. Har bir uzunlikda belgilar sonini aniqlashda yangi obyektlarni paydo bo'lishi mavjudligini inobatga olib zaxira kodlarga nazarda tutilishi lozim.

Kodlar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- obyektlarni va (yoki) obyektlar guruhini bir xil ma'noli identifikatsiyalash va identifikator bo'lishi lozim;

- belgilar soni minimal (minimal uzunlikda) va berilgan to'plamning barcha obyekt (alamat)larini kodlash uchun yetarli bo'lishi lozim;

- kodlashtiriladigan to'plam obyektlari paydo bo'lgan holatlar uchun yetarli zaxirani mavjudligi;

- odamlar foydalanishi uchun hamda kodlashtirilgan ma'lumotlari kompyuterda qayta ishlash uchun qulay bo'lishi lozim;

- kompyuter tizimiga kiritishda xatoliklarni avtomatik nazorat imkoniyatini ta'minlash.

Kod uzunligi – koddagi probellarsiz belgilar soni.

Nazorat soni – kod yozuvlarini tekshirish uchun foydalaniladigan hisoblangan son.

Texnikaviy-iqtisodiy ma'lumotlarni kodlashtirishning ketma-ket, parallel, tartibli va seriyali-tartibli usullariga bo'linadi.

Ketma-ket kodlashtirish usulida iyerarxik sinflashtirish usulida olingan bir-biriga bog'lik joylashgan ketma-ketlikdagi kodlardan foydalanish bilan obyekt va (yoki) guruhni sinfli kodi shakllantiriladi.

Parallel kodlashtirish usuli fasetli sinflashtirish usulida olingan mustaqil guruhlangan kodlardan foydalanish bilan sinflashgan obyekt va (yoki) sinflangan guruh kodini shakllantrish va uni kiritishdir. Bu holatda kod tuzulmasi fasetli formula bilan aniqlanadi.

Tartibli kodlash usuli natural sonlar qatoridan shakllantirish va undan foydalanish bilan farqlanadi.

Seriyali-tartibli kodlashtirish usuli natural sonlar qatoridan, bir xil alomatlar bilan sinflashgan obyektlari uchun bu sonlar diapazoni yoki olahida seriyasini shakllantirishdan hosil qilinadi.

Tizimlashtirishning boshqa turi bu identifikasiyalash bo'lib hisoblanadi.

Birxillashtirish usuli

Standartlashtirish obyektlarini simplifikasiyalash – bu ko'plab ishlatiladigan elementlarni oddiy qisqartirishga asoslangan unifikasiyalashtirishning elementar ko'rinishi. Ixtiyoriy darajada simplifikasiyalashni amalga oshirish mumkin.

O'z DSt 1.0-1998 da birxillashtirish atamasiga quyidagicha berilgan:

Birxillashtirish – muayyan ehtiyojni qondirish uchun zarur bo'lgan eng ma'qul o'lchamlar sonini yoki mahsulot, jarayon yoki xizmat turlarini tanlash. Birxillashtirishni unifikasiya deb ham yuritiladi. Bu so'z lotincha *uni* – bir *unio* – birlik (birdamlik) ma'nolarini anglatadi.

Birxillashtirish eng katta texnikaviy-iqtisodiy samaradorlikka erishish maqsadida yangi ishlanmalar hisobiga yoki oddiy qisqartirish (simplifikasiya) hisobiga amalga oshirilishi mumkin.

Unifikasiyaning asosiy maqsadi quyidagilar hisoblanadi:

1) buyumlarni ishlab chiqish, ilab chiqarishga tayyorlash, tayyorlash, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash muddatlarini qisqartirish yo'li bilan ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanishini tezlashtirish;

2) buyumlarni va ularning tarkibiy elementlarini o'zaro almashinuvchanligi va yuqori sifatligini ta'minlash;

3) buyumlarni loyihalash va tayyorlash xarajatlarini kamaytirish;

4) tayyorlash mashaqqatini kamaytirish.

Mashina va apparatlarda unifikasiyalashgan detallar va uzellar qanchalik ko'p bo'lsa, loyihalash va tayyorlash, chizmalar soni, yangi ishlab chiqilayotgan texnologik jarayonlar, loyihalanadigan jihozlar miqdori shunchalik qisqarib boradi. Unifikasiya ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va seriyali ishlab chiqarishni oshishiga, yangi mahsulotni ishlab chiqarishda ishlab chiqarish tezligini ta'minlashga, maxsus ishlab chiqarishni tashkil etishga imkon yaratida. Unifikasiyaning vazifalari quyidagilar bo'lib hisoblanadi:

- yangi yaratilayotgan mahsulotlar guruhi bir xilligi yoki tarkibiy elementlar (agregatlar, uzellar, detallar)ini ishlab chiqarishda o'zlashtirilgan, vazifaviy qo'llanilishi oldin loyihalashtirilgan yaqinligi mahsulotlardan foydalanish;

- yangi yaratilayotgan yoki modernizasiyalangan buyumlarni qo'llash uchun unifikasiyalashgan tarkibiy elementlarni ishlab chiqish;

- konsruktiv-unifikasiyalashgan buyumlar qatorini ishlab chiqish;

- buyum va materiallar ko'llanilishiga ruxsat etilayotgan nomenklaturalarini maqsadli minimumga qisqartirish.

Birxillashtirishga turli talqinlar berishadi. Umumiy olganda birxillashtirishni elementlarning turli-tumanligini ular qo'llanadigan tizimlarning turli-tumanligiga nisbatan qisqartirilishi deb tushunish ko'proq maqsadga muvofiq bo'ladi.

Birxillashtirish asosan 3 ta darajada o'tkaziladi:

– korxonada;

– tarmoq darajasida;

– tarmoqlararo darajada;

Keyingi paytlarda xalqaro birxillashtirish ham keng rivojlanmoqda. Birxillashtirish muayyan ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Birinchi navbatda uning yo'nalishi, turi va darajasi belgilanadi. So'ngra, birxillashtiriladigan buyumlarning chizmalari va ularning tahliliy ma'lumotlari yig'iladi va bu chizmalar oldiga qo'yilgan maqsadga ko'ra tabaqalanadi. Shundan so'ng, yoki yangi konstruksiya ishlab chiqiladi yoki amalda bo'lganlarini ichidan boshqalarining o'rnini bosishi mumkin bo'lgani tanlanadi²⁵.

Birxillashtirish darajasi namuna o'lchamlari doirasidagi qo'llanish koeffitsiyenti asosida aniqlanishi mumkin.

Buyumlarning standart va birxillashtirilgan detallar va tarkibiy qismlar bilan ta'minlanganlik darajasi quyidagicha aniqlanadi:

1. qo'llanishlik koeffitsiyenti bilan, % da

$$K_{np} = \frac{n - n_0}{n} \cdot 100 \quad (5.2)$$

Bu yerda n – buyumda detallar va tarkibiy qismlarning umumiy miqdori; n_0 – tanlangan namuna o'lchamlar soni.

2. takrorlanishlik koeffitsiyenti bilan, % da


$$K_n = \frac{m - m_0}{m - 1} \cdot 100 \quad (5.3)$$

Shunga o'xshash qo'llanishlik koeffitsiyentini qiymat bo'yicha aniqlash mumkin.

²⁵ Исматуллаев П.Р., Матякубова П.М., Тураев Ш.А. Метрология, стандартлаштириш ва сертификатлаштириш. Дарслик. «Lisson-Press». Тошкент, 2015. -423 б.

Endilikda birxillashtirishni standartlashtirishning bir usuli sifatida emas, balki alohida, mustaqil bir faoliyati sifatida qaralmoqda.

Amaliyotda sanoat tarmoqlarida butlovchi buyumlarning unifikatsiyasi bo'yicha tadbirlar qabul qilinib, namunaviy elektr qurilmalari, elektrodivegatelar, aylanish podshipniklari, uzutma tasmalarini qo'llash bo'yicha chegaralangan standartlarni yaratish yo'li bilan tarmoqlararo unifikatsiyalash qo'llanilmoqda. Masalan, qurilishda yuk ko'tarish kranlari uchun GOST 13355-79 "Qurilish minora kranlari. Asosiy parametrlari" standartida harakatlanuvchi sakkizta tipo'lchamlari va uchta qadama kranlarining tipo'lchamlari qurilishdagi ehtiyojlarni to'liq ta'minlashi nazarda tutilgan (5.2-rasm).



8.2-rasm. Standart uzellardan komponovkalangan minorali kranlarning konstruktiv-unifikatsiyalangan qatori

Tarmoqlararo unifikatsiyalashtirish. Yo'l-qurilishi mashinasozligida unifikatsiyalashtirish usulini qo'llanilishi shatak asosida turli xil maqsadlarga mo'ljallangan mashinalarni yaratish imkonini berdi. Bir o'qli shatakli bir kovushli va rotorli ekskavatorlar, aylanadigan va aylanmaydigan kranlar, greyder-ekskavator, skreper, g'altakmola, orqa yoki yonlanma yuklovchi tuproq tashuvchi samosval, suv sepuvchi-yuvuvchi mashina, kompressorli stansiya, nasosli stansiya, panel tashigich, bitum tashigich, sement tashigich, kabel taxtlovchi va moy zapravka mashinalari yaratildi

Turlash usuli

Standartlashtirishning turlash (tipizasiya) usuli – funksional vazifalari bo'yicha bir-biriga yaqin bo'lgan: turli obyektlarni yaratishda asosiy (baza) sifatida qabul qilingan majmua uchun obyekt turlarini belgilashga qaratilgan usul hisoblanadi.

Turlash (tipizasiya)ni ba'zan "bazaviy konstruksiyalar" deb ham ataladi. Chunki, turlash jarayonida optimal xossalari bo'yicha olingan majmuuga xos bo'lgan obyekt tanlanadi, aniq bir obyekt – buyum yoki texnologik jarayon qabul qilinganda esa, tanlangan obyekt faqat qisman o'zgarishi mumkin. Shunday qilib,

turlash kam sonli obyektlarga ko'p sonli funksiyalarni tadbiq etish hisoblanib, bunda berilgan majmuadagi alohida tur obyektlarining saqlanishini ta'minlaydi.

Turlashning samaradorligi yangi buyum ishlab chiqarilayotganda oldin tekshirilgan, sinashda bo'lgan yechimlarni qo'llash, ishlab chiqarishni tayyorlashni tezlashtirish va tannarxini pasaytirish, alohida tur obyektlarini ishlatish sharoitlarini yengillatish va ularni modifikasiyalash asosida amalga oshiriladi.

Turlash standartlashtirishning samarali usullari qatorida uchta asosiy yo'nalishda rivojlanadi:

- umum mo'ljallangan namunaviy buyumlarni standartlashtirish;
- namunaviy texnologik jarayonlarni standartlashtirish;
- muayyan bir ishlarni, amallarni, sinovlarni yoki hisoblarni bajarish tartibini belgilovchi me'yoriy hujjatlarni yaratish.

Ko'pgina ishlab chiqarish tizimlarida, buyum konstruksiyalarini tezda almashtirish lozim bo'lgan hollarda, namunaviy texnologik jarayonlarni alohida bir tur, muayyan buyumga nisbatan emas, balki, undan bir nechta alohida tur detallarini, bo'laklarini tayyorlashda ishlatish imkonini beradigan bo'lishini mo'ljallab yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnologik jarayonlarni turlashtirishga katta e'tibor qaratiladi.

Bu analogik detallarni tayyorlashda mavjud ko'plab turli-tuman texnologik jarayonlarni bog'liqligini oqlamaydi, ya'ni mahsulotni tayyorlash tannarxini oshishiga olib keladi. Juda ham ko'p holatlarda buyumni tayyorlash yangi texnologik (qata ishlash yoki yig'ish) jarayoni mavjud tajribani hisobga olmasdan ishlab chiqiladi. Bundan tashqari turli zavodlarda bitta ana shu detalga turli xil texnologik jarayonlar yaratilgan bo'lishi mumkin. Shu tur uchun aloqador konstruktiv-unifikasiyalashgan parametrlar asosini saqlab, muhim bo'lmagan o'zgarishlar bilan ularni barcha nomenklaturalari buyumdan buyumga o'tishi 70-80 % gacha konstruksiyaning alohida elementlari uchun vaqt o'rnatilgan, texnologik jarayonlar oldin ishlab chiqilganlari bilan takrorlanadi.

Agregatlashtirish usuli

Agregatlashtirish – geometrik va funksional o'zaro almashuvchanlik asosida turli buyumlarni yaratishda ko'p marta ishlatiluvchi, alohida, standart, birxillashgan buyumlardan iborat mashinalarni, asboblarni va jihozlarni yaratish hamda ishlatish usuli hisoblanadi.

Agregat (lotincha aggrego – birikaman, birikish ma'nosini anglatib) texnikada alohida vazifani mustaqil bajaruvchi, to'liq o'zaro almashuvchanlikni o'zidan namoyon etuvchi (mashina kompleksi) unifikasiyalangan mashinalar uzellarini yaxlitlashdir. Masalan, A tavsiflari: elektrodvigatellar, reduktorlar, nasoslar va boshqalar. Ba'zan "A" atamasi ikkita qurilma yoki undan ortiq mashinalarni belgilash uchun xizmat qiladi.

Agregatlashtirish mashina va jihozlarni ishlash sohalarini kengaytiradi, ishlash muddatini uzaytiradi, ulardan foydalanishni osonlashtiradi.

Agregatlash – mashinalar, jihozlarni o'zaro almashinuvchi agregatlardan tuzish usuli.

Agregat – mashinaning (mashinalar, jihozlar majmuining) to'liq o'zaro almashinuvchanlikka ega bo'lgan, ayrim funksiyalarni mustaqil bajaradigan yirik birxillashtirilgan usuli (yoki – ikki yoki bir necha har xil mashinalarning umumiy ishi uchun birikma).

Agregatlashtirishning yana bir muhim xususiyatlaridan biri – asosiy turlarni modifikasiyalanishi hisobiga mashina va jihozlarning nomenklaturasining ko'payishidir. Bundan tashqari, agregatlashtirilgan jihozlar konstruktiv qaytaruvchanlikka ega bo'ladi. Bu esa standart agregat va bo'laklarni ishlab chiqarish obyektlarining konstruksiyalarini o'zgartirishda va joiz bo'lganda yangi turdagi mahsulotlarga o'tishdagi moslashuvlarda takror ishlatish imkoniyatlarini yaratadi.

Agregatlashtirish prinsipi birxillashtirilgan elektron bloklar, o'lchash o'zgartirgichlari va elementlaridan tashkil topgan tekshiruv o'lchash asboblarini yaratishda keng qo'llaniladi.

Ma'lumki, bir necha o'n yillar muqaddam ishlab chiqarilgan, elektron lampalarda ishlovchi, ikki-uch xonali uylarning o'lchamdek bo'lgan dastlabki EHM larni ko'rmagan bo'lsangiz kerak. Birxillashtirish va agregatlashtirishni qo'llash natijasida ularning o'lchami keskin kichraydi. Yangi elektron texnologiyalarning rivojidan keyin esa hozirgi siz foydalanadigan o'lchamlarga ega bo'ldi. Agar kompyuteringizning disk yurituvchi qurilmasi ishdan chiqqan bo'lsa, o'rniga bema'lol boshqasini o'rnatishingiz mumkin. Kompyuterning ichida hech qanday radio-montaj ishlari qilish shart emas. O'rnatish joylari ham yangisirikiga mos keladi.

Modullashtirish

Modullashtirish – unifikasiyalangan uzellar va agregatlardan foydalanib mashina, asbob, apparatura va boshqarlarni yaratish usulidir. Modul deganda qat'iy qayd qilin parametrlarni (vazifaviy, geometrik o'lchamlar va boshqa tavsiflarni) namoyon etuvchi, standartli yig'iladigan yoki konstruktiv va texnologik tugutilgan unifikasiyalashgan qism tushuniladi. Modullar turli xil turdagi va tipo'lchamlarida murakkab bo'lgan, boshqa tavsiflari bilan tizimni olish maqsadida modernizasiyalash yoki ta'mirlashda almashinadigan, oson biriktiriladigan bo'ladi.

Shunday qilib, unifikasiya, tiplashtirish, agregatlashtirish va modullashtirish asosida texnikani qurish, buyumni tayyorlash va loyihalashtirish muddatini qisqartiradi, mehnat va materialli resurslarni iqtisod qiladi, uning sifatini oshirib, ta'mirlash va modernizasiya qilishni soddalashtirib hamda tezlashtiradi.

O'zaroalmashuvchanlik asoslari

Yuqorida biz tez-tez o'zaro almashuvchanlik degan iborani tilga oldik. Xo'sh, o'zaro almashuvchanlik deganda nimani tushunamiz?

O'zaro almashuvchanlik – alohida tayyorlangan detallarning, bo'laklar va agregatlarning mashina, qurilma yoki asbob kabilarni yig'ishni qulay va to'siqsiz amalga oshirish xossalarini bildiradi. Bu atama shu detallar va bo'laklar buyumga nisbatan texnikaviy talablarni og'ishmay bajarilishini ta'minlashi hamdir.

Masalan, standartlashtirishda elektr lampochkasi misolini yana bir bor eslang. Yoki, kompyuterning disk yuritmasiga diskni joylayotganimizda “disket (disk) diskovotga sig'armikan yoki yo'qmi” deb deyarli hych kim o'ylamasa kerak (7.3-rasm *bular egiluvchan va kompakt disklardagi ma'lumotlarni o'qish va ularga saqlash ishlarni bajaradigan qismi.*). Vaholanki, aksariyat hollarda disk yuritmasi boshqa korxonada, disk esa boshqasida ishlab chiqarilgan bo'lishi mumkin. Endi ushbu moyillikni saqlash uchun nafaqat bir xildagi disklarni ishlab chiqarish, balki disk yuritmalari ham bir talablar asosida ishlab chiqarilishi shart ekan.



8.4-rasm. Disk yurituvchilarning umumiy ko'rinishi.

O'zaro almashuvchanlik quyidagicha bo'lishi mumkin:

- to'liq o'zaro almashuvchanlik;
- cheklangan o'zaro almashuvchanlik;
- tashqi o'zaro almashuvchanlik;
- ichki o'zaro almashuvchanlik.

To'liq o'zaro almashuvchanlik – qo'shimcha ishlovsiz, sozlash yoki moslashsiz va tanlovsiz buyum yoki qurilmalarni yig'ish imkonini beradigan aniqlikdagi parametrlarni olish va ta'minlashdir. O'zaro almashuvchanlikning ushbu turida buyumni yig'ish va ta'mirlash va uni avtomatlashtirish ancha osonlashadi, u bilan bog'liq sarf harajatlar esa kamayadi.

Cheklangan o'zaro almashuvchanlik – bu usul yig'ish paytida detallarni guruhlab tanlash (selektiv yig'ish), kompensatorlarning ishlatilishi, holatni sozlash, moslash kabi tadbirlar yo'l qo'yilishi bilan tavsiflanadi.

Tashqi o'zaro almashuvchanlik – bu sotib olinadigan buyumlarning va bo'laklarning foydalanish ko'rsatkichlari, o'lchamlari va shakllari bo'yicha o'zaro almashuvchanligi hisoblanadi.

Ichki o'zaroalmashuvchanlik – buyumning tarkibiga kiruvchi alohida detallarni, bo'laklarni va uzellarni o'zaroalmashuvchanligini bildiradi.

Davlatlararo iqtisodiy munosabatlarni tobora rivojlanib borayotganligi va bozor munosabatlari keng tadbiiq etilayotganligini hisobga olgan holda o'zaroalmashuvchanlikning bu turi hozirgi kunlarda juda dolzarb hisoblanadi.

O'zaro almashuvchanlik – bir buyum, jarayon yoki xizmat o'rniga xuddi o'sha talablarni bajarish maqsadida boshqa buyum, jarayon yoki xizmatdan foydalanish uchun yaroqliligi (funktional o'zaro almashuvchanlik, geometrik (o'lchovli) o'zaro almashuvchanlik)

Bir-biriga moslik – mahsulot, jarayon yoki xizmatning talablarni bajarish uchun berilgan sharoitlarda qo'shma (birgalikdagi), nomaqbul o'zaro ta'sirlarni keltirib chiqarmaydigan foydalanishga yaroqliligi.

Tizimlashtirish – predmetlar, hodisalar yoki tushunchalarning belgilangan tartibda va ketma-ketlikda joylashishi (alfavit, TST sinflari; MH belgilanishi, afzal sonlar va boshqalar).

Tasniflash – tizimlashtirishning turi – predmetlar, hodisalar yoki tushunchalarning ularning umumiy belgilariga bog'liq holda sinflar, kichik sinflar, razryadlar bo'yicha joylashishi.

Kompleks standartlashtirish

Kompleks standartlashtirish (KS) – bir maqsadga yo'naltirilgan va o'zarobog'liq talablar tizimini qo'llash va KS ning obyektiga va uning asosiy elementlariga ta'sir qiluvchi material va nomaterial faktorlarni hamda aniq masalalarni optimal hal qilishni ta'minlash maqsadida olib boriladigan standartlashtirishdir.

Kompleks standartlashtirish elementlariga quyidagilar kiradi:

– moddiy kirish (xom-ashyo, materiallar, butlovchi qismlar, yarimfabrikatlar);

– nomoddiy kirish (ishlab chiqish, loyihalash, sinovlar, ishlab chiqarishga qo'yish va h.k.);

– texnologik kuzatib borish (texnologik jarayonlar, yo'riqnomalar, reglamentlar, resepturalar, texnologik va sinov asbob-uskunalari va h.k.)larni tashkil qiladi

Kompleks standartlashtirishning asosiy vazifalari:

– xom-ashyo, material, butlovchi buyumlar kabi o'zaro bog'liq elementlar, ularni tayyorlash texnologiyasi, taxtlab joylashtirish idishi, tashish va foydalanishda talab me'yorini ma'lum darajada belgilab qo'yish;

– provard natijada yuqori sifatli mahsulot yoki xizmatlarni ro'yobga chiqaradigan, o'zaro bog'langan vositalari bo'yicha standartlarni ishlab chiqish, joriy etish kabi ishlarni belgilab qo'yish;

– umumtexnika va soha komplekslari bo'yicha nomoddiy (hujjatlashtirish tizimi) obktlarga o'zaro bog'liq me'yor va talablarni o'rnatishdan iborat.

Kompleks standartlashtirish dasturiy hujjat bo'lib, ishlab chiqariladigan yoki qayta ishlanadigan provard mahsulot texnik darajasi va sifatiga ashyo, material, butlovchi qismlar, jihozlar, metrologik ta'minot bo'yicha muvazanatlangan me'yoriy hujjatlar kiradi. Ishlarni bajarish muddatlari va tadbirlar ro'yxati bo'yicha ko'zda tutilgan barcha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqarish va joriy etish jarayonlarini to'la qamrab olinganligini anglatadi²⁶.

Kompleks standartlashtirish obyektlari va ularni tanlash mezonlari. Kompleks standartlashtirish obyektlari ba'zi mahsulot yoki standart turlari bo'yicha chuqurlashtirilgan talablar bo'yicha hamda bir turli obyekt guruhlari va murakkab obyekt tizimlari ko'rinishida bo'lishi mumkin. Masalan:


a) Rangli televideniye muommosini hal etishda nafaqat qabul qilish tizimini, balki maxsus uzatish vosita va tizimlarni (stansiya) xalqaro talablar darajasida amalga oshirish dasturlari majmuasini yaratish zarur bo'lishi mumkin.

b) Yarim o'tkazgichli asboblar guruhi: diodlar, tunelli diodlar barqarorlashtirgichlari, tranzistirlar va hakoza.

c) Ayrim mahsulot turi, qo'llanadigan ashyo material, butlovchi qisimlar bilan birgalikda;

d) Zarur bo'lganda standartlarning ba'zi talablari, sifat ko'rsatgichi bita bo'lishiga qaramay o'zaro bog'liq omillarini chuqurroq taxlil etilishi.

²⁶ Исматуллаев П.Р., Матякубова П.М., Тураев Ш.А. Метрология, стандартлаштириш ва сертификатлаштириш. Дарслик. «Lisson-Press». Тошкент, 2015. -423 б.



8.5-rasm. Kompleks standartlashtirish ob'ektlarining sxemasi

O'zuvchan standartlashtirish

O'zuvchan standartlashtirish (O'S) - an'anaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan oshuvchi talablarni belgilash bilan obyektни standartlashtirish.

Ilgarilanma standart ishlab chiqilishida quyidagilarga e'tibor beriladi:

1) talablar, sifatning farqlangan hamda joriy etish muddatiga ega bo'lgan pog'onalari ko'rinishida belgilanadi;

2) standart, mahsulot hayotiy siklining oldingi bosqichida ishlab chiqiladi.

Ilgarilanma standartlashtirishga, odatda, mahsulotning texnik darajasi va sifatiga qo'yiladigan talablarning uchta pog'onasi belgilanadi:

– erta o'zlashtirilgan mahsulotning ehtiyojlarni qondiruvchi darajasi;

– ishlab chiqarishga qo'yilishi lozim bo'lgan va jahon darajasiga mos bo'lgan, qaytadan ishlab chiqilayotgan (zamonaviylashtirilayotgan) mahsulot darajasi;

– yuqori jahon darajasiga mos bo'lgan (yoki oshuvchi) daraja.

Oldinlovchi standart ishlab chiqarishni texnik tayyorlash davrida yoki oxirida ishlab chiqiladi. Shubhasiz, oldindan standartlashtirish ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari bo'yicha erishilgan tavsiflar bilan tasdiqlangan holatda maqbul deb hisoblash kerak.

Ilgarilanma standartlashtirish – standartlashtirish obyektiga erishilgan me'yoriy talablarning yanada yuqoriroq darajasini, ya'ni bashoratlash (prognozlash) ga asosan kelajakda optimal bo'ladigan darajasini o'rnatish demakdir.

Keltirilgan tarifga binoan ilgarilanma standartlashtirish mahsulot, xizmat va barcha jarayonlarga talablarni va me'yorlarni vaqt bo'yicha avvalroq o'rnatib, provard natijada ularning sifatini yuqori texnik iqtisodiy samara beradigan darajada ta'minlash nazarda tutilishini maqsad qilib qo'yadi. Bu borada ilgarilanma standartlashtirish prognozlash asosida amaliy yechimni qabul qiladigan imkonli sohalardan biri hisoblanadi.

Ilgarilanma standartlashtirishning asosiy vazifasi ishlab chiqarishni va mahsulot sifatining oshishini xolis va aniq yo'nalishida rivojlanishiga ko'maklashishdan iboratdir.

Ilgarilanma standartlashtirish standartlari jumlasiga:

- mahsulot, xizmat, loyihalash, ishlab chiqish va boshqa jarayonlarda kuchga ega standartlashgan qoida va talablarni yanada optimal me'yorlarini belgilaydigan standartlar:

- kuchdagi standartlar faoliyatiga istiqbolliroq yangi ish usullarini joriy etishni taminlab, yanada optimalroq me'yorlar o'rnatadigan standartlar:

- bir yoki faqat bir necha korxonalaridagina o'zlashtirilib o'zining sifat ko'rsatkichlari analoglaridan tubdan farq qiladigan loyiha va buyum ishlab chiqarish qoida va talablariga optimal me'yor o'rnatadigan standartlar kiradi.

Ilgarilanma standartlashtirish mohiyatiga ko'ra qo'yidagicha tavsiflanadi.

1. Vaqt bo'yicha o'zish:
 - mahsulot tajriba namunasini yaratish bo'yicha loyiha konstruktorlik ishlarining boshi;
 - buyum ishlab chiqarish sanoatini texnik tayyorlashning boshi;
 - mahsulotni yalpi ishlab chiqarishning boshi.
2. Tarqalish doirasida o'zish:
 - korxonada;
 - davlat doirasida;
 - mintaqada;
 - global dunyo doirasida.
3. Standartlashgan mahsulotga nisbatan to'la bo'lmagan o'zish:
 - assortiment bo'yicha;
 - mahsulot belgilari bo'yicha;
 - yangi mahsulot elementlarining merosiy qabul qilishganliklari bo'yicha;
 - mahsulotning ko'rsatkich va belgilari qiymati bo'yicha.

Ilgarilanma standartlashtirishni bashoratlash (prognozlash) tadqiqot obyektining qonuniyatlari va metodlarini, umuman, standartlashtirishni xususan o'rganadigan ilmiy faoliyatdir.

Standartlashtirish sohasida bashoratlashning maqsadi qo'yidagilardan iborat:

- yaratilgan yoki yaratilajak yangilik barqarorligi ehtimolini o'rganish;
- ishlab chiqarilgan mahsulot bilan yangilik o'rtasidagi bog'lanishni o'rganish;
- standartlashtirish obyekti bo'la oladigan ilmiy-texnik daraja, ya'ni mahsulot sifatiga erishishni aniqlash;
- iste'mol va ishlab chiqarish hajmini aniqlash;
- sarf-xarajatni aniqlash;
- ekologiya ko'rsatkichlarini baholash.

Standartlashtirish sohasida bashoratlashning axborot manbalari qo'yidagilar:

- xalq xujaligi va soha taraqqiyotining uzoq muddatli bashoratlanishi;
 - sohalar bo'yicha bashoratlashlar;
 - uzoq va yaqin muddatga mahsulotning sifati va istemol darajasi bashoratlari;
 - iqtisodiyotning uzoq muddatli rejalari;
 - ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati bo'yicha statistik ma'lumotlar;
 - tajriba na'munalarini sinash bo'yicha bayonnomalar;
 - patentlar, mualliflik guvohnomalari, lisenziyalar;
 - ijtimoiy so'rovlar natijalari;
 - standartlar, texnik shartlar;
- shu kabi boshqa ilmiy-texnik axborotlar.

Oldindan tuzilgan (o'zuvchi) standart (istiqbolli talablarni o'z ichiga olgan davlat standarti) – An'anaviy texnologiyalarning imkoniyatlaridan

o'zuvchi, istiqbolga mo'ljallangan dastlabki talablarni o'rnatuvchi, shuningdek bir tur mahsulot guruhi texnik darajasi va sifatining asosiy ko'rsatkichlariga talablarni, mahsulot texnik darajasi va sifatiga bosqichlar bo'yicha tabaqalashtirilgan talablarni belgilovchi, "Umumiy texnik talablar" ko'rinishidagi davlat standarti. Ta'rifga ko'ra, oldindan standartlashtirish – sifati va darajasi mustaqil qo'llaniladigan yakuniy tayyor buyumlar (mashinalar, priborlar, avtomatlashtirish vositalari, xalq iste'moli mollari) ning texnik-iqtisodiy tavsiflariga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi xom ashyo, materiallar, detallar, uzellar, yig'ma birliklar, butlovchi buyumlar, asboblarda va namunaviy texnologik jarayonlarga, shuningdek yakuniy tayyor buyumlardan foydalanadigan turli texnik majmualar (tizimlar) ga talablarni vaqt jihatdan ancha ilgari standartlashtirishdir;

Bir turdagi mahsulot guruhi – umumiy xossalarga ega bo'lgan, umumiy maqsadlarga mo'ljallangan mahsulot to'dasi;

Mahsulot texnik darajasi va sifatining pog'onasi – asosiy standartda belgilangan, bir turdagi yoki muayyan mahsulot guruhi texnik darajasi va sifatining asosiy ko'rsatkichlari qiymatlarining to'plami;

Muayyan mahsulot – ma'lum konstruktiv-texnologik yechimlar va maqsadli (vazifasi) qo'llanilish ko'rsatkichlarining muayyan qiymatlari bilan tavsiflanuvchi mahsulot modellari (rusumlari, xillari).

An'anaviy standartlashtirish amaliyotida me'yoriy hujjatning ilmiy-texnikaviy darajasi tugallangan ilmiy-tadqiqot ishlari (ITI), tajriba-konstruktorlik ishlari (TKI) va ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash (IChTT) natijalari bilan aniqlanadi. Bunda yuqori texnik daraja va sifatli mahsulotni yaratish va ishlab chiqarishni o'zlashtirish standartlashtirish bo'yicha ishlarga bog'liq bo'lmaydi. Me'yoriy hujjat ilmiy-tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI) natijasida erishilgan sifat darajasini, ya'ni ushbu korxonada o'z mahsuloti uchun ta'minlashi lozim bo'lgan va lozim bo'la oladigan sifat darajasini (majburiy talablar qismida) yuridik jihatdan mustahkamlaydi.

Oldindan standartlashtirishda me'yoriy hujjatlar mahsulotning hayotiy siklining erta bosqichlarida ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi, bu holda standartlashtirish oldindan tuziladigan standartlarni, shuningdek sifatning pog'onali ko'rsatkichlari belgilangan me'yoriy hujjatlarni yaratishda boshqaruvchi vazifani bajaradi. Yangi yuqori ko'rsatkichli sifatga ega mahsulotni amalda ITI dan keyin yaratish mumkin bo'ladi. O'zuvchi standartlarni yaratish bo'yicha ishlarni TKI va IChTT bosqichlarida olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday bosqichlarda baholanadigan va o'rnatiladigan sifat ko'rsatkichlari mahsulotni seriyali ishlab chiqarishni tashkillashtirish paytiga kelganda maqbul bo'lishi lozim.

O'zuvchi oldindan tuzilgan standartlarni yaratish jarayonida fan va texnikaning eng samarali natijalari va tamoyillari hisobga olinadi. Fan va

texnikaning yutuqlari standartlarni yaratish va joriy etish jarayonida ham, keyinchalik standartlarda o'rnatilgan sifat ko'rsatkichlariga erishishni ta'minlovchi ishlarni bajarish lozim bo'lganda ham hisobga olinadi.

O'zuvchi standart – chiqarilayotgan mahsulotning sifat darajasini emas, balki ishlab chiqish bosqichida turgan va standartda ko'rsatilgan ma'lum vaqtdan keyin chiqariladigan mahsulotning yangi yoki takomillashtirilgan turiga sifat ko'rsatkichlarini va boshqa parametrlarini qonunlashtiradi. Shunday qilib oldindan tuziladigan (o'zuvchi) standartga yuqori sifatli ishlab chiqarish dasturi kabi qarash mumkin.

Oldindan tuzilgan standartni tasdiqlagan paytdan boshlab, tayyorlovchi mahsulotni yangi standart bo'yicha belgilangan muddatda chiqara boshlashi lozim va iste'molchilarda yangi ishlanmalarni loyihalashda yangi buyumlarni qo'llanishga yuridik huquq paydo bo'ladi.

Oldindan standartlashtirish ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida bajarilgan eng yangi ishlanmalarni ishlab chiqarishga joriy etish jarayonini tezlashtiradi. Oldindan tuziladigan standartlarni ishlab chiquvchilarga texnikaning rivojlanishini ma'lum vaqtga oldindan aniqlash, ya'ni tarmokda ilmiy-texnikaviy istiqbolni ilmiy-asoslangan holda oldindan bilish mas'uliyati yuklatiladi. Bir turdagi mahsulotga oldindan tuziladigan standartlar “Umumiy texnikaviy talablar” – O'z DSt UTT* turdagi standartlar qatoriga kiradi.

Oldindan standartlashtirish obyektlariga mahsulotlar va umuman jarayonlar, shuningdek mahsulot xom ashyo, materiallarning alohida parametrlari, uning texnik darajasini va sifatini tavsiflovchi tafsilotlari, ishlab chiqarish, tekshirish usullari va vositalari, xizmatlar va boshqa me'yorlar, talablar va har qanday ishlab chiqarish jarayonlarining tafsilotlari kiradi.

Oldindan tuziladigan standartlarda texnik daraja va sifatning uchta pog'onasi o'rnatilishi mumkin:

– birinchi pog'ona iste'molchi (buyurtmachi)ning talablariga muvofiq keladigan, ilgari o'zlashtirilgan mahsulotni ishlab chiqarishga oid talablarni o'rnatadi;

– ikkinchi pog'ona yangitdan ishlab chiqiladigan (takomillashtiriladigan) mahsulotni chiqarishga asos bo'ladigan, mahsulotning eng yukori jahon darajasida chiqarilishini ta'minlaydigan talablarni o'rnatadi;

– uchinchi pog'ona istiqbolli yangi mahsulotni ishlab chiqish uchun asos bo'ladigan, eng yuqori jahon darajasidagi istiqbolli talablarni o'rnatadi.

Texnik daraja va sifatning navbatdagi bosqichini ishlab chiqarishga kiritgan kundan boshlab, bundan avvalgi pog'ona mahsulotini ishlab chiqarish to'xtatilishi lozim.

* UTT – “Умумий техник талаблар” жумласининг давлат тилидаги қисқартмаси (umumiy texnik talablar).

Yangi O'z DSt UTT ni ishlab chiqish (amaldagi standartlarni qayta ko'rib chiqish) ni standartlashtirish bo'yicha xos texnik qo'mitalar, bir turdagi mahsulot guruhlari bo'yicha yetakchi ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, loyihalash-texnologik va boshqa tashkilotlar hamda ITI ni bevosita bajaradigan korxonalar olib boradi.

O'zbekistonning istiqbolli davlat standartlari sifatida qo'llanishga o'rnatilgan tartibda qabul qilingan xalqaro standartlar oldindan tuzilgan (o'zuvchi) standartlar bo'lishi mumkin.

Mahsulotning tavsiflarini va sinash usullarini o'rnatuvchi bunday xalqaro standartlarga quyidagilar misol bo'ladi: qishloq xo'jalik traktorlari va qishloq xo'jalik mashinalari boshqarish organlarining joylashishini va ta'sir usulini belgilovchi MS ISO 3789/2-82. Barqarorligiga, texnik tafsilotlariga va qabul qilish hujjatlariga umumiy talablarni o'rnatuvchi MS ISO 4304-87 va MS ISO 7363-86 xalqaro standartlar. Ekskavatorlar va boshqa yer qazish mashinalariga o'ndan ortiq ISO xalqaro standartlar amalda qo'llanilmoqda. Bu standartlar mashinalarning tuzilishi, muhofaza ihotalari, sinash usullari, harakat tezligini aniqlash usullari, boshqarish joyining va boshqarish organlarining qulayligi, ekskavatorlarning ishchi organlariga ta'sir kuchlarini o'lchash usullari va h.k. o'rnatadi. To'qimachilik mashinalariga 11 nomli, to'qimachilik va charm materiallari va buyumlariga 30 ga yaqin, ichimlik suv sifatiga 12 ta, pishloqlarga to'rtta va h.k. xalqaro standartlar qabul kilingan.

Nazorat savollari

1. Standartlashtirish usullari
2. umum-ilmiy standartlashirish usullari
3. Birxillashtirish usuli
4. Turlash usuli
5. Agregatlashtirish usuli
6. Modullashtirish usuli
7. O'zaroalmashinuvchanlik asoslari
8. O'zuvchan standartlashtirish

Adabiyotlar

1. Henk J. de Vries Standardization: A Business Approach to the Role of National Standardization Organizations. Springer Science+Business Media, LLC, New York All Rights Reserved © 2000 Springer, 330 p.
2. Dr. Peter Hatto Standards and Standardization. Handbook. EUROPEAN COMMISSION, Directorate-General for Research Industrial Technologies Pictures © Shutterstock, 2010, 24 p.

3. Role of standards. A guide for small and medium-sized enterprises. Working paper. United nations industrial development organization, Vienna, 2006, 56 p.
4. Abduvaliyev A.A., Latipov V.B., Umarov A.S., Alimov M.N., Boyko S.R., Xakimov O.Sh., Xvan V.I. Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifat. O'quv qo'llanma. Toshkent, SMSITI, 2008. – 267 b.
5. Ismatullayev P.R., Matyakubova P.M., Turayev Sh.A. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. Darslik. «Lisson-Press». Toshkent, 2015. - 423 b.
6. www.ima.uz
7. vtww.academy.uz
8. www.standart.uz
9. www.smsiti.uz
10. www.uza.uz

1	Standartlashtirishning birxillashtirish	muayyan ehtiyojni qondirish uchun zarur bo'lgan eng ma'qul o'lchamlar sonini yoki mahsulot, jarayon yoki xizmat turlarini tanlash.
	Standartlashtirishning turlash usuli	funksional vazifalari bo'yicha bir-biriga yaqin bo'lgan: turli obyektlarni yaratishda asosiy (baza) sifatida qabul qilingan majmua uchun obyekt turlarini belgilashga qaratilgan usul hisoblanadi
2	Standartlashtirishning agregatlashtirish usuli	geometrik va funksional o'zaro almashuvchanlik asosida turli buyumlarni yaratishda ko'p marta ishlatiluvchi, alohida, standart, birxillashgan buyumlardan iborat mashinalarni, asboblarni va jihozlarni yaratish hamda ishlatish usuli hisoblanadi
3	Standartlashtirishning modullashtirish usuli	unifikasiyalangan uzellar va agregatlardan foydalanib mashina, asbob, apparatura va boshqarlarni yaratish usulidir. Modul deganda qat'iy qayd qilin parametrlarni (vazifaviy, geometrik o'lchamlar va boshqa tavsiflarni) namoyon etuvchi, standartli yig'iladigan yoki konstruktiv va texnologik tugutilgan unifikasiyalashgan qism tushuniladi.
4	O'zaroalmashuvchanlik	alohida tayyorlangan detallarning, bo'laklar va agregatlarning mashina, qurilma yoki asbob kabilarni yig'ishni qulay va to'siqsiz amalga oshirish xossalarini bildiradi
5	Kompleks standartlashtirish	bir maqsadga yo'naltirilgan va o'zarobog'liq talablar tizimini qo'llash, obyektiga va uning asosiy elementlariga ta'sir qiluvchi material va nomaterial faktorlarni hamda aniq masalalarni optimal hal qilishni ta'minlash maqsadida olib boriladigan standartlashtirishdir.
6	O'zuvchan standartlashtirish	an'anaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan oshuvchi talablarni belgilash bilan obyektini standartlashtirish.

9- amaliy mashg'ulot. DUNYODAGI ETAKCHI DAVLATLARNING STANDARTLASHTIRISH ASOSLARIDAN AMALIYOTDA FOYDALANISH

9.1. Me'yoriy hujjatlarni tuzish, bayon qilish, mundarija va rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar.

Me'yoriy hujjatlarni tuzish, bayon qilish, mundarija va rasmiylashtirishga talablar O'z DSt 1.6:2003 "O'z SDT. Me'yoriy hujjatlar. Tuzish, bayon qilish, mundarija va rasmiylashtirishga talablar" davlat standarti tomonidan belgilangan. Standartda keltirilgan nizomlar tarmoq, ma'muriy-hududiy darajadagi me'yoriy hujjatlarning va korxonalar standartlarining tuzilishiga nisbatan majburiy emas, lekin MH ni rasmiylashtirishda birlilikka erishish uchun keltirilgan standartdagi nizomlarga amal qilish kerak²⁷.

9.2. Me'yoriy hujjatlarning (strukturasi) tuzilishiga talablar

Me'yoriy hujjatlar tuzilishiga ko'ra quyidagi tarkibiy qismlarga ega bo'lishi mumkin:

- sarvaraq;
- so'z boshi;
- mundarija;
- kirish;
- nomi;
- qo'llanish doirasi;
- me'yoriy havolalar;
- atamalar va ta'riflar;
- belgilar va qisqartmalar;
- talablar;
- ilovalar;
- bibliografik ma'lumotlar.

MH ga qo'shish uchun "Sarvaraq" (titul varaq), "So'z boshi", "", "Nomi", "Talablar" majburiydir.

Me'yoriy. hujjatning sarvarag'ida uning belgisi va nomi keltiriladi:

So'z boshida mazkur hujjat to'g'risida umumiy ma'lumotlar keltiriladi me'yoriy hujjatni ishlab chiqish va tasdiqlashga taqdim qilish; ushbu me'yoriy hujjatning qaysi me'yoriy hujjat o'rniga ishlab chiqilgani to'g'risida ma'lumot va b.

²⁷ Абдувалиев А.А., Латипов В.Б., Умаров А.С., Алимов М.Н., Бойко С.Р., Хакимов О.Ш., Хван В.И. Стандартизация, метрология, сертификация и сифат. Ўқув қўлланма. Тошкент, СМСИТИ, 2008. – 267 б.

Soʻz boshi sarvaraqdan keyingi betda uning orqa tomonida joylashtiriladi va tegishli sarlavhadan boshlanadi. Sarlavha betning yuqori qismida, oʻrtada, bosh harflar bilan yoziladi va quyuproq shrift bilan ajratiladi.

Mundarija meʼyoriy hujjat hajmi oʻn betdan oshgan hollarda yoziladi. Mundarijaga boʻlimlarning tartib raqamlari va nomi (zarur boʻlganda kichik boʻlimlar nomi), ilovalar belgisi va sarlavhasi bilan, zarur boʻlganda esa, grafik materiallar ham qaysi betda joylashganini koʻrsatib yoziladi.

Standart mundarijasi soʻz boshidan keyin, odatda yangi betdan boshlanadi. “Mundarija” soʻzi betning oʻrta qismida bosh harflar bilan yoziladi.

Standartning nomi qisqa boʻlishi, standartlashtirish obyektini aniq tavsiflashi va standartni standartlar axborot koʻrsatkichiga kiritish uchun uning toʻgʻri tasniflanishini taʼminlashi lozim. Standart nomida, odatda, qisqartmalar (mahsulotning shartli belgisidan tashqari), rim harflari, matematik belgilar, yunon harflari ruhsat etilmaydi.

Meʼyoriy hujjatning nomi, odatda, sarlavha va kichik sarlavhadan iborat boʻlishi lozim.

Masalan - Idish yuvish mashinalari. Umumiy texnik shartlar

Agar meʼyoriy hujjat asos boʻluvchi tashkiliy-metodik yoki umumtexnikaviy meʼyoriy hujjatlar tizimidan iborat boʻlgan meʼyoriy hujjatlar majmuiga kiradigan boʻlsa, bu holda meʼyoriy hujjat sarlavhasidan oldinda barcha meʼyoriy hujjatlar majmui uchun umumiy boʻlgan va ushbu tizimning nomi hisoblangan sarlavhalar guruhi keltiriladi.

Misol – Oʻzbekiston standartlashtirish davlat tizimi. Texnik reglament. Asosiy nizomlar.

Standartning “Qoʻllanish doirasi” uning qaysi doirada qoʻllanilishini va zarur boʻlganda standartlashtirish obyektini aniqlash uchun keltiriladi, standartning birinchi betida joylashtiriladi va I boʻlim koʻrinishida rasmiylashtiriladi. Standartlashtirish obyektini aniqlashda quyidagi ifoda qoʻllaniladi: “Ushbu standart... qoʻllaniladi”. Standartning mazmunini ravshanlashtirishda “Ushbu standart... belgilaydi” ifodasi qoʻllaniladi. Standartning qoʻllanish doirasini aniqlashda “Ushbu standart... qoʻllaniladi” ifodasi qoʻllaniladi.

“Meʼyoriy havolalar”, agar meʼyoriy hujjatning matnida boshqa meʼyoriy hujjatlarga meʼyoriy havolalar va/yoki bir xil yoki yuqoriroq darajadagi texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborot tasniflagichlari 2 boʻlim koʻrinishida berilgan boʻlsa, keltiriladi. havolada havola qilingan meʼyoriy hujjatlarning roʻyxati, ularning belgisi va nomi keltiriladi. Bular belgilarning roʻyxatga olingan raqamlarining oshib boruvchi tartibida joylashtiriladi. havolalar quyidagi tartibda bayon etiladi:

– davlatlararo standartlar;

- O‘zbekiston davlat standartlari;
- tarmoq standartlari;
- ma‘muriy-hududiy standartlar;
- texnik shartlar;
- korxonalar standartlari.

“Atamalar va ta’riflar” bo‘limi standartda foydalaniladigan atamalarni aniqlash va belgilash uchun ta’rifni o‘z ichiga oladi. Ta’riflar ro‘yxati “Mazkur standartda quyidagi atamalar va ta’riflar qo‘llaniladi” so‘zlari bilan boshlanadi.

Standartlashtirish obyektlariga talablar, obyektlarning o‘ziga xos xususiyatlariga qarab, standartlarning quyidagi turlarida: asos bo‘luvchi standartlarda, mahsulot (xizmatlar)ga standartlarda, tekshirish metodlari standartlarida, jarayonlarga standartlarda belgilanadi.

Standart nizomlarini to‘ldiruvchi materialni ilovada joylashtirish ruxsat etiladi.

Standartda bibliografik ma‘lumotlar keltiriladi. Bular alohida varaqda, barcha ilovalardan keyin joylashtiriladi. Standartning bibliografik ma‘lumotlarida:

- standartlar tasniflagichi bo‘yicha guruh belgisi;
- muhim so‘zlar bo‘ladi.

9.3. Bayon qilishga talablar

Standartning o‘ziga xos xususiyatlariga va mazmuniga qarab, talablar matn, jadvallar, grafiq material (rasmlar, sxemalar, diagrammalar) yoki bularning birikmasi ko‘rinishida bayon qilinadi. Standart matni turlicha izohlanishiga yo‘l qo‘ymaydigan, qisqa, aniq, standartning qo‘llashish doirasiga muvofiq uni qo‘llanish uchun zarur va yetarli, mantiqiy izchil bo‘lishi lozim. Standartga faqat obyektiv metodlar bilan tekshirish mumkin bo‘lgan tafsilotlar va talablarni kiritish lozim. Standartda amaldagi standartlarda belgilangan atamalar, ta’riflar, belgilar va qisqartmalarni qo‘llanish kerak. Kattaliklarning eng katta yoki eng kichik matlarini keltirganda “ko‘pi bilan (kamida)” iboralarini qo‘llanish lozim. Standartda ko‘rsatilgan me‘yorlar, talablardan og‘ishlarning joiz qiymatlarini keltirishda “dan ko‘p (kam) bo‘lmasligi kerak” iborasini qo‘llash kerak²⁸.

Standartda o‘rnatiladigan kattaliklarning son qiymatlari chekka og‘ishlari bilan yoki eng katta (yoki) eng kichik qiymatlar ko‘rinishida ko‘rsatilishi lozim.

²⁸ Абдувалиев А.А., Латипов В.Б., Умаров А.С., Алимов М.Н., Бойко С.Р., Хакимов О.Ш., Хван В.И. Стандартизация, метрология, сертификация и сифат. Ўқув қўлланма. Тошкент, СМСИТИ, 2008. – 267 б.

Son qiymatlarini foizlarda ko'rsatishda quyidagicha: "... 63% dan 67% gacha" yoki "(65±2%) emas, balki " (65±2)% yozish kerak. Rim harflaridan faqat buyumning navini (toifasi, sinfi va b.) kimyoviy elementlarning valentligini, yilning kvartallarini, yarim yillikni belgilashda qo'llanish kerak. Qolgan hollarda arab raqamlari qo'llaniladi.

Hisob birliklari va fizik kattaliklar birliklarining belgilari jadvallarda, formulalarga kiradigan simvollar va sonli koeffitsiyentlarni tushuntirishda va matnda, faqat sonli qiymatlarda qo'llaniladi va nuqtasiz yoziladi. Standartda quyidagilarga yo'l qo'yilmaydi:

- so'zlashuv iboralarini, texnisizm va kasbiylikni qo'llanish;
- bir tushunchaning o'ziga ma'nosi jihatdan yaqin turli ilmiy-texnikaviy atamalar (sinonimlar) ni, shuningdek o'zbek va rus tillarida teng ma'noli so'zlar va atamalar mavjud bo'lgani holda chet so'zlar va atamalarni qo'llanish;
- ixtiyoriy yasama so'zlarni qo'llanish;
- rus orfografiyasida belgilanganlardan boshqa qisqartma so'zlarni qo'llanish.

Standart matnini bo'limlarga ajratish kerak. Bo'limlar moddalar (punktlar) ga yoki kichik bo'limlar va moddalarga ajratilishi mumkin. Moddalar, zarur bo'lganda, kichik moddalarda bo'linishi mumkin. Standart matnini moddalarga va kichik moddalarga bo'lishda har bir modda, kichik modda tugal axborotni o'z ichiga olishi zarur. Bo'limlar, kichik bo'limlar, moddalar va kichik moddalarni arab raqamlari bilan belgilash va abzasdan satr boshidan yozish kerak. Bo'limlar me'yoriy hujjatdagi asosiy qismning butun matni doirasida (ilovalar bundan mustasno) tartib raqamlari bilan belgilanadi.

Sarlavhalar bo'limlar, kichik bo'limlarning mazmunini aniq va kisha aks ettirishi lozim. Bo'limlar, kichik bo'limlar va moddalarning sarlavhalarini bosh harflar bilan oxiriga nuqta qo'ymasdan, abzasdan boshlab yozish kerak. Moddalar yoki kichik moddalar ichida sanab ko'rsatishlar bo'lishi mumkin. Sanab ko'rsatilgan har bir satr oldida defis yoki, zarur bo'lganda, standartning matnida sanab o'tilganlarning biriga havola qilishda kichik satr harflarini qo'yish kerak. Kichik harfdan keyin qavs qo'yiladi. Sanab o'tilganlarni keyinchalik ravshanlashtirish uchun arab raqamlaridan foydalanish zarur, bu raqamlardan keyin qavs qo'yiladi. Jadvallar ko'rsatkichlarning yaqqol ifodalanishi va taqqoslashning bo'lishi uchun qo'llaniladi. Jadval nomini jadval ustida joylashtirish lozim. Jadvalning bir qismini shu betning o'zida yoki boshqa betga ko'chirishda jadval nomi uning faqat birinchi qismi ustida joylashtiriladi.

Grafik material – rasmlar (sxemalar, diagrammalar va h.k.) standartga obyektning xossalarini yoki tafsilotlarini yaxshi belgilash, shuningdek standart

matnini yaxshi tushunish uchun joylashtiriladi. Standart matnida grafik materialga havola berilgan bo'lishi kerak. Grafik material o'zi to'g'risida birinchi marta eslatilgan matndan keyin bevosita yoki keyingi betda, zarur bo'lganda esa ilovada joylashtirilishi lozim. Matnda joylashtiriladigan rasmlar, sxemalar, diagrammalar va h.k. KHYaT standartlarining talablariga muvofiq bo'lishi lozim. Standartda grafik materialni to'ldiruvchi jadvallar mavjud bo'lsa, jadvallarni grafik materialdan keyin joylashtirish lozim. Grafik materialning biror mavzuga bag'ishlangan nomi bo'lishi mumkin, bu nomi grafik material tagida quyidagicha joylashtiriladi:

1-rasm – Asbobning detallari.

Ilovada joylashtirilgan formulalardan mustasno, matndagi formulalar sdirga arab raqamlari bilan belgilanishi lozim. Raqamlar formula sathida o'ng tomonda ikki tomonlama qavs ichida yoziladi. Bir formula quyidagicha belgilanadi – (1). Matnda formulaning tartib raqamiga havolalar qavslar ichida beriladi.

Standartda quyidagi havolalar beriladi:

- ushbu standartga;
- boshqa standartlarga.

Ushbu standartga havolalarda bo'limlar, kichik bo'limlar, moddalar, kichik moddalar, sanab ko'rsatilganlar, grafik material, formulalar, jadvallar, ilovalar (shu jumladan, uning bo'limlari, kichik bo'limlari, moddalari, kichik moddalari va jadvallari), shuningdek ushbu standartdagi jadvallarning grafalari va satrlari va rasmdagi buyum tarkibiy qismlarining pozitsiyalari ko'rsatiladi. Havolalarda quyidagilar yoziladi “ 2 - bo'limga muvofiq ...”, “3.1 ga muvofiq...”, 3.1.1 bo'yicha ...”, “4.2.2 ga muvofiq, sanab ko'rsatilgan b...”, A.2-rasmga muvofiq ...”, (5-rasm), “(3) formula bo'yicha ...”, “1-jadvalga muvofiq...”(4-jadval) “A ilovaga muvofiq...” (G ilova) va h.k.

Agar matn, jadvallar yoki grafik materialning mazmuniga tushuntiruvchi yoki ma'lumotnoma ma'lumotlari zarur bo'lsa, standartlarda izohlar keltiriladi.

Standartda keltirilgan alohida ma'lumotlarni tushuntirish zarur bo'lsa, bu ma'lumotlarni sahifa ostiga yozuv belgisi bilan belgilab qo'yish lozim. Sahifa ostiga yoziladigan izoh ushbu belgi qo'yilgan bet oxirida joylashtiriladi va matndan ingichka gorizontaal chiziq bilan chap tomonda ajratiladi, jadvalda joylashgan ma'lumotlarga izoh esa, jadval oxirida, jadvalning tugallanganligini ifodalovchi chiziq ustida yoziladi. Sahifa ostiga yozuv belgisi tushuntirish beriladigan so'z, son, simvol, jumladan keyin satr ustida va tushuntirish matnidan oldinda qo'yiladi.

Sahifa ostiga yozuv belgisi qavsli arab raqamlari bilan yoziladi va matn shriftining yuqori chetiga teng sathda joylashtiriladi.

Standartda quyidagi qisqartmalar ruxsat etiladi: raqamlar bilan b.-bet; y. - yil; yy. - yillar; min. - minimal; maks. - maksimal; abs. - absolyut; nis. - nisbiy qisqartmalari, shuningdek umumqabul qilingan qisqartmalar, ya'ni h.k. - hokazo; va b. - va boshqalar; q. – qarang, nomin, - nominal qisqartmalari.

Standartda kattaliklarning standartlashtirilgan birliklari, nomlari va belgilarini qo'llanish kerak.

Rasmiylashtirishga talablar

Bo'lim (kichik bo'lim) sarlavhalari va oldingi yoki keyingi matn orasidagi masofa, shuningdek bo'lim va kichik bo'lim sarlavhalari orasidagi masofa kamida to'rtta shrift balandligiga teng bo'lishi lozim.

Kichik bo'limlar va moddalar sarlavxalarining qatorlari orasi matn ichidagidek qabul qilinadi.

Satr boshi hujjat matnida bir xil chetlashtirilgan va beshta belgiga teng bo'lishi lozim.

Me'yoriy hujjatning loyihasini rasmiylashtirishda matnning chap tomoni (kengligi) dagi ochiq joy kengligi kamida 20 mm bo'lishi kerak.

Standart loyihasining matnini tayyorlashda yunon va boshqa alfavit harflari, formulalar, alohida shartli belgilarni qora pasta yoki tush bilan yozish ruxsat etiladi. Bunda kiritilgan matn zichligi qolgan matn zichligiga yaqinlashtirilgan bo'lishi lozim. Agar chizmalar, sxemalar, diagrammalar, rasmlar va/yoki boshqa grafik materialni mashina usulida tayyorlash iloji bo'lmasa, bu holda qora tush yoki pastadan foydalaniladi

Me'yoriy hujjat loyihasini tayyorlashda uning nus'hasini reprografiya usulida sifatli qilib tayyorlash imkoni ta'minlanishi lozim.

Standartlar rasmiy ravishda davlat va rus tillarida nashr qilinadi.

9.5. Mazmuniga talablar

Standartlashtirish obyektlarining o'ziga xos xususiyatlariga va mazmuniga qarab, quyidagi turdagi me'yoriy xujjatlar ishlab chiqiladi:

- asos bo'luvchi (tashkiliy-metodik va umumtexnikaviy);
- mahsulot(xizmatlar)ga.

Asos bo'luvchi tashkiliy-metodik standartlar:

– turli vazifalarga mo'ljallangan standartlashtirish obyektlarining maqsadlari, vazifalari, tasniflanish tuzilmasini, faoliyatning ma'lum doirasida ishlarni o'tkazish bo'iicha umumiy tashkiliy-texnik nizomlarni va b.;

– meʼyoriy xujjatlarni, texnik (konstruktorlik, texnologik, loyihaviy, dasturiy) xujjatlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va joriy tartibi (qoidalari)ni oʻrnatadi.

Asos boʻluvchi umumtexnik standartlar:

– fan, texnika, sanoat va qishloq xoʻjalik ishlab chiqarishida, qurilishda, transportda, madaniyatda, sogʻliqni saqlash va xalq xoʻjaligining boshqa sohalarida koʻp qayta-qayta foydalaniladigan ilmiy-texnikaviy atamalarni va ularning taʼriflarini;

– turli standartlashtirish obyektlari uchun shartli belgilar (nomi, kodlari, belgilari, simvollari va h.k.), ularning raqamli, harf-raqamli belgilarini, shu jumladan fizik kattaliklar parametrlarining belgilari (rus, lotin, yunon harflari), ularning oʻlchamliligi, yozuv oʻrnida ishlatiladigan simvollarni va h.k.;

– turli (meʼyoriy, konstruktorlik, loyihaviy, texnologik, dasturiy va b.) hujjatlarni tuzish, bayon etish, rasmiylashtirish va mazmuniga talablarni;

– ishlab chiqarish jarayonlarini texnikaviy, shu jumladan metrologik taʼminlash uchun zarur boʻlgan umumtexnik kattaliklar, talablar va meʼyorlarni oʻrnatadi.

Mahsulotga, xizmatlarga quyidagilar ishlab chiqiladi:

– bir turli mahsulot, xizmatlarning guruhlariga umumiy talablarni oʻz ichiga olgan umumiy texnikaviy talablar, sinash usullari, umumtexnik shartlar standartlari;

– muayyan mahsulot, xizmatlar (muayyan mahsulot, xizmatlar guruhi) ga talablarni oʻz ichiga olgan texnik shartlar standartlari.

Mahsulot, xizmatlar guruhiga alohida talablarni standartlashtirish maqsadga muvofiq boʻlganda tasnifini, asosiy parametrlari (yoki) oʻlchamlari, xavfsizlik talablari, atrof muhitni muhofaza qilish talablari, xillari, navlari, rusumlari, qabul qilish, tamgʻalash, joylash qoidalari, tashish qoidalari, saqlash qoidalari, foydalanish, taʼmirlash va qayta foydalanish qoidalarini oʻrnatuvchi standartlar ishlab chiqilishi mumkin.

Umumiy texnik shartlar standartlari umumiy holda quyidagi boʻlimlardan iborat boʻladi:

- tasniflash, asosiy parametrlar va (yoki) oʻlchamlar;
- umumiy texnikaviy talablar;
- xavfsizlik talablari;

- atrof muhitni muhofazalash talablari;
- qabul qilish qoidalari;
- tekshirish usullari;
- tashish va saqlash;
- foydalanish (ta'mirlash, qayta foydalanish) bo'yicha ko'rsatmalar;
- tayyorlovchining kafolatlari.

Bo'limlar (kichik bo'limlar) ning nomenklaturasi, tarkibi, mazmuni, va nomi standartlashtiriladigan mahsulotning o'ziga xos xususiyatlariga va unga qo'yiladigan talablarning xarakteriga muvofiq aniqlanadi.

Ishlab chiqarilganda va foydalanilganda fuqarolarning sog'ligi va mulkiga, shuningdek atrof muhitga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan mahsulotga standartlar tarkibida majburiy ravishda “Xavfsizlik talablari” va “Atrof muhitni muhofazalash talablari” bo'limlari bo'lishi shart.

“Tasniflash, asosiy parametrlari va (yoki) o'lchamlari” bo'limida mahsulotning turini, navini, rusumini, modelini va h.k. ni tavsiflovchi parametrlar va (yoki) o'lchamlar o'rnatiladi va, zarur bo'lganda, mahsulotning asosiy parametrlari va (yoki) o'lchamlari bo'yicha tasniflangan nomenklaturasi (navi), kimyoviy tarkibi bo'yicha, ba'zi hollarda esa, shuningdek asosiy iste'mol (foydalanish) tafsilotlari bo'yicha ham tasniflangan materiallar (xom ashyo) rusumlarining nomenklaturasi o'rnatiladi. Bo'limda materiallarning qo'llanilishi bo'yicha tavsiyanomalarni, ularga ishlov berish rejimlari va h.k. larni keltirish ruxsat etiladi.

“Umumiy texnikaviy talablar” bo'limida quyidagi kichik bo'limlar bo'ladi:

- tafsilotlar (xossalari);
- xom ashyo, materiallar, sotib olinadigan buyumlarga talablar;
- butligi;
- belgilanishi;
- joylash.

“Tafsilotlar (xossalari)” kichik bo'limda quyidagi talablar keltiriladi:

- vazifasi;
- puxtaligi (ishonchliligi);
- radioelektron himoya;
- tashqi ta'sirlarga qarshi chidamliligi va yashovchanligi;
- ergonomika;
- xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya va mehnat resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish;
- texnologiyabopligi;
- konstruktiv talablar.

“Vazifa talablari” moddasida mahsulotning xossalarini tavsiflovchi talablar oʻrnatiladi. Bunday talablar mahsulot bajarishi lozim boʻlgan asosiy vazifalarni belgilaydi. Bu moddada, shuningdek tannarx va oʻzaro almashinuvchanlik talablari ham oʻrnatiladi.

“Puxtalik (ishonchlilik) talablari” moddasida mahsulotning oʻz vazifalarini belgilangan vaqt oraligʻida topshiriqdagi samaradorlik bilan bajarishiga va bu vazifalarning berilgan texnik xizmat koʻrsatish sharoitlarida, taʼmirlash, saqlash, tashishda saqlanib qolishiga talablar, shu jumladan mahsulotning puxtalik koʻrsatkichi va yoki mahsulotning buzilmasligi, umrboqiyliigi koʻpga chidamliligi, taʼmirlashga yaroqliligi va saqlanuvchanligi koʻrsatkichlarining qiymatlari koʻrinishidagi miqdoriy talablar oʻrnatiladi.

9.6. Dunyodagi etakchi davlatlarning standartlashtirish asoslaridan amaliyotda foydalanish

Muvofiqlikni baholash boʻyicha xalqaro tashkilotlarning faoliyati tahlili

Xalqaro miqyosda sertifikatlashtirishning tashkiliy-uslubiy taʼminotini Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO)ning Sertifikatlashtirish va sifat boʻyicha Qoʻmitasi (CASCO) amalga oshirib keladi. CASCO ishlarida 50 ga yaqin mamlakat va qariyb 20 ta kuzatuv mamlakatlar ishtirok etishadi. Qoʻmita faoliyatining asosiy yoʻnalishlari quyidagilar:

– turli mamlakatlarda sifatni taʼminlash tizimi va mahsulotlarning muvofiqligini baholash usullariga oʻrnatilgan talablarini oʻrganish;

– mahsulot, jarayonlar, xizmatlarni sertifikatlashtirish va inspeksion nazorati, sinashlar boʻyicha shuningdek, sifatni taʼminlash tizimlari va sertifikatlashtirish boʻyicha idorlar, sinov laboratoriyalarini baholash va faoliyati boʻyicha qoʻllanmalar tayyorlash;

– milliy va hududiy sifatni taʼminlash tizimlarini qabul qilish va oʻzaro tan olinishiga koʻmaklashish hamda sifat tizimi, sertifikatlashtirish, tekshirish, sinashga xalqaro standartlardan foydalanishga yordamlashish.

ISO tashkiloti sertifikatlashtirish sohasidagi uslubiy muammolarni bartaraf etish boʻyicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish bilan shugʻullanadi. Sertifikatlashtirish sohasida asos boʻluvchi ISO/IEC 28 «Uchinchi tomon mahsulotni namunaviy sertifikatlashtirish tizimlari umumiy qoidasi» qoʻllanma

hisoblanib, sertifikatlashtirish milliy tizimlarini yaratish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan. Qo'llanma ISO va Xalqaro elektrotexnika komissiyasi (IEC) hamkorlik qilishiga misol bo'la oladi. Bu hamkorlik xalqaro savdoni rivojlantirish maqsadida ikki tomonlama va ko'p tomonlama kelishuvni tuzishga ko'maklashishga yo'naltirilgan. Yaratilgan sertifikatlashtirish milliy tizimlarini uyg'unlashtirish tamoyillari asosida ikkita yo'l bilan bunga erishish mumkin. Birinchisi, IEC xalqaro sertifikatlashtirish tizimiga mamlakatlarni qo'shish bo'lsa, ikkinchisi esa, ISO tavsiya etayotgan yagona sertifikatlashtirish tashkiliy-uslubiy tamoyillaridan keng foydalanish lozim.

Sertifikatlashtirishni rivojlantirish va boshqa tizimlarni bilan uyg'unlashtirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

Xududiy sertifikatlashtirish va xududiy darajada sertifikatlashtirish qoidalarini uyg'unlashtirish

Mamlakatda amaldagi sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish konsepsiyasni ishlab chiqish.

Texnik to'siqlarni bartaraf etish savdoda muvofiqlikni tasdiqlash bo'yicha ishlar natijalarini o'zaro tan olish to'g'risidagi kelishuvni osonlashtiradi, ya'ni mamlakatlar soniga bog'liq holda, boshqa tomonlar faoliyati natijalarini bir tomonlama, ikki tomonlama va ko'p tomonlama tan olinishi mumkin.

Tan olish bo'yicha kelishuv, ya'ni boshqa tomonlama taqdim qilingan muvofiqlikni baholash tizimlarida o'rnatilgan funksional elementlarining bir nechitasi yoki bittasini qo'llashdan olingan bir tomonli natijalarni qo'llash asosidagi kelishuv deb yuritiladi.

Bu muvofiqlikni tasdiqlash natijalarini tan olishning mazmuni umumiy natijalarga aloqadorlik, nafaqat sinovga (sinov bo'yicha kelishuv) yoki faqat nazoratga (nazorat bo'yicha kelishuv) sifatida tan olish mumkin. Tan olish bo'yicha kelishuv xalqaro, xududiy va milliy darajalarda bo'lishi mumkin. Bir tomonlama kelishuv bir tomon ishlarining natijalarini ko'p tomonli qabul qilishdan iborat bo'ladi. Ikki tomonlama kelishuv mazmuni, o'zaro tan olish bo'yicha kelishuv bo'lib, u har bir tomon ishlari natijalarini boshqa tomonlar qabul

qilinishini qamrab oladi. Ko'p tomonlama kelishuv bu ishlar natijalarini ikki tomondan ko'proq o'zaro tan olish to'g'risidagi kelishishdir. Bunga standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va akkreditlashtirish bo'yicha Yevroosiyo doirasida davlatlararo kengashi 1992 yilda mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarining hukumatlari Kelishuv qabul qilishdi.

Ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarining parametrlarini sifat va xavfsizlik nuqtai nazardan nazorat qilish orqali tayyor mahsulotning sifati va xavfsizligi ta'minlanadi. Buni asoslash va iste'mochilarga taqdim etishda ushbu mahsulotlar uchun texnik reglamentlar va tegishli talablarni o'rnatish muhim o'rin tutadi.

Yuqorida keltirilganlardan kelib chiqib, ushbu bitiruv malakaviy ishida qandolat mahsulotlarining sinflanishi, tavsiflari va ishlab chiqish texnologik jarayonlarining tahlili asosida sifat va xavfsizligini ta'minlash masalari ko'rib chiqiladi.

Hozigi kunda sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha quyidagi tashkilotlar shug'ullanishmoqda: Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) va uning qismi bo'lmish muvofiqlikni baholash bo'yicha Qo'mita ISO/KASKO, Xalqaro elektrotexnika komissiyasi (MEK) va bu bilan aloqada ishlovchi Elektr qurilmalari muvofiqligini sertifikatlashtirish bo'yicha Xalqaro komissiya (SEYe); Savdo va tarif bo'yicha Bosh kelishuvi (GATT); Xalqaro savdo tashkiloti (VTO); BMT ning Yevropa iqtisodiy komissiyasi (YeEK. OON); Xalqaro savdo markazi (MTS); Rivojlanish va savdo bo'yicha BMT Konferensiyasi (YuNKTAD); Sinov laboratoriyalarini akkreditlash bo'yicha Xalqaro konferensiya (ILAK) va boshqalar.

Nazorat savollari

1. Me'yoriy hujjat strukturasi va uning elementlari
2. Me'yoriy hujjatni bayon
3. Me'yoriy hujjatlarni rasmiylashtirish

4. Me'yoriy hujjatlarni mazmuni

1	Me'yoriy hujjatlarni tuzish, bayon qilish, mundarija va rasmiylashtirishga talablar	O'z DSt 1.6:2003
2	Me'yoriy hujjatlar tuzilishiga ko'ra quyidagi tarkibiy qismlarga ega	Sarvaraqlar, so'z boshi, mundarija, kirish, nomi, qo'llanish doirasi, me'yoriy havolalar, atamalar va ta'riflar, belgilar va qisqartmalar, talablar, ilovalar, bibliografik ma'lumotlar
3	Me'yoriy xujjatlarga majburiy talablar	titul varaq, so'z boshi, mundarija talablar
4	Mundarija me'yoriy xujjatlarda	10 betdan oshganda qo'yiladi
5	me'yoriy xujjatlarda "Umumiy texnikaviy talablar" bulimida	tafsilotlar (xossalari), xom ashyo, materiallar, sotib olinadigan buyumlarga talablar, butligi, belgilanishi, joylash.

Adabiyotlar

1. Henk J. de Vries Standardization: A Business Approach to the Role of National Standardization Organizations. Springer Science+Business Media, LLC, New York All Rights Reserved © 2000 Springer, 330 p.
2. Dr. Peter Hatto Standards and Standardization. Handbook. EUROPEAN COMMISSION, Directorate-General for Research Industrial Technologies Pictures © Shutterstock, 2010, 24 p.
3. Role of standards. A guide for small and medium-sized enterprises. Working paper. United nations industrial development organization, Vienna, 2006, 56 p.
4. Abduvaliyev A.A., Latipov V.B., Umarov A.S., Alimov M.N., Boyko S.R., Xakimov O.Sh., Xvan V.I. Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifat. O'quv qo'llanma. Toshkent, SMSITI, 2008. – 267 b.
5. Ismatullayev P.R., Matyakubova P.M., Turayev Sh.A. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. Darslik. «Lisson-Press». Toshkent, 2015. - 423 b.

6. www.ima.uz
7. vtww.academy.uz
8. www.standart.uz
9. www.smsiti.uz
www.uza.uz

1	Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyalar to'g'risida nizomi	O'zR VM 2010 yil 10 maydagi 86-son
2	Texnik reglamentni ishlab chiqish vazifasi	Ekspert kengash
3	hujjatning davlat tilida va rus tilida ekanligini, texnik reglamentda belgilangan ilmiy-texnik atamalar qo'llanilishi to'g'riligini, davlat va tarmoq terminologik standartlariga rioya qilinishini tekshirish bosqichi hisoblanadi	Xuquqiy ekspertiza
4	texnik reglamentlar mazmunining sanitariya-gigiyena hamda epidemiologik normalar va talablarga muvofiqligini tekshiradi;	Metrologik ekspertiza
5	hujjatning davlat tilida va rus tilida ekanligini, texnik reglamentda belgilangan ilmiy-texnik atamalar qo'llanilishi to'g'riligini, davlat va tarmoq terminologik standartlariga rioya qilinishini tekshirish bosqichi hisoblanadi	terminologik ekspertiza
6	texnik reglamentlar mazmunining sanitariya-gigiyena hamda epidemiologik normalar va talablarga muvofiqligini tekshiradi;	sanitariya-gigiyena va epidemiologik ekspertiza
7	texnik reglament joriy etilishining texnik-iqtisodiy samaradorligi hisob-kitobi, shuningdek tushuntirish xatida ko'rsatilgan tasdiqlovchi hujjatlarning to'g'riligini tekshiradi	iqtisodiy ekspertiza

V. KEYSLAR BANKI

CASYe № 1

Keys uchun ma'lumotlar: RAXBARIY XUJJATLAR VA KORXONA STANDARTLARINI ISHLAB CHIQISH VA YURITISH

Rahbariy hujjatlar va tavsiyanomalarni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash tartibi davlat standarti O'z DSt 1.8:1994 "O'z SDT. Rahbariy hujjatlar va tavsiyanomalarni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi" da belgilangan.

Rahbariy hujjatlar va tavsiyanomalar quyidagi hollarda ishlab chiqiladi:

– tashkiliy-metodik yoki umumtexnikaviy tarzdagi standartlashtirish obyektlariga talablar ushbu obyektlarga xos standartlarni ishlab chiqishdan avval amalda tekshirilishi lozim bo'lgan hollarda;

– metodlarning (mahsulot sifatini tekshirish va sinash metodlari bundan mustasno) xos tashkiliy-metodik standartlari va umumtexnikaviy standartlarining talablarini to'ldirish lozim bo'lganda;

– tashkiliy-metodik tarzdagi talablar O'z DSt 1.0:1998 (standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish idoralari va xizmatlarining vakolatini belgilovchi rahbariy hujjatlar, standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarni rejalashtirish tartibi to'g'risida, davlat nazorati to'g'risida rahbariy hujjatlar va h.k.) bo'yicha standartlashtirish obyektlari bo'lmagan hollarda;

Rahbariy hujjatlar va tavsiyanomalar amaldagi standartlarning talablarini takrorlamasligi yoki ularga zid kelmasligi lozim.

Rahbariy hujjatlar mazmuniga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

– yo'riqnomalar (qoidalar);

– metodik ko'rsatmalar;

– nizomlar (namunaviy nizomlar).

Rahbariy hujjatlar belgilangan amal doirasida va qo'llanish sohasida majburiy bo'ladi.

Rahbariy hujjatlar va tavsiyanomalar amal qilinish doirasiga qarab tarmoqlararo (davlat) va tarmoq xillarga ajraladi.

Rahbariy hujjatlar va tavsiyanomalar davlat va xo'jalik boshqaruv idoralari, shuningdek TQ, STT va tadbirkorlik subyektlari tomonidan, davlat standartlariga o'xshash ishlab chiqiladi.

Tarmoq darajasidagi rahbariy hujjatlar va tavsiyanomalarni tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi rahbariy hujjatlar va tavsiyanomalarni tasdiqlovchi, tarmoq boshqaruv idoralari tomonidan o'rnatiladi.

Rahbariy hujjatlar va tavsiyanomalar amal muddatini cheklamasdan yoki cheklangan muddatga tasdiqlanadi.

Odatda, talablari amalda tekshirilishi lozim bo'lgan rahbariy hujjatlar va tavsiyanomalar cheklangan muddatga tasdiqlanadi.

Tarmoqlararo (davlat darajasida) qo'llanishga mo'ljallangan rahbariy hujjat yoki tavsiyanomalarning belgisi quyidagilardan iborat bo'ladi:

– hujjat indeksi – davlat darajasidagilar uchun O'z RH (O'z T) yoki tarmoq darajasidagilar uchun RH (T);

– O'zstandert Agentligi tomonidan beriladigan, hujjatni tasdiqlagan idoraning ikki darajali shartli belgisi;

– defis bilan ajratilgan, ro'yxatga olish uch darajali tartib raqami;

– ikki nuqta bilan ajratilgan tasdiqlash yiliniig to'rtta raqami.

Keycning vazifasi: bu keys stadi usulida ko'zlangan maqsad raxbariy xujjatlarni, hamda korxonada standartlarini ishlab chiqish va joriy etishdir

1. Raxbariy hujjatlarni ishlab chiqish qaysi me'yoriy xujjatlarga asoslanadi?

2. Raxbariy xujjatlarni ishlab chiqish tartibi.

3. Raxbariy xujjatlarni ishlab chiqish nechta bosqichdan iborat?

4. Korxonada standartlarni ishlab chiqish tartibi.

5. Korxonada standartlarni belgilash tartibi qanday?


6. Raxbariy hujjatlarni joriy etish tartibi qanday?

CASYe №2

Keñc 2

O'zbekiston Respublikasining standartini ishlab chiqish, kelishib olish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi" standartiga binoan O'zbekiston Respublikasi standarti standartlashtirish bo'yicha texnikaviy qo'mitalar, standartlashtirish bo'yicha tayanch tashkilotlari, vazirliklar, idoralar, uyushmalar, konsernlar, davlat, shirkat, pudratchi, aksioner, qo'shma korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan ishlab chiqiladi.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:



Standartga texnikaviy topshiriqni ishlab chiqish va tasdiqlash

VI. GLOSSARY

Termin Atama	Определение на английском языке Ingliz tilidagi ta'rifi	Определение на русском языке Rus tilidagi ta'rifi	Определение на узбекском языке O'zbek tilidagi ta'rifi
1.Standartlashtirish	1 Standardization	Стандартизация	Standartlashtirish
<p>Standardization</p> <p>Стандартизация</p> <p>Standartlashtirish</p>	<p>activity of establishing, with regard to actual or potential problems, provisions for common and repeated use, aimed at the achievement of the optimum degree of order in a given context</p> <p>NOTE 1 In particular, the activity consists of the processes of formulating, issuing and implementing standards.</p> <p>NOTE 2 Important benefits of standardization are improvement of the suitability of products, processes and services for their intended purposes, prevention of barriers to trade and facilitation of technological cooperation.</p>	<p>деятельность, направленная на достижение оптимальной степени упорядочения в определенной области посредством установления положений для всеобщего и многократного использования в отношении реально существующих или потенциальных задач</p> <p>ПРИМЕЧАНИЕ 1 В частности, эта деятельность проявляется в процессах разработки, опубликования и применения стандартов.</p> <p>ПРИМЕЧАНИЕ 2 Важнейшими результатами деятельности по стандартизации являются повышение степени соответствия продукции, процессов и услуг их функциональному назначению,</p>	<p>Amalda mavjud yoki salohiyatli masalalar munosabatida umumiy va ko'p marotaba foydalanish qoidalarni o'rnatish yordamida aniqlangan sohada tartiblashtirishning optimal darajasiga erishishga</p> <p>yo'naltirilgan faoliyat</p> <p>IZOH 1 Qisman bu faoliyat standartlarni ishlab chiqish, nashr qilish va qo'llash jarayonlarida paydo bo'ladi.</p> <p>IZOH 2 Standartlashtirish bo'yicha faoliyatning muhim natijalari mahsulot, jarayon va xizmatlarning vazifaviy qo'llanmasining muvofiqlik darajasini oshirish, savdodagi to'siqlar va ilmiy-texnikaviy hamkorlikni amalga oshirish hisoblanadi</p>

		устранение барьеров в торговле и содействие научно - техническому сотрудничеству.	
object of standardization объект стандартизации standartlashtirish obyekti	topic to be standardized NOTE 1 The expression “product, process or service” has been adopted throughout this Guide to encompass the subject of standardization in a broad sense, and should be understood equally to cover, for example, any material, component, equipment, system, interface, protocol, procedure, function, method or activity. NOTE 2 Standardization may be limited to particular aspects of any subject. For example, in the case of shoes, criteria could be standardized separately for sizes and durability.	объект, который должен быть стандартизован ПРИМЕЧАНИЕ 1 В данном Руководстве для отражения понятия объект стандартизации в широком смысле принято выражение « продукция, процесс или услуга », которое следует понимать как относящееся в равной степени к любому материалу, компоненту, оборудованию, системе, их совместимости, протоколу, процедуре, функции, методу или деятельности. ПРИМЕЧАНИЕ 2 Стандартизация может ограничиваться определенными аспектами любого объекта. Например, применительно к обуви размеры и критерии прочности могут быть стандартизованы отдельно.	Standartlashtirilishi lozim bo’lgan obyekt. IZOH 1 Ushbu qo’llanma “mahsulot, jarayon yoki xizmat” tushunchalari standartlashtirish obyekti tushunchasi ifodalash uchun har qanday material, komponent, qurilma, tizim ularning moslashuvchanligi, bayonnomasi, prosedura, funktsiya, metod yoki faoliyatga taalluqli deb tushunish kerak. IZOH 2 Standartlashtirish ixtiyoriy obyektning aniqlangan jihatlarini chegaralashi mumkin. Masalan, poyafzallarga o’lchamlar va mustahkamlik mezonlari alohida standartlashtirilishi mumkin.
field of standardization	domain of standardization	совокупность взаимосвязанных	O’zaro aloqador standartlashtirish

<p>область стандартизации</p> <p>standartlashtirish sohasi</p>	<p>(deprecated) group of related subjects of standardization</p> <p>NOTE Engineering, transport, agriculture, and quantities and units, for example, could be regarded as fields of standardization.</p>	<p>объектов стандартизации</p> <p>ПРИМЕЧАНИЕ</p> <p>Областью стандартизации, например, можно считать машиностроение, транспорт, сельское хозяйство, величины и единицы.</p>	<p>obyektlarining majmuasi</p> <p>IZON.</p> <p>Standartlashtirish sohasi, masalan, mashinasozlik, transport, qishloq xo'jaligi, kattaliklar va birliklarini hisobga olish mumkin.</p>
<p>state of the art</p> <p>уровен развития техники</p> <p>texnikani rivojlantirish darajisi</p>	<p>developed stage of technical capability at a given time as regards products, processes and services, based on the relevant consolidated findings of science, technology and experience</p>	<p>достигнутый к данному моменту времени уровень технических возможностей применительно к продукции, процессам и услугам, являющийся результатом обобщенных достижений науки, техники и практического опыта</p>	<p>Fan, texnika va amaliy tajribalarning umumlashgan natijalari bo'lgan mahsulot, jarayon va xizmatlarga texnikaviy darasini qo'llanish imkoniyati vaqtiga erishilishidir</p>
<p>acknowledged rule of technology</p> <p>признанное техническое правило</p> <p>tan olingan texnikaviy qoida</p>	<p>technical provision acknowledged by a majority of representative experts as reflecting the state of the art</p> <p>NOTE A normative document on a technical subject, if prepared with the cooperation of concerned interests by consultation and consensus procedures, is presumed to constitute an acknowledged rule of technology at the time of its approval.</p>	<p>техническое положение, признаваемое большинством компетентных специалистов в качестве отражающего уровень развития техники</p> <p>ПРИМЕЧАНИЕ</p> <p>Нормативный документ, относящийся к какой-либо технической области, считается признанным техническим правилом в момент</p>	<p>Texnikaning rivojlanish darajasini aks ettirish sifatida ko'pchilik layoqatli mutaxassislar tan olgan texnikaviy qoidalar.</p> <p>IZON konsensus asosida va maslahat yo'li bilan qiziquvchi tomonlarning hamkorligida ishlab chiqilgan, ushbu hujjatni tasdiqlash vaqtida tan olingan texnikaviy qoidalar hisoblanadi yoki qandaydir texnikaviy sohaga taalluqli</p>

		утверждения этого документа, если он разработан в сотрудничестве с заинтересованными сторонами путем консультаций и на основе консенсуса.	me'yoriy hujjatdir.
level of standardization уровень стандартизации standartlashtirish darajasi	geographical, political or economic extent of involvement in standardization	форма участия в деятельности по стандартизации с учетом географического, политического или экономического признака	Geografik, siyosiy yoki iqtisodiy alomatlarini hisobga olib standartlashtirish bo'yicha faoliyatlarda ishtirok etish shakli
international standardization международная стандартизации xalqaro standartlashtirish	standardization in which involvement is open to relevant bodies from all countries	стандартизация, участие в которой открыто для соответствующих органов всех стран	Barcha mamlakatlarning mos idoralari ochiq ishtirok etishi uchun standartlashtirish
regional standardization региональная стандартизация hududiy standartlashtirish	standardization in which involvement is open to relevant bodies from countries from only one geographical, political or economic area of the world	стандартизация, участие в которой открыто для соответствующих органов стран только одного географического, политического или экономического района мира	Dunyoning faqat bitta geografik, siyosiy yoki iqtisodiy hududidagi mamlakat organiga muvofiq ishtirok etishi uchun ochiq bo'lgan standartlashtirish
national standardization национальная стандартизация milliy standartlashtirish	standardization that takes place at the level of one specific country NOTE Within a country or a territorial division of a country, standardization may also take place on a branch or sectoral basis (e.g. ministries), at local levels, a t association and company levels in industry and in	стандартизация, которая проводится на уровне одной конкретной страны ПРИМЕЧАНИЕ Внутри страны или административно - территориальной единицы стандартизация может проводиться на уровне отрасли или сектора	Bitta muayyan mamlakat miqyosidagi standartlashtirish tushuniladi. IZON Mamlakat ichida yoki ma'muriy-hududiy bilikdagi (masalan, vazirlik darajasida), mahalliy darajada, assosiasiya va firmalar darajasida va sanoatning alohida fabrikalari, zavodlari

	individual factories, workshops and offices	экономики (например, на уровне министерств), на местном уровне, на уровне ассоциации и фирмы в промышленности и на отдельных фабриках, заводах или учреждениях.	yoki muassasalari darajasida, standartlashtirish iqtisodiyotning sektori yoki tarmoq darajasida bo'lishi mumkin
provincial standardization административно - территориальная стандартизация ma'muriy-hududiy standartlashtirish	standardization that takes place at the level of a territorial division of a country NOTE Within a country or a territorial division of a country, standardization may also take place on a branch or sectoral basis (e.g. ministries), at local levels, at association and company levels in industry and in individual factories, workshops and offices.	стандартизация, которая проводится на уровне какой - либо административно - территориальной единицы ПРИМЕЧАНИЕ Внутри страны или административно - территориальной единицы стандартизация может проводиться на уровне отрасли или сектора экономики (например, на уровне министерств), на местном уровне, на уровне ассоциации и фирмы в промышленности и на отдельных фабриках, заводах или учреждениях.	Qaydaydir ma'muriy-hududiy birlik darajasidagi standartlashtirishdir. IZON Mamlakat ichida yoki ma'muriy-hududiy bilikdagi (masalan, vazirlik darajasida), mahalliy darajada, assosiasiya va firmalar darajasida va sanoatning alohida fabrikalari, zavodlari yoki muassasalari darajasida, standartlashtirish iqtisodiyotning sektori yoki tarmoq darajasida bo'lishi mumkin
Consensus Консенсус Konsensus	general agreement, characterized by the absence of sustained opposition to substantial issues by any important part of the concerned interests and by a process that involves seeking to take	общее согласие, характеризующееся отсутствием серьезных возражений по существенным вопросам у большинства заинтересованных	Mavjud masalalarga ko'plab qiziquvchi tomonlar va tushunmovchiliklarni kamaytirish nuqtai-nazaridan bara tomonlarning fikrlarini hisobga olish jarayoni natijasida

	into account the views of all parties concerned and to reconcile any conflicting arguments NOTE Consensus need not imply unanimity.	сторон и достигаемое в результате процедуры, стремящейся учесть мнения всех сторон и сблизить несовпадающие точки зрения ПРИМЕЧАНИЕ Консенсус не обязательно предполагает полное единодушие.	erishiladigan jiddiy qarama-qarshiliklar yo'qligini tavsiflovchi umumiy kelishuv. IZON Konsensusda to'liq yagona kelishuv bo'lishi shart emas.
2 Aims of standardization 2 цели стандартизация 2 Standartlashtirish maqsadi	NOTE The general aims of standardization follow from the definition in 1.1. Standardization may have one or more specific aims, to make a product, process or service fit for its purpose. Such aims can be, but are not restricted to, variety control, usability, compatibility, interchangeability, health, safety, protection of the environment, product protection, mutual understanding, economic performance, trade. They can be overlapping.	ПРИМЕЧАНИЕ Общее цели стандартизации вытекают из определения термина 1.1. Перед стандартизацией могут стоять одна или несколько конкретных целей, обеспечивающих соответствие продукции, процесса или услуги своему назначению. Такими целями могут быть (но не ограничиваться ими) управление многообразием, применимость, совместимость, взаимозаменяемость, охрана здоровья, обеспечение безопасности, охрана окружающей среды, защита продукции, достижение взаимопонимания,	IZON Standartlashtirishning umumiy maqsadlari 1.1 atamalarning ta'riflaridan kelib chiqadi. Standartlashtirishning oldida mahsulot, jarayon yoki xizmatlarning qo'llanilishiga muvofiqligini ta'minlovchi bitta yoki bir necha muayyan maqsadlarni qo'yishi mumkin. Bunday maqsadlar turli xillikni (ammo ularni chegaralamasdan) boshqarish, qo'llaniluvchanligi, o'zaroalmashinuvchanligi, sog'liqni saqlash, xavfsizlikni ta'minlash, atrof-muhitni himoyalash, mahsulotni himoya qilish, savdoda, iqtisodiy ko'rsatkichlarni

		улучшение экономических показателей, торговля. Реализация одних целей может осуществляться одновременно с реализацией других.	yaxshilashga erishish kabi maqsadlar bo'lishi mumkin. Bitta maqsadni amalga oshirish bir vaqtning o'zida boshqalarini amalga oshirish bilan bajarilishi mumkin.
fitness for purpose соответствие назначению qo'llanilishi muvofiqligi	ability of a product, process or service to serve a defined purpose under specific conditions	способность изделия, процесса или услуги выполнять определенную функцию при заданных условиях	Berilgan sharoitlarda mahsulot, jarayon yoki xizmatlarning aniqlangan vazifalarini bajarishga qodirligi.
Compatibility Совместимость Moslashuvchanlik	suitability of products, processes or services for use together under specific conditions to fulfill relevant requirements without causing unacceptable inter- actions	пригодность продукции, процессов или услуг к совместному, но не вызывающему нежелательных взаимодействий, использованию при заданных условиях для выполнения установленных требований	og'riyotgan uchun mahsulotlar, jarayonlar yoki xizmatlar yo'qligi, ammo belgilangan talablarni bajarish uchun berilgan sharoitlar foydalanish bilan nomaqbul bo'lgan shovqinlarni sabab bo'lmaydi
Interchangeability Взаимозаменяемость O'zaroalmashinuvchanlik	ability of one product, process or service to be used in place of another to fulfill the same requirements NOTE The functional aspect of interchangeability is called "functional interchangeability", and the dimensional aspect "dimensional interchangeability".	пригодность одного изделия, процесса или услуги для использования вместо другого изделия, процесса или услуги в целях выполнения одних и тех же требований ПРИМЕЧАНИЕ Функциональный аспект взаимозаменяемости называется «функциональная взаимозаменяемость», а размерный аспект —	mahsulot, jarayon yoki xizmat yo'qligi Shu talablarini bajarish uchun yana bir mahsulot, jarayon yoki xizmat uchun foydalanish uchun Izoh: Değıştirilebilirliğın funksional jihatı "Funksional O'zaroalmashuvchanlik" deb nomlangan, va o'lchovli tomoni bo'ladi - "o'lchovli (geometrik) O'zaroalmashuvchanlik".

		«размерная (геометрическая) взаимозаменяемость».	
variety control управление многообразием unifikasiya turli unifikasiyani boshqarish	selection of the optimum number of sizes or types of products, processes or services to meet prevailing needs NOTE Variety control is usually concerned with variety reduction.	выбор оптимального числа размеров или видов продукции, процессов или услуг, необходимых для удовлетворения основных потребностей ПРИМЕЧАНИЕ 1 Управление многообразием обычно связано с сокращением многообразия. ПРИМЕЧАНИЕ 2 (только к русской версии): В национальной практике России, как правило, используется термин «унификация», понимаемый как «приведение к единообразию технических характеристик изделий, документации и средств общения (термины, обозначения и др.)»	zarur o'lchamdagi yoki mahsulot turlari, jarayonlari yoki xizmatlar optimal soni tanlash asosiy yehtiyojlarini qondirish uchun Izoh: 1 Managing xilma odatda xilma-xilligi bilan qisqarishi bilan bog'liq. Izoh 2 (faqat rus versiyasi): ". Mahsulot xususiyatlari, hujjatlar va aloqa (termin, ramzlar va boshqalar) vositasida yaxlitligi uchun olib" Rossiya milliy amaliyot, deb tushunib, qoida, muddatli "unifikasiya", deb
Safety Безопасность Xavfsizlik	freedom from unacceptable risk of harm NOTE In standardization, the safety of products, processes and services is generally considered with a view to achieving the optimum	отсутствие недопустимого риска, связанного с возможностью нанесения ущерба ПРИМЕЧАНИЕ В области стандартизации безопасность	zarar imkoniyati bilan bog'liq hech qanday nomaqbul xatarlar Izoh: mahsulotlar, jarayonlar va xizmatlar xavfsizligi standartlashtirish sohasida odatda bunday maqbul

	balance of a number of factors, including non-technical factors such as human behaviour, that will eliminate avoidable risks of harm to persons and goods to an acceptable degree.	продукции, процессов и услуг обычно рассматривается с целью достижения оптимального баланса ряда факторов, включая такие нетехнические факторы, как поведение человека, позволяющего свести устранимый риск, связанный с возможностью нанесения ущерба здоровью людей и сохранности имущества, до приемлемого уровня.	darajaga, odamlar va mol-mulknii salomatligiga zarar imkoniyati bilan bog'liq bekor xavfini kamaytirish imkonini beradi, inson xulq-atvoriga, deb non-texnik omillarga, shu jumladan bir necha omillar, maqbul muvozanatni yerishish hisoblanadi.
protection of the environment охрана окружающей среды atrof-muhitni himoyalash	preservation of the environment from unacceptable damage from the effects and operations of products, processes and services	защита окружающей среды от неблагоприятного воздействия продукции, процессов и услуг	mahsulotlar, jarayonlar va xizmatlar salbiy ta'siridan atrof-muhitni muhofaza
product protection защита продукции mahsulotni himoyalash	environmental protection (deprecated) protection of a product against climatic or other adverse conditions during its use, transport or storage	предохранение продукции от воздействия климатических или других неблагоприятных условий при ее использовании, транспортировке или хранении	foydalanish, transport yoki saqlash davomida iqlim yoki boshqa salbiy sharoitlari ta'siridan himoya mahsulotlari
normative document нормативный документ	document that provides rules, guidelines or characteristics for activities or their results NOTE 1 The term "normative document"	документ, устанавливающий правила, общие принципы или характеристики, касающиеся	hujjat faoliyati yoki ularning natijalari uchun qoidalari, ko'rsatmalarni yoki xususiyatlarini belgilash

<p>me'yoriy hujjat</p>	<p>is a generic term that covers such documents as standards, technical specifications, codes of practice and regulations.</p> <p>NOTE 2 A "document" is to be understood as an y medium with information recorded on or in it.</p> <p>NOTE 3 The terms for different kinds of normative documents are defined considering the document and its content as a single entity.</p>	<p>различных видов деятельности или их результатов</p> <p>ПРИМЕЧАНИЕ 1 Термин «нормативный документ» является родовым термином, охватывающим такие понятия, как стандарты, документы технических условий, своды правил и регламенты.</p> <p>ПРИМЕЧАНИЕ 2 Под «документом» следует понимать любой носитель с записанной в нем или на его поверхности информацией.</p> <p>ПРИМЕЧАНИЕ 3 Термины, обозначающие различные виды нормативных документов, определяются в дальнейшем исходя из того, что документ и его содержание рассматриваются как единое целое.</p>	<p>Izoh: 1 muddatli "hujjatdir" standartlari, hujjatlar, texnik, amaliyot va qoidalariga kodlari kabi narsalarni o'z ichiga olgan umumiy atamadir.</p> <p>Izoh 2 muddatli "hujjat" har qanday o'rta unda yoki axborot yuzasida qayd yetgan anglatadi.</p> <p>Izoh 3 me'yoriy hujjatlar turli ma'nolarini bildiradi atamalar, deb hujjat asosida kelajakda belgilangan va uning mazmuni bir shaxs sifatida qabul qilinadi.</p>
<p>Standard Стандарт Standart</p>	<p>document, established by consensus and approved by a recognized body, that provides, for common and repeated use, rules, guidelines or characteristics for</p>	<p>документ, разработанный на основе консенсуса и утвержденный признанным органом, в котором устанавливаются для всеобщего и</p>	<p>hujjat, konsensus asosida tashkil yetilgan va faoliyat yoki ularning natijalari uchun foydalanish, qoidalar, ko'rsatmalar yoki xususiyatlarga</p>

	<p>activities or their results, aimed at the achievement of the optimum degree of order in a given context</p> <p>NOTE Standards should be based on the consolidated results of science, technology and experience, and aimed at the promotion of optimum community benefits.</p>	<p>многократного использования правила, общие принципы или характеристики, касающиеся различных видов деятельности или их результатов, и который направлен на достижение оптимальной степени упорядочения в определенной области</p> <p>ПРИМЕЧАНИЕ Стандарты должны быть основаны на обобщенных результатах науки, техники и практического опыта и направлены на достижение оптимальной пользы для общества.</p>	<p>umumiy uchun belgilangan va qaytariladi bir tan organi tomonidan tasdiqlangan va muayyan sohada tartibni optimal darajasini yerishish uchun maqsad</p> <p>Izoh standartlari ilmfan, texnologiya va amaliy tajriba jamlama natijalari asosida va jamiyat uchun optimal foyda yerishish uchun maqsad bo'lishi kerak.</p>
<p>Publicly available standards</p> <p>Общедоступные стандарты</p> <p>Umumruxsat etilgan standartlar</p>	<p>NOTE by virtue of their status as standards, their public availability and their amendment or revision as necessary to keep pace with the state of the art, international, regional, national and provincial standards are presumed to constitute acknowledged rules of technology.</p>	<p>ПРИМЕЧАНИЕ В соответствии со своим статусом, доступностью широкому кругу потребителей и периодическими изменениями или пересмотрами, необходимыми для того, чтобы соответствовать уровню развития техники, международные, региональные, национальные и административно -</p>	<p>Izoh: texnologik rivojlantirish, darajasini qondirish uchun zarur maqomidan, iste'molchilar keng mavjudligi, va davriy o'zgarishlar yoki versiyalar muvofiq, xalqaro, mintaqaviy, milliy va ma'muriy - hududiy standartlar bir tan texnik qoidalari bo'lishi kerak.</p>

		территориальные стандарты должны представлять собой признанные технические правила.	
international standard mejdunarodnyy standart xalqaro standart	standard that is adopted by an international standardizing/standards organization and made available to the public	стандарт, принятый международной организацией, занимающейся стандартизацией / по стандартизации и доступный широкому кругу потребителей	xalqaro tashkilot tomonidan qabul qilingan standartlashtirish G' standartlashtirish va iste'molchilar arzon keng bag'ishlangan
regional standard региональный стандарт mintaqaviy standart	standard that is adopted by a regional standardizing/standards organization and made available to the public	стандарт, принятый региональной организацией, занимающейся стандартизацией/по стандартизации и доступный широкому кругу потребителей	intaqaviy tashkilot tomonidan qabul qilingan standartlashtirish G' standartlashtirish va iste'molchilar arzon keng bag'ishlangan
national standard национальный стандарт milliy standart	standard that is adopted by a national standards body and made available to the public	стандарт, принятый национальным органом по стандартизации и доступный широкому кругу потребителей	iste'molchilar keng milliy standartlar tana va mavjud tomonidan qabul qilingan standart
provincial standard standart административно-территориальной единицы административно-территориальный стандарт ma'muriy-hududiy birlik standarti	standard that is adopted at the level of a territorial division of a country and made available to the public	стандарт, принятый на уровне одной административно-территориальной единицы страны и доступный широкому кругу потребителей	standart ma'muriy-hududiy birliklari va iste'molchilar arzon keng ko'lamli biri darajasida qabul qilingan

ma'muriy-hududiy standart			
Other standards Другие стандарты Boshqa standartlar	NOTE Standards may also be adopted on other bases, e.g. branch standards and company standards. Such standards may have a geographical impact covering several countries.	ПРИМЕЧАНИЕ Стандарты могут также приниматься на других уровнях, например, отраслевые стандарты и стандарты фирм. Действие таких стандартов может распространяться на несколько стран.	Izoh: standartlari ham misol, sanoat standartlari va kompaniyalar standartlari uchun, boshqa darajadagi olinishi mumkin. Bunday standartlar harakat ko'proq mamlakatlariga uzaytirilishi mumkin.
Prestandard Предварительный стандарт dastlabki standart	document that is adopted provisionally by a standardizing body and made available to the public in order that the necessary experience may be gained from its application on which to base a standard	документ, который временно принят органом, занимающимся стандартизацией, и доведен до широкого круга потребителей с целью накопления в процессе его применения необходимого опыта, на котором должен базироваться стандарт	standart asoslangan bo'lishi kerak vaqtincha standartlashtirish bilan shug'ullanuvchi shaxs qabul qilingan, va zarur tajriba, qo'llash jarayonida yig'ilib maqsadida mijozlar keng olib hujjat
technical specification документ технических условий texnikaviy shartlar hujjati	document that prescribes technical requirements to be fulfilled by a product, process or service NOTE 1 A technical specification should indicate, whenever appropriate, the procedure(s) by means of which it may be determined whether the requirements given are fulfilled. NOTE 2 A technical specification may be a standard, a part of a	документ, устанавливающий технические требования, которым должен удовлетворять продукция, процесс или услуга ПРИМЕЧАНИЕ 1 В документе технических условий должны быть указаны, в случае необходимости, процедуры, с помощью которых можно установить	texnik talablarga nazarda tutgan bir hujjat bir mahsulot, jarayon yoki xizmat bilan uchrashdi kerak texnik xususiyatlar hujjatda Izoh 1, tegishli, bu talablar uchrashdi yo'qligini tashkil yetish mumkin bo'lgan tomonidan tartib belgilangan bo'lishi kerak. Izoh 2 "hujjat texnik sharoitlar" standarti standart qismi, yoki alohida hujjat bo'lishi

	<p>standard or independent of a standard. NOTE 3 Note 3 applies to the Russian version only.</p>	<p>соблюдены ли данные требования. ПРИМЕЧАНИЕ 2 «Документ технических условий» может быть стандартом, частью стандарта или самостоятельным документом. ПРИМЕЧАНИЕ 3 (только к русской версии): Английский термин «technical specification» (французский термин «specification technique») может обозначать определенный вид стандарта, что обычно соответствует русским терминам «стандарт технических условий» или «стандарт технических требований», часть стандарта (раздел «Технические требования» стандарта) или самостоятельный документ («документ технических условий»).</p>	<p>mumkin. Izoh 3 (faqat rus versiyasi): Yenglish muddatli «texnik xususiyatlari» (fransuz muddatli "spesifikasiyasi texnikasi") standarti ma'lum bir odatda "standart texnik sharoitlar" yoki "texnik talablar standart" Rossiya muddatga mos standarti qanday ishtirok bildirmoq mumkin (bo'lim "texnik talablar" standart) yoki alohida hujjat («texnik xususiyatlar hujjat»).</p>
<p>code of practice свод правил qoidalar yig'indisi</p>	<p>document that recommends practices or procedures for the design, manufacture, installation,</p>	<p>документ, рекомендующий технические правила или процедуры проектирования,</p>	<p>uskunalar, inshootlar yoki mahsulot dizayn, ishlab chiqarish, o'rnatish, texnik xizmat ko'rsatish yoki</p>

	<p>maintenance or utilization of equipment, structures or products</p> <p>NOTE A code of practice may be a standard, a part of a standard or independent of a standard.</p>	<p>изготовления, монтажа, технического обслуживания или эксплуатации оборудования, конструкций или изделий</p> <p>ПРИМЕЧАНИЕ</p> <p>Свод правил может быть стандартом, частью стандарта или самостоятельным документом.</p>	<p>ishlashi uchun texnik qoidalarga yoki tartiblarini tavsiya hujjat</p> <p>Izoh Inter standarti standart qismi, yoki alohida hujjat bo'lishi mumkin.</p>
<p>Regulation</p> <p>Регламент</p> <p>reglament</p>	<p>document providing binding legislative rules, that is adopted by an authority</p>	<p>документ, содержащий обязательные правовые нормы и принятый органом власти</p>	<p>majburiy huquqiy qoidalarini o'z ichiga olgan hujjatni va organ tomonidan qabul qilingan</p>
<p>technical regulation</p> <p>технический регламент</p> <p>texnik reglament</p>	<p>regulation that provides technical requirements, either directly or by referring to or incorporating the content of a standard, technical specification or code of practice</p> <p>NOTE A technical regulation may be supplemented by technical guidance that outlines some means of compliance with the requirements of the regulation, i.e. deemed-to-satisfy provision.</p>	<p>регламент, содержащий технические требования либо непосредственно, либо путем ссылки на стандарт, документ технических условий или свод правил, либо путем включения в себя содержания этих документов</p> <p>ПРИМЕЧАНИЕ</p> <p>Технический регламент может быть дополнен техническими указаниями, определяющими в общих чертах некоторые способы достижения</p>	<p>Yo bu hujjatlar mazmunini, shu jumladan tomonidan bevosita yoki texnikaviy jihatlariga standart hujjat yoki qoidalar majmui uchun mos yozuvlar bilan, texnik talablarni o'z ichiga olgan qoidalarga,</p> <p>Izoh: Texnik jihatdan tartibga solish umumiy nuqtai nazaridan, ya'ni normativ, talablariga rioya yetilishini yerishish yo'llarini ba'zi aniqlash, texnik ko'rsatmalar bilan to'ldirilishi mumkin uslubiy ta'minlash (rioya yerishish qaratilgan qoidalari).</p>

		соответствия требованиям регламента, т.е. методическим положением (положением, направленным на достижение соответствия).	
4 Bodies responsible for standards and Regulations			
4 органы, ответственные за стандарты и регламенты			
4 Standartlar va reglamentlar uchun javobgar organlar			
Body Орган Idora (organ)	(responsible for standards and regulations) legal or administrative entity that has specific tasks and com- position NOTE Examples of bodies are organizations, authorities, companies and foundations.	юридическая или административная единица, имеющая конкретные задачи и структуру ПРИМЕЧАНИЕ Примерами органов являются организации, органы власти, фирмы, учреждения.	muayyan vazifalarni va tuzilishga yega yuridik yoki ma'muriy shaxs Izoh: organlarining misollar tashkilotlari, organlari, korxonalar, muassasalar bor.
Organization Организация Tashkilot	body that is based on the membership of other bodies or individuals and has an established constitution and its own administration	орган, в основе которого лежит членство других органов или отдельных лиц, имеющий разработанный устав и собственную структуру управления	boshqa organlar yoki shaxslar a'zolik asoslangan tana, o'z nizomlari va boshqarish strukturasini ishlab chiqib
standardizing body	body that has	орган, деятельность	Kimning

<p>орган, занимающийся стандартизацией стандартизирующий орган</p> <p>standartlashtirish bilan shug'ullanuvchi idora, standartlashtirish idorasi</p>	<p>recognized activities in standardization</p>	<p>которого в области стандартизации является общепризнанной</p>	<p>standartlashtirish faoliyati tanasi keng ye'tirof yetilgan</p>
<p>regional standardizing organization</p> <p>региональная организация, занимающаяся стандартизацией</p> <p>standartlashtirish bilan shug'ullanuvchi hududiy tashkilot</p>	<p>standardizing organization whose membership is open to the relevant national body from each country within one geographical, political or economic area only</p>	<p>организация, занимающаяся стандартизацией, членство в которой открыто для соответствующего национального органа каждой страны только одного географического, политического или экономического района</p>	<p>Kimning a'zolik har bir mamlakat faqat bitta, geografik, siyosiy yoki iqtisodiy maydoni tegishli milliy organiga ochiq standartlashtirish organlari</p>
<p>international standardizing organization</p> <p>международная организация, занимающаяся стандартизацией</p> <p>standartlashtirish bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilot</p>	<p>standardizing organization whose membership is open to the relevant national body from every country</p>	<p>организация, занимающаяся стандартизацией, членство в которой открыто для соответствующего национального органа каждой страны</p>	<p>Kimning a'zolik har bir mamlakatning tegishli milliy organiga ochiq standartlashtirish organlari</p>
<p>standards body</p> <p>орган по стандартизации</p>	<p>standardizing body recognized at national, regional or international level, that has as a principal function, by</p>	<p>орган, занимающийся стандартизацией, признанный на национальном,</p>	<p>uning Ustaviga muvofiq, milliy, mintaqaviy yoki xalqaro darajada, asosiy vazifasi tan</p>

<p>standartlashtirish bo'yicha idorasi</p>	<p>virtue of its statutes, the preparation, approval or adoption of standards that are made available to the public NOTE A standards body may also have other principal functions.</p>	<p>региональном или международном уровнях, основная функция которого, согласно его статуту, заключается в разработке, утверждении или принятии стандартов, которые доступны широкому кругу потребителей ПРИМЕЧАНИЕ Орган по стандартизации может иметь и другие основные функции.</p>	<p>standartlashtirish uchun mas'ul organ, iste'molchilar keng mavjud standartlarni ishlab chiqish, tasdiqlash yoki qabul yemas Izoh: standartlash tanasi boshqa asosiy funksiyalarni yega bo'lishi mumkin.</p>
<p>national standards body национальный орган по стандартизации standartlashtirish bo'yicha milliy idorasi</p>	<p>standards body recognized at the national level, that is eligible to be the national member of the corresponding international and regional standards organizations</p>	<p>орган по стандартизации, признанный на национальном уровне, который имеет право быть национальным членом соответствующей международной или региональной организации по стандартизации</p>	<p>huquqiga yega milliy darajada tan standartlash tanasi, standartlashtirish uchun tegishli xalqaro yoki mintaqaviy tashkiloti milliy a'zo bo'lish</p>
<p>regional standards organization региональная организация по стандартизации standartlashtirish bo'yicha hududiy tashkiloti</p>	<p>standards organization whose membership is open to the relevant national body from each country within one geographical, political or economic area only</p>	<p>организация по стандартизации, членство в которой открыто для соответствующего национального органа каждой страны только одного географического, политического или экономического района</p>	<p>Kimning a'zolik har bir mamlakat faqat bitta, geografik, siyosiy yoki iqtisodiy maydoni tegishli milliy organiga ochiq standartlashtirish tashkiloti,</p>
<p>international</p>	<p>standards organization</p>	<p>организация,</p>	<p>Kimning a'zolik har</p>

standards organization международная организация по стандартизации standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot	whose membership is open to the relevant national body from every country	занимающаяся стандартизацией, членство в которой открыто для соответствующего национального органа каждой страны	bir mamlakatning tegishli milliy organiga ochiq standartlashtirish organlari
Authority орган власти Hukumdor idora	body that has legal powers and rights NOTE An authority can be regional, national or local.	орган, имеющий юридические полномочия и права ПРИМЕЧАНИЕ Орган власти может быть региональным, национальным или местным.	huquqiy vakolatlari va huquqlar bilan tanasi Izoh: An hokimiyat, mintaqaviy, milliy yoki mahalliy bo'lishi mumkin.
regulatory authority регламентирующий орган власти Tartiblashtiruvchi hukumron idora	authority that is responsible for preparing or adopting regulations	орган власти, ответственный за разработку или принятие регламентов	normativ hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish uchun mas'ul organ
enforcement authority исполнительный орган по регламентам Reglamentlar bo'yicha ijroya idora	authority that is responsible for enforcing regulations NOTE The enforcement authority may or may not be the regulatory authority	орган власти, ответственный за обеспечение выполнения регламентов ПРИМЕЧАНИЕ Исполнительный орган по регламентам может иногда выполнять функции и регламентирующего органа власти.	qoidalarga rioya ta'minlash uchun mas'ul organ Izoh: qoidalarga Ijroiya Kuzov ba'zan vazifalarini va nazorat organlarining mumkin.
5 Types of standards 5 Виды стандартов	NOTE The following terms and definitions are not intended to provide a systematic classification or	ПРИМЕЧАНИЕ Следующие термины и определения не претендуют на то, чтобы представлять	Izoh: Quyidagi atamalar va ta'riflar muntazam tasnifi yoki standartlari mumkin turlari keng qamrovli

<p>5 Standart turlari</p>	<p>comprehensive list of possible types of standards. They indicate some common types only. These are not mutually exclusive; for instance, a particular product standard may also be regarded as a testing standard if it provides test methods for characteristics of the product in question.</p>	<p>собой систематическую классификацию или исчерпывающий перечень возможных видов стандартов. Указываются только некоторые их общие виды, которые не являются взаимоисключающими. Например, определенный стандарт на продукцию может также рассматриваться и как стандарт методов испытаний, если в нем описываются методы испытаний для определения характеристик данной продукции.</p>	<p>ro'yxatini bo'lishi mo'ljallangan yemas. O'zaro yeksklyuziv yemas, ularning umumiy turlar, faqat ba'zi o'z ichiga oladi. Bu mahsulot xususiyatlarini aniqlash uchun test usullari bayon Misol uchun, muayyan bir mahsulot standart ham, standart sinov usullari sifatida qaraladi mumkin.</p>
<p>basic standard</p> <p>основополагающий стандарт</p> <p>asos soluvchi standart</p>	<p>standard that has a wide-ranging coverage or contains general provisions for one particular field NOTE A basic standard may function as a standard for direct application or as a basis for other standards.</p>	<p>стандарт, имеющий широкую область распространения или содержащий общие положения для определенной области ПРИМЕЧАНИЕ Основополагающий стандарт может применяться непосредственно в качестве стандарта или служить основой для других стандартов.</p>	<p>keng tarqatish maydoni bor yoki standart, ma'lum bir sohada uchun umumiy qoidalar mavjud Izoh fundamental standartlari, standart bo'lib, yoki boshqa standartlar uchun asos sifatida bevosita qo'llash mumkin.</p>
<p>terminology standard</p> <p>стандарт</p>	<p>standard that is concerned with terms, usually accompanied by their definitions, and</p>	<p>стандарт, распространяющийся на термины, к которым, как</p>	<p>odatda ta'riflar beradi shartlariga amal Standard, va ba'zi hollarda, Izoh,</p>

<p>терминов и определений терминологический стандарт</p> <p>terminologik standart atama va ta'riflar standarti</p>	<p>sometimes by explanatory notes, illustrations, examples, etc.</p>	<p>правило, даются определения, а в некоторых случаях примечания, иллюстрации, примеры и т.д.</p>	<p>tasvirlar, va hokazo misollar</p>
<p>testing standard</p> <p>стандарт методов испытаний</p> <p>sinash usullari standarti</p>	<p>standard that is concerned with test methods, sometimes supplemented with other provisions related to testing, such as sampling, use of statistical methods, sequence of tests</p>	<p>стандарт, устанавливающий методы испытаний, иногда дополненный другими положениями, касающимися испытаний, как например, отбор проб, использование статистических методов и порядок проведения испытаний</p>	<p>test usullari belgilaydi standart, ba'zan bunday masal, statistik usullari va sinov proseduralari foydalanish sinov bilan bog'liq boshqa shartlariga bilan to'ldirilsin</p>
<p>product standard</p> <p>стандарт на продукцию</p> <p>mahsulot standarti</p>	<p>standard that specifies requirements to be fulfilled by a product or a group of products, to establish its fitness for purpose</p> <p>NOTE 1 A product standard may include in addition to the fitness for purpose requirements, directly or by reference, aspects such as terminology, sampling, testing, packaging and labelling and, sometimes, processing requirements.</p> <p>NOTE 2 A product standard can be either complete or not,</p>	<p>стандарт, устанавливающий требования, которым должна удовлетворять продукция или группа продукции, с тем чтобы обеспечить ее соответствие своему назначению</p> <p>ПРИМЕЧАНИЕ 1 Стандарт на продукцию может включать, кроме требования соответствия назначению, непосредственно или с помощью ссылки, также аспекты, как</p>	<p>maqsadida, mahsulot yoki mahsulot guruhi tomonidan uchrashdi kerak talablarni belgilaydi Standard u maqsadga muvofiq yekanligini ta'minlash uchun</p> <p>Izoh: 1 standart mahsulot to'g'ridan-to'g'ri yoki mos yozuvlar bilan, maqsad uchun yaroqliligini talablariga tashqari, o'z ichiga olishi mumkin, atamalar va ta'riflar, masal, sinov, Qutilar va yorliqlar, va ba'zan texnologik talablar kabi jihatlari</p>

	according to whether it specifies all or only a part of the necessary requirements. In this respect, one may differentiate between standards such as dimensional, material, and technical delivery standards.	термины и определения, отбор проб, испытания, упаковывание и этикетирование, а иногда технологические требования. ПРИМЕЧАНИЕ 2 Стандарт на продукцию может быть полным или неполным в зависимости от того, устанавливает ли он все или только часть необходимых требований. В этом смысле различают стандарты размеров, стандарты на материалы и стандарты поставки.	ham bor. Izoh 2 standart mahsulot zarur talablarni barcha yoki bir qismini belgilab qarab, to'liq yoki to'liq bo'lmasligi mumkin. Shu ma'noda materiallar yetkazib berish standartlari uchun hajmi standartlari va me'yorlarini ajrata.
process standard стандарт на процесс jarayonlarga standart	standard that specifies requirements to be fulfilled by a process, to establish its fitness for purpose	стандарт, устанавливающий требования, которым должен удовлетворять процесс, с тем чтобы обеспечить соответствие процесса его назначению	tartibda, jarayon kutib kerak talablarni belgilaydi Standard uning tayinlangani bu jarayonni ta'minlash uchun
service standard стандарт на услугу xizmatlarga standart	standard that specifies requirements to be fulfilled by a service, to establish its fitness for purpose NOTE Service standards may be prepared in fields such as laundering, hotel-keeping, transport, car-servicing, telecommunications, insurance, banking,	стандарт, устанавливающий требования, которым должна удовлетворять услуга, с тем чтобы обеспечить соответствие услуги ее назначению ПРИМЕЧАНИЕ Стандарты на услугу могут быть	talablarni belgilaydi Standard ta'minlash maqsadida xizmati tomonidan uchrashdi uning maqsad uchun xizmatlar Izoh: xizmatga standartlari, bunday kir xizmati, mehmondo'stlik, transport, avtomobil xizmati,

	trading.	разработаны в таких областях, как стирка белья, гостиничное хозяйство, транспорт, автосервис, телесвязь, страхование, банковское дело, торговля,	telekommunikasiyalar, sug'urta, bank, savdo kabi sohalarda ishlab mumkin
interface standard стандарт на совместимость moslashuvchanlik-ga standart	standard that specifies requirements concerned with the compatibility of products or systems at their points of interconnection	стандарт, устанавливающий требования, касающиеся совместимости продукции или систем в местах их сочленения	og'riyotgan joylarida mahsulotlar yoki tizimlari muvofiqligi bilan bog'liq talablarni belgilaydi Standard
standard on data to be provided стандарт с открытыми значениями неидентифицирующий стандарт ochiq ahamiyatli standart noidentifikasiyalovchi standart	standard that contains a list of characteristics for which values or other data are to be stated for specifying the product, process or service NOTE Some standards, typically, provide for data to be stated by suppliers, others by purchasers.	стандарт, содержащий перечень характеристик, для которых должны быть указаны значения или другие данные для конкретизации продукции, процесса или услуги ПРИМЕЧАНИЕ В некоторых стандартах обычно предусматриваются данные, которые должны быть указаны поставщиками, в других - данные, указываемые покупателями.	mahsulot, jarayon yoki xizmat Izoh ko'rsatilgan qiymatlari yoki boshqa ma'lumotlarni belgilangan bo'lishi kerak, buning uchun xususiyatlaridan ro'yxatini o'z ichiga olgan Standard: Ba'zi standartlarga, odatda boshqa yetkazib beruvchilarni sanab o'tish ma'lumotlarni beradi - xaridorlarni tushuntirishlar.
6 Harmonization of standards 6 Гармонизация стандартов	NOTE Technical regulations can be harmonized like standards. Corresponding terms	ПРИМЕЧАНИЕ Технические регламенты могут быть гармонизированы	Izoh: Texnik qoidalarga standartlari kabi mujassamlashtirgan mumkin. Tegishli

<p>6 Standartlarni uyg'unlashtirish</p>	<p>and definitions are obtained by replacing "standards" by "technical regulations" in the definitions 6.1 to 6.9, and "standardizing bodies" by "authorities" in definition 6.1.</p>	<p>подобно стандартам. Соответствующие термины и определения можно получить, заменив термин «стандарты» термином «технические регламенты» в определениях 6.1-6.9, и термин «органы, занимающиеся стандартизацией» термином «органы власти» в определении 6.1.</p>	<p>atamalar va ta'riflar 6.1 ta'rifi muddatli "organ" tomonidan 6.1-6.9 tanimlarında "Texnik jihatdan tartibga solish" va muddatli "standartlari organlari tomonidan" atamasi "standartlarini" almashtirib olishingiz mumkin.</p>
<p>harmonized standards equivalent standards</p> <p>гармонизированные стандарты эквивалентные стандарты</p> <p>uyg'unlashgan standartlar ekvivalentli standartlar</p>	<p>standards on the same subject approved by different standardizing bodies, that establish interchangeability of products, processes and services, or mutual understanding of test results or information provided according to these standards</p> <p>NOTE Within this definition, harmonized standards might have differences in presentation and even in substance, e.g. in explanatory notes, guidance on how to fulfil the requirements of the standard, preferences for alternatives and varieties.</p>	<p>стандарты, относящиеся к одному и тому же объекту и утвержденные различными органами, занимающимися стандартизацией, которые обеспечивают взаимозаменяемость продукции, процессов и услуг и взаимное понимание результатов испытаний или информации, представляемой в соответствии с этими стандартами</p> <p>ПРИМЕЧАНИЕ Гармонизированные стандарты могут иметь различия в форме представления или даже в содержании,</p>	<p>Shu mavzuga taalluqli va bu standartlarga muvofiq taqdim mahsulotlar, jarayonlar va xizmatlar va test natijalari yoki axborot o'zaro anglashuv</p> <p>Almashtirish ta'minlash standartlashtirish jalb turli organlari tomonidan tasdiqlangan standartlar</p> <p>Izoh mujassamlashtirgan standartlari tushuntirish yozuvlari masalan taqdimot yoki mazmunan farq, turli muqobil va navlari afzalliklarini standart talablarini bajarish uchun hidoyat bo'lishi mumkin.</p>

		<p>например, в пояснительных примечаниях, указаниях, как выполнять требования стандарта, предпочтении тех или иных альтернатив и разновидностей.</p>	
<p>unified standards</p> <p>унифицированные стандарты</p> <p>unifikasiyalangan standartlar</p>	<p>harmonized standards that are identical in substance but not in presentation</p>	<p>гармонизированные стандарты, которые идентичны по содержанию, но не идентичны по форме представления</p>	<p>tarkibidagi bir xil, lekin shakli taslim xil yemas mujassamlashtirgan standartlari,</p>
<p>identical standards</p> <p>идентичные стандарты</p> <p>aynan o'xshash standartlar</p>	<p>harmonized standards that are identical in both substance and presentation</p> <p>NOTE 1 Identification of the standards may be different.</p> <p>NOTE 2 If in different languages, the standards are accurate translations.</p>	<p>гармонизированные стандарты, которые идентичны по содержанию и по форме представления</p> <p>ПРИМЕЧАНИЕ 1 Обозначения стандартов могут быть различными.</p> <p>ПРИМЕЧАНИЕ 2 В различных языках такие стандарты представляют собой точные переводы</p>	<p>Taqdimot mazmuni va shaklidagi xil mujassamlashtirgan standartlari, Standarti ko'rsatish Izoh 1 xil bo'lishi mumkin. Turli tillardagi Izoh 2 kabi standartlarga to'g'ri tarjima bo'lgan</p>
<p>internationally harmonized standards</p> <p>стандарты, гармонизированные на международном уровне</p> <p>xalqaro darajada uyg'unlashgan</p>	<p>standards that are harmonized with an international standard</p>	<p>стандарты, гармонизированные с международным стандартом</p>	<p>xalqaro standart bilan kelishilgan standartlari</p>

standartlar			
regionally harmonized standards стандарты, гармонизированные на региональном уровне hududiy darajada uyg'unlashgan standartlar	standards that are harmonized with a regional standard	стандарты, гармонизированные с региональным стандартом	mintaqaviy standarti bilan kelishilgan standartlari
multilaterally harmonized standards стандарты, гармонизированные на многосторонней основе ko'ptomonlik asosida uyg'unlashgan standartlar	standards that are harmonized between more than two standardizing bodies	стандарты, гармонизированные тремя или более органами, занимающимися стандартизацией	uch yoki undan ko'p organlari tomonidan kelishilgan standartlari standartlashtirish ishtirok
bilaterally harmonized standards стандарты, гармонизированные на двусторонней основе ikki tomonlama asosida uyg'unlashgan standartlar	standards that are harmonized between two standardizing bodies	стандарты, гармонизированные двумя органами, занимающимися стандартизацией	standartlari standartlashtirish bilan shug'ullanadigan ikki organlari tomonidan kelishilgan
unilaterally aligned standard	standard that is aligned with another standard	стандарт, согласованный с	birinchi standarti muvofiq taqdim

<p>односторонне согласованный стандарт</p> <p>bir tomonlama kelishilgan standart</p>	<p>so that products, processes, services, tests and information provided according to the former standard meet the requirements of the latter standard but not vice versa</p> <p>NOTE A unilaterally aligned standard is not harmonized (or equivalent) with the standard with which it is aligned.</p>	<p>другим стандартом таким образом, чтобы продукция, процессы, услуги, испытания и информация, представляемые в соответствии с первым стандартом, отвечали требованиям последнего, а не наоборот</p> <p>ПРИМЕЧАНИЕ</p> <p>Односторонне согласованный стандарт не гармонизирован со стандартом, с которым он согласован (или не эквивалентен ему).</p>	<p>mahsulotlar, jarayonlar, xizmatlar, test va axborot, aksincha ikkinchi talablariga javob yemas, balki, shuning uchun standartlar boshqa standart bilan kelishilgan</p> <p>Izoh: bir tomonlama mos standart u mos (yoki unga teng) bo'lgan standart bilan kelishilgan yemas.</p>
<p>comparable standards</p> <p>сопоставимые стандарты</p> <p>solishtirilgan standartlar</p>	<p>standards on the same products, processes or services, approved by different standardizing bodies, in which different requirements are based on the same characteristics and assessed by the same methods, thus permitting unambiguous comparison of differences in the requirements</p> <p>NOTE Comparable standards are not harmonized (or equivalent) standards.</p>	<p>стандарты на одну и ту же продукцию, на одни и те же процессы или услуги, утвержденные различными органами, занимающимися стандартизацией, в которых различные требования основываются на одних и тех же характеристиках и которые оцениваются с помощью одних и тех же методов, позволяющих однозначно сопоставить различия</p>	<p>turli talablar Shu xususiyatlariga asoslangan va qaysi standartlashtirish ishtirok turli organlari tomonidan tasdiqlangan Shu jarayonlar yoki xizmatlar, xuddi shu mahsulotlarning standartlari noyob farqlarni yuklansin Shu usullar bilan qadrlanadi talablariga</p> <p>Izoh: solishtirish standartlari (yoki teng) standartlarga muvofiq holga yemas.</p>

		<p>требованиях ПРИМЕЧАНИЕ Сопоставимые стандарты не являются гармонизированным и (или эквивалентными) стандартами.</p>	
<p>7 Content of normative documents</p> <p>7 Содержание нормативных документов</p> <p>7 Me'yoriy hujjatlarni tarkibi</p>			
<p>provision</p> <p>положение</p> <p>nizomlar</p>	<p>expression in the content of a normative document, that takes the form of a statement, an instruction, a recommendation or a requirement</p> <p>NOTE These types of provision are distinguished by the form of wording they employ; e.g. instructions are expressed in the imperative mood, recommendations by the use of the auxiliary "should" and requirements by the use of the auxiliary "shall".</p>	<p>⟨нормативного документа⟩ логическая единица содержания нормативного документа, которая имеет форму сообщения, инструкции, рекомендации или требования</p> <p>ПРИМЕЧАНИЕ Эти виды положений различаются по форме изложения. Например, на английском и французском языках инструкции излагаются в повелительном наклонении, рекомендации на английском языке - с использованием вспомогательного глагола «should» (на</p>	<p>⟨Hujjatdir⟩ xabarlari, ko'rsatmalar, tavsiyalar yoki talablarni formasini oladi me'yoriy hujjat, mantiqiy birlik tarkibi</p> <p>Izoh: qoidalariga Ushbu turdagi taqdimot shaklida farq qiladi. Masalan, ingliz va fransuz yo'riqnomada ingliz kayfiyat povelitartibot tavsiyalar bayon - yordamchi fe'l yordamida (fransuz - «il conviyent de») «kerak», va ingliz tili talablari - yordamchi fe'l "yordamida kerak»(Fransiya bilan -«mayda pul »).</p>

		французском языке - «il convient de»), а требования на английском языке - с использованием вспомогательного глагола «shall» (на французском языке - «doit»).	
statement сообщение xabar	provision that conveys information	положение, содержащее информацию	lavozimi o'z ichiga axborot
Instruction Инструкция Yo'riqnom	provision that conveys an action to be performed	положение, описывающее действие, которое должно быть выполнено	amalni yetkazdi ta'minlash qilish kerak chora tasvirlab, o'rnini amalga oshiriladi
recommendation рекомендация tavsiyanoma	provision that conveys advice or guidance	положение, содержащее совет или указания	lavozimi o'z ichiga maslahat yoki hidoyat
Requirement требование	provision that conveys criteria to be fulfilled	положение, содержащее критерии, которые должны быть соблюдены	rizq uchrashdi kerak mezonlari
exclusive requirement обязательное требование majburiy talablar	mandatory requirement (deprecated) requirement of a normative document that must necessarily be fulfilled in order to comply with that document NOTE The term "mandatory requirement" should be used to mean only a requirement made compulsory by law or regulation	требование нормативного документа, подлежащее обязательному выполнению с целью достижения соответствия этому документу ПРИМЕЧАНИЕ Английский термин «mandatory requirement» следует употреблять только применительно к требованию, которое является обязательным в соответствии с законом или	Bu hujjatga muvofiq yerishish uchun amalga oshirilishi lozim normativ talablar, Izoh: Yenglish muddatli «majburiy talabi» faqat qonun yoki qoidalarga muvofiq shart iltimosiga, nisbatan foydalanish kerak.

		регламентом.	
optional requirement альтернативное требование muqobil talablar	<p>requirement of a normative document that must be fulfilled in order to comply with a particular option permitted by that document</p> <p>NOTE An optional requirement may be either a) one of two or more alternative requirements; or b) an additional requirement that must be fulfilled only if applicable and that may otherwise be disregarded.</p>	<p>требование нормативного документа, которое должно быть выполнено в рамках выбора, допускаемого этим документом</p> <p>ПРИМЕЧАНИЕ Альтернативное требование может быть: а) одним из двух или нескольких возможных требований, или б) дополнительным требованием, которое должно быть выполнено только в случае его применимости; в противном случае его можно не учитывать.</p>	<p>Bu hujjatda nazarda tutilgan, tanlov doirasida amalga oshirilishi kerak normativ talablar Izoh Alternative talablar bo'lishi mumkin: a) ikki yoki undan ko'p imkon talablariga biri, yoki b) faqat tatbiqotda bo'lgan holda amalga oshirilishi kerak bo'lgan qo'shimcha talab; Aks holda, ye'tiborsiz mumkin yemas.</p>
deemed-to-satisfy provision методическое положение, направленное на достижение соответствия uslubiy nizomlar muvofiqlikga erishishga yo'naltirilgan nizomlar	<p>provision that indicates one or more means of compliance with a requirement of a normative document</p>	<p>положение, указывающее один или несколько способов достижения соответствия требованию нормативного документа</p>	<p>bir yoki bir necha usullari ko'rsatib joy normativ talablarga muvofiqligini yerishish uchun</p>
descriptive provision	<p>provision for fitness for purpose that concerns the characteristics of a</p>	<p>положение о соответствии назначению,</p>	<p>mahsulot bajarish, jarayon yoki xizmat bilan bog'liq joyga</p>

<p>описательное положение</p> <p>tavsiflangan nizomlar</p>	<p>product, process or service</p> <p>NOTE A descriptive provision usually conveys design, constructional details, etc. with dimensions and material composition.</p>	<p>касающиеся характеристик продукции, процесса или услуги</p> <p>ПРИМЕЧАНИЕ</p> <p>Описательное положение обычно содержит описание конструкции, конструкционных деталей и т.д. с указанием размеров и состава материалов.</p>	<p>ko'ra ta'minlash, Izoh: Chizma holati bayoni odatda dizayni, tarkibiy qismlari, va hokazo o'z ichiga oladi registri va moddiy tarkibi bilan.</p>
<p>performance provision</p> <p>эксплуатационное положение</p> <p>ekspluatasiya nizomlari</p>	<p>provision for fitness for purpose that concerns the behaviour of a product, process or service in or related to use</p>	<p>положение о соответствии назначению, касающиеся поведения продукции, процесса или услуги при их использовании или в связи с ним</p>	<p>Agar mahsulot, jarayon yoki xizmat yoki munosabati bilan ularning foydalanish xatti bilan bog'liq joyga ko'ra ta'minlash,</p>
<p>8 Structure of normative documents</p> <p>8 Структура нормативных документов</p> <p>8.Me'yoriy hujjatlarning tuzilmasi</p>			
<p>Body</p> <p>основная часть</p> <p>asosiy qism</p>	<p><of a normative document> set of provisions that comprises the substance of a normative document</p> <p>NOTE 1 In the case of a standard, the body comprises general elements relating to its subject and definitions, and main elements conveying provisions.</p>	<p>нормативного документа, совокупность положений, составляющих содержание нормативного документа</p> <p>ПРИМЕЧАНИЕ 1</p> <p>Основная часть стандарта включает общие элементы, относящиеся к его</p>	<p>normativ hujjat, bir normativ hujjati mazmunini tashkil qilish qoidalariga bir to'siq</p> <p>Izoh: 1 standarti asosiy qismi uning mavzu va ta'riflar va asosiy qoidalarini yetkazish asosiy yelementlariga taalluqli umumiy yelementlarini o'z</p>

	NOTE 2 Parts of the body of a normative document may take the form of annexes (“normative annexes”) for reasons of convenience, but other (informative) annexes may be additional elements only.	объекту и определениям, и основные элементы, передающие основные положения. ПРИМЕЧАНИЕ 2 Для удобства главы основной части нормативного документа могут иметь форму приложений («нормативных приложений»), однако все другие (информативные) приложения могут быть только дополнительными элементами.	ichiga oladi. Normativ hujjatning asosiy qismi rahbari qulayligi uchun Izoh 2 qo'llash ("standart dasturlar») shaklida bo'lishi mumkin, lekin boshqa barcha (ma'lumot) amaliy faqat qo'shimcha yelementlari bo'lishi mumkin.
additional element дополнительный элемент qo'shimcha element	information that is included in a normative document but has no effect on its substance NOTE In the case of a standard, additional elements may include, for example, details of publication, foreword and notes.	информация, включаемая в нормативный документ, но не влияющая на его содержание ПРИМЕЧАНИЕ Дополнительные элементы стандарта включают в себя, например, сведения об издании, предисловие и примечания.	axborot normativ hujjat kiritilgan, lekin standart QAYD mazmunini ta'sir qilmaydi: Qo'shimcha yelementlar o'z ichiga oladi, masalan, nashr, so'z boshisida va yozuvlari haqida ma'lumot.
9 Preparation of normative documents 9 Разработка нормативных документов 9 Me'yoriy hujjatlarni ishlab			

chiqish			
standards programme программа по стандартизации standartlashtirish bo'yicha dastur	working schedule of a standardizing body, that lists its current items of standardization work	план работы органа, занимающегося стандартизацией, в котором перечисляются названия текущих работ по стандартизации	Standartlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar nomlarini ro'yxati standartlashtirish bilan shug'ullanadigan Kuzov ish rejasi,
standards project тема mavzu	specific work item within a standards programme	программы по стандартизации, конкретный рабочий пункт в программе по стандартизации	standartlashtirish dasturi, standartlashtirish dasturida muayyan ish chiqadi
draft standard проект стандарта standart loyihasi	proposed standard that is available generally for comment, voting or approval	предлагаемый вариант стандарта, служащий для широкого обсуждения, голосования или утверждения в качестве стандарта	standart bo'lib, bir keng muhokama qilish, ovoz berish yoki tasdiq xizmat taklif loyihasi standart,
period of validity срок действия amal qilish muddati	period of time for which a normative document is current, that lasts from the date on which it becomes effective ("effective date"), resulting from a decision of the body responsible for it, until it is withdrawn or replaced	период времени, в течение которого действует нормативный документ, начиная от даты введения его в действие в соответствии с решением ответственного за это органа до момента его отмены или замены	vaqt davri davomida uning bekor qilish yoki almashtirish qadar buning uchun mas'ul organ qaroriga muvofiq kuchga kirgan kundan boshlab normativ hujjat,
review проверка tekshirish	activity of checking a normative document to determine whether it is to be reaffirmed, changed or withdrawn	деятельность, заключающаяся в рассмотрении нормативного документа в целях выяснения, следует ли переутвердить этот документ или его необходимо пересмотреть или	faoliyati pereutverdit Ushbu hujjatning yo'qligini aniqlash yoki qayta ko'rib yoki bekor qilinishi kerak normativ hujjatni ko'rib iborat

		отменить	
correction поправка to'g'rilash	removal of printing, linguistic and other similar errors from the published text of a normative document NOTE The results of correction may be presented, as appropriate, by issuing a separate correction sheet or a new edition of the normative document.	устранение из опубликованного текста нормативного документа опечаток, лингвистических и других подобных ошибок ПРИМЕЧАНИЕ Результаты поправки могут быть представлены соответственно путем опубликования отдельного листка поправок или нового издания нормативного документа.	a normativ hujjat yozilishini chop matn bartaraf, til va boshqa shunga o'xshash xatolar Izoh: o'zgartirish natijalari qo'shimchalar alohida qog'ozga yoki boshqa normativ-hujjatning yangi nashri chop tomonidan, o'z navbatida, topshirilishi mumkin.
amendment изменение o'zgarish	modification, addition or deletion of specific parts of the content of a normative document NOTE The results of amendment are usually presented by issuing a separate amendment sheet to the normative document.	модификация, дополнение или исключение определенных фрагментов нормативного документа ПРИМЕЧАНИЕ Результаты изменения обычно представляются путем опубликования отдельного листка изменений к нормативному документу.	o'zgartirish, qo'shimcha yoki boshqa normativ-hujjatning o'ziga xos qismlarini o'chirish Izoh: o'zgarishlar natijalari, odatda, normativ hujjatga o'zgarishlar alohida varaq nashr tomonidan taqdim yetiladi.
revision пересмотр qayta ko'rib chiqish	introduction of all necessary changes to the substance and presentation of a normative document NOTE The results of revision are presented by issuing a new edition	внесение всех необходимых изменений в содержание и оформление нормативного документа ПРИМЕЧАНИЕ	normativ hujjat mazmuni va dizayn har qanday zarur o'zgarishlar Izoh: tekshirish natijalari normativ hujjatning yangi nashri chop

	of the normative document.	Результаты пересмотра представляются путем опубликования нового издания нормативного документа	tomonidan taqdim yetiladi
reprint переиздание qayta nashr qilish	new impression of a normative document without changes	новое печатное издание нормативного документа без изменений	o'zgarishlar holda normativ hujjatning yangi bosma nashr
new edition новое издание yangi nashr	new impression of a normative document that includes changes to the previous edition NOTE Even if only the content of existing correction or amendment sheets is incorporated into the text of a normative document, the new text constitutes a new edition.	новое печатное издание нормативного документа, включающее изменения к предыдущему изданию ПРИМЕЧАНИЕ Даже если в текст нормативного документа внесено только содержание имеющихся листов поправок или изменений, новый текст документа является новым изданием.	avvalgi qabul qilingan tahririda o'zgartirishlar o'z ichiga oladi normativ hujjatning yangi bosma nashr Izoh: a normativ hujjat matni faqat hukmlar o'zgartish yoki o'zgarishlar mundarijaga mavjud bo'lsa ham, hujjat yangi matn yangi nashri hisoblanadi.
10 Implementation of normative documents 10 Применение нормативных документов 10 Me'yoriy hujjatlarni qo'llash	NOTE A normative document can be said to be "implemented" in two different ways. It may be applied in production, trade, etc., and it may be taken over, wholly or in part, in another normative document. Through the medium of this second document, it may then	ПРИМЕЧАНИЕ Можно говорить о двух различных способах применения нормативного документа. Он может быть либо использован в производстве, торговле и т.д., либо принят полностью	Izoh: Agar qoidalarga qo'llash haqida ikki xil yo'llarini gaplashish mumkin. Bu yo' boshqalar ishlab chiqarish, savdo, ishlatiladigan, butunlay yoki boshqa normativ hujjatlarda qismida qabul qilinishi mumkin. Bu ikkinchi hujjat orqali,

	be applied, or it may again be taken over in yet another normative document.	или частично в другом нормативном документе. Посредством этого второго документа он может быть либо использован в производстве, торговле и т.д., либо вновь принят в еще одном нормативном документе.	bu yo boshqalar ishlab chiqarish, savdo, foydalanish mumkin, yoki boshqa normativ hujjatda qayta kuchga kirgan.
<p>taking over an international standard (in a national normative document)</p> <p>принятие международного стандарта (а национальном нормативном документе)</p> <p>xalqaro standart (milliy me'yoriy hujjatlar)ni qabul qilish</p>	<p>publication of a national normative document based on a relevant international standard, or endorsement of the international standard as having the same status as a national normative document, with any deviations from the international standard identified</p> <p>NOTE The term "adoption" is sometimes used to cover the same concept as "taking over", e.g. "adoption of an international standard in a national standard".</p>	<p>опубликование национального нормативного документа, основанного на соответствующем международном стандарте, или подтверждение, что международный стандарт имеет тот же статус, что и национальный нормативный документ, с указанием любых отклонений от международного стандарта</p> <p>ПРИМЕЧАНИЕ Английский термин «adoption» иногда используется для обозначения того же самого понятия, что и термин «taking over». Например, «adoption of an international standard in a national standard»</p>	<p>Xalqaro standartda har qanday og'ish ko'rsatilgan bilan tegishli xalqaro standart, yoki xalqaro standart milliy normativ hujjat bilan bir xil maqomga yega bo'lgan tasdiqlash, asoslangan milliy normativ hujjatning nashr</p> <p>Izoh: Yenglish muddatli «qabul qilish» ba'zan muddatli «ustida olib», deb bir xil tushunchaga murojaat uchun ishlatiladi. Masalan, «milliy standart xalqaro standart qabul» uchun</p>
application of a normative document	use of a normative document in production, trade, etc.	использование какого-либо нормативного	ishlab chiqarish, savdo va boshqalar bir normativ hujjati

применение нормативного документа		документа в производстве, торговле и т.д.	foydalanish
me'yoriy hujjatni qo'llash			
direct application of an international standard	application of an international standard irrespective of the taking over of that international standard in any other normative document	прямое применение международного стандарта	xalqaro standartlarga bevosita dastur
pryamoye primeneniye mejdunarodnogo standarta xalqaro standartni bevosita qo'llash			
indirect application of an international standard	application of an international standard through the medium of another normative document in which it has been taken over	применение международного стандарта посредством другого нормативного документа, в котором этот стандарт был принят	Bu standart qabul qilindi, unda boshqa me'yoriy hujjat xalqaro standartlarni qo'llash
kosvennoye primeneniye mejdunarodnogo standarta xalqaro standartni bilvosita qo'llash			
11 References to standards in regulations			
11 Sсылki na standarty v reglamentax			
11 Reglamentlarda standartlarga havola			
reference to standards (in regulations)	reference to one or more standards in place of detailed provisions within a regulation	ссылка на один или несколько стандартов вместо детального изложения положений в регламенте	qoidalariga qoidalariga batafsil hisob joyda bir yoki bir necha standartlarga mos yozuvlar
ssылka na standarty (v reglamentax)	NOTE 1 A reference to standards is either		Izoh: 1 yozuvlar majburiy yoki dalolat

<p>standartlar (reglamentlar)ga havola</p>	<p>dated, undated or general, and at the same time either exclusive or indicative. NOTE 2 A reference to standards may be linked to a more general legal provision referring to the state of the art or acknowledged rules of technology. Such a provision may also stand alone.</p>	<p>ПРИМЕЧАНИЕ 1 Ссылка может быть с твердой идентификацией, со скользящей идентификацией или общей, при этом либо обязательной, либо индикативной. ПРИМЕЧАНИЕ 2 Ссылка на стандарты может быть связана с более общим юридическим положением, относящимся к уровню развития техники или признанным техническим правилам. Такое положение может стоять отдельно.</p>	<p>yo bu holda, umumiy yoki aniqlash harakat, mustahkam hisobga olish mumkin. Standartlarga Izoh 2-Yo'naltiruvchi san'at yoki ye'tirof yetilgan texnik qoidalar davlatga taalluqli yana bir umumiy huquqiy qoidalariga bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu vaziyat yolg'iz turolmaydi.</p>
<p>Precision of reference Tochnost ssylok Havolaning aniqligi</p>			
<p>dated reference (to standards) ssылka (na standarty) s tverdoy identifikasiyey qat'iy identifikasiya bilan (standartlarga) havola</p>	<p>reference to standards that identifies one or more specific standards in such a way that later revisions of the standard or standards are not to be applied unless the regulation is modified NOTE The standard is usually identified by its number and either date or edition. The title may also be given</p>	<p>ссылка на стандарты, идентифицирующая один или несколько конкретных стандартов таким образом, чтобы последующие пересмотры стандарта или стандартов имели силу только после внесения изменений в регламент ПРИМЕЧАНИЕ Стандарт обычно идентифицируется с помощью номера и даты издания или номера издания.</p>	<p>standarti yoki standartlari kelajakda tuzatish faqat qoidalariga o'zgarishlar so'ng kuchga yedi shunday bir yoki bir necha muayyan standartlarga belgilaydi standartlarga mos yozuvlar Standartini Izoh odatda bir qator va ye'lon qilingan kundan yoki nashr masalasi bilan tasvirlangan. Bu belgilangan va standart nomi bo'lishi</p>

		Может быть указано и название стандарта.	mumkin.
undated reference (to standards) ssылka (na standarty) so skolzyayuyey identifikasiyey sirpanuvchi identifikasiyalangan (standartlarga) havola	reference to standards that identifies one or more specific standards in such a way that later revisions of the standard or standards are to be applied without the need to modify the regulation NOTE The standard is usually identified only by its number. The title may also be given	ссылка на стандарты, идентифицирующая один или несколько конкретных стандартов таким образом, чтобы последующие пересмотры указанного стандарта или стандартов имели силу без внесения изменений в регламент ПРИМЕЧАНИЕ Стандарт обычно идентифицируется только с помощью номера. Может быть указано и название стандарта.	Bu standarti yoki standartlari kelajakda tuzatish Nizom o'zgartish va qo'shimchalar kiritish holda ta'sir yedi shunday bir yoki bir necha muayyan standartlarga belgilaydi standartlarga mos yozuvlar Izoh: odatda, faqat raqami bilan belgilangan standart. Bu belgilangan va standart nomi bo'lishi mumkin.
general reference (to standards) общая ссылка (na standarty) umumiy (standartlarga) havola	reference to standards that designates all standards of a specified body and/or in a particular field without identifying them individually	ссылка на стандарты, обозначающая все стандарты, принятые конкретным органом и/или в определенной области, без идентификации их по отдельности	alohida-alohida aniqlash holda, organ tomonidan va G' yoki ma'lum bir sohada qabul qilingan barcha standartlari bilan ifodalangan standartlarga mos yozuvlar
Strength of reference Sila sсыlok Havola kuchi			
exclusive reference (to standards) obyazatelnaya sсылka (na standarty) majburiy (standartlarga) havola	reference to standards that states that the only way to meet the relevant requirements of a technical regulation is to comply with the standard(s) referred to	ссылка на стандарты, указывающая, что единственным путем достижения соответствия определенным требованиям технического регламента является	texnik jihatdan tartibga solish muayyan talablarga rioya yerishish uchun yagona yo'l belgilangan standartlarga rioya qilish yekanini ko'rsatib,

		соблюдение указанных стандартов	standartlarga mos yozuvlar
indicative reference standards) (to	reference to standards that states that one way to meet the relevant requirements of a technical regulation is to comply with the standard(s) referred to NOTE An indicative reference to standards is a form of deemed-to- satisfy provision.	ссылка на стандарты, указывающая, что одним из путей достижения соответствия определенным требованиям технического регламента является соблюдение указанных стандартов ПРИМЕЧАНИЕ Индикативная ссылка на стандарты является формой положения, направленного на достижение соответствия.	texnik jihatdan tartibga solish muayyan talablarga rioya yerishish yo'llaridan biri belgilangan standartlarga rioya qilish yekanini ko'rsatib, standartlarga mos yozuvlar Izoh: standartlarga Ko'rsatkichlar yozuvlar rioya yerishish qaratilgan qoidalarning bir shaklidir.
mandatory standard obyazatelnyy standart majburiy standart	standard the application of which is made compulsory by virtue of a general law or exclusive reference in a regulation	стандарт, применение которого обязательно по общему закону или в соответствии с обязательной ссылкой в регламенте	umumiy huquq doirasida yoki qoidalarga majburiy mos yozuvlar muvofiq foydalanish uchun talab qilinadi standart,
Conformity assessment Podtverjdeniye sootvetstviya Muvofqlikni tasdiqlash	The terms and definitions given in ISO/IEC 17000 apply	Для использования настоящего документа применимы термины и определения данные в ИСО/МЭК 17000.	Ushbu hujjatdan foydalanish uchun ISO/IEC 17000 da keltirilgan atamalar va ta'riflar qo'llaniladi

2-ma'ruza.

Termin	O'zbek tilida ta'rifi	Definition in English
SIP (CIP- cleaning-	Uskunalarni yechmay yuvish	cleaning-in-place

in-place)	(dezinfeksiya, sterilizatsiya...)	
Gigiyena	Gigiena (yun. hygieinós, sog‘lom) — tibbiyotning yashash va mehnat sharoitlarining inson salomatligiga ta’sirini o‘rganuvchi hamda kasalliklarning oldini olish, quritish uchun maqbul sharoitlarni ta’minlash, salomatlikni mustahkamlash va umrini uzaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar (sanitariya normalari va qoidalari) ishlab chiqadigan sohasi.	Health (Greek hygieinós, healthy.) - Medicine that studies the impact of living and working conditions on human health and to develop measures (sanitary regulations) aimed at preventing diseases, ensuring optimum living conditions, the promotion of health and the prolongation of life
CIP alkaline	ishqorli detarjen konsentrati	alkaline cleaning concentrate
CIP acid	kislota agenti	kislotali vosita

VII. FOYDALANILGAN ADABIYOT RO'YXATI

MAXSUS ADABIYOT

1. Paul Singh, Dennis R. Heldman. Introduction to Food Engineering *Fourth Edition* / Food Science and Technology International Series. 2009. 864 pages
2. Q.O.Dodayev. Konservangan oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi. Toshkent. Noshir. 2009. - 387 b.
3. CHoriyev A.J. Dodayev K.O. Konsyervalash korxonalarini jihozlari. Toshkyent. O'zbekiston NMIU -2011. – 200 b.
4. Q.O.Dodayev, A.J.Choriyev. Oziq-ovqat ishlab chiqarish va konservalash kimyosi. Toshkent. Iqtisod-moliya. 2010. – 166 b.
5. Dodayev Q.O., Choriyev A.J., Ibragimov A. Go'sht mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarining jihozlari. Toshkent. Sharq. 2007. -192 b.
6. Icmoilov T.A. Sut va sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarini jihozlari. Toshkent. "Yangi nashr". 2012. -256 b.
7. Q.O.Dodayev. Oziq-ovqat mahsulotlarini konservalashdagi texnologik hisoblar. Toshkent. Fan. 2003. – 144 b.
8. Q.O.Dodayev. I.Mamatov. Oziq-ovqat mahsulotlarini konservalash korxonalarining loyihalash asoslari va texnologik hisoblari. Toshkent. Iqtisod-moliya. 2006. -208 b.
9. O'.R.Qo'chqorov. CHorvachilik mahsulotlarining davlat standartlariga mosligini aniqlash asoslari. Toshkyent. CHo'lpon. 2003. -240 b.
10. Kuriyazova S.M. Ovqatlanish gigiyenasi.Toshkyent, «YAngi asr avlodi», 2012. -380 b.
11. T.X. Ikromov., O'.R. Qo'chqorov. «CHorva, parranda va baliq mahsulotlarini qayta ishlash tyexnologiyasi». T: «SHarq» 2001. -180 b.
12. Q.Dodayev, H.Nurmuhamedov, A.Choriyev. Quritish texnikasi va texnologiyasi. Toshkent. Iqtisod-moliya. 2010. -160 b.
13. O'.R. Qo'chqorov, T.X. Ikromov. Go'sht va cut mahsulotlari

texnologiyasi. –Toshkent: “Cho’lpon”. 2003. -240 b.

14. Choriyev A.J., Q.O.Dodayev, Icmoilov T.A., D.T.Qoraboyev. Qishloq xo’jalik mahsulotlarini konservalash va saqlash texnologiyasi. Toshkent. “Davr”, 2012. -382 b.

15. Dodayev Q.O., Choriyev A.J., Ibragimov A.G. Xomashyoga dastlabki va issiqlik ishlovi berish texnologiyasi. Toshkent. “Davr nashriyoti”. 2012. -156 b.

16. Dodayev Q.O., Choriyev A.J., Ibragimov A.G. Konserva ishlab chiqarishda sterilizatsiya va pasterizatsiya jarayonlari. Toshkent. “Davr nashriyoti”. 2012. -150 b.

17. Ahrarov U.B., Vakil M.M. «Taom tayyorlash tyexnologiyasi» Toshkent: «Sharq nashriyoti», 2004., 382 b.

18. Ahrarov U.B., Ahrarov Sh.U. «Taom tayyorlash tyexnologiyasi» Toshkent: «Sharq nashriyoti», 2008., 367 b.

19. Fatxullayev A., Musayev X. Go’sht biokimyosi. Toshkent. Iqtisod-moliya. 2010. – 151 b.

20. Dodayev Q.O., Choriyev A.J., Gulyamova Z.J., Mamatov Sh.M. Qishloq xo’jalik mahsulotlarini konservalash va spirtli mahsulotlar ishlab chiqarish mashina va jihozlari. O’quv qo’llanma. Toshkent: «Noshir» nashriyoti. 2013. -368 b.

21. Choriyev A.J., Dodayev Q.O. Konsyerva ishlab chiqarishda tyexnik-kimyoviy nazorat. T.: TKTI nashriyoti. 2013, 123 b.

22. Ismoilov T.A. Sut va sut mahsulotlari tyexnologiya va tyexnikasi. T.: TKTI nashriyoti. 2013, 300 b.

26. Ronald S. Jackson. Wine Science, Fourth Edition: Principles and Applications (Food Science and Technology) 4th Edition Academic Press; 4 edition USA. (July 7, 2014). 978 pages.

27. Jancis Robinson. Wines and Spirits; Understanding Style and Quality Wine & Spirit Education Trust. London, 2011. 278 pages.

28. Vasiev M, Dodaev Q, Isabaev I, Sapaeva Z, Gulyamova Z “Oziq-ovqat texnologiyasi asoslari”Toshkent – 2012 y Voris nashriyoti. - 400 b.

29. «Umumiy oziq-ovqat texnologiyasi» fanidan ma’ruzalar matni. Toshkent-2013. TKTI OOMT kafedrası.

30. «Umumiy oziq-ovqat texnologiyasi» fanidan elektron o‘quv uslubiy majmua. Toshkent-2013. TKTI OOMT kafedrası.

31. T.X.Ikromov, O‘.R.Qo‘chqorov. Chorva, parranda va baliq mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi. –T.: Sharq, 2001. -285 b.

32. Ikromov T.X., Qo‘chqorov O‘.R. CHorva, parranda va baliq mahsulotlarini qayta ishlash tyexnologiyasi. –T.: «SHarq», 2001.

INTERNET RESURSLARI

1. <http://www.tan.com.ua>
2. <http://www.cimbria.com>
3. www.all.biz
4. [www. twirpx.com](http://www.twirpx.com)
5. <http://slavoliya.ua>
6. <http://www.oil.jasko.ru/r2.html>
7. www.ovine.ru/cognac/technology.
8. [www. Foodprom. ru](http://www.Foodprom.ru)
9. www.crowniron.com

KORXONA STANDARTLARINI ISHLAB CHIQISH VA YURITISH

Rahbariy hujjatlar va tavsiyanomalarni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash tartibi davlat standarti O‘z DSt 1.8:1994 “O‘z SDT. Rahbariy hujjatlar va tavsiyanomalarni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi” da belgilangan.

Rahbariy hujjatlar va tavsiyanomalar quyidagi hollarda ishlab chiqiladi:

– tashkiliy-metodik yoki umumtexnikaviy tarzda standartlashtirish obyektlariga talablar ushbu obyektlarga xos standartlarni ishlab chiqishdan avval amalda tekshirilishi lozim bo'lgan hollarda;

– metodlarning (mahsulot sifatini tekshirish va sinash metodlari bundan mustasno) xos tashkiliy-metodik standartlari va umumtexnikaviy standartlarining talablarini to'ldirish lozim bo'lganda;

– tashkiliy-metodik tarzda talablar O'z DSt 1.0:1998 (standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish idoralari va xizmatlarining vakolatini belgilovchi rahbariy hujjatlar, standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarni rejalashtirish tartibi to'g'risida, davlat nazorati to'g'risida rahbariy hujjatlar va h.k.) bo'yicha standartlashtirish obyektlari bo'lmagan hollarda;

Rahbariy hujjatlar va tavsiyanomalar amaldagi standartlarning talablarini takrorlamasligi yoki ularga zid kelmasligi lozim.

Rahbariy hujjatlar mazmuniga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- yo'riqnomalar (qoidalar);
- metodik ko'rsatmalar;
- nizomlar (namunaviy nizomlar).

Rahbariy hujjatlar belgilangan amal doirasida va qo'llanish sohasida majburiy bo'ladi.

Rahbariy hujjatlar va tavsiyanomalar amal qilinish doirasiga qarab tarmoqlararo (davlat) va tarmoq xillarga ajraladi.

Rahbariy hujjatlar va tavsiyanomalar davlat va xo'jalik boshqaruv idoralari, shuningdek TQ, STT va tadbirkorlik subyektlari tomonidan, davlat standartlariga o'xshash ishlab chiqiladi.

Tarmoq darajasidagi rahbariy hujjatlar va tavsiyanomalarni tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi rahbariy hujjatlar va tavsiyanomalarni tasdiqlovchi, tarmoq boshqaruv idoralari tomonidan o'rnatiladi.

Rahbariy hujjatlar va tavsiyanomalar amal muddatini cheklamasdan yoki cheklangan muddatga tasdiqlanadi.

Odatda, talablari amalda tekshirilishi lozim bo'lgan rahbariy hujjatlar va tavsiyanomalar cheklangan muddatga tasdiqlanadi.

Tarmoqlararo (davlat darajasida) qo'llanishga mo'ljallangan rahbariy hujjat yoki tavsiyanomalarning belgisi quyidagilardan iborat bo'ladi:

– hujjat indeksi – davlat darajasidagilar uchun O'z RH (O'z T) yoki tarmoq darajasidagilar uchun RH (T);

– O'zstandert Agentligi tomonidan beriladigan, hujjatni tasdiqlagan idoraning ikki darajali shartli belgisi;

– defis bilan ajratilgan, ro'yxatga olish uch darajali tartib raqami;

– ikki nuqta bilan ajratilgan tasdiqlash yilining to'rtta raqami.

Misol:

O'z RH 51-067:1998

O'z T 51-052:1996

1.2. Korxonalar standartlarini ishlab chiqish va yuritish.

Korxonalar standartlarini ishlab chiqish, tasdiqlash, nashr etish va bekor qilish tartibini korxonalar O'z DSt 1.3:1992 O'z SDT. "Korxonalar standartlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi" davlat standartining talablarini hisobga olgan holda o'rnatadi.

Korxonalar standartlari quyidagilarga bo'linadi:

– tashkiliy-metodik;

– ushbu korxonada chiqariladigan mahsulot, jarayon va xizmatlarga, shu jumladan:

1) mahsulotning tarkibiy qismlari, texnologik moslama va asbob;

2) texnologik jarayonlar, shuningdek ularga umumiy texnologik me'yorlar va talablar (atrof muhit, odamlar hayoti va sog'ligi uchun xavfsizlikni ta'minlashni hisobga olgan holda o'rnatiladi);

3) korxonalar ichida ko'rsatiladigan xizmatlar;

4) ishlab chiqarishni tashkillashtirish va boshqarish jarayonlari, mahsulot, (jarayonlar, xizmatlar)ning sifatini ta'minlash, ishlab chiqarishni shakllantirish va

takomillashtirish bo'yicha ishlarni bajarishda tashkillashtirishning umumiy vazifalari.

Korxonalar standartlarini ishlab chiqish O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan korxonalar tomonidan amalga oshiriladi. Zarur bo'lgan hollarda korxonaning buyurtmasi bo'yicha korxonalar standartlarining loyihasi TQ yoki STT ishlab chiqadi.

Chet iste'molchilarga yetkazib berish (xaridga chiqarish) uchun mo'ljallangan mahsulot (jarayonlar, xizmatlar)ga yangitdan ishlab chiqiladigan, qayta ko'rib chiqiladigan korxonalar standartlari va ularga kiritiladigan o'zgartirishlar kelishishligi lozim.

Korxonalar standarti asosiy iste'molchilar bilan kelishiladi va, zarur bo'lganda, kasaba uyushma idoralari, davlat nazorati idoralari, Davarxitekturaqurilish, Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi, yong'indan saqlash, transport tashkilotlari va b. bilan ham kelishiladi.

Korxonalar standartini korxonalar rahbari (rahbar muovini) buyruq va (yoki) standartning birinchi betida imzo chekib, "Tasdiqlayman" grifi bilan tasdiqlaydi. Korxonalar standartini buyruq bilan tasdiqlashda buyruqda standartni amalga joriy etish sanasi belgilanadi va zarur bo'lganda standartni joriy etish bo'yicha tashkiliy-texnik tadbirlar tasdiqlanadi. Xo'jalik yurituvchi subyektning qarori bo'yicha korxonalar standartining amal muddati cheklanishi mumkin.

Chet iste'molchilarga xaridga chiqariladigan mahsulotga korxonalar standarti O'zstandart Agentligi idoralarida davlat ro'yxatidan o'tishi lozim.

Korxonalar standartlarining belgisi quyidagilardan iborat:

- hujjat indeksi – KSt;
- Korxonalar va tashkilotlarning umumdavlat tasniflagichi (QTUT) bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektning sakkiz darajali kodi;
- defis bilan ajratilgan, korxonalar tomonidan berilgan ro'yxatning uchta raqamli tartib nomeri;
- ikki nuqta bilan ajratilgan tasdiqlash yilining to'rtta raqami;

Misol: KSt 00000359-143:2006.

1.3. Texnik shartlar

Texnik shartlarning loyihalari texnik qo'mitalar va standartlashtirish bo'yicha tayanch tashkilotlar tomonidan, shuningdek TQ bilan kelishilgan holda boshqa vakolatli tashkilotlar va korxonalar tomonidan O'z DSt 1.2:1992 "O'z SDT. Texnik shartlarni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi"ga asosan ishlab chiqiladi.

Texnik shartlar ushbu mahsulotga nisbatan qo'llaniladigan yuqoriroq darajali standartlar va texnik shartlar yo'q bo'lganda va talablarni yanada jiddiylashtirish zarur bo'lganda, shuningdek ushbu tarmoqning ikki va bundan ortiq korxonalarida chiqariladigan mahsulotga ishlab chiqiladi Texnik shartlarda o'rnatiladigan talablar ushbu mahsulotga nisbatan qo'llaniladigan amaldagi standartlarning talablaridan past bo'lmasligi va boshlang'ich mahsulot (buyumlar, materiallar, moddalar)ga standartlar va texnik shartlarning talablariga zid kelmasligi lozim.

Texnik shartlarning loyihalari, agar mahsulotni ishlab chiqarishga qo'yish to'g'risida qarorni qabul komissiyasi qabul qiladigan bo'lsa, qabul komissiya bilan kelishib olinadi. Ishlab chiquvchi texnik shartlar loyihasini buyurtmachi (iste'molchi) bilan kelishib oladi va qabul komissiyasi bilan kelishilishi lozim bo'lgan boshqa hujjatlar bilan birga vakillari qabul komissiya tarkibiga kirgan tashkilotlar (korxonalar)ga, komissiyaning ishi boshlanishidan oldin bir oydan kechiktirmay jo'natadi.

Texnik shartlar loyihasini davlat nazorat idoralariga kelishishga va qabul komissiyasining a'zolari bo'lmagan, manfaatdor boshqa tashkilotlarga xulosa uchun jo'natish zarurligini ishlab chiquvchi aniqlaydi.

Mahsulotning tajriba nus'hasi (tajriba to'pi)ni qabul qilinganlik dalolatnomasiga qabul komissiyasining a'zolari tomonidan imzo qo'yilishi texnik shartlar loyihasining kelishilganligini ifodalaydi. Agar mahsulotni ishlab chiqarishga qo'yish to'g'risida qaror qabul komissiyasiz qabul qilinsa, texnik shartlar loyihasi kelishish uchun buyurtmachi (iste'molchi) ga yuboriladi.

Kasaba uyushmasi idoralari, davlat nazorat idoralari, Sog'liqni saqlash vazirligi, Davlat tabiatqo'mitta, Davlat arxitektura qurilish, yonilg'i xavfsizligi, transport tashkilotlari va boshqalarning vakolatlariga tegishli talablarni o'z ichiga olgan texnik shartlarning loyihalari bu tashkilotlar bilan kelishishligi lozim. Boshqa manfaatdor tashkilotlar vakolatiga tegishli talablar mavjud bo'lgan texnik shartlarning loyihalari bu tashkilotlar bilan kelishishligi lozim. Boshqa manfaatdor tashkilotlar vakolatiga tegishli talablar mavjud bo'lgan texnik shartlarning loyihasini kelishish uchun bu tashkilotlarga jo'natish zarurligini ishlab chiquvchi aniqlaydi.

Texnik shartlarning loyihasini kelishish "Kelishilgan" grifi ostida kelishuvchi tashkilot rahbari (rahbar muovini) ning imzosi bilan yoki alohida hujjat (qabul komissiyasining dalolatnomasi, xat, bayonnoma va h.k.) bilan rasmiylashtiriladi. Bunda "Kelishilgan" grifi ostida sana va hujjatning tartib raqami ko'rsatiladi.

Texnik shartlarni ishlab chiquvchi (tayyorlovchi) buyurtmachi bilan kelishilgan holda yoki ishlab chiquvchi (tayyorlovchi) buyurtmachi bilan birgalikda tasdiqlaydi.

Texnik shartlar (texnik shartlarga o'zgartirishlar) ning tasdig'i hujjatning sarvarag'ida "Tasdiqlayman" grifi ostida korxonahbari (rahbar muovini) ning imzosi bilan rasmiylashtiriladi.

Texnik shartlar buyurtmachi (asosiy iste'molchi) bilan kelishilgan holda ko'pi bilan 5 yil amal muddatiga tasdiqlanadi. Asoslangan hollarda amal muddati cheklanilmasdan tasdiqlanadi.

Kelishilgan va tasdiqlangan texnik shartlar, ushbu texnik shartlarni tasdiqlagan korxonahbari joylashgan joydagi O'zstandart Agentligining idorasiga davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim etiladi.

Texnik shartlar belgisi quyidagilardan iborat bo'ladi:

- hujjat belgisi – TSh;
- davlat va xo'jalik boshqaruv idoralari, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ikki darajali shartli belgisi;

- xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun defis bilan ajratilgan, korxonalar va tashkilotlarning umumdavlat tasniflagichi (KTUT) bo'yicha sakkiz darajali kod;
- ikki nuqta bilan ajratilgan, tasdiqlash yilining to'rtta raqami.

Misol:

Davlat va xo'jalik boshqaruv idoralari uchun TSh 10-01:1998

Asosiy qoidalar O'zbekistonda standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish va olib borishga umumiy talablarni o'rnatadi, O'z SDT ning me'yoriy hujjatlari majmuida asos bo'ladi va O'z DSt 1.0:1998 bilan reglamentlanadi²⁹.

Asosiy qoidalarda keltirilgan asosiy maqsadlar "Standartlashtirish to'g'risida" Qonunda o'rnatilganlarga o'xshaydi.

Standartlashtirish tarmoklararo tizimining davlat va rus tillarida qisqartirilgan nomlari belgilangan:

O'z StDT – O'zbekiston standartlashtirish davlat tizimi – (GSS Uz – государственная система стандаризации Узбекистана);

KNT – konstruktorlik hujjatlarining yagona tizimi – (YeSKD – единая система конструкторской документации);

TNT – texnologik hujjatlarining yagona tizimi – (YeSTD – единая система технологической документации);

MST – mahsulotni sinash tizimi – (система испытанные продукции);

MSKT – mahsulot sifati ko'rsatkichlarining tizimi – (SPKP – система показателей качества продукции);

O'zSMT – O'zbekiston sertifikatlashtirish milliy tizimi – (NSS Uz – национальная система сертификации Узбекистана);

NVT – hujjatlarning birxillashtirilgan tizimi – (USD – унифицированная система документов);

²⁹ Исмагуллаев П.Р., Матякубова П.М., Тураев Ш.А. Метрология, стандартлаштириш ва сертификатлаштириш. Дарслик. «Lisson-Press». Тошкент, 2015. -423 б.

NKAST – nashriyot, kutubxona va axborot bo'yicha standartlar tizimi – (SIBID – система стандартов по информации, библиотечному и издательскому делу);

O'z O'DT – O'zbekiston o'lchashlar birliligini ta'minlash davlat tizimi – (GSI Uz – государственная система обеспечения единства, измерения Узбекистана);

MBZENT – materiallar va buyumlarni zanglash va eskirishdan himoyalash yagona tizimi – (YeSZKS – единая система защиты от коррозии и старения материалов и изделий);

MNStT – mehnat havfsizligi standartlari tizimi – (SSBT – система стандартов безопасност труда);

ITTT – ishlab chiqarishni texnologik tayorlashning yagona tizimi – (YeSTPP – единая система технологической подготовки производство);

DHT – dasturiy hujjatlarining yagona tizimi – (YeSPD – единая система программной документации);

QLHT – qurilish uchun loyiha hujjatlari tizimi – (SPDS – система проектной документации для строительство);

TR – texnika puxtaligi – (NT – надёжность в технике);

MYaT – mahsulot yaratish va ishlab chiqarishni tashkillashtirish tizimi – (SRGSh - система разработки продукции на производство);

O'z AT – O'zbekiston akkreditatsiya tizimi – (SA – система аккредитации Узбекистана);

ST – sifat tizimi – (SK – система качества);

TKT – texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotni tasniflash va kodlash yagona tizimi – (YeSKK TESI – единая система классификации и кодирования технико-экономической и социальной информации)

Asosiy qoidalarda standartlashtirishning asosiy vazifalari keltirilgan: iste'molchilar va davlat manfaatlarini ko'zlab, chiqariladigan mahsulotning sifati va nomenklaturasiga maqbul talablarni o'rnatish; parametrik va xil o'lchamlari qatorlarini, asos konstruksiyalarni, konstruktiv-birxillashtirilgan buyumlarning

blok-modul tarkibiy qismlarini belgilash va qo'llanish asosida birxillashtirish; mahsulot, uning elementlari, butlovchi buyumlar, xom ashyo, materiallarning ko'rsatkichlari va tafsilotlarini kelishib olish va o'zaro muvofiqlashtirish; metrologik me'yorlar, qoidalar, nizomlar, talablarni o'rnatish va b.

Standartlashtirishning asosiy prinsiplari ifodalangan, jumladan: standartlashtirishning maqsadga muvofiqligi; standartlashtirishning kompleksligi; barcha darajadagi me'yoriy hujjatlarning o'zaro bir-biriga bog'likligi va kelishilganligi; o'xshash standartlashtirish obyektlariga boshqaruvning turli darajalarida me'yoriy hujjatlarni takror ishlab chiqishga yo'l qo'yimaslik va h.k.

Standartlashtirishning tashkiliy asoslari o'rnatilgan. Standartlashtirish bo'yicha milliy idora – O'zstandart Agentligining vazifalari belgilandi:

- standartlashtirish sohasida milliy siyosatni shakllantiradi va amalga oshiradi;

- davlat va xo'jalik boshqaruv idoralarining standartlashtirish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtiradi;

- standartlashtirish bo'yicha ishlarni o'tkazish umumiy tashkiliy-metodik qoidalarini o'rnatadi;

- me'yoriy hujjatlar, shu jumladan majburiy talablarni o'z ichiga olgan hujjatlar ustidan davlat tekshiruvi va nazoratini amalga oshiradi;

- standartlashtirish sohasida kadrlarni kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlash ishlarini tashkillashtiradi va olib boradi.

Davarxitekturaqurilish, Davtabiatqo'mita, Sog'liqni saqlash vazirligi va boshqa davlat va xo'jalik boshqaruv idoralari o'z vakolatlari doirasida standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkillashtiradi va muvofiqlashtiradi.

Standartlashtirish va me'yoriy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish bo'yicha ishlarga metodik jihatdan rahbarlik qilish uchun xos boshqaruv idoralar O'zstandart Agentligi bilan hamkorlikda standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalar va tayanch tashkilotlar, xo'jalik yurituvchi subyektlarda esa - standartlashtirish xizmatlarini tashkil etadi.

Barcha darajalardagi standartlashtirish obyektlarining batafsil ro'yxati keltirilgan:

- Davlatlararo standartlashtirish obyektlari quyidagilardan iborat:

- umumtexnikaviy me'yorlar va talablar, shu jumladan umum mashinasozlikda qo'llaniladigan buyumlarning (podshipniklar, reduktorlar, mahkamlash buyumlari va boshqalar) yagona texnik tili, xil o'lchamlari qatori va namunaviy konstruksiyalari, axborot texnologiyalarining mos keluvchi dasturiy va texnik vositalari, materiallar va moddalarning xossalari to'g'risida ma'lumotnoma ma'lumotlari, mahsulotni tasniflash va kodlash;

- yirik sanoat va xo'jalik majmuilarining obyektlari (transport, energetika, aloqa va b.);

- yirik davlatlararo ijtimoiy-iqdisodiy va ilmiy-texnikaviy dasturlarning obyektlari, jumladan aholini ichimlik suv bilan ta'minlash, odamlar yashaydigan muhitni tekshirish tizimini yaratish, radioelektron vositalarining elektromagnit mos keluvchanligi, aholi va xalq xo'jaligi obyektlarining xavfsizligini ehtimolni hisobga olgan holda ta'minlash;

- qator davlatlarda chiqariladigan, o'zaro yetkazib beriladigan mahsulot.

2.4. Davlat standartlashtirish tizimida asos soluvchi me'yoriy hujatlarning klassifikatsiyasi

Asos bo'luvchi davlatlararo standartlar faoliyatning ma'lum sohasi uchun umumiy tashkiliy-metodik qoidalarni, shuningdek mahsulotni yaratish va foydalanishda turli fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining o'zaro tushunishini, texnikaviy birliligini va o'zaro aloqalarini, atrof muhitni muhofazalashni, mehnatni muhofazalashni va boshqa umumtexnikaviy talablarni ta'minlaydigan umumtexnikaviy talablarni (me'yorlar, qoidalarni) o'rnatadi.

- Davlat standartlashtirish obyektlari quyidagilardan iborat:

- a) tashkiliy-metodik va umumtexnikaviy me'yorlar va talablar, jumladan:

- standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish va o'tkazish;

- bilim va faoliyatning turli sohalarida terminologik tizimlar;

- texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarni tasniflash va kodlash;

– xavfsizlik texnikasi, atrof muhitni muhofazalash, mehnat gigiyenasi, ergonomika, texnikaviy estetika talablari;

b) mahsulotga majburiy talablar;

v) tarmoqlararo ehtiyojga mo'ljallangan mahsulot;

g) davlat ahamiyatidagi xo'jalik obyektlarining elementlari, shu jumladan bank tizimi, transport, aloqa, energetik tizim, mudofaa va h.k

d) davlat ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy dasturlarning obyektlari (elementlari);

- Tarmoq standartlashtirish obyektlariga tarmoqni tashkil etish va boshqarish, sifatni ta'minlash, tarmoqqa mo'ljallangan mahsulot me'yorlari va qoidalari kiradi.

- Ma'muriy-hududiy standartlashtirish obyektlariga hududni boshqarish, hudud uchun xos mahsulot sifatini ta'minlash bo'yicha me'yorlar va qoidalar kirishi mumkin.

- Korxonalarda standartlashtirish obyektlariga quyidagilar kiradi:

- chet iste'molchilarga xaridga chiqariladigan mahsulot;

- ishlab chiqarishni tashkillashtirish bo'yicha me'yorlar va qoidalar;

- sifatni boshqarish;

- faqat ushbu korxonada tayyorlanadigan va ishlatiladigan detallar va yig'ma birliklar;

- texnologik jihoz va asboblari, texnologik me'yorlar, talablar va ushbu korxonadagi namunaviy texnologik jarayonlar;

- ko'rsatiladigan xizmatlar.

O'zbekistonda qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar:

- davlatlararo standartlar;

- O'zbekiston davlat standartlari;

- tarmoqlar standartlari;

- texnik shartlar;

- ma'muriy-hududiy standartlar;

- korxonalarining standartlari.

Standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlarga shuningdek rahbariy hujjatlar, me'yorlar va qoidalar (qurilish, sanitariya, ekologik qoidalar va b.), tavsiyalar, texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborot tasniflagichlari ham kiradi.

Xalqaro va hududiy standartlar O'z DSt ISO/IEC 21:2001 bo'yicha O'zbekiston davlat standartlariga qayta rasmiylashtirilib qo'llaniladi.

Chet el standartlari – O'z DSt 1.7:1998 bo'yicha qayta rasmiylashtiriladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida O'zbekiston davlat standartlari Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Ixtiyoriy me'yoriy hujjatlarni qo'llanish (amal qilish) maqsadida respublikada texnik reglament mavjud bo'lganda qo'llanilishi majburiy bo'lmagan me'yoriy hujjatlar ishlab chiqiladi.

Me'yoriy hujjatlarni belgilash tartibi o'rnatilgan:

a) davlat ahamiyatidagi me'yoriy xujjatlar:

- O'zbekiston davlat standarti – O'z DSt;
- O'zbekiston umumdavlat tasniflagichi – O'z DT
- O'zbekiston rahbariy hujjati – O'z RH
- O'zbekiston tavsiyanomalari – O'z T.

b) tarmoq darajasidagi me'yoriy hujjatlar:

- tarmoq standarti – TSt;
- tarmoq tasniflagichi – TT;
- texnik shartlar – TSh;
- rahbariy hujjat – RH;
- tavsiyalar – T.

v) ma'muriy-hududiy ahamiyatdagi me'yoriy hujjatlar:

- ma'muriy-hududiy standart – MNSt ;
- tavsiyanomalar – T.

g) korxonah ahamiyatidagi me'yoriy hujjatlar:

- texnik shartlar – TSh;
- korxonah standarti – KSt.

Demak, barcha darajadagi me'yoriy hujjatlarning belgisi hujjat matnining qaysi tilda yozilganligidan qat'iy nazar, davlat tilida lotin yozuvidagi qisqartmalar (abbreviaturalar) bilan belgilanadi.

Abbreviaturalar quyidagilarni ifodalaydi:

O'z – O'zbekiston

D – Davlat

T – Tasniflagich, Tarmoq, Tavsiyanoma

R – Rahbariy

H – Hujjat, Hududiy

Sh – Shart

K – Korxonah

M – Mamuriy

St – Standart

Davlatlararo standart belgisi (GOST) rus tilida saqlanadi. Standartlar darajasi, ularning tasdiqlash darajalari va O'z SDT standartlarining turlari 4.1-rasmdagi sxemada keltirilgan.


Xalq iste'moli nooziq mollarini tayyorlash va haridga chiqarish uchun namunalari (etalonlar) ning texnik tavsiflarini ishlab chiqish ruxsat etiladi. Texnik tavsiflar davlat

ro'yxatidan o'tkazilmaydi, chunki ular ushbu guruhdagi bir turli mahsulotga umumiy talablarni o'rnatuvchi me'yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqiladi.

Xaridga chiqariladigan mahsulotga barcha darajadagi me'yoriy hujjatlar O'zstandart Agentligining idoralarida davlat ro'yxatidan o'tkaziladi. Davlat ro'yxatidan o'tmagan me'yoriy hujjatlar haqiqiy bo'lmaydi. Mahsulotga me'yoriy hujjatlar, odatda, har besh yilda, agar boshqa muddat urnatilmagan bulsa, qaytadan ko'rib chiqiladi.

Import qilinadigan mahsulot O'zbekiston hududida amaldagi me'yoriy hujjatlarda o'rnatilgan majburiy talablarga muvofiq kelishi lozim. Bu sertifikat bilan tasdiqlanadi.

Me'yoriy hujjatlarsiz mahsulot ishlab chiqarish va xaridga chiqarish ruxsat etilmaydi.



1.1-rasm. Standartlar darajalari, ularni tasdiqlash darajalari va O'z SDT standartlarining turlari

Me'yoriy xujjatlarni nus'halash tartibi Asosiy qoidalarda belgilangan. Me'yoriy hujjatlarni va ularga kiritilgan o'zgartirishlarni nashr va qayta chop etish bu hujjatlarni tasdiqlagan (qabul qilgan) tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

Standartlashtirish bo'yicha xalqaro, davlatlararo va hududiy tashkilotlarning me'yoriy hujjatlarini O'zbekiston hududida nashr va qayta chop etish huquqi O'zstandart Agentligiga berilgan.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda standartlar ustidan davlat tekshiruv va nazorati qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Adabiyotlar:

1. Henk J. de Vries Standardization: A Business Approach to the Role of National Standardization Organizations. Springer Science+Business Media, LLC, New York All Rights Reserved © 2000 Springer, 330 p.
2. Dr. Peter Hatto Standards and Standardization. Handbook. EUROPEAN COMMISSION, Directorate-General for Research Industrial Technologies Pictures © Shutterstock, 2010, 24 p.
3. Role of standards. A guide for small and medium-sized enterprises. Working paper. United nations industrial development organization, Vienna, 2006, 56 p.
4. Abduvaliyev A.A., Latipov V.B., Umarov A.S., Alimov M.N., Boyko S.R., Xakimov O.Sh., Xvan V.I. Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifat. O'quv qo'llanma. Toshkent, SMSITI, 2008. – 267 b.
5. Ismatullayev P.R., Matyakubova P.M., Turayev Sh.A. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. Darslik. «Lisson-Press». Toshkent, 2015. - 423 b.
6. www.ima.uz
7. vtww.academy.uz
8. www.standart.uz
9. www.smsiti.uz
10. www.uza.uz

ОТЗЫВ
на модуль «Стандартизация пищевых продуктов» для переподготовки и
повышения квалификации педагогических кадров в Ташкентском
химико-технологическом институте
авторов Ахунджанова К.А., Акбарходжаева З.А.

Модуль «Стандартизация пищевых продуктов» состоит из рабочей программы, модулей по обучению интерактивными методами, теоретических и практических материалов, банка кейсов, глоссария и списка используемых источников литературы.

В теоретических материалах приведены основные понятия о стандартизации и ее роли в экономике страны; роли и значении международных, региональных и национальных организаций по стандартизации; о разработке, утверждении, согласовании и принятии стандартов; а также положения Закона РУз «О техническом регулировании»; правила разработки и принятия технических регламентов; подходы к гармонизации с международными требованиями по безопасности пищевых продуктов.

На практических занятиях предусмотрено изучение целей и задач, научных основ и принципов стандартизации РУз; структур органов и служб по стандартизации, государственного управления по стандартизации; порядка разработки государственных стандартов и их внедрение, нормативных документов по государственной системе стандартизации РУз, методических основ по стандартизации; основ стандартизации в сфере услуг; разработке нормативных документов, их видов, сущности и структуры нормативных документов; технического регулирования, прав и обязанностей экспертных советов по разработке технических регламентов; системы менеджмента качества и принципов менеджмента качества; требований системы менеджмента безопасности пищевых продуктов (ISO 22000:2018) и др.

В банке кейсов приведена информация для кейсов, задачи кейсов, задания и этапы выполнения кейсов и др. Глоссарий содержит определения специальных слов (терминов) на английском, русском и узбекских языках. В списке используемых источников литературы приведено более 40 наименований книг, учебников, статей и др.

Таким образом разработанный авторами Ахунджановым К.А., Акбарходжаевым З.А. модуль «Стандартизация пищевых продуктов» соответствует требованиям, предъявляемым к переподготовке и повышению квалификации педагогических кадров в ТХТИ.

Рецензент

Доцент кафедры физико-химических методов сертификации продукции
Белорусского государственного технологического университета, к.т.н., доцент



З.Е. Егорова

СВЕДЧАК:	СВЕДЧАК:
Начальнік аддзела	кадраў БДТУ
17 " 03 2024 г.	